ONA TILI
7

O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr



Toshkent – 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO‘K 811.512.133(075.3)
KBK 81.2(5O')ya72
O-58

Tuzuvchilar:
Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov,
Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov

Xalqaro ekspert:
Iannuzzi Susan

Taqrizchilar:

Alijon Hamroyev	–	Buxoro davlat universiteti boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor.
Jasur Tirkashev	–	Samarqand viloyati Oqdaryo tumanidagi 52-IDUM ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.
Mashrabxon Rahmonova	–	Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahridagi 33-maktabning oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Ona tili [Matn]: 7-sinf uchun metodik qo‘llanma / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.–192 b.

ISBN 978-9943-8376-0-7

© Respublika ta’lim markazi, 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

MUNDARIJA




Ijtimoiy tarmoqlar 9



Turon yo‘lbarsi 25



C vitamini 42




Kelajak kasblari 57




Maqsadli xarajatlar 76


5 Kirish



Zamonamiz qahramonlari 17



Qutb yulduzi 34



Kurash – milliy sport turi 49



Veterinar 67



Bobomning pensiyasi 83

www.idum.uz saytidan yuklab olindi



Fizika hayotni yengillashtiradi 92



99 Elektromobil



Tutilmay gapiraman 107



115 Yozuvchi bo‘lish osonmi?



Ochiq osmon ostidagi muzey 122



131 Temiryo‘llar



“Boburnoma” – memuar asar 141



148 “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali



Oliy Majlis 158



166 Mualliflik huquqi

KIRISH

Psixolingvistik tadqiqotlardan ma’lumki, insonning til qobiliyati to‘rt xil kognitiv malakaning o‘zaro bog‘liqligida rivojlanadi: eshitib tushunish, fikrini og‘zaki bayon qilish, o‘qib tushunish, fikrini yozma bayon qilish. Eshitib tushunish va gapirish og‘zaki nutq shakli bilan bog‘liq, o‘qib tushunish va yozish esa tilning yozma shakli bilan. Eshitib tushunish va o‘qib tushunish psixologik tomondan nutqni qabul qilish jarayoni, gapirish va yozish esa nutq yaratish jarayonidir. Mazkur malakalarning har biri insonning turli a’zolari yordamida yuzaga chiqar ekan, ularning har biri o‘zaro bog‘liqligi bilan birga, bir-biridan farqli ekanligiga e’tibor qaratish zarur.

Eshitib tushunish

Eshitish insonning lisoniy qobiliyati shakllanishidagi asosdir. Inson bolasi homilalik davrida eshitishni boshlaydi. Psixolingvistik tadqiqotlarda yangi tug‘ilgan bola o‘z ona tilini boshqa tillardan farqlashi isbotlangan. Inson tilni eshitib qabul qiladi, shu asosda inson ongida til tizimi shakllanadi. Maktab yoshiga yetgan bola o‘z muloqot tajribasi doirasida eshitib tushunish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Ona tilini o‘zlashtirish borasida qilingan tadqiqotlardan ma’lumki, bola oilada ota-onasi va boshqa kattalar tomonidan qo‘llangan so‘zlar va gaplarni o‘zlashtiradi. Demak, maktabga kelgan bolalarning lisoniy tajribasi bir-biridan farq qiladi. Maktabga kelgan bola o‘zi ko‘nikkan lisoniy muhitdan butkul farq qiluvchi muhitga tushadi va shunga mos ravishda unga yuklangan kommunikativ vazifa ham o‘zgaradi. U endi nutqni qisqa bitta yo ikkita gap hajmida emas, dars mavzusi doirasida qurilgan kattaroq hajmdagi og‘zaki nutqni eshitib tushunishi, unda aytilgan masalalarni bilim sifatida o‘zlashtirishi lozim bo‘ladi. Bolada birinchi qiyinchilik tug‘diradigan narsa bu bola dekodlashi, ya’ni tushunishi kerak bo‘lgan lisoniy birlik tuzilish jihatdan murakkabroq va hajman kattaroq bo‘ladi. Bolaning ongi bu o‘zgarishga moslashishi uchun eshitib tushuniladigan materiallar soddadan murakkabga qarab berib borilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, bolada eshitib tushunish mashq qildirilishi kerak. Eshittirilayotgan matnning diqqat talab qiladigan qismlariga urg‘u bergan holda bolaga topshiriq berish unda eshitish davomida diqqatni ushlash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Tushunish jarayoni o‘rganilganda shu narsa ma’lum bo‘lganki, eshituvchining emotsionalligi va stereotiplari sabab eshituvchi berilgan matnni to‘liq eshitmasligi mumkin. Bu ham eshitib tushunishga xalal beradigan holat bo‘lgani uchun o‘rta maktabdagi mashg‘ulotlar davomida alohida e’tibor talab qiladi. Bola tushunishda yo‘l qo‘ygan xatolar muntazam ravishda ko‘rsatilsa va xatoning asosi tushuntirib borilsa, bola tushunish jarayonini ongli ravishda boshqarishga o‘rganadi.

O‘qib tushunish

Maktabda birinchi sinfda harflar va yozma matnni o‘qish o‘rgatiladi. Keyinchalik o‘qish darslarida matnni o‘qib tushunish ko‘nikmasiga e’tibor qaratiladi. 5-sinfdan keyin matnni tushunish faqat adabiyot darslari bilan cheklanadi. Ona tili darslarida ham ba’zan matndan parchalar beriladi, ammo ular bevosita o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilmagan. Adabiyot fani badiiy matn bilan ishlaydi. Badiiyat obrazlar bilan ish ko‘rar ekan, unda matnda qo‘llangan vositalarni to‘g‘ri dekodlash

masalasiga alohida e’tibor qaratilmaydi. Ona tili fani doirasida esa grammatik qonun-qoidalar matndan uzib olingan alohida gaplar misolida tushuntiriladi, matnni til birligi sifatida o‘rganish, tahlil qilishga ko‘p e’tibor qaratilmaydi.

Matnni o‘qib tushunish murakkab psixolingvistik jarayon bo‘lib, grafemalarni tanish, so‘zni o‘qish, so‘zning lug‘aviy ma’nosini, kontekstual ma’nosini anglash, sintaktik strukturani to‘g‘ri hal etish (ya’ni so‘zlarning o‘zaro munosabati, qaysi so‘z gapdagi asosiy tushunchani, qaysilari unga tobe tushunchalarni ifodalayotganini anglash), shuningdek, matn mazmuniy bloklarining o‘zaro bog‘lanishini tushunish kabi darajalardan iborat bo‘ladi . Mazkur darajalar matnni tushunish, uning mazmuniy proyeksiyasini ongda hosil qilgunga qadar kechadigan jarayonlar bo‘lib, matnni o‘qib chiqqan har bir o‘quvchi mazkur darajalardan o‘tib matnni to‘liq tushunadi deb bo‘lmaydi. Har bir o‘quvchining qabul qilish qobiliyati har xil bo‘lgani uchun matnni bir xilda o‘qib chiqqanlar tushunishning har xil darajasida turgan bo‘ladi. O‘qituvchi ushbu darajalarni yaxshi bilsa, savollar yordamida o‘quvchining qaysi darajada turganini aniqlashi, matnni yaxshiroq tushunishi uchun yo‘nalish berishi mumkin bo‘ladi. Ona tili darsliklaridagi matn bilan ishlash mashqlari ham mazkur nazariy ma’lumotga asoslanishi lozim. Masalan, matnni tushunishning dastlabki darajasi assotsiativ daraja bo‘lsa, unda o‘quvchida matn mavzusi, matn uslubi va matndagi so‘zlarga assotsiatsiyalar yuzaga keladi. Keyingi daraja bu leksik-morfologik daraja bo‘lib, bunda o‘quvchi matndagi so‘zlarni va ularning ma’nosini tushunadi. Uchinchi daraja kontekstual daraja bo‘lib, unda so‘zlarning kontekstual ma’nolari anglashiladi. Fikrimizcha, matn bilan bog‘liq mashqlarda aynan shu uchinchi darajaga ko‘proq urg‘u berilishi kerak, chunki unda so‘zlarning matn ichida qanday ma’noda kelayotgani anglashiladi, demak, so‘zlar alohida birlik darajasidan matn mazmunining tarkibiy qismi darajasiga ko‘tariladi. O‘quvchiga matnda ma’lum tushunchani ifodalayotgan so‘zlarni va so‘z birikmalarini topish, matndagi jumlani o‘z so‘zlari bilan ifoda etish kabi topshiriqlarni berish so‘zning kontekstual ma’nosiga yaxshiroq e’tibor qaratishga undaydi. Shu kabi mashqlar asosida bolada matnni diqqat bilan o‘qish ko‘nikmasi shakllanib boradi.

O‘QITUVCHILAR UCHUN YO‘RIQNOMA

Kirish

- O‘quvchilarni mavzuga olib kirish, yangi mavzu haqida tasavvur uyg‘otish maqsadida savol bilan murojaat qilinadi;
- savollar umumiy tarzda hamma o‘quvchiga beriladi, istagan o‘quvchi javob berishi mumkin;
- bu qismda keltirilgan savollarga javob berishda o‘quvchidan qo‘shimcha bilim talab qilinmaydi;
- ularning savol yuzasidan dastlabki tushunchalari tinglanishi, so‘ngra fikrlari to‘ldirilib, savolning javobi izohlab berilishi lozim.

Og‘zaki nutq (jadval, chizma, sxema, xarita, infografika) asosida suhbat

- O‘quvchilarning diqqati jamlanadi;
- rasmda nima tasvirlangani so‘raladi;
- har bir o‘quvchining berilgan tasvir yuzasidan javobi tinglanadi;
- rasm asosidagi savollar bilan murojaat qilinadi;
- o‘quvchilarning javobini tinglab bo‘lgach, rasm haqida umumiy tushuncha beriladi.
- o‘quvchilarning og‘zaki nutqidagi kamchiliklar qayd etib boriladi.

O‘qib tushunish. Matn bilan ishlash. Tahlil

- O‘quvchilar diqqati jamlanadi;
- matnni o‘qishdan avval matnga olib kiruvchi savollar bilan murojaat qilinadi;
- matn sarlavhasi va muallifi bilan tanishtiriladi;
- matnni o‘qib bo‘lishgach, matn mazmuni so‘raladi;
- o‘quvchilarda matn haqida tasavvur paydo bo‘lgach, baland ovozda matn ifodali qilib o‘qib beriladi.

Tinglab tushunish

- O‘quvchilar diqqati jamlanadi;
- audiomatn ovoz kuchaytirgich orqali o‘quvchilarga eshittiriladi;
- eshittirishga sharoit bo‘lmaganda, baland ovozda ifodali qilib o‘qib beriladi.

Yozma nutq. Matn yaratish. Tahlil

- Berilgan tasvir (rasm, infografika, chizma, sxema, jadval), sarlavha, reja asosida matn yozdiriladi;
- matnning qoralama nusxasini tayyorlash haqida ko‘rsatma beriladi;
- har bir o‘quvchi yozgan matnga munosabat bildiriladi;
- matn tuzilishi, mazmuni, gap qurilishi tekshiriladi;
- har bir o‘quvchining yozma savodxonligi, gaplarni bir-biriga bog‘lashi, tinish belgilaridan foydalanishi tekshiriladi;
- har bir o‘quvchining yozganlari hamda xato va kamchiliklari yuzasidan munosabat bildiriladi;
- matnni tahrir qilib, qayta yozish o‘rgatiladi.

Lingvistik bilim (orfografiya, fonetika, leksikologiya, leksikografiya, morfologiya, sintaksis, uslub)

- Har qanday lingvistik bilim matn va mavzu mohiyatiga singdirilgan holda o‘tiladi;
- topshiriq sharti o‘quvchilarga tushuntiriladi;
- har bir o‘quvchining mustaqil bajarishi nazorat qilinadi;
- o‘quvchilar topshiriqni bajarib bo‘lishgach, ular tekshirilib, munosabat bildiriladi;
- har bir topshiriqning javobi aytilib, izohlanadi;
- o‘quvchilarga amaliy topshiriq orqali lingvistik bilim beriladi.

Muhokama

- Savol-javoblarda ko‘proq o‘quvchi ishtirok etishi ta’minlanadi.
- o‘quvchilar javob berishga qiynalganda, aniq javobga yo‘naltiruvchi savollar beriladi;

• savol takror kelsa ham, har bir o‘quvchining savol yuzasidan fikri tinglanadi;
• o‘quvchilarning og‘zaki nutqidagi kamchiliklar qayd etib boriladi;
• o‘quvchilar javob berayotganda gaplari bo‘linmay, fikrlari tinglanadi;
• savol-javob yakunlangach, har bir savolning javobiga izoh beriladi;
• o‘quvchilar yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklarga munosabat bildiriladi.

Qoida

• O‘quvchilarga berilgan nazariy ma’lumot bilan tanishib chiqishlari aytiladi;
• nazariy ma’lumot baland ovozda ifodali qilib o‘qib beriladi;
• o‘quvchilardan nazariy ma’lumot orqali nimani tushunganlari so‘raladi;
• o‘quvchilar fikri tinglangach, keltirilgan nazariy ma’lumot misollar bilan tushuntirib beriladi.

Test

• Testning javobini daftarda belgilash aytiladi;
• har bir o‘quvchi mustaqil ravishda bajarishi nazorat qilinadi;
• o‘quvchilar testni ishlab bo‘lgach, birgalikda tahlil qilinadi;
• to‘g‘ri javob qaysiligi va nima uchun to‘g‘riligi aytiladi;
• noto‘g‘ri javoblar nima uchun xato ekani izohlab beriladi.

Xulosa

Uyga vazifa

• Dars davomida o‘tilganlarni takrorlab olish uchun savol-javob o‘tkaziladi;
• uyga vazifa sharti tushuntiriladi;
• vazifani qanday bajarish haqida ko‘rsatma beriladi;
• har bir o‘quvchining uy ishlari tekshirilib, munosabat bildiriladi.

Eslatma: *ushbu qo‘llanmada berilgan ko‘rsatmalarga amal qiling; har bir nutqiy mavzuning maqsadi bilan tanishing; topshiriq nimaga qaratilgani, o‘quvchilarning qaysi ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qilishini bilib oling hamda ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirishga alohida urg‘u bering.*






IJTIMOIY TARMOQLAR

Nutqiy mavzuning maqsadi: ijtimoiy tarmoqlar va ulardan foydalanishga doir ko‘rsatmalar, axborot xavfsizligi, diagramma ko‘rinishida berilgan ma’lumotlarni o‘qib tushunish, ularni tahlil qilish, bir shaklda berilgan ma’lumotlarni ikkinchi shaklda ifodalash; ijtimoiy tarmoqlar, ulardan foydalanish, matnda mavjud bo‘lgan so‘z va so‘z birikmalarining ma’nolari ustida ishlash; tinglab tushunish, mavzu yuzasidan shaxsiy qarashlarini dalillar asosida ifodalay olish; fikrni tartib bilan ifodalashda qo‘llanadigan til birliklari, ularni qo‘llash, yozma nutq bilan bog‘liq imlo va tinish belgilarining qo‘llanishiga oid lingvistik bilimlar.

1-soat



IJTIMOIY TARMOQLAR

Bu mavzuda o‘rganamiz

• ijtimoiy tarmoqlar va ulardan foydalanishga doir ko‘rsatmalar • axborot xavfsizligi • olinma so‘zlar imlosi • diagrammani tushunish • fikrni dalillar bilan asoslash.

Rasmdagi belgilarga diqqat bilan qarang va savollarga javob bering.

1. Qaysi belgilar sizga tanish? Ular haqida qanday ma’lumotga egasiz?
2. Ijtimoiy tarmoqlarning hayotimizga ta’siri haqida fikr bildiring.
3. Ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalarda muloqot odobi deganda nimani tushunasiz?
4. Siz ham biror ijtimoiy tarmoqdan foydalanasizmi? Javobingizni izohlang.

1. Ijtimoiy tarmoqlar nomini yozing va talaffuz qiling.

Namuna “Telegram”, ...

5

Dars jarayoni

Kirish:

1. Ijtimoiy tarmoqlar deganda nimani tushunasiz?

2. Bugungi kunni ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur etish mumkinmi? Uning inson hayotida qanday o‘rni bor?

Asosiy qism:

Og‘zaki nutq.

Rasmdagi belgilarga diqqat bilan qarang va savollarga javob bering.

Darslikda ijtimoiy tarmoq sahifalarining rasmi berilgan. O‘quvchilar ushbu rasmlar bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng rasm ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Muhokama

1. Qaysi belgilar sizga tanish? Ular haqida qanday ma’lumotga egasiz?

Berilgan ijtimoiy sahifalar o‘quvchilarga notanish emas, o‘quvchilar o‘zlariga tanish va kundalik hayotda foydalanayotgan ijtimoiy tarmoq sahifalarining nomini aytishi hamda undan nima maqsadda foydalanishi haqida ma’lumot berishi lozim. So‘ngra o‘qituvchi ushbu ijtimoiy tarmoqlarning nomini aytib o‘tishi maqsadga muvofiq.

2. Ijtimoiy tarmoqlarning hayotimizga ta’siri haqida fikr bildiring.

Bu savol o‘quvchilar shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishlariga qaratilgan. Bunda ijtimoiy tarmoqlarning foydali va zararli tomonlarini farqlab aytib bera olishga e’tibor qaratiladi. O‘quvchilarga ijtimoiy tarmoqlardan o‘rinli foydalanishga oid yo‘naltiruvchi savollar berib borilishi maqsadga muvofiq.

3. Ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalarda muloqot odobi deganda nimani tushunasiz?

O‘qituvchi avval o‘quvchilarning bu boradagi fikrini so‘raydi. So‘ng muloqot odobiga rioya qilingan va ushbu qoidalar buzilgan bir nechta vaziyatni taqdim eti-

shi, imkon qadar ushbu vaziyatlar o‘quvchilarning kundalik hayoti bilan bog‘liq holda berilishi lozim. Bu o‘quvchilarga *so‘z qo‘llash, so‘zlarni to‘g‘ri yozish, imlo va uslub singari qoidalarning qanchalik ahamiyati borligi* haqida xulosalar chiqarish imkonini berishi kerak.

4. Siz ham biror ijtimoiy tarmoqdan foydalanasizmi? Javobingizni izohlang.

O‘qituvchi o‘quvchilardan o‘zlari foydalanadigan ijtimoiy tarmoq va undan nima maqsadda foydalanishayotgani haqida so‘raydi. O‘quvchilarning imkon qadar muloqotda erkinlikni his qilishiga erishish kerak. Bu borada muayyan qoidalarga rioya qila olishi yoki buning aksi ekanligi haqida suhbatlashish yordamida har bir o‘quvchi o‘ziga o‘zi baho bera olishi maqsadga muvofiq.

Orfografiya. Orfoepiya

Ijtimoiy tarmoqlar nomini yozing va talaffuz qiling.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning ijtimoiy tarmoq nomlari, uning talaffuzi hamda imlosini o‘zlashtirishlariga qaratilgan. O‘quvchilar kundalik faoliyatida foydalanadigan hamda rasm asosidagi suhbat davomida o‘zlashtirgan ijtimoiy tarmoqlarning nomini yozishlari lozim. O‘quvchilar yozib bo‘lgach, ijtimoiy tarmoq nomlari xattaxtada yozilib, har bir o‘quvchiga navbat bilan talaffuz qildiriladi, o‘zlaridagi xatolikni tuzatib, to‘g‘ri variantini ko‘chirib olishlari aytiladi.

Masalan, “Telegram”, “Facebook”, “Messenger”, “Snapchat”, “YouTube”, “Duo”, “Instagram”, “TikTok”, “Gmail”... kabi.

Yozma nutq. Matn yaratish

Berilgan diagramma bilan tanishing. Uni matn ko‘rinishida yozing.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning diagrammada berilgan ma’lumotni tushunishi hamda yozma matn ko‘rinishida ifodalash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarga diagramma bilan tanishib chiqishlari aytiladi. Undagi ma’lumotlarni tushunishlari uchun yo‘naltiruvchi savollar berish maqsadga muvofiq. *Masalan, “Diagramma nimaga oid? Uning mazmunini sarlavhadan anglash mumkinmi?, Diagramma qanday qismlardan iborat?, Chap tarafda qanday ma’lumotlar berilgan? Uning diagrammaga qanday aloqasi bor?”... kabi.*

Orfografiya

Yozishmalardagi xatoliklarni to‘g‘rilang, suhbatni quyidagi qoliplardan birini tanlab, yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning xatolarni tanqidiy ko‘ra olish, imloviy, uslubiy, punktuatsion xatolarni aniqlab, ularni tuzatib yozish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilar berilgan xabarnomani o‘qib undagi xatoliklarni aniqlab, xaridor va sotuvchi suhbatini qayta tiklab yozishlari kerak.

Uyga vazifa

Sintaksis. Punktuatsiya

Matndagi gaplar yakunini aniqlab, mos tinish belgilarini qo‘ying. Bo‘sh o‘rinlarga zarur til birliklarini qo‘yib, matnni ko‘chiring.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning gap va uning chegarasini aniqlash, tinish belgilari va til birliklarining qo‘llanishi bilan bog‘liq lingvistik ko‘nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan.

O‘quvchilar matnni o‘qib chiqib, gaplarning chegarasini aniqlashlari, qo‘yish uchun berilgan til birliklaridan mosini tanlashlari lozim. Bunda tanlovlarini asoslab berishlariga e’tibor qaratiladi.

Javob:

*Smartfon, planshet va noutbuklar hayotimiz**ning** ajralmas qism**iga** aylanib ulgurdi. Ular **bilan** odamlar hayot**iga** ijtimoiy tarmoqlar tushunchasi ham kirib keldi. Bugungi kun odamlarining*

ish faoliyati ***ham,*** *shaxsiy hayotlari* ***ham*** *ijtimoiy tarmoqlar* ***bilan*** *bevosita bog‘liq. Olimlar zamonaviy gadjetlar* ***hamda*** *ijtimoiy tarmoqlar****ning*** *inson ruhiy salomatligiga ta’sirini o‘rganish* ***uchun*** *qiziqarli tadqiqotlar o‘tkazishgan.*

2-soat



Matndagi gaplar yakunini aniqlab, mos tinish belgilarini qo‘ying. Bo‘sh o‘rinlarga zarur til birliklarini qo‘yib, matnni ko‘chiring.

Smartfon, planshet va noutbuklar hayotimiz___(-ni/-ning) ajralmas qismi___(-da/-ga) aylanib ulgurdi ular ___ (uchun/bilan) odamlar hayoti__(-dan/-ga) ijtimoiy tarmoqlar tushunchasi ___ (ham/hatto) kirib keldi bugungi kun odamlari___(-ni/-ning) ish faoliyati ___ (bilan/ham) shaxsiy hayotlari ____ (ham/kabi) ijtimoiy tarmoqlar ____ (hamda/bilan) bevosita bog‘liq olimlar zamonaviy gadjetlar ____ (yoki/hamda) ijtimoiy tarmoqlar___ (-ning/-ni) inson ruhiy salomatligiga ta’sirini o‘rganish _____ (haqida/uchun) qiziqarli tadqiqotlar o‘tkazishgan.

Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

Ba’zan “Tilning suyagi yo‘q deb, gapiraverasanmi?” degan tanbehni eshitamiz. Tilda har gapni gapirishga to‘siq bo‘luvchi suyak yo‘q ekan, qo‘lda-chi? Qo‘llarimizda suyak bormi? Bugun biz shu qo‘llar orqali istagan mulohazamizni yozishga kirishdik. Nega dildagini yozuvga ko‘chirish ishini suyaklar nazorat qilolmayapti? Suyak bir o‘xshatish xolos, aslida har bir harakatimiz miya – aql, shu qatorda yurak – qalb orqali boshqariladi. Ammo nechun aqlimiz va qalbimiz har gapni bitishga izn berdi?..

... Har kim o‘z fikrini ifoda etish huquqiga ega. Deylik, kimdir internetdagi sahifasiga hayotiy qarashlarini, o‘y-maqsadlarini yozib qo‘ydi. Matn ostiga internet foydalanuvchilaridan biri o‘z mulohazasini bitadi, keyingisi unga qarshi chiqadi, fikr egasiga ham darrov javob qaytariladi, qarabsizki, dahanaki jang!

... Bir-birini hayotda ko‘rmagan, yuzma-yuz muloqot qilmagan, ko‘cha-ko‘yda ko‘rib qolgan taqdirda ham, tanimay o‘tib ketuvchi kishilar monitor qarshisida bir-biri bilan qirpichoq bo‘ladi. Lekin bularning bari reallikda sodir bo‘lmagani sabab tomonlar o‘zini ayblamaydi, ongli ravishda urush chiqarib, haqoratli so‘zlar ishlatganidan vijdoni qiynalmaydi.

... Guruh yoki sahifalarda bahs boshlansa, har kim sherigini mot qilish, tortishuvda g‘olib bo‘lishga chiranib, lug‘atidagi eng ta’sirchan so‘zlarni ishlatadi. Fakt keltiradi, misol aytadi, bular ish bermasa, haqorat qiladi. Tushunmaydiki, munozarada ustun kelgan inson emas, balki befoyda tortishuvga kirishmagan odam g‘olibdir.

7

Dars jarayoni

Kirish

Ayting-chi, siz uchun og‘zaki muloqot jarayonida qanday qoidalarga amal qilish muhim hisoblanadi?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

O‘quvchilarga berilgan matnni o‘qib chiqishlari aytiladi. So‘ngra matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Muhokama

1. Muallifning til, suyak va qo‘l bilan bog‘liq fikrlarni keltirishdan maqsadi nima?

Bu savol til birliklari orqali o‘xshatish, qiyoslash, nimaga ishora qilinayotganini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar insonlar o‘rtasidagi *og‘zaki va yozma muloqot* haqida gap ketayotganini tushunib, fikr bildirishlari lozim.

2. Dahanaki jang qanday bo‘ladi? Bunday jangning kelib chiqish sababi nima ekan? Matn asosida javob bering.

Bu savol “dahanaki jang” birikmasining ma’nosini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar ushbu birikma haqidagi tushunchalarini matn asosida aytib berishlari kerak. Ularning fikri tinglangach, ushbu birikma haqida ma’lumot beriladi.

Dahanaki jang – og‘zaki janjal, qattiq aytishish, so‘kishish.

3. Hayotda bir-birini mutlaqo tanimaydigan odamlar ham qirpichoq bo‘lishi mumkinmi? Javobingizni izohlang.

Ushbu vaziyat haqidagi tasavvurlar aniqlashtiriladi, buning sabablari va oqibatlari haqida suhbat olib boriladi. Bu borada qanday qoidalarga, insoniy xislatlarga rioya qilish kerakligi bilan bog‘liq tavsiyalar beriladi. Shu o‘rinda e’tiborsizlik va u bilan bog‘liq vaziyatlar haqida ham qo‘shimcha savollar berish, jamiyatdagi muammolarni hal qilishda ishtirok etish odobi bilan tanishtirish zarur.

4. “Munozarada ustun kelgan inson emas, balki ana shu tortishuvga kirishmagan odam g‘olib”. Muallifning ushbu fikriga qo‘shilasizmi? Nima uchun?

Muallifning ushbu fikri tahlil qilinadi. O‘quvchilar bu savolga “Ha” yoki “Yo‘q” deb javob berishlari mumkin. Bunda o‘z fikrlarini asoslab berishlariga e’tibor qaratiladi.

5. “Bir og‘iz kalomni taroziga solish, qizg‘anish” qanday holatlarda namoyon bo‘ladi?

Bu savol muallif ushbu birlik orqali nimaga ishora qilayotganini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilarga turli vaziyatlardan misol keltirib, ushbu birlik ma’nosi ochib berilishi lozim. Masalan, *kundalik vaziyatda: assalomu alaykum, rahmat, sog‘ bo‘ling, marhamat, xush kelibsiz kabi* birliklarni kerakli o‘rinlarda ishlatish lozimligi haqida tushuntirib o‘tilishi zarur.

6. Chin dildan tabriklash qanday bo‘ladi? Siz ham tayyor tabriklardan foydalanasizmi? Sizningcha, bu to‘g‘rimi? Nima uchun?

Bu savol o‘quvchilar shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishlariga qaratilgan. Javoblar tinglangach, ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lgan tabriklar, bir xil mazmunda yuborilgan tilaklar, ularning insonlar uchun ahamiyati misollar bilan tushuntirilishi lozim. Masalan, do‘sti uchun yozilgan bayram tabrigini ustozi yoki yaqin qarindoshlariga yuborish bir tarafdan to‘g‘ri, ularga bir xil tilak bildirish mumkindir, ammo tilakdagi til birliklari *(senlab yozilgan, “hurmatli do‘stim” deb boshlangan tabrikni ustoziga yoki yaqin qarindoshlariga yuborib bo‘lmaydi)*ga ahamiyat berish kerakligi aytib o‘tilishi zarur.

7. So‘z uvoli deganda muallif nimani nazarda tutgan?

Bu savol muallif maqsadini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar matndan ushbu o‘rinlarni topib, munosabat bildirishlari lozim. Bunda *ularga ijtimoiy tarmoqlarda asossiz tarqalayotgan fikrlarga ergashib, mulohaza qilmasdan fikr yozmasliklari, yolg‘on xabarlarni tarqatmasliklari va shu kabi ijtimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri foydalanish haqida ko‘rsatma berib o‘tilishi* maqsadga muvofiq.

8. Ushbu matn turini aniqlang (hikoya, tasviriy, muhokama). Javobingizni asoslang.

Bu savol matn tuzilishini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar matn mazmuni va shaklidan kelib chiqib, turini aniqlashlari hamda bunday xulosaga kelishlariga sabab bo‘lgan belgilarni tahlil qilib aytishlari lozim.

Javob: *muhokama matni.*

Leksikologiya.

Berilgan so‘zlarga mos izohlarni topib, daftaringizga yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish hamda berilgan birliklar haqida tushuncha hosil qilishlariga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan birliklarni izohi bilan moslashtirib yozishlari lozim. Bunda lug‘atdan foydalanishlariga ruxsat beriladi. Asosiy e’tibor birliklar ma’nosini tushunib olishga qaratiladi.

O‘quvchilardan yana qaysi so‘zlarning izohi bilan tanishish istagi borligi so‘ralishi hamda aytgan birliklarining izohi keltirib o‘tilishi maqsadga muvofiq.

Javob:

- *izn – biror ishni bajarish, amalga oshirish uchun berilgan rozilik;*
- *reallik – aniq mavjud bo‘lgan voqea-hodisa, haqiqat;*
- *haqorat – kishining or-nomusi, shaxsiyatini pastga uradigan, tahqirlovchi ma’no-mazmunli so‘z, gap;*
- *mot qilish – og‘zaki bahsda raqibini yengish;*
- *fakt – biror narsa haqida xulosa chiqarish, qat’iy bir fikrga kelish uchun xizmat qiladigan asos, dalil.*

O‘qib tushunish

Matnga mos keluvchi sarlavhalarni aniqlab, yozing. Yana qanday sarlavhalarni tanlagan bo‘lardingiz?

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning matn mazmunini tushunish, unga sarlavha tanlay olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilar berilgan sarlavhalarni o‘qib, matn mazmuniga mos keladiganini tanlashlari hamda javoblarini asoslab berishlari kerak.

Bunda berilgan sarlavhalarning har biri tahlilga tortiladi. Ular qaysi jihatdan matn mazmuniga mos kelishi yoki kelmasligi haqida suhbat olib borilishi lozim. Matnga mos keluvchi sarlavhalar tanlanadi. Yana qanday sarlavhalar tanlash mumkinligi haqida o‘quvchilarning fikri so‘raladi.

Punktuatsiya

Matnda qo‘llangan tinish belgilariga e’tibor bering. Ular ishtirok etgan gaplarga bittadan namuna yozing. Ayting-chi, ko‘pnuqta nima uchun qo‘llangan?

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning tinish belgilarining qo‘llanish o‘rinlarini tushunishiga qaratilgan. Bunda ular matn tarkibida qanday tinish belgilari ishlatilganini aniqlab, ularning har biriga matndan bittadan gap yozishlari hamda ko‘pnuqta va uning qo‘llanish o‘rinlarini tushuntirib bera olishlari lozim.

Uyga vazifa


Morfologiya

Ushbu jumlani davom ettirib, kichik matn yozing. Unda quyidagi so‘zlardan foydalanishingiz mumkin: *ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun, va, hamda, yoki, bilan, uchun, kabi.*

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning bog‘lovchi so‘zlar va ularning qo‘llanishiga oid lingvistik bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan.

O‘quvchilar bilan sinfda berilgan jumla mazmuni tahlil qilinadi, uni davom ettirib, qanday fikrlarni qo‘shish mumkinligi haqida og‘zaki so‘raladi. O‘quvchilarga yo‘naltiruvchi savollar berilishi maqsadga muvofiq.

3-soat


1. Aqlli kompyuter sizni qanday tanib oladi?
2. Sun’iy intellekt odamlardek haqiqiy ongga egami? Javobingizni izohlang.
3. Ayting-chi, hozirgi kunda sun’iy intellekt qaysi qurilmalarda bor?
4. Sun’iy intellekt qaysi kasblarning yo‘qolib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin ekan? Bu fikrga qo‘shilasizmi? Nima uchun?

Berilgan gaplarni o‘qing. To‘g‘ri fikrlarni aniqlab, yozing.

1. “YouTube”ning bir xodimi doimiy ravishda sizning qiziqishlaringiz bilan band bo‘ladi.
2. “YouTube” sizni qiziqtirgan mavzularga oid videolavhalarni ko‘rsatadi.
3. Ayrim kasblar yo‘qolib ketishi aniq.
4. Sun’iy intellekt internetda izlagan, ko‘rgan narsalaringizga asosan qiziqishlaringizni aniqlab oladi.
5. Avtomobillar haydovchisiz, sun’iy intellekt orqali boshqarilishi mumkin.

Quyidagi so‘zlarni talaffuz qiling. Imlo qoidalari asosida yozilgan so‘zlarni aniqlang va ko‘chiring.

vidiyo	video
kampyuter	kompyuter
intelekt	intellekt
avtomobil	aftomobil
suhandon	suxandon
haydovchi	xaydovchi
tamirlovchi	ta’mirlovchi
xisobchi	hisobchi
muzlatkich	muzlatgich

10

Dars jarayoni

Kirish

“YouTube” haqida nimalarni bilasiz?

Asosiy qism

Tinglab tushunish

Audiomatn: “Sun’iy intellekt nima?”
Manba: “Jajji akademik” jurnali.

“Sun’iy intellekt” audiomatnini tinglang va savollarga javob bering.

“YouTube”ga kirsangiz, tarmoq sizning qiziqishlaringizga qarab turli videolarni taklif qila boshlaydi. Masalan, siz robot va kompyuterlarga qiziqsangiz, “YouTube” ham shu mavzularga oid videoroliklarni ko‘rsatadi. Qanday qilib? Axir, “YouTube”ning bir xodimi faqat sizning qiziqishlaringiz bilan band bo‘lmaydi-ku? Ha, aslida bu aqlli kompyuter. Uning sun’iy intellekti bor. U sizni kuzatib boradi! Internetda nimalarni

izlaganingiz, nimalarni ko‘rganingizga qarab qiziqishlaringizni aniqlab oladi. Siz internetdan qancha ko‘p foydalansangiz, aqlli kompyuter ham sizni yaxshiroq tanib oladi.

Ko‘pchilik sun’iy intellekt deganda insonlarga o‘xshab fikrlovchi narsani tasavvur qiladi. Ammo sun’iy intellekt biznikiday haqiqiy ongga ega emas. U oddiy dastur xolos. Faqat u shunday yaratilganki, o‘z vazifalarini bajarish yo‘llarini o‘zi mustaqil o‘rganadi va xatolaridan xulosa chiqara oladi. Shu tariqa, sun’iy intellekt borgan sari yaxshilanib, bilimlarini ko‘paytirib boradi. Buning uchun unga insonning ko‘magi deyarli kerak emas.

Hozir sun’iy intellekt deyarli har bir qurilmada bor. Telefoningizda, kir yuvish mashinasida va muzlatkichda. Sun’iy intellektli avtomobillar haydovchisiz ham yurib ketmoqda. Xullas, sun’iy intellekt hayotimizning ajralmas qismiga aylanmoqda. Balki, siz katta bo‘lguncha sun’iy intellekt ham ancha ulg‘ayib, bir necha kasblarning yo‘q bo‘lib ketishiga sababchi bo‘lar. Masalan, suxandonlar, hisobchilar va haydovchilarning keragi bo‘lmay qolar. Ammo sun’iy intellekt yaratuvchi, sun’iy intellekt ta’mirlovchi kabi yangi kasblar paydo bo‘lishi ham tabiiy.

O‘quvchilar audiomatnni tinglab bo‘lganlaridan so‘ng, tinglab tushunishga qaratilgan savollar bilan suhbat boshlanadi.

Muhokama

1. Aqlli kompyuter sizni qanday tanib oladi?

Bu savol audiomatnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. O‘quvchilar bunda sun’iy intellekt nima ekaniga e’tiborini qaratishlari lozim, ya’ni *kompyuterning sun’iy intellekti borligiga. U biz izlaydigan ma’lumotlarni kuzatib borishi hamda shu asosida qiziqishlarimizni aniqlab olishini tushunib, ayta olishlari kerak.* O‘quvchilardan buni so‘zma-so‘z aytishlari talab etilmaydi. Asosiy e’tibor sun’iy intellekt haqida tushuncha hosil qilishlariga qaratiladi.

2. Sun’iy intellekt odamlardek haqiqiy ongga egami? Javobingizni izohlang.

Bu savol o‘quvchilarning matn mazmunidan xulosa chiqarishlariga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan matndan xulosa chiqarib, *sun’iy intellekt biznikiday haqiqiy ongga ega emasligi, u oddiy dastur ekanini tushunib javob berishlari lozim.*

3. Ayting-chi, hozirgi kunda sun’iy intellekt qaysi qurilmalarda bor?

Bu savol audiomatnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan.

Javob: *telefon, muzlatkich, kir yuvish mashinasi.*

4. Sun’iy intellekt qaysi kasblarning yo‘qolib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin ekan? Bu fikrga qo‘shilasizmi? Nima uchun?

Bunda sun’iy intellektning yaratilishi va uning insonlarga berayotgan yordamiga nisbatan o‘quvchilarning munosabatlari aniqlanishi hamda uning ahamiyatini tushunib, fikr bildirishlariga e’tibor qaratiladi.

Test

Berilgan gaplarni o‘qing. To‘g‘ri fikrlarni aniqlab, yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning tinglab tushunish, ma’lumotlarni saralash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan ma’lumotlar bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng audiomatn qayta eshittiriladi. O‘quvchilar tinglash davomida yoki tinglab bo‘lgach, berilgan ma’lumotlarni taqqoslab, to‘g‘ri va noto‘g‘riga ajratishlari, to‘g‘ri ma’lumotni ko‘chirib, noto‘g‘risi nima uchun xato ekanini aytishlari lozim.

Javob:

1. “YouTube”ning bir xodimi doimiy ravishda sizning qiziqishlaringiz bilan

band bo‘ladi. – Noto‘g‘ri.

2. “YouTube” sizni qiziqtirgan mavzularga oid videolavhalarni ko‘rsatadi. – To‘g‘ri.

3. Ayrim kasblar yo‘qolib ketishi aniq. – Noto‘g‘ri (chunki ushbu fikr taxminiy mazmunga ega, keltirilgan jumlada esa “aniq” so‘zi orqali fikr qat’iy tasdiqlangan mazmunga ega).

4. Sun’iy intellekt internetda izlagan, ko‘rgan narsalaringizga asosan qiziqishlaringizni aniqlab oladi. – To‘g‘ri.

5. Avtomobillar haydovchisiz, sun’iy intellekt orqali boshqarilishi mumkin. – To‘g‘ri.

Orfografiya

Quyidagi so‘zlarni talaffuz qiling. Imlo qoidalari asosida yozilgan so‘zlarni aniqlang va ko‘chiring.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning imlo qoidalari va talaffuz bilan bog‘liq lingvistik bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan.

Berilgan so‘zlarning qaysilari to‘g‘ri yozilganligi aniqlangach, xato yozilganlari tahlil qilinadi. Nima uchun aynan ushbu so‘zlar tanlab olinganiga e’tibor qaratiladi.

Javob: *video, kompyuter, intellekt, avtomobil, suxandon, haydovchi, ta’mirlovchi, hisobchi, muzlatkich.*

Yozma nutq

“Sun’iy intellekt” audiomatnidan olgan xulosangiz asosida quyidagi jumlalarni davom ettirib yozing. Fikringizni misollar bilan asoslang.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning matndan xulosa chiqarish, berilgan jumlalarni shakliy va mazmuniy tomondan davom ettira olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilar berilgan fikrlarni o‘qib, mazmunan davom ettirib yozishlari lozim. Bunda audiomatndagi jumlalarni so‘zma-so‘z ko‘chirib yozish talab etilmaydi. Asosiy e’tibor mazmunni tushunib, xulosa chiqarishga, fikrlarini mazmunan bog‘lab ifoda etishlariga qaratiladi.


Uyga vazifa

Yozma nutq

Sun’iy intellektning hayotimizga ta’sirini ikki ustunga ajratib yozing.

Bu topshiriq o‘quvchilarning xulosa chiqarish, ma’lumotlarni mazmunan tahlil qila olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar sun’iy intellekt haqida egallagan bilimlari asosida uning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlab, guruhlarga ajratib yozishlari kerak.

4-soat


Quyidagi ikki ustunda ijtimoiy tarmoqlarning hayotimizdagi o‘rni haqida ma’lumotlar berilgan. Ular bilan tanishib, har bir jihatni asoslash uchun dalillar, hayotiy misollar keltiring.

IJTIMOIY TARMOQLAR

Izlash va muloqotda qulaylik yaratadi.	Ijtimoiy tarmoqlarga bog‘lanib qolish xavfi mavjud.
Oson axborot topish va almashish imkoniyati.	Ijtimoiy yakkalanish, baxtsizlik hissini paydo qiladi.
Shaxsiy tarbiya, o‘z-o‘zini rivojlantirish vositasi hisoblanadi.	O‘z hayotini boshqalarniki bilan taqqoslash ruhiy tushkunlikka olib keladi.
Biznes yuritishda beminnat yordamchi.	Hasad tuyg‘usini uyg‘otadi.
Turli ijtimoiy aksiyalar bo‘lib turadi.	O‘zimizni yomon his qilishimizga olib kelsa-da, yana va yana ularga qaytamiz.
Ijodkorlar va boshqa soha vakillari uchun keng maydon.	Virtual muloqot jonli muloqot o‘rnini bosmaydi.

Ijtimoiy tarmoqlardan qanday maqsadlarda foydalanish mumkin? Bu boradagi qoidalarni tafsilotlar bilan asoslab yozing. Bunda *birinchidan, ikkinchidan* kabi so‘zlardan foydalaning.

Yozgan matningizni sinfdoshingizniki bilan almashing. Uning matni bilan tanishing hamda qisqacha izoh yozing.

Havolada berilgan maqolalar bilan tanishing. Yozgan matningiz bilan solishtiring.

manbalar uchun havola

12

Dars jarayoni

Kirish

Ijtimoiy tarmoqlardan nima maqsadda foydalanasiz?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Quyidagi ikki ustunda ijtimoiy tarmoqlarning hayotimizdagi o‘rni haqida ma’lumotlar berilgan. Ular bilan tanishib, har bir jihatni asoslash uchun dalillar, hayotiy misollar keltiring.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning mavzu yuzasidan shaxsiy qarashlarini dalillar asosida ifodalay olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

O‘quvchilar berilgan ma’lumotlar bilan tanishib chiqib, munosabat bildirishlari zarur. Bunda berilgan ma’lumotlarning har biri alohida muhokama etilishi, o‘quvchilar o‘z fikrlarini imkon qadar misollar asosida tushuntirishga harakat qilishlari lozim. Ulardan nima uchun ijtimoiy tarmoqlar bilan bog‘liq bunday xulosalarga kelingani haqida so‘raladi, salbiy jihatlarning oqibatlari va ularning oldini olish yuzasidan tavsiyalar berish taklif qilinadi.

Yozma nutq

Ijtimoiy tarmoqlardan qanday maqsadlarda foydalanish mumkin? Bu boradagi qoidalarni tafsilotlar bilan asoslab yozing. Bunda *birinchidan, ikkinchidan* kabi so‘zlardan foydalaning.

Bu topshiriq o‘quvchilarning o‘z shaxsiy kuzatishlari asosida xulosa chiqarishlariga qaratilgan. O‘quvchilar dars davomida egallagan bilimlari hamda ijtimoiy tarmoqlarga nisbatan o‘zlarining qarashlarini umumlashtirib, ijtimoiy tarmoqlardan qanday maqsadlarda foydalanish mumkinligiga oid qoida yaratishlari lozim.

Bu jarayonda mavzu yuzasidan fikrlarini tartib bilan ifodalash uchun qanday birliklardan foydalanish kerakligi, ularni yozma nutqda qo‘llash bilan bog‘liq qoidalar yodga olinib, tushuntirib o‘tiladi.

Yozma nutq. Tahlil

Yozgan matningizni sinfdoshingizniki bilan almashing. Uning matni bilan tanishing hamda qisqacha izoh yozing.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning o‘qib tushunish, munosabat bildirish hamda tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Bunda o‘quvchilar o‘zlari yozgan matnlarni o‘zaro almashib tahlil qilishadi. Tahlil qilingan matnlar jamoaga taqdim etilishi mumkin. Tanqidiy fikr ifodalash odobiga rioya qilish qoidalari yodga solinadi. Xatolar ustida ish olib boriladi.

Mazmundor hamda imloviy, ishoraviy jihatdan kamroq xatoga yo‘l qo‘yilgan matnlar namuna sifatida ko‘rsatilishi kerak.

Uyga vazifa

O‘qib tushunish

Havolada berilgan maqolalar bilan tanishing. Yozgan matningiz bilan solishtiring.


Mazkur topshiriq o‘quvchilarning o‘qib tushunish, matnlarni o‘zaro taqqoslab xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Bunda o‘quvchilarga havola orqali kirib, maqola bilan tanishishlari, maqola matnini tahlil qilib, o‘zlari yozgan matn bilan taqqoslashlari hamda ikkala matn yuzasidan chiqarilgan xulosalarni yozma ravishda ifodalashlari tavsiya etiladi. Bu jarayonda mobil qurilmadan foydalanish imkoni bo‘lmagan o‘quvchilarga kitob, gazeta, jurnallardan mavzuga oid maqola topib, munosabat bildirishlari aytiladi.

ZAMONAMIZ QAHRAMONLARI

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilarda zamon qahramonlari; liderlar; ularning oddiy odamlardan farq qiluvchi xislatlari haqida tasavvur hosil qilish; fe’llarning munosabat shakllari; zamon; shaxs-son qo‘shimchalari; ularning ifodalanish usullari; matn bilan ishlash; matndagi so‘zlarda tovush almashishi (tushishi, ortishi) hodisasini aniqlash; matndan ko‘zlangan asosiy g‘oya va matn xulosasini ajrata olishni o‘rganish.

1-soat



Dars jarayoni

Kirish:

1. *Zamonamiz qahramoni deganda nimani tushunasiz?*

2. *Ayting-chi, siz ham o‘zingizni qahramon deb hisoblaysizmi? Nima uchun?*

Asosiy qism:

Og‘zaki nutq.

Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.

O‘quvchilar rasmlar bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng, rasm asosida savollar bilan suhbat boshlanadi.

Muhokama

1. Berilgan soha vakillaridan qay biri siz uchun zamonamiz qahramoni bo‘la oladi? Nega shunday hisoblaysiz?

O‘quvchilar ushbu soha vakillaridan qay birini zamonamiz qahramoni deya olishlarini hamda nima uchun shunday xulosaga kelganlarini misollar bilan izohlab berishlari lozim. Bunda avval o‘qituvchi bolalarga har bir soha vakillarining jamiyat rivojiga qanday hissa qo‘shayotganlarini aniqlashtiruvchi savollar bilan suhbat olib borishi maqsadga muvofiq.

2. Ayting-chi, zamonamiz qahramonlari qaysi fazilati yoki ishlariga qarab belgilanishi kerak?

O‘quvchilar fikrini to‘ldirib, yo‘naltirib boruvchi qo‘shimcha savollar berilishi zarur.

3. Nima deb o‘ylaysiz, bizga qahramonlar nega kerak?

Bu savoldan maqsad o‘quvchilarga *qahramon* birligini kengroq ma’noda tushuntirishdir. O‘quvchilar yuqoridagi javoblar asosida qahramon deb kimni ayta olishlari, ularga xos fazilatlarni sanab o‘tadilar.

4. Sizningcha, yurtimizga, jamiyatimizga qanday qahramonlar kerak?

Asosiy e’tibor nima uchun tanlagan qahramonlarini jamiyat uchun kerakli deb hisoblashlarini asoslab berishlariga qaratiladi.

5. Berilgan soha vakillaridan tashqari yana kimlarni qahramon deb hisoblaysiz? Ularning ismini bilasizmi? Nega ularni qahramon sanaysiz?

Rasmlarda berilgan soha vakillarining har birini qahramon deya olamiz. O‘quvchilar berilgan soha vakillaridan tashqari o‘zlari qahramon deb bilgan soha vakilini va ularga xos qahramonlik jihatlarini aytib berishi lozim.

Bu savol-javoblardan asosiy maqsad o‘quvchilarga soha vakillarining jamiyatimiz hayotida tutgan o‘rni haqida ma’lumot berish, ularni qanday xislatlari uchun zamonamiz qahramoni deyish mumkinligi hamda zamona qahramoni haqida tushuncha hosil qilishdan iborat.

Qoida. Morfologiya

Fe’lning munosabat shakllari haqidagi nazariy bilim misollar bilan tushuntirib berilishi kerak.

Morfologiya. Sintaksis

Bo‘sh o‘rinlarga mos keluvchi ikkitadan kesimni qo‘yib, gaplarni yozing. Kesimlar turli zamon va shaxs-son qo‘shimchalari bilan shakllansa, gap ma’nosi qanday o‘zgarishiga e’tibor qarating.

Bu topshiriq fe’lning munosabat shakllari bo‘yicha olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash hamda noto‘liq matnni kontekstga mos so‘zlar bilan to‘ldirib yozishga qaratilgan.

O‘qituvchi namunada berilgan so‘zlarni xattaxtaga yozib, ular o‘rtasida qanday farq borligini izohlashi lozim. So‘ngra o‘quvchilar berilgan gaplarni o‘qib, uning mazmuniga mos birliklarni ikki xil usulda qo‘llab yozishlari hamda gap mazmunidagi o‘zgarishlarni tahlil qilishlari kerak.

Javob:

*Sportchi yuqori marralarni zabt etib, vatanimiz dovrug‘ini dunyoga **yoyadi** (xabar mazmuni ifodalangan gap).*

*Sportchi yuqori marralarni zabt etib, vatanimiz dovrug‘ini dunyoga **yoysin** (buyruq mazmuni ifodalangan gap).*

*Olim ilm-fan olamida katta ixtirolar qilib, odamlarning turmushini **o‘zgartiradi** (xabar mazmuni ifodalangan gap).*

*Olim ilm-fan olamida katta ixtirolar qilib, odamlarning turmushini **o‘zgartirsin** (buyruq mazmuni ifodalangan gap).*

*Dehqon dasturxonimizni to‘kin-sochin, yurtni boy **qiladi** (xabar mazmuni ifodalangan gap).*

*Dehqon dasturxonimizni to‘kin-sochin, yurtni boy **qilsin** (buyruq, istak mazmuni ifodalangan gap).*

*Jurnalist tun-u kun tinim bilmay, odamlarga dunyodagi yangiliklarni **yetkazadi** (xabar mazmuni ifodalangan gap).*

*Jurnalist tun-u kun tinim bilmay, odamlarga dunyodagi yangiliklarni **yetkazsin** (buyruq, istak mazmuni ifodalangan gap).*

*Siyosatchi xalqni birlashtirib, yagona maqsad sari olg‘a **boshlaydi** (xabar mazmuni ifodalangan gap).*

*Siyosatchi xalqni birlashtirib, yagona maqsad sari olg‘a **boshlasin** (buyruq, istak mazmuni ifodalangan gap).*

*Harbiy vatan sarhadlarini yovuz kuchlardan **himoya qiladi** (xabar mazmuni ifodalangan gap).*

*Harbiy vatan sarhadlarini yovuz kuchlardan **himoya qilsin** (buyruq, istak mazmuni ifodalangan gap).*

Yozma nutq. Matn yaratish

Yuqorida berilgan kasb egalaridan birini tanlang va ta’riflang. Ular qanday qilib zamonamiz qahramoniga aylana olishi mumkinligi haqida yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilar shaxsiy kuzatishlari asosida berilgan soha vakillarini ta’riflab matn yozishlariga qaratilgan. Bunda o‘quvchilarga tibbiyot sohasiga oid holatlarni ifodalovchi rasmlar hamda ta’rif berilgan. O‘quvchilar ushbu namunadan foydalanib yuqorida rasmlari keltirilgan soha vakillaridan birini tanlab, uni ta’riflab yozishlari kerak.

Uyga vazifa

Yozma nutq. Matn yaratish

Badiiy asarlarda ham qahramonlar yashashi haqida bilasizmi? Ijodkor badiiy asar yaratar ekan, u orqali o‘quvchida o‘z zamonasining qahramoni haqida tasavvur uyg‘otishga harakat qiladi. Sizning ham asarlarda tanishgan qahramoningiz bormi? U haqida ma’lumot bering.

Ushbu topshiriq o‘quvchining mustaqil izlanib, ijodiy yondashishiga qaratilgan. Bunda o‘quvchilar o‘qigan badiiy asarlaridan qahramonni aniqlab, ko‘rsatma asosida u haqida ma’lumot yozib kelishlari lozim.

Bunda o‘qituvchi ayrim asarlardan namuna keltirib, ularning qahramonlari, qahramonliklarini misollar bilan asoslab, o‘quvchilarga yo‘nalish berishi kerak.

2-soat

Matnni diqqat bilan o‘qib, savollarga javob bering.

QAHRAMONLAR NEGA KERAK?

1 Inson qahramonsiz, oldinga undab turuvchi mayoqsiz **yashashi** mushkul. Buni kitoblardan ham, tarixdan ham, oddiy odamlarning kundalik hayotidan ham bilib olsa bo‘ladi. Masalan, o‘sha qahramon bo‘lmasa, oilada ham, mahallada ham, xalqda ham suyanadigan tayanch nuqta yo‘qolganday bo‘ladi.

2 Bir kuni tengqurlarim bilan “Zamonamiz qahramoni kim?” degan mavzuda suhbatlashib qoldik. Birov: “So‘nggi urfda kiyinadigan, kamida ikkita tilni biladigan, chet elda o‘qib kelayotgan **yoshlar**”, – desa, yana biri: “Zamonamiz qahramoni degan nomga sportchilarimiz munosib, chunki yurtimiz nomini **dunyoga** yoyishda ularning hissalari ko‘proq”, – dedi. Kimdir dehqonlar desa, kimdir olimlarni, yana kimdir estrada yulduzlarini tilga oldi. Hammamiz o‘zimizcha haq edik.

3 “Zamonamiz qahramoni kim?” deb savol berishning nima hojati bor, barcha davrlar uchun o‘lmas qahramonlar bor-ku, **o‘shanday** insonlarga ergashish, taqlid qilish mumkin, dersiz. Darhaqiqat, necha-necha avlodlar uchun yo‘lchi yulduz bo‘lib kelayotgan, aql-u zakovati, kuch-qudrati, komil fazilati bilan tarixida **o‘chmas** iz qoldirgan buyuklarimiz bor. Birgina Amir Temur bobomiz yoki Jaloliddin Manguberdi nomlarini **tilga** olsak, qalblarimiz faxr-u g‘ururga to‘ladi. Lekin ular shunchalar yuksakdaki, bugungi avlod ularga yeta olishi mushkul. Faqat havas qilish va munosib avlod bo‘lishga harakat qilish imkoni bor, xolos. Qolaversa, hayot tarzimiz, fikrlash yo‘sinimiz o‘rtasida shunchalik katta vaqt masofasi borki, ularni zamonamiz qahramoni sifatida **yonimizda his qilolmaymiz.**

4 Bizning ham o‘zgarishlar, yangilanishlar to‘lqinida kechayotgan o‘z zamonamiz bor. O‘z orzularimiz va armonlarimiz, o‘z g‘alabalarimiz va mag‘lubiyatlarimiz **bor.** Shular ichida biz o‘z zamonamiz qahramonini ham izlaymiz. Ichimizdan biz bilan bir xil imkoniyatga ega bo‘la turib, bizdan o‘zib ketgan, dunyoni o‘zgacha idrok etishi, favqulodda qobiliyati, irodasi, aql-u zakovati bilan bizni hayratga soladigan, **ortidan** ergashtiradigan zamonamiz qahramonlari chiqishini xohlaymiz.

Ibrohim Aziz



Dars jarayoni

Kirish

O‘qigan badiiy asaringiz qahramonlarini aniqladingizmi? Ularning qahramonliklari nimada ekan?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Matnni diqqat bilan o‘qib, savollarga javob bering.

Matn: “Qahramonlar nega kerak?”

Muallif: Ibrohim Aziz

O‘quvchilar matn bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng, matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Muhokama

1. Maqolada inson qahramonlarsiz yashashi mushkul ekani aytilgan. Siz bu fikrga qo‘shilasizmi? Nima uchun?

O‘quvchilar o‘z fikr va mulohazalari bilan asoslab javob berishlari zarur.

2. Siz yana kimlarni “barcha davrlar uchun o‘lmas qahramonlar” deb hisoblaysiz?

O‘quvchilar bunda asosiy e’tiborlarini *“barcha davrlar uchun”* degan birlikka qaratishlari va shu asosda javob berishlari lozim. Bu birlikning ma’nosi matnda ifodalangan. O‘qituvchi o‘quvchilarni ushbu birlik mazmunini tushunishga yo‘naltiruvchi savol berib borishi kerak. O‘quvchilar barcha davrlar uchun o‘lmas qahramon deb kimni hisoblashlari ixtiyoriy, asosiy e’tibor fikrlarini isbotlab bera olishlariga qaratiladi.

3. “Darhaqiqat, necha-necha avlodlar uchun yo‘lchi yulduz bo‘lib kelayotgan, aql-u zakovati, kuch-qudrati, komil fazilati bilan tarixda o‘chmas iz qoldirgan buyuklarimiz bor”. Mazkur gapdagi “yo‘lchi yulduz”ni qanday tushunish kerak? Nega tarixiy shaxslar yo‘lchi yulduzga o‘xshatilgan?

Bu savol matndagi birlikning kontekstual ma'nosini tushunishga qaratilgan. O'quvchilar ushbu birlikni matn mazmunidan kelib chiqib izohlashlari lozim. Ularning fikri tinglangach, ushbu birlikning kontekstual ma'nosi matn mazmunidan kelib chiqib, o'qituvchi tomonidan izohlanadi:

Yo'lchi yulduz – yo'l ko'rsatuvchi, rahnamo.

4. Tarixiy shaxslar hamda bugungi odamlarning hayot tarzi va fikrlash yo'sini o'rtasida qanday tafovutlar bor deb o'ylaysiz?

Bu savol matndan olingan xulosani o'z shaxsiy kuzatishlari asosida izohlashga qaratilgan. Javob matnda qisman ifodalab ketilgan.

5. Maqoladan qanday xulosa chiqardingiz?

Bu savol matnning asosiy g'oyasini tushunish, ma'lumotlarni integratsiya qilib, xulosa chiqarishga qaratilgan. O'quvchilarning matndan olgan xulosalari turli xil bo'lishi mumkin. Asosiy e'tibor xulosalarni matn mazmuni doirasida asoslab berishga qaratiladi.

Test

Matn asosida berilgan testlarni yeching. Javoblarni kitobga belgilamang.

Ushbu testdan maqsad – o'quvchining o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish. Bundan tashqari, o'quvchilarda test bilan ishlash ko'nikmasi rivojlantiriladi.

1. To'g'ri javob: B

Ushbu test matnning bosh g'oyasini tushunishga qaratilgan. Variantlarda berilgan hukmlarning har biri matnda keltirilgan. Ammo ular matnning bosh g'oyasi bo'la olmaydi. Ular matnda ma'lumot sifatida keltirilgan birliklar bo'lib, matnning qaysidir qismini izohlagan. Matnning bosh g'oyasi matndagi ma'lumotlar asosida xulosa qilib chiqariladi. Matn mazmunidan kelib chiqib, inson qahramonsiz, oldinga undab turuvchi mayoqsiz yashashi mushkul ekan degan xulosaga kelish mumkin.

2. To'g'ri javob: C

Ushbu test matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma'lumotni tushunishga qaratilgan. O'quvchilar ushbu o'rinni matndan topib, variantlarni izohlab, to'g'ri javobni topishi lozim.

3. To'g'ri javob: C

Ushbu test matndagi birlikning kontekstual ma'nosini topishga qaratilgan. Variantlarning har biri "mayoq" so'zining izohi bo'la oladi. O'quvchilar asosiy e'tiborlarini gapga qaratib, ushbu gap mazmunidan kelib chiqib, mayoq so'zining qaysi ma'nosi qo'llanganini topishlari hamda fikrlarini asoslab berishlari kerak.

4. To'g'ri javob: D

Ushbu test matn qismlarini tushunishga qaratilgan. O'quvchilar berilgan hukm matnning qaysi qismida yoritilganini topishi lozim. Matndagi *"Shular ichida biz o'z zamonamiz qahramonini ham izlaymiz. Ichimizda biz bilan bir xil imkoniyatga ega bo'la turib, bizdan o'zib ketgan, dunyoni o'zgacha idrok etishi, favqulodda qobiliyati, irodasi, aql-u zakovati bilan bizni hayratga soladigan, ortidan ergashtiradigan zamonamiz qahramonlari chiqishini xohlaymiz"* ifodasi orqali 4-qismda degan xulosaga kelish mumkin.

Leksikologiya

Berilgan so'zlarning ma'nolari bilan tanishing. Bu so'zlar matnda qanday ma'noda qo'llanayotganini aniqlang va ko'chiring.

Mazkur topshiriq o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga qaratilgan. O'quvchilar jadvalda berilgan so'zlarning ma'nolari bilan tanishib, matnda ushbu so'zlarning qaysi ma'nosi qo'llanganligini topishlari kerak. Bunda asosiy e'tibor so'zning kontekstual ma'nosini tushu-

nishga qaratiladi. O‘quvchilar fikrlarini matn asosida izohlab berishlari lozim.

Javob:

kundalik – kunda bo‘lib turadigan, odatdagi holat, hodisa;

qahramon – biror voqea-hodisa va uning sodir bo‘lishiga sababchi bo‘lgan yoki uning sodir bo‘lishiga hissa qo‘shgan inson;

yulduz – elga tanilgan, shuhrat qozongan shaxs;

davr – biror-bir avlod yashagan yoki yashayotgan vaqt, zamon.

Sintaksis

Yuqoridagi so‘zlarning boshqa ma’nolarini qo‘llab gaplar tuzing.

Bu topshiriqda o‘quvchilar yuqorida berilgan so‘zlar va ularning izohlariga diqqatlarini qaratib, ushbu so‘zlarning matndan anglashilmaydigan ikkinchi ma’nolarini aniqlab, ushbu ma’noga mos gap tuzib yozishlari kerak.

Bu topshiriq o‘quvchilarning so‘z ma’nosini tushunish hamda uni kontekstda to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan.

Yozma nutq. Matn bilan ishlash

Matn qismlari uchun reja tuzib, yozing.

Bu topshiriq matn qismlarini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar matnda berilgan ma’lumotlar asosida qaysi qismda nima berilganini anglab, unga reja tuzib, yozishlari lozim. Bu jarayonda o‘qituvchi qismlar ma’nosiga mos savollar berib, o‘quvchilarni yo‘naltirib turishi maqsadga muvofiq.


Uyga vazifa

Yozma nutq. Matn yozish

O‘zingizga yoqadigan tarixiy shaxs va uning qahramonliklari haqida “Tarixdagi qahramonlar” mavzusida matn tuzing. Quyidagi ko‘rsatmalardan foydalaning.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning mustaqil izlanib, ijodiy yondashishlariga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan ko‘rsatma asosida matn yozib kelishlari kerak. Bunda o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga yo‘naltiruvchi savollar berilishi kerak. *Masalan: “Qanday mashhur tarixiy shaxslarimiz bor?”* kabi.

3-soat



Ushbu so‘zlarni matnda kelganidan boshqa ma’noda qo‘llab gaplar tuzing.

yosh	til	yon	dunyo	o‘ch	ort	bor

Birinchi matnda gaplarni o‘zaro bog‘layotgan birliklarni aniqlang.

1 Inson qahramonsiz, oldinga undab turuvchi mayoqsiz yashashi mushkul. Buni kitoblardan ham, tarixdan ham, oddiy odamlarning kundalik hayotidan ham bilib olsa bo‘ladi. Masalan, o‘sha qahramon bo‘lmasa, oilada ham, mahallada ham, xalqda ham suyanadigan tayanch nuqta yo‘qolganday bo‘ladi.

2 Har bir davrning o‘z qahramonlari bor. Insonlar o‘z davrlaridagi qahramonlarga intilib, o‘z qahramonlariga o‘xshashga harakat qilib yashaganlar. Qahramon insoniy fazilatlari bilan, xatti-harakatlari bilan boshqa insonlardan ajralib turuvchi shaxs bo‘lgani uchun oddiy insonlar ulardan ibrat olib yashaydi. Qahramonga intilib yashash insonga o‘z orzu-istaklarini aniqlashtirib olishga, maqsad sari harakat qilishga, qanday fazilatlar sohibi bo‘lishi kerakligi bilan bog‘liq o‘y-xayollarini tartibga solishga yordam beradi.

Quyidagi vositalardan foydalangan holda ikkinchi matnni bog‘lanishli matnga aylantirib ko‘chiring. Matndagi takroriy so‘z va jumlalarni, uslubiy g‘alizlikni tuzatishga harakat qiling.

Menimcha, ularga, qolaversa ...

Matn tarkibida ko‘k rang bilan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarda uchraydigan fonetik hodisalarga e’tibor bering. Jadvaldagi so‘zlar bilan tanishib, ularda uchraydigan fonetik hodisalarni namunadagidek tahlil qilib yozing.

Yosh+a – yasha (tovush almashishi)
O‘sha+day – o‘shanday (tovush ortishi)
Qila olmaymiz – qilolmaymiz (tovush tushishi)

Tovush ortishi	Tovush tushishi	Tovush almashishi
achchiq	qayril	angla
unda	ikkala	qaynoq
shunday	susay	to‘quvchi

20

Dars jarayoni

Kirish

1. *So‘zlar qanday qismlardan tashkil topadi?*
2. *Bir so‘zga ko‘plab ma’no yuklash mumkinmi? Misollar bilan izohlang.*

Asosiy qism

Morfologiya

“Qahramonlar nega kerak?” matnida qora bilan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni o‘zak va qo‘shimchaga ajrating. Ushbu

so‘zlarning o‘zaklari shakldosh so‘zlar sanaladi. Dastlab ularning matndagi ma’nosini, so‘ng boshqa ma’nosini namunadagidek yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning matnni lingvistik tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar matnda ajratilgan gaplarni aniqlab, ularni namunadagi singari o‘zak va qo‘shimchalarga ajratib olishlari, so‘ngra ularning shakldosh ma’nolarini topib izohlashlari lozim.

Bu jarayonda o‘qituvchi tomonidan so‘zlar xattaxtaga yoziladi hamda o‘quvchilar *so‘z o‘zagi haqidagi* ma’lumotlarni takrorlab olishlari uchun namunadagi so‘z tahlil qilib tushuntiriladi.

O‘quvchilar so‘zning shakldosh ma’nolarini topishda lug‘atdan foydalanishlari mumkin. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning so‘z ma’nosini tushunishi hamda uni ma’no mazmuniga mos kontekstda qo‘llay olishiga qaratiladi.

Leksikologiya. Sintaksis.

Ushbu so‘zlarni matnda kelganidan boshqa ma’noda qo‘llab gaplar tuzing.

Bu topshiriq so‘z ma’nosini tushunish, so‘zning ma’no-mazmuniga mos kontekst tuza olishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan so‘zlarni matn tarkibidan aniqlab, ular qatnashgan gaplarni o‘qib, ma’nosini izohlashlari lozim. Bu jarayonda o‘qituvchi matndagi ushbu so‘zlar qanday ma’noda kelganini izohlab borishi maqsadga muvofiq. Keyingi bosqichda o‘quvchilar ushbu so‘zlarning shakldosh ma’nolarini topib, gap tuzib yozishlari kerak. Bunda lug‘atdan foydalanishlari mumkin. So‘zning ma’no-mazmunini tushunish va uni mos kontekstda qo‘llay olishlariga asosiy e’tibor qaratiladi.

O‘qituvchi topshiriqni bajarish davomida o‘quvchilarning fikrini to‘ldirib, bu so‘zlarning shakldosh ma’nolari haqida izoh berib borishi maqsadga muvofiq.

Sintaksis

Birinchi matnda gaplarni o‘zaro bog‘layotgan birliklarni aniqlang.

Mazkur topshiriq matnni tushunish, matn tarkibidagi so‘zlarni bog‘lovchi birliklarni aniqlashga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan ikki matnni o‘zaro taqqoslab o‘qib, ularning mazmuniy bog‘lanishi o‘rtasidagi farqlarni aniqlashlari lozim. O‘quvchilar birinchi matn tarkibidagi gaplarni o‘zaro bog‘laydigan birliklarni aniqlab, yozishlari kerak. Mashqni mustaqil bajarib bo‘lganlaridan so‘ng, o‘qituvchi tomonidan matn qayta o‘qib izohlab berilishi lozim.

Bu yerda *ohang; takror qo‘llangan “ham” yuklamasi; “masalan” kirish so‘zi; -sa shart bog‘lovchisi kabilar matnning mazmuniy bog‘lanishida asosiy rol o‘ynagan*.

Yozma nutq. Matn bilan ishlash

Quyidagi vositalardan foydalangan holda ikkinchi matnni bog‘lanishli matnga aylantirib ko‘chiring. Matndagi takroriy so‘z va jumlalarni, uslubiy g‘alizlikni tuzatishga harakat qiling.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning matn bilan qayta ishlash, tahrir qilish hamda matn mazmuniga mos til birliklaridan foydalanib matnni qayta yaratish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Bu yuqoridagi topshiriqning mantiqiy davomi bo‘lib, o‘quvchilar berilgan 2-matnni tahrir qilib, qayta yozishlari zarur. Bunda matndagi g‘aliz jumlalar, takrorlarning oldini olib, berilgan birliklardan foydalanib, matnni qayta to‘ldirib yozishlari kerak. Bu jarayonni ikkala matnni taqqoslab bajarishlari mumkin.

Fonetika. Morfemika

Matn tarkibida ko‘k rang bilan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarda uchraydigan fonetik hodisalarga e’tibor bering. Jadvaldagi so‘zlar bilan tanishib, ularda uchraydigan fonetik hodisalarni namunadagidek tahlil qilib yozing.

Mazkur topshiriq so‘zning morfemik tuzilishi, asos va qo‘shimchalar imlosi, so‘zlarning yasalishini tushuntirishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayonni amaliy topshiriq orqali shakllantirish maqsad qilingan. O‘qituvchi tomonidan matnda ajratib berilgan namunadagi so‘zlar tahlili tushuntiriladi. So‘ngra jadvalda keltirilgan so‘zlarni ma’nosiga ko‘ra asos va qo‘shimchalarga ajratib, ulardagi fonetik hodisani aniqlash aytiladi.

Jadvalda qanday fonetik hodisa kuzatilishi tartiblab berilgan, o‘quvchilar shuni tushunib, so‘zni namunadagidek tahlil qilib, so‘zda qaysi tovush tushgan, qaysi tovush ortgan va qaysi tovush almashganini aniqlab, yozishlari lozim.

Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarning yozganlarini tekshirib, so‘zlarning yasalishi va undagi fonetik hodisalarni birma-bir xattaxtada izohlab berishi maqsadga muvofiq.

Javob:

Achchiq – achi + -iq = ch tovushi ortgan.

Unda – u + -da = n tovushi ortgan.

Shunday – shu + -day = n tovushi ortgan.

Qayril – qayir + -il = i tovushi tushgan.

Ikkala – ikki + -ala = i tovushi tushgan.

Susay – sust + -ay = t tovushi tushgan.

Angla – ong + -la = o tovushiga a ga almashgan.

Qaynoq – qayna + q = a tovushi o ga almashgan.

To‘quvchi – to‘qi + -(u)vchi = i tovushi u ga almashgan.

Uyga vazifa

Morfologiya

“Qahramonlar nega kerak?” matnining 2-qismida ishtirok etgan fe’llarning zamon va shaxs-sonini o‘zgartirib, ko‘chiring.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning matnni lingvistik tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarga shaxs-son va zamon haqida oldingi darslarda nazariy bilimlar berilgan, shu bilimlarni takrorlab olishlari uchun savol-javob o‘tkazilishi maqsadga muvofiq. So‘ngra o‘quvchilar matnning 2-qismini qayta o‘qib, shaxs va zamon qo‘shimchalarini o‘zgartirib, ushbu qismni qayta yozishlari kerak.

Bu jarayondan o‘quvchilarga bir axborotni turli zamonlarda ifodalash, fikrni turli ko‘rinishda yetkazish mumkinligi haqida ma’lumot berish maqsad qilingan.

4-soat

Dars jarayoni

Kirish

Bir xil mazmundagi axborotni turli ko‘rinishda ifodalash mumkinmi? Fikringizni misollar bilan asoslang.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Xalqimizga xizmat qilayotgan, yurtimizni dunyoga tanitayotgan shaxslar faoliyati bilan tanishing. Savollarga javob bering.

O‘quvchilar matn bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng, matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Muhokama

1. Ayting-chi, siz yuqoridagilardan kimni zamonamiz qahramoni deb bilasiz? Nima uchun?

Bu savol keltirilgan ma’lumotlarga shaxsiy kuzatishlar asosida javob berishga qaratilgan. O‘quvchilarga turli soha vakillari haqida ma’lumot berilgan. O‘quvchilar ushbu ma’lumotlar bilan tanishgan holda qaysi bir yurtdoshimizni zamonamiz qahramoni deb bilishlarini fikr va mulohazalari bilan asoslab berishlari lozim.

2. Zamonamiz qahramoni mashhur odam bo‘lishi kerakmi yoki oddiy odam?

Bunda o‘quvchilar o‘z fikrlarini misollar bilan tushuntirib berishlari lozim. O‘qituvchi bu jarayonda oddiy odam ham jamiyatga foydasi tegadigan ishlar bilan tanilishi, bu esa uni zamonamiz qahramoniga aylantirishi mumkinligini aytib o‘tishi kerak.

3. Sizning yon-atrofingizda ham zamonamiz qahramonlari bormi? Nega ularni qahramon deb bilasiz?

Bu savolga o‘quvchilar hayotiy kuzatishlari asosida javob berishlari lozim. Masalan, maktab o‘quvchilari orasida sportga, kinoga va biror fanga qiziqadiganlari, ularning sevib kuzatayotgan, unga o‘xshashni orzu qiladigan insonlari bo‘lishi mumkin. Shu insonlar qanday qilib ularning qahramonlariga aylandi? Buni o‘quvchi o‘zi havas qilgan shaxsiy sifatlar misolida izohlab, aytib berishi kerak.

4. Zamonamiz qahramonining eng muhim sifatlarini nimalarda ko‘rasiz?

Bunda o‘quvchi dars davomida o‘zlashtirgan bilimlarini xulosalash hamda hayotiy kuzatishlari asosida qahramonlarga xos qanday sifatlar bo‘lishi zarurligini tushunib, aytib berishi kerak.

Leksikologiya

Matnlar tarkibida uchraydigan olinma so‘zlarni ajratib yozing. Ularning talaffuzi va imlosiga e’tibor bering.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan matn tarkibidan olinma so‘zlarni aniqlab, ularni talaffuz qilishlari hamda ma’nosini aytib, izohlashlari lozim. Bunda o‘qituvchi dastlab savollar bilan olinma so‘zlar haqidagi bilimlarni mustahkamlab olishi maqsadga muvofiq. So‘ngra o‘quvchilarni navbatma-navbat xattaxtaga chiqarib, matndan olinma so‘zlarni aniqlab, talaffuz qilib, xattaxtada yozishini aytadi. O‘qituvchi bu jarayonda o‘quvchilarning talaffuzi va imlosini kuzatib, kamchilik kuzatilsa, tuzatib borishi kerak.

Yozma nutq. Matn yaratish

Bugungi kunning qahramoni kim? Qanday insonlarni biz qahramon deb ayta olamiz? Zamonamiz qahramonining qanday sifatlari bo‘lishi kerakligi haqida o‘ylang hamda “Zamonamiz qahramoni kim?” mavzusida esse yozishga tayyorlaning. Essening qoralama nusxasini yozing.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning yozma matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar bilan berilgan savollar asosida suhbat o‘tkaziladi. O‘quvchilar mavzuga kirib olgach, esse yozish uchun ko‘rsatma beriladi:

- *Kimni zamonamiz qahramoni deb bilasiz? Aniqlab oling.*
- *U haqida ma’lumot to‘plang.*
- *Qahramonligini yuzaga chiqaruvchi sifatlarini yozing.*
- *Nima uchun aynan shu insonni zamonamiz qahramoni deya olasiz. Shu xulosaga kelishingizga sabab bo‘lgan o‘rinlarni yozing.*

Uyga vazifa

Yozma nutq. Matn yaratish


Yozgan essengizni tahrir qilib, so‘ng oqqa ko‘chiring. Keyingi darsda ushbu mavzuda taqdimot qilishga tayyorlaning.

Bu yuqoridagi topshiriqning mantiqiy davomi bo‘lib, o‘quvchilar o‘z esselarini qayta tahrir qilishlari, xato va kamchiliklarini aniqlab, qayta yozishlari lozim. O‘quvchilarga uni taqdimot qilib berishga tayyorlanishlari, yozgan matnlaridagi axborotni tushunarli va qiziqarli yetkazib berishlari uchun maxsus nutq tayyorlab, mashq qilishlari aytiladi.

TURON YO‘LBARSI

Nutqiy mavzuning maqsadi: tinglab tushunish, audiomatnda berilgan ma’lumotni yozma ko‘rinishda ifodalay olish; matnning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ravon va ifodali o‘qiy olish; nutqiy mavzu yuzasidan o‘z fikrlarini izchillik bilan, dalliliy tafsilotlarni keltirgan holda yozma nutq yaratish ko‘nikmalarini mustahkamlash; Olmosh va uning qo‘llanishi, nutqdagi ahamiyati bilan bog‘liq lingvistik bilimlarni berish; belgilash olmoshlari, ularning vazifalari va nutqdagi ahamiyati haqidagi mashq va topshiriqlarni bajarish orqali lingvistik ko‘nikmalarni shakllantirish.

1-soat



Dars jarayoni

Kirish

Yangi nutqiy mavzu e’lon qilinadi. Ushbu mavzu doirasida qanday suhbat olib borish mumkinligi haqida o‘quvchilardan so‘raladi. Yer yuzida mavjud bo‘lgan ekologik muammolar haqida kirish suhbati tashkillashtiriladi.

Asosiy qism

Og‘zaki suhbat

Kirish suhbati darslikda berilgan quyidagi savollar bilan davom ettiriladi.

Ushbu suhbat yordamida o‘quvchilar yangi nutqiy mavzuga olib kiriladi, nutqiy mavzu yuzasidan mavjud tasavvurlari aniqlashtiriladi.

1. “Qirilib ketmoq”, “qirib tashlamoq” birikmalari nimani anglatadi? Ularning qanday farqi bor?

Ikkala birikmaning ma’nolari haqida so‘raladi, ularni qanday vaziyatda qo‘llash mumkinligi haqida suhbat olib boriladi. Ushbu birikmalar ma’nolari o‘rtasidagi farq to‘g‘risida so‘raladi.

2. Hayvonlarni qirish qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

Nima uchun hayvonlarni qirish mumkin emasligi, buning oqibatlari haqida so‘raladi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq dalillar asosida tushuntirishga harakat qilishlari kerakligi aytiladi.

3. Sizningcha, foyda keltirmaydigan hayvonlar bormi? Ularni qirib tashlasa bo‘ladimi?

Tabiat va uning ne’matlari, har bir ne’matning tabiat uchun foydasi borligini anglashga qaratilgan suhbat tashkillashtiriladi. Yurtimizda bu borada olib borilayotgan ishlar haqida so‘raladi.

“Chumchuqlarga qiron keltirgan Xitoy” audiomatnini tinglang. Topshiriqlarni bajaring.

Tinglangan matn haqidagi savollarga javob bera olish, unga munosabat bildira olish, eshitganlari asosida xulosa qilish va xulosani dalillar orqali asoslay olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish ustida ishlanadi.

O‘quvchilar audiomatnni tinglashga tayyorlanadilar. Audiomatnni tinglashga kirishishdan oldin o‘quvchilarning e’tibori matn yuzasidan berilgan savollarga qaratiladi.

CHUMCHUQLARGA QIRON KELTIRGAN XITOY

Bundan 64 yil oldin, 1958-yilda Xitoyda dalalardagi bug‘doy hosilini asrash uchun chumchuqlarga qarshi kurash boshlanadi. Mamlakatdagi qariyb barcha chumchuqlar qirib bitiriladi. Shundan so‘ng tabiatdagi muvozanat buzilib, Xitoy qishloq xo‘jaligi katta zarar ko‘radi. Oqibatda bir necha o‘n million odam halok bo‘ladi.

Xitoy Ikkinchi jahon urushidan keyin qoloq bir mamlakat edi. O‘sha paytda mamlakatda ahvol juda og‘ir, oziq-ovqat yetishmovchiligi tufayli millionlab odamlar yo‘qchilikda yashardi. Xitoy hukumati oldida qishloq xo‘jaligi hamda iqtisodiyotda islohotlar o‘tkazish va mamlakatni qoloqlikdan chiqarish vazifasi turardi. Amalda shunday islohotlar o‘tkaziladi. Ammo ularning foydasidan ziyoni ko‘proq bo‘ladi. O‘ylamasdan qilingan ish ortidan uch yilda bir necha o‘n million kishi ocharchilik tufayli halok bo‘ladi.

1957-yil 18-fevral kuni Xitoy kommunistik partiyasining navbatdagi syezdida Xitoyni rivojlantirish bo‘yicha “Katta sakrash” deb nomlangan dastur muhokama qilinadi. Bu dasturning hammualliflaridan biri o‘sha paytda Xitoy ta’lim vazirining o‘rinbosari bo‘lgan biolog Chjou Szyan edi.

U o‘z dasturida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va odamlarning qornini to‘ydirish uchun chumchuqlar va kalamushlarni yoppasiga qirib bitirishni taklif qilgandi. Chjou Szyanning hisob-kitoblariga ko‘ra, mamlakatda yetishtirilayotgan bug‘doyning katta qismini chumchuqlar va kalamushlar yeb qo‘yyapti deb hisoblashadi. Agar ular qirib tashlansa, millionlab odamlarni to‘ydirsa bo‘ladigan bug‘doyni asrab qolish va mamlakat aholisini qashshoqlikdan chiqarish mumkin bo‘ladi.

Kompartiya syezdida otashin nutq so‘zlagan Chjou Szyan o‘z vaqtida Prussiya qiroli Buyuk Fridrix ham shunday yo‘l tutgani va ijobiy natijalarga erishgani haqida gapiradi.

O‘sha paytda mamlakat rahbari bo‘lib turgan Mao Szedunni bu ishga ko‘ndirish qiyin bo‘lmaydi. O‘rta maktab ta’limini oxirigacha yetkazmagan Mao Szedun mamlakatdagi barcha kalamush va chumchuqlarni qirib bitirish qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida tasavvurga ham ega emasdi. Har bir jonzotning tabiatdagi muvozanat zanjirida o‘z o‘rni borligini anglamas edi. Bu ishning salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini bilganlar esa mamlakat rahbari rozilik bildirgan ishga e’tiroz qila olmasdi. Shu tariqa Chjou Szyanning taklifi qabul qilinadi.

1958-yil 18-mart kuni Xitoy kompartiyasining navbatdagi 8-syezdida Mao Szedun nutq so‘zlaydi va mamlakatdagi chumchuqlar va kalamushlarni qirib tashlash rejasining ahamiyatli tomonlari haqida gapiradi. U o‘z nutqida Xitoydagi ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan

tayyorlangan hisobotdan turli raqamlar va misollarni keltiradi. Unga ko‘ra, chumchuqlar har yili 36 million odamning qornini to‘ydirish mumkin bo‘lgan bug‘doyni yeb ketmoqda. Agar ular qirib tashlansa, hosilning salmog‘i keskin ortadi. Shu tariqa Mao Szedun tomonidan chumchuqlarga qarshi kurash e’lon qilinadi.

Shundan so‘ng mamlakat bo‘ylab e’lon beriladi va eng avval dehqonlar ishga kirishadi. Butun Xitoyda chumchuqlarga qiron keltirish boshlanadi. Hukumat barchani shu ishga jalb qiladi. Chumchuq o‘ldirish bo‘yicha tartib ishlab chiqiladi va har bir odamga ma’lum miqdorda chumchuq o‘ldirish majburiyati belgilanadi. Byudjet tashkilotlarida ishlovchilar, dehqonlar, harbiy xizmatchilar, maktab o‘quvchilari va talabalar, hamma shu ishga jalb qilinadi.

Chumchuqlar tabiatan havoda 15 minutdan ortiq parvoz qila olmaydi. Bu unga qarshi kurashayotganlarga qo‘l keladi. Odamlar chumchuqlarni charchatish uchun do‘mbiralar va boshqa kuchli ovoz chiqaruvchi moslamalar bilan qurollanib olishadi. Baland ovozlar va shovqin-suron bilan qo‘rqitilgan qushlar qo‘na olmay, qulab tusha boshlaydi. Odamlar esa ularni qoplarga solib, maxsus punktlarga olib borib topshirishadi.

“Maktabdagi barcha o‘qituvchi va o‘quvchilar chumchuq o‘ldirishga borardik. Tunda esa ularning uyasini buzishda foydalanish uchun narvon yasardik. Bu ishlar chumchuqlar tabiat uchun foydali qush ekanini bilishimizdan ancha avval sodir bo‘lgandi. O‘shanda bizni chumchuqlar xalqning donini yeb ketadi deb ishontirishgandi”, deb eslaydi chumchuq ovida qatnashgan o‘quvchi keyinchalik.

Chumchuq ovi boshlangach, 1958-yil mart–aprel oylarida birgina Pekin va Shanxay shaharlarida qariyb 1 million dona chumchuq o‘ldiriladi. Butun Xitoy bo‘ylab esa qariyb 2 milliard chumchuq yo‘q qilinadi.

1959-yil bahorda ob-havo yaxshi keladi. G‘alla kutilganidan ham yaxshi rivojlanadi. Mamlakatning barcha hududlaridan mo‘l hosil olinishi haqida markazga hisobot topshirishadi. Ammo oxir-oqibat mo‘ljallangan hosil olinmaydi va ocharchilik boshlanadi.

Mamlakatdagi qariyb hamma chumchuq yo‘q qilingach, tabiatdagi muvozanat buziladi. 1959-yilning bahorida hamma joyni shilliqqurt va chigirtkalar bosib ketadi. Ular yo‘lida uchragan narsani kemirib ketaveradi, shu jumladan, ko‘m-ko‘k bo‘lib o‘sib turgan bug‘doyni ham. Ularga qarshi hech qanday chora ko‘rishning iloji yo‘q, ularning kushandasi bo‘lgan chumchuqlar esa qirib bitirilgan edi.

Yozga borib, hosil yig‘ishtirib olinganda bug‘doyning salmog‘i avvalgi yillardagidan ham bir necha barobar kamligi ayon bo‘ladi. Shundan so‘ng ocharchilik boshlanadi.

O‘sha yili 1958-yilda yetishtirilgan hosildan ham ancha kam xirmon ko‘tariladi. 1960–1961-yillarda esa ahvol undan ham yomon ko‘rinish oladi.

Avvalgi yillarda yetishtirilgan bug‘doy zaxirasi borligi uchun 1959-yilda ocharchilik ko‘lami kamroq bo‘ladi. Ammo 1960–1961-yillarda ham bug‘doy hosilining katta qismini shilliqqurt va chigirtka yeb ketgani uchun ocharchilik misli ko‘rilmagan darajaga chiqadi.

Xitoylik jurnalist, ocharchilik yillari bo‘yicha tadqiqot olib borgan Yan Szishenning yozishicha, 1958–1962-yillarda Xitoyda jami 36 million odam ocharchilik tufayli halok bo‘ladi. Rasmiy

ma'lumotlarda esa halok bo'lganlar soni 15 million ekani aytiladi.

Har kim ekkanini o'radi, deganlaridek, tabiatga qarshi ayovsiz kurash olib borgan xitoyliklarni tabiatning o'zi shu tariqa ayovsiz jazolaydi.

1. Chumchuqlarga qarshi kurashishdan maqsad nima edi?


2. Chumchuq va kalamushlarni o'ldirish qaysi dasturga kiritilgan edi?

3. Chumchuqlarni o'ldirishni dastlab kimlar boshlab berdi?

4. Chumchuqlarga qarshi qanday usul o'ylab topilgan edi?

5. Tabiatdagi muvozanat buzilishi nimalarda ko'ringan?

6. Nima deb o'ylaysiz, Xitoy hukumati o'z xatosini to'g'rilashga harakat qildimi? Hukumat qanday yo'l tutgan bo'lishi mumkin?


Quyidagi rasmlarga qarang. Bu rasmlar audiomatnning qaysi qismlari uchun mos keladi? Nega?

Chap ustunda sarlavhalar, o'ng ustunda esa matn qismlarining qisqacha mazmuni berilgan. Ularni moslashtirib ko'chiring.

Tabiatga qarshi chiqish loyihasi	Mao Szedunning 8-syezddagi nutqi hamda chumchuqlarni charchatish usuli orqali o'ldirishning boshlanishi.
Muhim qaror: hasharotlarga va qushlarga qarshi hujum	G'allaning yaxshi rivojlana boshlashi, ammo hosilning kutilgandan kam bo'lishi hamda bug'doy yetishmovchiligi.
Erta quvonish va ocharchilik	"Katta sakrash" deb nomlangan dasturning muhokama etilishi va Mao Szedunning unga rozi bo'lishi.

25

Matnda ochiq holatda berilgan ma'lumotlar asosida savollarga javob berildi. O'quvchilar imkon qadar savollarga aniq javob berishi lozim. O'qituvchi ba'zi savollarga berilayotgan javoblarni tinglash jarayonida ularning ushbu vaziyatga nisbatan munosabatini ham aniqlashga qaratilgan qo'shimcha savollar bilan murojaat qilishi mumkin.

Tinglab tushunish

Quyidagi rasmlarga qarang. Bu rasmlar audiomatnning qaysi qismlari uchun mos keladi? Nega?

Ushbu topshiriqning asosiy maqsadi berilgan rasmlarni matn mazmuni bilan bog'lay olish, shu asosda ularning o'rnini aniqlashga e'tibor qaratiladi.

Berilgan rasmlarning o'rnini aniqlash uchun matn mazmuni yodga olinadi. Matnlarni rasmlar bilan boyitishning ahamiyati haqida suhbat olib boriladi. Dars vaqti yetarli deb hisoblansa, ushbu qismlar qayta eshittirilishi mumkin.

Chap ustunda sarlavhalar, o'ng ustunda esa matn qismlarining qisqacha mazmuni berilgan. Ularni moslashtirib ko'chiring.

Matnni kichik qismlarga ajrata olish, ularni nomlash, buning ahamiyatini anglash bilan bog'liq nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish ustida ish olib boriladi.

O'quvchilar ikkala ustundagi ma'lumotlar bilan tanishadi, ular o'zaro moslashtiriladi. Matnni bunday usulda ixchamlashtirish va bundan qanday vaziyatlarda foydalanish mumkinligi bilan bog'liq savollar orqali murojaat etiladi.

Tabiatga qarshi chiqish loyihasi – "Katta sakrash" deb nomlangan dasturning muhokama etilishi va Mao Szedunning unga rozi bo'lishi.

Muhim qaror: hasharotlarga va qushlarga qarshi hujum – Mao Szedunning 8-syezddagi nutqi hamda chumchuqlar-

ni charchatish usuli orqali o‘ldirishning boshlanishi.

Erta quvonish va ocharchilik – G‘allaning yaxshi rivojlana boshlashi, ammo hosilning kutilganidan kam bo‘lishi hamda bug‘doy yetishmovchiligi.

Quyidagi voqealarning sabablarini yozing.

Audiomatnda berilgan ma’lumotni yozma ko‘rinishda ifodalay olish, eshitganlari asosida voqea-hodisalarning tafsilotlarini o‘zaro bog‘lay olish, sabablarni aniqlash, ularni izohlash bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

O‘quvchilar tinglaganlari asosida topshiriqni bajaradilar. O‘qituvchi o‘quvchilar bajargan vazifalarni tekshiradi, ularga munosabat bildiradi. Tekshirish jarayonini audiomatnni qayta eshittirish orqali ham tashkillashtirish mumkin.

Yozma nutq

Uyga vazifa

Audiomatn voqealari hamda o‘z taassurotlaringiz asosida matn yozing. Matn sarlavhasini o‘zingiz tanlang.

Dars davomida o‘rganganlari va shaxsiy qarashlari asosida yozma fikr ifodalashda nimalarga e’tiborli bo‘lish kerakligiga oid tavsiyalar beriladi. Matnga sarlavha tanlash bo‘yicha ham ayrim ko‘rsatmalar yodga solinadi.

2-soat


Dars jarayoni

Kirish

Nutqiy mavzu doirasida qisqa suhbat quriladi, quyidagi savol bilan murojaat etiladi:

“Almashish”, “almashtirish” so‘zlari qanday ma’no anglatadi?

Ushbu savolga javob berilgach, darsning asosiy qismiga o‘tiladi.



Berilgan parchalardagi olmoshlarni aniqlang. Ular nimani almashtirayotganini yozing.

Xitoy Ikkinchi jahon urushidan keyin qoloq bir mamlakat edi. O‘sha paytda Xitoyda ahvol juda og‘ir, oziq-ovqat yetishmovchiligi bor bo‘lib, millionlab odamlar yo‘qchilikda yashardi. Xitoy hukumati oldida qishloq xo‘jaligi hamda iqtisodiyotda islohotlar o‘tkazish va mamlakatni qoloqlikdan chiqarish vazifasi turardi. Amalda shunday islohotlar o‘tkaziladi. Ammo ularning foydasidan ziyoni ko‘proq bo‘ladi.

Bu dasturning hammualliflaridan biri o‘sha paytda Xitoy ta’lim vazirining o‘rinbosari bo‘lgan biolog Chjou Szyan edi. U o‘z dasturida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va odamlarning qornini to‘yidirish uchun chumchuqlar va kalamushlarni yoppasiga qirib bitirishni taklif qilgandi. Chjou Szyanning hisob-kitoblariga ko‘ra, mamlakatda yetishtirilayotgan bug‘doyning katta qismini chumchuqlar va kalamushlar yeb qo‘yardi. Agar ular qirib tashlansa, millionlab odamlarni to‘ydirsa bo‘ladigan bug‘doyni asrab qolish va mamlakat aholisini qashshoqlikdan chiqarish mumkin bo‘lardi.

Jamlamoq, to‘pdan ajratmoq so‘zlari qanday ma’no anglatadi?

Audiomatndan olingan gaplarni o‘qing. Jamlab hamda to‘pdan ajratib ko‘rsatishni ifodalayotgan so‘zlarni aniqlang.

1. *Mamlakatdagi qariyb barcha chumchuqlar qirib bitiriladi.*
2. *Butun Xitoyda chumchuqlarga qiron keltirish boshlanadi.*
3. *Har bir odamga ma’lum miqdorda chumchuq o‘ldirish majburiyati qo‘yiladi.*
4. *Mamlakatdagi qariyb hamma chumchuq yo‘q qilingach, tabiatdagi muvozanat buziladi.*
5. *Har kim ekkanini o‘radi, deganlaridek, tabiatga qarshi ayovsiz kurash olib borgan xitoyliklarni tabiatning o‘zi shu tariqa ayovsiz jazolaydi.*

Asosiy qism

Morfologiya

Olmoshlar haqida nazariy bilim beriladi. Darslikdagi qoida bilan tanishtirilgach, ular qatnashgan bir nechta gaplar misolida ularning nutqdagi ahamiyati tushuntiriladi.

Quyidagi olmoshlar ma’nosida, qo‘llanishida o‘zaro qanday farqlarga ega ekani haqida mulohaza yuriting. Fikrlaringizni tuzgan gaplaringiz orqali asoslang.

Olmosh va uning qo‘llanishi, nutqdagi ahamiyati bilan bog‘liq lingvistik bilimlarni mustahkamlash ustida ish olib boriladi.

Misol tariqasida berilgan olmoshlarga e’tibor qaratiladi. Ulardan qanday vaziyatda, nimalarni aniqlashtirish yoki qanday birikmalarni almashtirishda foydalanish mumkinligi haqida so‘raladi. Olmosh va

uning nutqdagi ahamiyati haqida suhbat olib boriladi. Berilgan olmoshlar ishtirokida gaplar tuzib, yoziladi.

Berilgan parchalardagi olmoshlarni aniqlang. Ular nimani almashtirayotganini yozing.

Ushbu topshiriqni bajarish orqali olmosh va uning qo‘llanishi, nutqdagi ahamiyati bilan bog‘liq lingvistik bilimlar mustahkamlanadi.

Matndan olingan parchalar ifodali o‘qiladi. Ularda ishtirok etgan olmoshlar aniqlanadi. Ular nimaga yoki kimga, qanday voqea-hodisaga ishora qilayotgani haqida so‘raladi. Muallif nima uchun aynan mana shu olmoshlardan foydalanganligi tushuntiriladi.

***Jamlamoq, to‘pdan ajratmoq* so‘zlari qanday ma’no anglatadi?**

Berilgan so‘zlarning ma’nolari haqida so‘raladi, ushbu suhbat orqali o‘quvchilar belgilash olmoshlari bilan bog‘liq nazariy bilimlarni egallashga tayyorlanadilar.

Audiomatndan olingan gaplarni o‘qing. Jamlab hamda to‘pdan ajratib ko‘rsatishni ifodalayotgan so‘zlarni aniqlang.

Belgilash olmoshlari, ularning vazifalari va nutqdagi ahamiyati haqida ma’lumot beriladi.

Olib borilgan suhbat asosida berilgan gaplarda ishtirok etgan olmoshlar tahlil qilinadi. Ular qanday ma’noni ifodalayotgani, ularning o‘rnida qo‘llanishi kerak bo‘lgan, ammo qo‘llanmagan birliklar, bundan ko‘zlangan maqsad haqida suhbat olib boriladi.

Belgilash olmoshlari haqida nazariy ma’lumot beriladi, qoida hamda misollar asosida lingvistik bilim hosil qilinadi.

*1. Mamlakatdagi qariyb **barcha** chumchuqlar qirib bitiriladi.*

*2. **Butun** Xitoyda chumchuqlarga qiron keltirish boshlanadi.*

*3. **Har bir** odamga ma’lum miqdorda chumchuq o‘ldirish majburiyati qo‘yiladi.*

*4. Mamlakatdagi qariyb **hamma** chumchuq yo‘q qilingach, tabiatdagi muvozanat buziladi.*

*5. **Har kim** ekkanini o‘radi, deganlaridek, tabiatga qarshi ayovsiz kurash olib borgan xitoyliklarni tabiatning o‘zi shu tariqa ayovsiz jazolaydi.*

Muhokama uchun savol. Tabiatdagi muvozanat zanjirida *har bir* jonzotning o‘z o‘rni bor. Bu yerda *har bir* so‘zi o‘rnida *hamma* va *ba’zi* so‘zlari qo‘llansa, mazmunda qanday o‘zgarish bo‘ladi?

Belgilash olmoshlari bilan bog‘liq bilimlar amaliy sinovdan o‘tkaziladi. Har uchala shakl mazmuni tahlil qilinadi, undagi ma’no nozikliklari xususida so‘z boradi.

Gaplarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga kerakli belgilash olmoshini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Belgilash olmoshi va uning qo‘llanishi bilan bog‘liq lingvistik bilimlar mustahkamlanadi. O‘quvchilar gaplarni o‘qiydilar, nuqtalar o‘rniga mos keladigan belgilash olmoshini qo‘yib, gaplarni ko‘chiradilar. Bajarilgan topshiriq tekshiriladi va tahlil qilinadi.

Uyga vazifa

“Adabiyot” darsligidagi istalgan asardan belgilash olmoshlari qatnashgan 6 ta gap ko‘chiring. To‘pdan ajratish yoki jamlash hodisasidan qaysi biri ro‘y berayotganini yozing.

Belgilash olmoshlari haqida hosil bo‘lgan bilimlardan foydalangan holda muayyan amaliy vazifani bajarish bilan bog‘liq ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

Belgilash olmoshlari ishtirok etgan gaplarni aniqlash, ushbu gaplarning qaysi asardan ekanini uning muallifi haqidagi ma’lumotlar bilan birgalikda ko‘chirib, undagi belgilash olmoshlarining

ma’nolari haqida xulosalar chiqarish kerakligi aytiladi.

3-soat

Dars jarayoni

Kirish

O‘qituvchi o‘quvchilarning e’tiborini darslikda berilgan rasmga qaratadi. Rasmda nima tasvirlanganini so‘raydi. Quyidagi savollar yordamida kirish suhbatini tashkillashtiradi.

1. Yo‘lbarslar haqida nimalarni bilasiz?

2. Sizda yo‘lbarsni o‘ldirish yoki o‘ldirmaslik tanlovi bo‘lsa, qay birini tanlaysiz? Nega?

3. Qizil kitob haqida eshitganmisiz? Unda qanday ma’lumotlar berilgan deb o‘ylaysiz?

Asosiy qism

O‘qib tushunish va morfologiya

Matnni ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar o‘rniga quyida berilgan olmoshlardan birini qo‘yib o‘qing.


Matnning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ravon va ifodali o‘qiy olish ko‘nikmasini shakllantirish ustida ishlanadi.

O‘quvchilar matnni o‘qishga tayyorlanadilar. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar ishtirok etgan jumlalarga alohida e’tibor qaratilib, ularni quyida berilgan so‘zlar bilan almashtirib o‘qish kerakligi aytiladi.

Matn asosida tayyorlangan savollarga javob berish orqali matn va uning xususiyatlari, muallifning nuqtayi nazari, fikrlarini dalillay olishi bilan bog‘liq jihatlarga e’tibor qaratiladi.

1. Muallif birinchi xatboshini nima maqsadda kiritgan deb o‘ylaysiz?

Ushbu savolga javob berish orqali o‘quvchilar matnning kirish qismi, u hammani o‘ziga jalb eta olishi kerakligi, buning uchun turli vositalardan, ayniqsa, so‘roq gaplardan foydalanish samarali ekanini aytib o‘tadi.



Matnni ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar o‘rniga quyida berilgan olmoshlardan birini qo‘yib o‘qing.

uning | ularning | uni | u

OCH QOLDIRILGAN JONIVOR

Yo‘lbars – yo‘l-yo‘l chiziqli bahaybat mushukni kim ham bilmaydi? Negadir ko‘pchilik yo‘lbars deganda Afrika savannalarini ko‘z oldiga keltiradi. Lekin ishonasizmi yoki yo‘qmi, Afrikada umuman yo‘lbarslar yo‘q, mutlaqo! Yo‘lbars Osiyo qit’asi hayvonidir.

Yo‘lbars mushuksimonlar oilasining pantera urug‘iga mansub. ***Yo‘lbarslarning*** 9 ta turi bor. Shulardan 6 tasi hozirda mavjud, uchtasi esa, afsuski, qirilib ketgan. Ana o‘sha qirilib ketganlar orasida Turon yo‘lbarsi ham bor.

Yo‘lbars Hindistonda harbiy jasorat timsoli, Yaponiyada esa mardlik ramzi hisoblanadi. Janubi-sharqiy Osiyo hamda Koreyada ***yo‘lbarsni*** “tog‘lar va g‘orlar sohibi” deb atashgan. Xitoyda esa yo‘lbars kuch va salomatlik ramzi hisoblangan.

Turon yo‘lbarsi 200 kilogramm vaznli yirik yirtqich hayvondir. Har bir yo‘lbars oilasi o‘z yer maydoniga ega bo‘lib, o‘rtacha 8–10 kvadrat kilometrga xo‘jayinlik qilgan. Yo‘lbarsning hid bilish organi kuchli rivojlangan, juda yaxshi eshitgan. Ko‘zi qorong‘ida ham yaxshi ko‘rgan. Qochayotgan hayvonni 80–100 metrgacha katta tezlikda quvib borgan. Tutolmasa, uzoq quvib o‘tirmagan.

Ov baroridan kelsa, erkagi biryo‘la 5–6 kilogrammgacha go‘sht yeya olgan. Qorni to‘q bo‘lsa, 4–5 kun ovga chiqmagan, uyasida ag‘anab uxlashni yaxshi ko‘rgan. Turon yo‘lbarsi bir kecha-kunduzda 18–20 soat uxlab, suv ichish uchungina joyidan qo‘zg‘algan. Yo‘lbarsning tanasi himoya rangiga ega bo‘lgan. Mo‘ynasi sarg‘ish, qora-ko‘kimtir yo‘l-yo‘l chiziqlardan iborat bo‘lib, ***yo‘lbarsni*** to‘qay-qamishzorlarda payqash qiyin edi. ***Yo‘lbars*** nomi “yo‘l-yo‘l bars” so‘z birikmasidan olingan deb taxmin qilinishiga qaramay, bu so‘zning

2. Sizningcha, berilgan xarita nimani ko‘rsatmoqda?

Ushbu xarita orqali yo‘lbarslar keng tarqalgan hududlar namoyish etilmoqda. O‘qituvchi o‘quvchilarning e’tiborini ushbu xaritaga qaratadi. Ulardan xaritada qaysi hududlarda yo‘lbarslar keng tarqalgani, bu nechanchi yillarga to‘g‘ri kelishi haqida so‘raydi. Shuningdek, muallif nima uchun ushbu ma’lumotlarni xarita ko‘rinishida berishni ma’qul ko‘rganini so‘raydi.

3. Nima deb o‘ylaysiz, nega yo‘lbarsning terisi yo‘l-yo‘l? Bu unga qanday ustunlik beradi?

Yo‘lbarslarning tabiatan shunday yaralganligi, buning afzalligi haqidagi fikrlar tinglanadi.

4. Matnga ko‘ra, hayvonning “yo‘lbars” deb atalishiga asl sabab nima?

Ushbu savolga matnda ochiq shaklda ifodalangan ma’lumotlar asosida javob beriladi.

5. Muallif yo‘lbarsning suvda yaxshi suzishini nima bilan asoslamoqchi bo‘lgan?

Aynan ushbu fikr bilan bog‘liq qismga e’tibor qaratiladi, u yerda keltirilgan ma’lumot qayta takrorlanadi. Muallifning ushbu ma’lumotni qo‘llashidan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarga tushuntiriladi.

6. Turon yo‘lbarsining yo‘q bo‘lib ketishiga sabab bo‘lgan omillarni sanang.

Matnda keltirilgan ma’lumotlar, shuningdek, o‘quvchilarning hayotiy bilimlari asosida ushbu savolga javob beriladi.

7. Tabiatdagi muvozanatning buzilishi deganda nimani tushundingiz?

Ushbu savolga keltirilgan va bundan oldingi darsda chumchuqlar bilan bog‘liq matnlar asosida javob berish mumkin. Bundan tashqari, o‘quvchilarning bu mavzudagi qo‘shimcha fikrlari ham tinglanadi.

Morfologiya

Olmoshlarning nutqimizdagi ahamiyati borasida qanday xulosaga keldingiz?

Almashtirish uchun berilgan so‘zlarni qo‘yish orqali matn mazmunida qanday o‘zgarish ro‘y bergani, olmoshlarning nutqdagi ahamiyati haqida fikrlar so‘raladi.

Guruhlarga bo‘lining. Arilar, qushlar, yirtqich hayvonlar, baliqlarning yo‘qolib ketishiga sabab bo‘luvchi omillarni yozing. Bu turlarning yo‘q bo‘lib ketishi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida fikr bildiring. Quyidagi jadvaldan foydalanishingiz mumkin.

Guruh bo‘lib ishlash, o‘z fikrlarini dalillar asosida isbotlash, ularni tasniflay olish, ma’lumotlarni jadval ko‘rinishida ifodalay olish bilan bog‘liq ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

O‘qituvchi sinfni teng 2–4 guruhga bo‘ladi. Ushbu guruhlarning har biri topshiriq shartida keltirilgan hayvonlarning yo‘qolib ketishiga sabab bo‘luvchi omillarni jadvalga joylaydilar. Jadval shaklini o‘zgartirish mumkinligi guruhlarga eslatiladi. Har bir guruh o‘z taqdimotini namoyish etadi. Boshqa guruhlar o‘qituvchi ishtirokida ushbu chiqishlarga munosabat bildiradi va baholaydi.

Yozma nutq


Uyga vazifa

Kattalar yordamida hozirgi kunda ekologik muammolarning qanday turlari uchrayotganini aniqlang. Har bir hodisa haqida qisqacha ma’lumot yozib keling.

Nutqiy mavzu yuzasidan o‘z fikrlarini izchillik bilan, daliliy tafsilotlarni keltirgan holda yozma nutq yaratish ko‘nikmalari mustahkamlanadi.

Topshiriqni bajarish uchun bir nechta ekologik muammoni tanlab olish aytiladi, har bir muammoning kelib chiqish sababi, uning oqibatlari haqida fikrlar keltirilishi kerakligi aytib o‘tiladi.

4-soat



Dars jarayoni

Kirish

Bugungi darsning umumiy mazmuni haqida batafsil ma'lumot beriladi. Ishni qanday tartibda olib borish kerakligi, unga qo'yilgan talablar tushuntiriladi.

Asosiy qism

Yozma nutq

Quyidagi rasmlarda qanday ekologik muammolarni ko'ryapsiz? Namuna asosida yozing.

Rasm ko'rinishida berilgan ma'lumotlarni og'zaki ifodalay olish bilan bog'liq ko'nikmalarni mustahkamlash ustida ish olib boriladi.

O'quvchilarning e'tibori darslikda berilgan rasmlarga qaratiladi. Rasmlarda qanday muammolar aks etgani haqida og'zaki suhbat tashkillashtirish tavsiya etiladi. Shundan so'ng namuna asosida har bir muammoga oid ma'lumotlarni yozib chiqish so'raladi.

Guruhlarga bo'lining. Yuqoridagi ekologik muammolardan birini tanlang. Guruh bilan birgalikda ushbu muammo haqida matn yarating. Matnda quyidagilar aks etishi lozim:

- muammoning nomi;
- muammoning sababi;
- muammoning oqibati;
- muammo yechimi uchun taklif (kamida 2 ta);
- taklif etilgan yechimning natijasi haqida taxmin.

Berilgan rasm asosida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda o'z fikr-mulohazalarini to'g'ri, izchil ifodalash, shuningdek, turli mazmundagi 14–16 ta gapdan iborat matn yoza olish.


O'qituvchi o'quvchilarni bir nechta guruhga bo'ladi. Guruhlar rasmlarda keltirilgan muammolardan birini tanlaydi. Ushbu muammoga xos bo'lgan tafsilotlarni namuna asosida yozadilar. O'qituvchi shu o'rinda o'quvchilarning e'tiborini darslikda berilgan qoidalarga qaratadi. Qoidalar asosida matn yaratish uchun o'z tavsiyalarini berib o'tadi. Guruhlarda ishlashning qoidalari haqida eslatib o'tadi. Baholashda aynan nimalar e'tiborga olinishi haqida ma'lumot beradi.

O'qituvchi guruhlarning ishini kuzatadi, ayrim tavsiyalarni berib turadi. Guruhlarning bajargan mustaqil ishlari tahlil qilinadi va baholanadi.

QUTB YULDUZI

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilar ongida yulduz, yulduzlar xaritasi, qutblar haqida tasavvur hosil qilish va unga oid til birliklarini nutqida faollashtirish; olinma so‘zlar, ularning talaffuzi va imlosi, atoqli otlar imlosi, uyushiq bo‘laklar imlosi, gap ichida tinish belgilari (vergul)ning qo‘llanishi, mavzuga oid ijodiy matn tuzish; matnda ifodalanayotgan fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yozish ko‘nikmasini shakllantirish.

1-soat



Dars jarayoni

Kirish

Osmonni kuzatganmisiz? Yulduzlar bilan bog‘liq qanday qiziq jarayonlarni ko‘rgansiz?

Asosiy qism

Og‘zaki suhbat

Rasmlar asosida savollarga javob bering.

O‘quvchilar rasm bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng, rasm ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Muhokama

1. Birinchi rasmda nimalar tasvirlangan? Tushunganlaringizni so‘zlab bering.

Bu savol o‘quvchi shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishiga qaratilgan. Bunda o‘quvchilarning rasmni o‘z tushunchalari asosida tasvirlab berishlariga e’tibor qaratiladi.

2. Qutb yulduzi haqida nimalarni bilasiz?

Bunda o‘quvchilarning Qutb yulduzi haqidagi dastlabki tushunchalari so‘raladi. O‘quvchilar chizmalar asosida fikrlarini aytishlari mumkin. O‘qituvchi bu jarayonda o‘quvchilar fikrini to‘g‘ri yo‘naltirib, fikrlarini to‘ldirib borishi maqsadga muvofiq.

3. Ikkinchi rasmda nimalar tasvirlangan? Dunyo tomonlari qanday nomlanadi?

Dunyo tomonlarining qanday nomlanishi tasvirda berilgan. O‘quvchilar ushbu tomonlarni bola yoki o‘zlari turgan nuqtaga nisbatan aytib berishlari lozim. Bunda tasvirga oid til birliklarini qo‘llay olishlari tekshiriladi.

4. Quyoshning chiqish va botish nuqtasi qayer?

Bu chizmada berilgan. O‘quvchi chizmada ifodalangan ochiq ma’lumotni tushunib, *Quyosh Sharqdan chiqib, G‘arbga botishini* aytishi lozim.

5. Sizningcha, dunyo tomonlarini bilish nima uchun kerak?

Bu savol o‘quvchi shaxsiy kuzatuvlari asosida javob berishiga qaratilgan. O‘quvchilar bu haqidagi dastlabki tushunchalarini bildirishlari mumkin. O‘qituvchi tomonidan fikrlar to‘ldirib boriladi.

Yozma nutq. Tasviriy matn yaratish

Berilgan til birliklaridan foydalanib chizma (2-rasm, 36-bet) asosida dunyo tomonlari va oraliq tekisliklar joylashuvini tushuntiring.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning rasmdagi chizmalarni tushunib, tasvirlab berish hamda joylashuvga oid til birliklaridan o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilar berilgan til birliklaridan o‘rinli foydalanib chizmani tasvirlab yozishlari kerak.

Yozma nutq. Leksikologiya

Berilgan so‘zlarni izohi bilan moslab yozing. Ushbu so‘zlarning talaffuzi va imlosiga e’tibor bering.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan olinma so‘zlarni ma’nolari bilan moslab yozishlari lozim. Bu jarayonda lug‘atdan foydalanishlari ham mumkin. Asosiy e’tibor olinma so‘zlar talaffuzi hamda ularning ma’nosini to‘g‘ri o‘zlashtirishlariga qaratiladi.

Javob:

- *Globus – Yer sharining kichraytirilgan tasviri.*
- *Ufq – osmon bilan yerning o‘zaro tutashgan chizig‘i.*
- *Qutb – Yerning aylanish o‘qi bilan sirti kesishgan nuqta.*
- *Kompas – dunyo tomonlarini aniqlaydigan asbob.*

Qoida. Olinma so‘zlar imlosi

O‘quvchilar olinma so‘zlar talaffuzi va imlosi bilan amaliy tanishganlaridan so‘ng, olinma so‘zlar imlosi nazariy ma’lumot asosida tushuntirib beriladi.

Yozma nutq. Matn yaratish

Tasavvur qiling, siz shimolga qarab turibsiz, shu holatda turganingizda yon-atrofingizda nimalar bor? Ularni tasvirlab yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning tasviriy matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirish bilan birga bosh harflar imlosini ham o‘zlashtirishga qaratilgan.

O‘quvchilar turgan nuqtalarini belgilab, yon-atroflarida nimalar borligini tasvirlab yozishlari lozim. Bunda bog‘lanishli nutq tuza olishlari hamda joylashuvni tushuntirishga oid til birliklaridan to‘g‘ri foydalana olishlariga diqqat qaratiladi.

Uyga vazifa

Morfologiya. Sintaksis

Yon-atrofingizga qarang. Atrofdagi odamlar, jonzotlarning harakatini kuzating. Quyidagi so‘zlardan foydalanib ularning qanday vaziyatda ekanligi haqida gaplar tuzib, yozing.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning shaxsiy kuzatishlari asosida harakat va holatlarni kuzatib, vaziyatga mos til birliklaridan foydalana olishlarini rivojlantirishga qaratiladi. Bunda o‘quvchilarga qo‘llash uchun ravishlar berilgan. O‘qituvchi jadvalda berilgan ravishlarning ma’nosi, qo‘llanish doirasi haqida o‘quvchilarga ko‘rsatma berishi maqsadga muvofiq.

O‘quvchilarga ushbu ravishlardan foydalanib kuzatgan vaziyatlariga mos gap tuzib yozishlari aytiladi.

2-soat



Tasavvur qiling: siz shimolga qarab turibsiz, shu holatda yon-atrofingizda (o‘ng, chap va ortingizda) nimalar bor? Ularni tasvirlab yozing.

Yon-atrofingizga qarang. Atrofdagi odamlar, jonzotlarning harakatini kuzating. Quyidagi so‘zlardan foydalanib ular qanday vaziyatda ekani haqida gaplar tuzing va yozing.

ataylab | jo‘rttaga | qasddan | noiloj | chor-nochor | ilojsizlikdan

QUTB YULDUZI

Bilasizmi, yulduzlarning ham “yulduzi”, ya’ni mashhurlari bo‘ladi. Qutb yulduzi ana shundaylardan biri. Chunki u o‘tgan davrlar mobaynida ko‘plab adashganlarga yo‘l ko‘rsatib, o‘z manzillariga eson-omon yetib olishlarida ko‘makchi bo‘lgan.

Qadimda dengizchilar yoki sahrodagi karvonlar yulduzlarning joylashishiga qarab yo‘lni aniqlashgan. Yulduzlarni o‘rganib, ularning xaritasini chizib beradigan kishilarni esa “munajjim” deb atashgan.

Qutb yulduzi osmondagi eng yorqin yulduzlardan biri bo‘lgani uchun uni topib olish qiyin emas. *Olimlarning aytishicha, kunlar, oylar, ba’zan yillar o‘tishi bilan yulduzlarning samodagi o‘rni o‘zgarib turar ekan.* Faqatgina Qutb yulduzi o‘z joyidan hech qachon jilmaydi, doim osmonning shimoliy qismida yaraqlab turadi. *Shunday o‘ziga xos xususiyati tufayli sayyohlar Qutb yulduziga qarab shimol, janub, sharq va g‘arbni aniqlay olishgan.*

Qutb yulduzi Katta Ayiq yulduz turkumiga kiradi. U Quyoshdan 120 marta katta bo‘lib, 10 ming marta kuchliroq nur taratadi. Odamlarga yo‘l ko‘rsatib turgani uchun uni “yo‘lchi yulduz” deb ham atashgan. Juda olisda bo‘lgani bois ushbu yulduz nurlari Yergacha 472 yilda yetib keladi.

“Jajji akademik” jurnalidan

38

Dars jarayoni

Kirish

Qutb yulduzi nima? U to‘g‘risida nimalarni eshitgansiz?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

Matn: “Qutb yulduzi”.

Manba: “Jajji akademik” jurnali.

O‘quvchilar matn bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng, uni o‘qib tushunish yuzasidan tuzilgan savollar asosida suhbat boshlanadi.

Muhokama

1. Qutb yulduzi mashhurligining sababi nima?

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. Matnning birinchi xatboshisida berilgan ma’lumotlardan savolning javobini anglash mumkin. O‘quvchilar ushbu o‘rinlarni topib, munosabat bildirishlari kerak. Bu jarayonda 36-betda berilgan 1-chizmadan foydalanishlari ham mumkin.

2. Munajjimlar nima bilan shug‘ullangan?

Bu savol ham matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. Matnning ikkinchi xatboshisida berilgan ma’lumotlardan savolning javobini anglash mumkin. Bunda o‘quvchi matnda keltirilgan ma’lumotni so‘zma-so‘z aytib berishi shart emas, o‘z tushunchalari asosida izohlab berishi yetarli hisoblanadi.

3. Qutb yulduzi joyini o‘zgartirib turadimi? Javobingizni izohlang.

Bu matnda parafrez qilingan gaplar mazmunidan ma’no chiqarib aytishga qaratilgan. O‘quvchilar matnning uchinchi xatboshisida berilgan ma’lumotlar asosida *“joyidan jilmaslik”* birligi orqali hamda hayotiy kuzatishlari asosida Qutb yulduzi joyini o‘zgartirmasligini aytishlari lozim. Bu yerda asosiy e’tibor o‘quvchilarning fikrlarini asoslab berishlariga qaratiladi.

4. Matndan Qutb yulduzi haqida berilgan daliliy tavsifni aniqlang.

Bu savolda o‘quvchilar asosiy e’tiborlarini “daliliy tavsif” birligiga qaratishlari kerak. Dastlab o‘quvchilar matndan o‘zlari daliliy tavsif deb keltirgan joylarini

aniqlab aytib, fikrlarini izohlashlari lozim. So‘ngra o‘qituvchi tomonidan daliliy tavsif nima ekani, u matnda qanday ifodalanishi haqida misol keltirilib, izohlab beriladi.

Daliliy tavsif – bir fikrni asoslash uchun keltirilgan nazariy yoki amaliy kuzatishlar asosidagi fikr. Masalan, ushbu matnda Qutb yulduzi haqida ma’lumot berilgan, 3-xatboshida keltirilgan ma’lumotlarni daliliy tavsif deya olamiz.

5. Nima uchun “Yo‘lchi yulduz” deyilishini izohlang. Kitoblarda ushbu jumlani uchratganmisiz? Uni qanday ma’noda qo‘llaymiz?

Bu savol o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nosi haqida tushuncha hosil qilishga qaratilgan. O‘quvchilar shaxsiy kuzatishlari asosida ushbu birlikka o‘z munosabatlarini bildirishlari lozim. Bunda dars davomida o‘zlashtirgan bilimlari hamda Qutb yulduzining xususiyati asosida javob berishlari mumkin.

Dastlab o‘quvchilarning fikri tinglanadi, so‘ngra o‘qituvchi tomonidan ushbu birlikka ta’rif beriladi.

Yo‘lchi yulduz – yo‘l boshlovchi, rahnamo. Ustozimizni, ota-onamizni... xullas, bizga hayot yo‘lida o‘rnak bo‘lgan insonlarni ham shunday atashimiz mumkin.

Yozma nutq. Leksikografiya

Matndagi *kun* so‘ziga qaysi izoh mos keladi? Yozing.

Matndagi *oy* so‘ziga qaysi izoh mos keladi? Yozing.

Bu topshiriq o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan izohlar bilan tanishib, matndan *kun* so‘zi berilgan gapni topib, so‘zning qaysi ma’nosi qo‘llanganini aniqlab, yozishlari kerak.

Bunda o‘quvchilarning so‘zning kontekstual ma’nosini tushunishlariga alohida e’tibor qaratiladi.

Javob: *kun – sutkaning quyosh chiqqandan quyosh botgungacha bo‘lgan qismi, oy – o‘rta hisobda 30 kunlik muddat, yilning o‘n ikkidan bir qismi.*

Yozma nutq. Morfologiya

Matndan qiya yozuvda berilgan gaplarni ko‘chirib oling. Bir xil so‘roqqa javob bo‘lgan, o‘zaro teng bog‘langan so‘zlarning tagiga chizing.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarga uyushiq bo‘laklar imlosini amaliy topshiriq orqali tushuntirishga qaratilgan. O‘quvchilar matn tarkibidan qiya shaklda yozilgan gaplarni ko‘chirib olib, ushbu gap tarkibidagi so‘zlarga so‘roq berishlari hamda bir xil so‘roqqa javob bo‘ladigan so‘zlarni belgilashlari lozim.

Bu jarayonda o‘quvchilarning so‘zlarga to‘g‘ri so‘roq bera olishi hamda bexato yozishiga e’tibor qaratiladi.

Qoida. Morfologiya

O‘quvchilarga uyushiq bo‘laklar haqida nazariy ma’lumot misollar bilan tushuntirib beriladi.

Yozma nutq. Orfografiya

Matndagi atoqli otlarni aniqlab, yozing. Ular doim bosh harf bilan yoziladimi? Fikringizni izohlang.

Bu topshiriq bosh harflar imlosini tushuntirishga qaratilgan. O‘quvchilar matn tarkibidan atoqli otlarni aniqlab, nima uchun bosh harf bilan yozilganini izohlashlari kerak.

Bu jarayonda so‘zlarga so‘roq berish orqali atoqli otlarni aniqlay olishlari hamda ularning bosh harf bilan yozilishini tushunishlariga e’tibor qaratiladi.


Uyga vazifa

Yozma nutq. Matn yaratish

Yana qanday yulduzlar bor? Ular haqida kitob, gazeta, jurnal yoki internet manbalaridan ma’lumot, afsona, rivoyat topib o‘qing. Yulduzning o‘ziga xos jihatlari haqida maqola yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning ma’lumot to‘plash, to‘plagan ma’lumotlarini tahrir qilish hamda u asosida matn yarata olish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan manbalar asosidan yulduzlar haqida qo‘shimcha ma’lumot to‘plab, maqola yozishlari lozim.

3-soat



Matnlarni o‘qing va savollarga javob bering.

1

Men uchun ikki buyuk inson bo‘lgan. Qo‘shiqchi Jon Lennon hamda yozuvchi Xorxe Luis Borxes. Bolaligimda yozuvchi Borxes bilan uchrashishni juda-juda orzu qilar edim. Oxir-oqibat bu buyuk inson bilan uchrashish uchun avtobusga o‘tirib, Rio de Janeyrodan Argentinaga yo‘l oldim. Menga berilgan manzil bo‘yicha keldim. Adib uyi qarshisidagi mehmonxona hovlisida, **kursi**da o‘tirardi. Men unga yaqinroq bordim. U bilan suhbatlashish uchun ikki kecha-kunduz yo‘l bosib, bu yerga kelgandim. ***Ammo uning salobati tufayli bo‘lsa kerak, mum tishlab qoldim.*** O‘z-o‘zimga “Men o‘z yo‘lchi yulduzim bilan yuzma-yuz turibman. Yulduzlar esa hech qachon gapirmaydilar. Ular bilan **pinhona** gaplashish mumkin”, deb **taskin** berdim.

Paulo Koelo

2

O‘shanda men 5-6 yoshlarda edim. Bir kuni otam g‘ishtga o‘xshash, qog‘ozga o‘rog‘liq nimadir qo‘ltiqlab keldi. G‘alati o‘yinchoq bo‘lsa kerak, deya akalarim va men qotib turardik. Otam qo‘llarini yuvib kelib, asta qog‘ozning iplarini yechdi. Bu rus adibi Nikolay Nosovning “Bilmasvoy va uning sarguzashtlari” nomli qalin, muqovasida ajoyib suratlari bor, chiroyli, katta, yap-yangi kitob edi.

Rahmatli ota-onam o‘qituvchi edilar. Otam o‘qituvchilik bilan birga maktabda kutubxonachilik ham qilar edilar. Ikki akam bilan men bo‘sh paytda kutubxonaga chiqib, kitob, gazeta-jurnallarni taxlashar, “Gulxan”, “G‘uncha” jurnallarining yangi sonini birinchi bo‘lib o‘qib, keyin hammaga maqtanardik. Kechqurunlari onam **tancha** atrofida dasta-dasta daftar tekshirar, otam boshchiligida biz darsliklar, **supra**dek **juldur** xaritalarni ayvonga yoyib, piyolaga bug‘doy unidan xamir tayyorlab yelimlar edik. Men kartonlardan muqova qirqib, varaqlarni joy-joyiga taxlardim. Akalarim xaritadan shahar, qit’alarni topish o‘ynashar edi. Darslar va boshqa yumushlarni tugatgach, ko‘pincha oydin kechada otamdan urush dahshatlarini, onamdan ajoyib kitoblar mazmunini maroq bilan tinglardim.

Keyinchalik ko‘p qo‘llanmalar, badiiy asarlar o‘qidim. ***Bu kitoblar qalbimga ijod zavqini soldi, hikoyalar yoza boshladim.*** O‘qituvchilik bilan birga bolalar adabiyoti bilan jiddiy shug‘ullandim.

Men bugun ham o‘g‘il-qizlarimizga Alisher Navoiy, Abdulla Qahhor, Oybek, Aziz Nesin, Antuan de Sent-Ekzyuperi, Pushkin, Tolstoy va boshqa ijodkorlarning bitmas-tuganmas xazinalari shunday mayoq bo‘lishini juda-juda istayman.

Muhayyo To‘laganova

Dars jarayoni

Kirish

Siz kimgadir havas qilasizmi? Uning qaysi xislatlari sizni o‘ziga jalb qilgan?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Matnlarni o‘qing va savollarga javob bering.

O‘quvchilar matnlar bilan tanishib bo‘lganlaridan so‘ng, matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

1. Birinchi matndagi hikoya qahramoni kim?

Bu savol muallif nutqini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar matn mazmunidan, matn muallif tomonidan hikoya qilinayotganini tushunib, javob berishlari kerak.

Javob: *Paulo Koelo*

2. Birinchi hikoya qahramoni Xorxe Luis Borxes bilan nima maqsadda uchrashishga qaror qildi?

Bu savolning javobi matn mazmunidan anglashiladi. O‘*quvchilar Paulo Koeloning bu yozuvchiga havas qilgani, uni o‘zining yo‘lchi yulduzi deb bilishi, ijodiga qiziqishi va u bilan uchrashish orzusida bo‘lganini* tushunib, aytib bera olishlari lozim. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarga yo‘naltiruvchi savollar berishi maqsadga muvofiq.

3. Birinchi matnda ajratib ko‘rsatilgan jumlani izohlang. Undagi iboradan yana qanday vaziyatda foydalanish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.

Bu savol iboraning kontekstual ma’nosini tushunishga qaratilgan.

O‘quvchilar ajratib ko‘rsatilgan gapni o‘qib, ma’nosini izohlashlari lozim.

O‘quvchilar fikri tinglangach, o‘qituvchi tomonidan ushbu ibora izohlab beriladi.

Mum tishlab qolmoq – og‘iz ochmay jim qolmoq, indamaslik.

4. Birinchi hikoya qahramonining o‘ziga taskin bergan jumlasini qayta o‘qing. Nima uchun u izlab borgan odamini o‘zining “Yo‘lchi yulduzi” deb atayotganini tushuntirishga harakat qiling.

Bu savol “yo‘lchi yulduz” birligining ma’nosini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar egallagan bilimlari hamda matn mazmunidan kelib chiqib, ushbu so‘zni izohlashlari kerak.

5. Ikkinchi matn qahramonining oilasi haqida sizda qanday tasavvur uyg‘ondi?

Bu savol o‘quvchi shaxsiy kuzatishlari asosida munosabat bildirishiga qaratilgan. O‘quvchilar matn mazmuni asosida o‘z fikrlarini aytishlari lozim. Bunda fikrlarini matn bilan asoslashlariga e’tibor qaratiladi.

6. Nima deb o‘ylaysiz, biror kitob yoki jurnalni o‘qib chiqqanligi haqida boshqalarga maqtanish yaxshimi? Siz ham shunday qilganmisiz? Bunday paytda inson o‘zini qanday his qiladi?

Bu o‘quvchining matn qahramonining his-tuyg‘ularini tushunishi, o‘zidagi shu jarayon bilan bog‘liq holatga munosabat bildira olishiga qaratilgan. O‘quvchilar matnning ikkinchi xatboshisida berilgan ma’lumotlar asosida javob berishlari kerak.

7. Ikkinchi matnda ajratib ko‘rsatilgan iborani izohlang.

Bu savol iboraning kontekstual ma’nosini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar ajratib ko‘rsatilgan gapni o‘qib, ma’nosini izohlashlari lozim.

O‘quvchilar fikri tinglangach, o‘qituvchi tomonidan ushbu ibora izohlab beriladi.

Ijod zavqini solmoq – ijodiy kayfiyatini yaxshilamoq, ruhini ko‘tarmoq.

8. Ikkinchi hikoya qahramoni qaysi kasblarni egalladi? Bunga nima sabab bo‘lgan deb o‘ylaysiz?

Bu matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. O‘quvchilar uchinchi, to‘rtinchi xatboshilarida berilgan ma’lumotlar asosida hikoya qahramoni *o‘qituvchi hamda bolalar yozuvchisi* bo‘lganini, bunga *sabab oila muhiti, ko‘p kitoblar o‘qigani hamda ko‘plab yozuvchilarga havas qilgani .o‘qituvchi hamda bolalar yozuvchisi bo‘lganini, bunga oila muhiti, ko‘p kitoblar o‘qigani hamda ko‘plab yozuvchilarga havas qilgani sabab bo‘lganini tushunib, aytishi lozim.*

Leksikologiya. Sintaksis

Matnda ko‘k rang bilan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni berilgan izohlari bilan moslashtirib ko‘chiring. Ushbu so‘zlarni qo‘llab boshqa gaplar tuzing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan. O‘quvchilar matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni aniqlab, ushbu so‘zlarning matndagi ma’nosini tushunib, izohlar bilan moslashtirib yozishlari hamda ular ishtirokida gaplar tuzishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor so‘zning ma’nosini tushunish hamda mos kontekstda qo‘llay olishga qaratiladi.

Javob:

Supra	Xamir yoyish, non yasash uchun mo‘ljallangan dasturxonsimon ro‘zg‘or buyumi.
Tancha	Xonaning o‘rtasi yoki chekkaroq qismiga to‘rtburchak chuqurchaga o‘rnatilgan, ustiga ko‘rpa yopilib, atrofiga ko‘rpachalar to‘shalgan xontaxtadan iborat bo‘lib, ichiga o‘tin yoki ko‘mir cho‘g‘i solinadi.
Kursi	Bir kishi o‘tirishi uchun mo‘ljallangan, odatda to‘rt oyoqli oddiy moslama, o‘rindiq, suyanchiqsiz stul.
Juldur	Kiyilaverib yoki tutilaverib eskirib ketgan buyum, asosan kiyimga nisbatan qo‘llanadi.
Taskin	Yupatuvchi narsa, gap, ish-harakat, tasalli.
Pinhona	Kishilardan maxfiy ravishda, birovga bildirmay, yashirincha.

Morfologiya

Matnda berilgan atoqli otlarni aniqlang, ularni quyidagi guruhlarga ajratib yozing.

Ushbu topshiriq atoqli otning ma’no turlari hamda bosh harflar imlosini o‘zlashtirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan matn tarkibidan atoqli otlarni aniqlab, ularga so‘roq berishlari hamda ma’nosiga ko‘ra guruhlarga ajratib yozishlari kerak.

Bunda asosiy e’tibor so‘zlarga to‘g‘ri so‘roq bera olishlari hamda bosh harflar imlosiga rioya qilgan holda yozishlariga qaratiladi.

Javob:

Joy nomlari	Shaxs nomlari	Badiiy asar, gazeta va jurnal nomlari
Rio de Janeyro, Argentina	*Jon Lennon, Xorxe Luis Borxes, Nikolay Nosov, Alisher Navoiy, Abdulla Qahhor, Oybek, Aziz Nesin, Antuan de Sent-Ekzyuperi, Pushkin, L. N.Tolstoy*	*“Bilmasvoy va uning sarguzashtlari”, “Gulxan”, “G‘uncha”*

Alohida so‘zlar. Sintaksis

Matnda uyushiq bo‘laklar ishtirok etgan gaplardan birini tanlang va namunadagidek tahlil qiling.

Mazkur topshiriq matnni lingvistik tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Bunda o‘quvchilar matn tarkibidan uyushiq bo‘laklar qatnashgan gaplarni aniqlab, namuna asosida tahlil qilib yozishlari lozim. Bu jarayonda o‘quvchi matndagi uyushiq bo‘laklar ishtirok etgan gaplarning barchasini emas, ikkitasini tahlil qila olsa ham, qabul qilinadi. Asosiy e’tibor uyushiq bo‘laklarning gapdagi mazmunini tushunishlariga qaratiladi.

Uyga vazifa

Yozma nutq. Ma’lumot to‘plash

“Mening yo‘lchi yulduzim” mavzusida matn yozishga tayyorlanish.

O‘quvchilar bu jarayonga tayyorlanib kelishlaridan avval yo‘naltiruvchi savollar bilan suhbat tashkil qilinishi maqsadga muvofiq.

Masalan:


1. *“Yo‘lchi yulduzim” deganda nimani tushunasiz?*
2. *Siz kimni “Yo‘lchi yulduzim” deya*

olasiz? Nima uchun?

3. *U qanday qilib yo'lchi yulduzingizga aylangan?*

4. *Uning o'ziga xos xislatlari nimada?*

4-soat


Matndagi uyushiq bo'laklar ishtirok etgan gaplardan birini tanlang va namunadagidek tahlil qiling.

Namuna G'alati o'yinchoq bo'lsa kerak, deya akalarim va men qotib turardik.

1. Uyushiq bo'laklar: akalarim va men.
2. Gapdagi vazifasi: ega.
3. Uyushiq bo'laklarni bog'lovchi vosita: va.

"Mening yo'lchi yulduzim" mavzusida matn yozishga tayyorlaning.

"Mening yo'lchi yulduzim" mavzusida ijodiy matn yozing. Berilgan ko'rsatmalarga rioya qiling.

Matningiz quyidagi qismlardan iborat bo'lishi lozim:

kirish

asosiy qism

xulosa

Matningizda quyidagi til birliklari va rasmlardan foydalanishga harakat qiling:

atoqli otlar (kishilar, predmet, hodisa va joylarga atab qo'yilgan otlar)

olmoshlar (hamma, butun, har kim, har bir, jami, har qachon, har qayerda)

uyushiq bo'laklar

42

Dars jarayoni

Kirish

"Mening yo'lchi yulduzim" mavzusida matn yozish uchun qanday ma'lumotlar to'pladingiz?

Asosiy qism

Yozma nutq. Matn yozish

"Mening yo'lchi yulduzim" mavzusida ijodiy matn yozing. Berilgan ko'rsatmalarga rioya qiling. Quyidagi tanlovlardan foydalanishingiz mumkin.

Mazkur topshiriq o'quvchilarning matn yozish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar rasm asosida berilgan tanlovlardan biri hamda uyda tayyorlab kelgan ma'lumotlari asosida ijodiy matn yozishlari lozim.

Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning matn tuzilishiga oid berilgan ko'rsatmalardan foydalanishlari hamda talab etilgan til birliklarini o'rinli qo'llab, matn yoza olishlariga qaratiladi.

Yozma nutq. Tahlil

Yozgan matningizni taqdim etishga tayyorlaning, xatolar ustida ishlang.

Ushbu topshiriq matnni tahrir qilish, o'z xatolari ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Bunda o'quvchilar yozgan matnlarini qayta o'qib, undagi xato va kamchiliklarni aniqlab, kerakli o'rinlarni tuzatishlari, o'zgartirishlari, uyushiq bo'laklar hamda mavzuga oid til birliklari bilan to'ldirishlari lozim.

Og'zaki nutq

Do'stingizdan sizga o'z yo'lchi yulduzi haqida gapirib berishini so'rang. Uning nutqini kuzating. Nutqidagi muhim ma'lumotlarni yozib oling. Suhbatingiz mazmunli bo'lishi uchun do'stingizga quyidagi savollar bilan murojaat etishingiz mumkin.


Mazkur topshiriq o'quvchilarda axborotni qabul qilish, tushunish hamda unga munosabat bildirish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Bunda o'quvchilar yo'naltiruvchi savollar asosida do'stlarining nutqini tinglashi va unga munosabat bildira olishi kerak.

Bu topshiriqdan o'quvchilar orasida jurnalistika sohasiga qiziquvchilarning iqtidorini yuzaga chiqarish hamda tortinchoq o'quvchilarning kommunikativ aloqaga kirishish ko'nikmasini shakllantirish maqsad qilingan.

C VITAMINI

Nutqiy mavzuning maqsadi: infografika va yo‘riqnoma shaklida berilgan ma’lumotlarni o‘qib tushunish; olinma so‘zlar, nutqiy mavzu doirasidagi atamalar, ularning talaffuzi va imlosi bilan tanishish; shakldosh so‘zlar va ularning ma’nolari ustida ishlash; sifat va son so‘z turkumi, uning so‘rog‘i, sifat so‘z turkumining tuzilishiga ko‘ra turlari bilan bog‘liq lingvistik bilimlarni mustahkamlash.

1-soat



Dars jarayoni

Kirish

Yangi nutqiy mavzu e’lon qilinadi. Ushbu mavzu doirasida nimalar haqida suhbatlashish mumkinligi so‘raladi. O‘quvchilardan C vitamini haqida bilganlarini so‘zlab berishni so‘rash mumkin.

Asosiy qism

O‘qib tushunish va og‘zaki nutq

Infografikaga asoslanib C vitamini haqida so‘zlab bering.

Infografika shaklida berilgan ma’lumotlarni o‘qib tushunish, unda keltirilgan ma’lumotlar yuzasidan berilgan savollarga javob topish, mavjud ma’lumotlardan foydalana olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

O‘qituvchi infografika nima ekanini eslatadi, u qanday qismlardan iborat ekani, unda nimalar tasvirlangani haqida so‘raydi. Quyidagi savollar asosida suhbat tashkillashtiriladi.

1. C vitaminiga boyligi bo‘yicha qaysi mahsulotlar 1-, 2-, 3-o‘rinni egallaydi?

O‘quvchilar infografikaning birinchi qismida berilgan ma’lumotlarga e’tibor qaratadilar. Tarkibida C vitamini bor mahsulot nomlarini ketma-ketlikda har bir mahsulot tarkibida qancha miqdorda ushbu vitamin uchrashi haqida ma’lumot beradilar. O‘qituvchi ushbu ko‘rsatkichlar 100 g mahsulotga nisbatan olinganini eslatadi.

2. C vitamini tanamiz uchun qanchalik muhim?

Infografikaning o‘ng tomonida C vitaminining qaysi tana a’zolari uchun muhim ekani haqidagi ma’lumotga o‘quvchilar e’tibori qaratiladi. O‘quvchilar uni o‘zlari bilgan qo‘shimcha ma’lumotlar bilan to‘ldirishlari ham mumkinligi aytiladi.


3. C vitaminining qaysi xususiyatini eng muhim deb hisoblaysiz? Javobingizni asoslang.

Yuqoridagi savolga berilgan javobdan kelib chiqqan holda ushbu vitaminning eng muhim xususiyati haqidagi fikrlar

tinglanadi. Har bir o‘quvchi turli javob berishi mumkin, o‘qituvchi ularning hech birini inkor etmaydi, faqat o‘quvchilardan o‘z fikrini asoslab berishni so‘rashi kerak.

4. Sizning C vitaminiga bo‘lgan kundalik ehtiyojingiz qancha?

O‘quvchilar infografikada keltirilgan o‘z yoshlariga mos ma’lumotlardan foydalangan holda savolga javob beradilar. O‘qituvchi shu o‘rinda boshqa yoshdagi insonlarni ham misol tariqasida keltirishi mumkin. Ammo ularning yoshini aytish orqali emas. Masalan, “Oyingizning, matematika o‘qituvchisining bu vitaminga kundalik ehtiyoji qancha miqdorni tashkil qilishi mumkin?” singari qo‘shimcha savollar bilan murojaat etish tavsiya etiladi.


1. C vitaminiga boyligi bo‘yicha qaysi mahsulotlar 1-, 2-, 3-o‘rinni egallaydi?
2. C vitamini tanamiz uchun qanchalik muhim?
3. C vitaminining qaysi xususiyatini eng muhim deb hisoblaysiz? Javobingizni asoslang.
4. Sizning C vitaminiga bo‘lgan kundalik ehtiyojingiz qancha?

Infografika asosida beshta xulosa yozing.

Namuna *Katta yoshli erkaklar bir kunda eng kamida 90 mg C vitamini iste’mol qilishi kerak.*

Infografika asosida quyida berilgan vaziyatlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang. Xulosangizni asoslang.

1	Azizaning oyisi charchoq hissi hamda milklarining tez-tez qonashidan shikoyat qilib shifokor ko‘rigiga bormoqchi. Qo‘shnisi unga ko‘proq petrushka va qizil qalampir yeyishni tavsiya qildi.
2	Pishloq, baliq va qo‘ziqorin B2 vitaminiga boy. Ularni karam, kartoshka va limon bilan qo‘shib yeyish juda foydali.
3	Bekzodning yoshi 12 da, u C vitaminiga bo‘lgan kunlik ehtiyojini qoplash uchun har kuni bittadan olma yeydi.
4	Nodir o‘yin chog‘ida jarohat oldi. Buvisi undagi yara tezroq bitishi uchun C vitaminiga boy mahsulotlardan ko‘proq iste’mol qilish kerakligini aytdi.
5	Salima maktabning 9-sinfida o‘qiydi. Oyisi unga har kuni 100 g na’matak mevasidan damlama tayyorlab beradi. Salima uni kun bo‘yi ichib yuradi.

Sonlar miqdor yoki tartibni bildiradi. Shunga ko‘ra, ular ikki guruhga bo‘linadi: **1) miqdor sonlar; 2) tartib sonlar.**
Miqdor sonlarning ishlatilishiga misollar:
Ushbu taomni yanada xushbo‘y qilish uchun unga **bitta** limon suvini siqib, solish mumkin.
100 g na’matak mevasidan tayyorlangan sharbatni oilamiz bilan ichdik.
Tartib sonlarning qo‘llanishiga misollar:
Insonning **birinchi** ehtiyojlari sirasiga ilm olishni ham kiritish kerak.
Yettinchi sinfda o‘qiydigan bolalarning C vitaminiga bo‘lgan bir kunlik ehtiyoji o‘g‘il bolalar uchun 75 mg ni, qizlar uchun esa 65 mg ni tashkil etadi.

46

Yozma nutq

Infografika asosida beshta xulosa yozing.

Infografika shaklida berilgan ma’lumotlar asosida xulosalar chiqarish ko‘nikmasi rivojlantiriladi.

Namuna asosida infografikadan kelib chiqqan xulosalarni yozish so‘raladi.

O‘qib tushunish

Infografika asosida quyida berilgan vaziyatlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang. Xulosangizni asoslang.

Infografikada berilgan ma’lumotlarni kundalik hayotga tatbiq etish, ulardan foydalana olish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni shakllantirish ustida ish olib boriladi.

O‘quvchilar infografikada berilgan ma’lumotlar asosida topshiriqni bajarishlari kerakligi aytiladi. Infografikaga bog‘liq bo‘lmagan bilimlardan foydalanmaslik kerakligi yodga solinadi. Har bir javob infografikada berilgan ma’lumotlar asosida tushuntirilishi zarurligi haqida ogohlantiriladi.

1. Noto‘g‘ri (chunki petrushka va qizil qalampir tarkibida ko‘p miqdorda C vitamini uchraydi, C vitaminining me’yordan oshish holati aynan charchoq hissini keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham Azizaning oyisi C vitamini uchraydigan mahsulotlarni kamroq iste’mol qilishi kerak).

2. Noto‘g‘ri (chunki infografikada B2 vitaminiga boy mahsulotlar bilan C vitaminiga boy mahsulotlarni qo‘shib yeyish zararli ekani haqida ma’lumot mavjud).

3. To‘g‘ri (chunki bitta olmaning tarkibida 50 mg gacha C vitamini mavjud. Bu 12 yoshli bola uchun me’yor sanaladi).

4. To‘g‘ri (chunki C vitaminiga boy mahsulotlar yaralarning tezroq bitishiga yordam beradi).

5. Noto‘g‘ri (chunki Salima hali maktab o‘quvchisi, uning C vitaminiga bo‘lgan kundalik ehtiyoji 40–50 mg ni tashkil etadi, 100 g na’matak mevasi tarkibida esa 470 mg C vitamini mavjud. Bu Salima uchun juda ko‘p).

O‘qituvchi darslikda berilgan qoida hamda bir nechta misollar asosida sonlar bilan bog‘liq nazariy ma’lumotni tushuntiradi.

Yozma nutq

Berilgan jadval asosida turli yoshdagi kishilarning C vitaminiga bo‘lgan kundalik ehtiyojini ta’minlash uchun tavsiyalar yozing. Bunda yuqorida berilgan infografika ma’lumotlari hamda miqdor va tartib sonlardan foydalaning.

Ushbu topshiriq orqali o‘quvchilarda infografika hamda keyingi jadvalda keltirilgan ma’lumotlarni o‘zaro bog‘lay olish, ulardan kundalik vaziyatlarda foydalana olish bilan bog‘liq ko‘nikmalar shakllantiriladi.

O‘rganilgan qoidalar hamda ma’lumotlar yordamida tavsiyalar yoziladi. Bunda jadvalda berilgan ma’lumotlar bilan infografikada berilgan ma’lumotlarni bog‘lay olish zarurligi tushuntiriladi. O‘qituvchi namuna asosida topshiriqni bajarish jarayoni haqida ma’lumot beradi.

Yozma nutq

Uyga vazifa

Belgilash olmoshlaridan foydalanib C vitamini iste’moli bilan bog‘liq 7 ta tavsiya yozing.

Mavjud va darsda o‘rganilgan ma’lumotlar asosida tavsiyalar yoza olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

Ushbu topshiriqni bajarishda mavjud hamda dars davomida o‘rganilgan ma’lumotlardan erkin foydalanish mumkinligi, shu asosda tavsiyalar yozish kerakligi aytiladi. Tavsiya yozishda imkon qadar uning kimga mo‘ljallangani hamda nimada foydali ekani haqida batafsil ma’lumot berish kerakligi tushuntiriladi.

2-soat


QO‘LLASH BO‘YICHA YO‘RIQNOMA

Preparatning savdo nomi: Vitamin C
Ta’sir etuvchi modda: askorbin kislotasi
Dori shakli: chaynaladigan tabletkalar

Tarkibi (bir tabletka):
faol modda: askorbin kislotasi – *300 mg;*
yordamchi moddalar: qand kukuni yoki saxaroza, laktoza, sukraloza, polivinilpirrolidon K30, sorbitol, aerosil, magniy stearati yoki kalsiy stearati, quruq apelsin xushbo‘yi.

Tavsifi
To‘q sariq rangli va oq dog‘lari bo‘lgan, dumaloq, yassi shaklli, och sariq rangli, bir tomoni ariqchali tabletkalar.

Farmakoterapevtik guruhi
Vitamin.

Farmakologik xususiyatlari
Askorbin kislotasi (C vitamini) organizmda uglevodlar almashinuvi, qon ivishi, to‘qimalar regeneratsiyasini boshqarishda, immunitetni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Odam organizmi askorbin kislotasini ishlab chiqarmaydi, bu vitamin faqat ovqat bilan tanaga kiradi. Me’yorida, to‘g‘ri va sifatli ovqatlanilsa, organizmda C vitamini taqchilligi sezilmaydi.

Qo‘llanishi
C vitamini bolalarning faol o‘sish davrida, homiladorlikda, emizishda, aqliy zo‘riqishda, toliqishda, stress holatlarida, uzoq va og‘ir kasalliklardan keyingi sog‘ayish davrida qo‘llanadi.

Nojo‘ya ta’sirlari
• Preparat allergik reaksiyalarga sababchi bo‘lishi mumkin.
• Me’da-ichak yo‘llarining shilliq qavatlariga nojo‘ya ta’sir qilish ehtimoli bor.

Qo‘llash mumkin bo‘lmagan holatlar
Qon ivishi ortganda, qandli diabetda va qonda qand miqdorining oshishi bilan kechadigan holatlarda katta dozada qabul qilish mumkin emas.

Maxsus ko‘rsatmalar
Preparat bolalar ololmaydigan joyda saqlansin va yaroqlilik muddati o‘tgach, qo‘llanmasin.

Saqlash sharoiti
Quruq, yorug‘likdan himoyalangan joyda, +25°C dan yuqori bo‘lmagan haroratda saqlansin.

Yaroqlilik muddati
2 yil.
Dorixonalardan berish tartibi
Shifokor retseptisiz.

48

Dars jarayoni

Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so‘ng o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat etiladi:

1. Yo‘riqnoma deganda nimani tushunasiz?

2. Yo‘riqnomalarda qanday ma’lumotlar aks etgan bo‘ladi?

3. Ular bizga nima uchun kerak deb o‘ylaysiz?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Yo‘riqnoma matni bilan tanishing.

Yo‘riqnoma shaklida berilgan matnlarni o‘qib tushunish, ulardan foydalana olish bilan bog‘liq ko‘nikmalar shakllantiriladi.

Yo‘riqnoma matni bilan tanishish aytiladi. O‘quvchilar yo‘riqnoma matnini

diqqat bilan o‘qiydilar. Uning qanday qismlardan iborat ekaniga e’tibor qaratiladi.

1. Dori ichishdan oldin qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma bilan tanishish nega muhim?

O‘quvchilar bilan yo‘riqnoma matnining vazifasi va uning ahamiyati haqida suhbat olib boriladi.

2. C vitaminining fanda yana qanday nomi bor?

Yo‘riqnoma matnida ochiq holatda berilgan ma’lumot aniqlanadi va savolga javob beriladi. Bunday nomlarning yo‘riqnomada berilishidan ko‘zlangan maqsad haqida so‘raladi.

3. Oxirgi marta qachon, qanday mahsulotning qo‘llanish bo‘yicha yo‘riqnomasi bilan tanishdingiz?

O‘quvchilar o‘z hayotlarida uchragan vaziyatlar asosida savolga javob topadilar.

4. Yo‘riqnomalarda faol va yordamchi moddalar ajratib ko‘rsatiladi. Ularning farqi nimada bo‘lishi mumkin?

Faol va yordamchi modda nima ekani so‘raladi, ularning ma’lum bir dori tarkibidagi ulushi haqida so‘z boradi. Bunday ma’lumotlardan ko‘zlangan maqsad haqida so‘raladi, ehtiyoj sezilsa, o‘qituvchi tomonidan qo‘shimcha ma’lumotlar beriladi.

5. Yo‘riqnomada dori tavsifi berilishi nima uchun muhim?

Yo‘riqnoma va undagi ma’lumotlarning, dorining ko‘rinishi haqidagi ma’lumotning qay darajada muhimligi, agar bunday ma’lumot keltirilmagan bo‘lsa, qanday holatlar yuzaga kelishi mumkinligi haqida aytiladi.

6. Mazkur preparat qanday salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin ekan?

Yo‘riqnoma matnidan aynan savolda so‘ralgan ma’lumot berilgan qismga diqqatni qaratish so‘raladi, ushbu ma’lumotning ahamiyati haqida so‘z boradi.

7. “Qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma” doridan tashqari yana nimalarda bo‘ladi?

Hayotiy kuzatuvlar asosida savolga javob beriladi, bunday ma’lumotlarning foydali jihatlari haqida so‘z boradi.

Leksikologiya

Berilgan so‘zlarni izohi bilan moslashtirib ko‘chiring.

Yo‘riqnoma matnida uchraydigan ayrim so‘zlar izohi bilan tanishtiriladi.

Berilgan so‘zlarni o‘z izohlari bilan yozib olish so‘raladi. Ushbu so‘zlarning talaffuzi va imlosi haqida qo‘shimcha savollar bilan murojaat etiladi.

Preparat — laboratoriya yoki fabrikada tayyorlangan kimyoviy yoki farmatsevtik mahsulot.

Modda — massaga ega bo‘lgan zarralar majmui, jismlarni tashkil qilgan narsa.

Regeneratsiya — organizmning yo‘qolgan yoki jarohatlangan a’zo va to‘qimalarni qayta tiklashi.

Stress — tashqi ta’sir natijasida sodir bo‘ladigan kuchli hayajonlanish, bezovtalik, asabiylik holati.


Doza — biror narsaning aniq o‘lchovga ega miqdori.

Shifokor retsepti — shifokorning dori tarkibi, dozasi va undan qanday foydalanish haqida bemorga beradigan yozma ko‘rsatmasi.

Tavsif — sifat-belgilarning bayoni, ta’rifi, tasviri.

Yo‘riqnoma matni asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

Yo‘riqnoma matni qismlarini ajrata olish, so‘ralgan ma’lumotni qidirish va aniqlash, ularni izohlay olish bilan bog‘liq ko‘nikmalar mustahkamlanadi.



1. Dori ichishdan oldin qo'llash bo'yicha yo'riqnoma bilan tanishish nega muhim?
2. C vitaminining fanda yana qanday nomi bor?
3. Oxirgi marta qachon, qanday mahsulotning qo'llash bo'yicha yo'riqnomasi bilan tanishdingiz?
4. Yo'riqnomalarda faol va yordamchi moddalar ajratib ko'rsatiladi. Ularning farqi nimada bo'lishi mumkin?
5. Yo'riqnomada dori tavsifi berilishi nima uchun muhim?
6. Mazkur preparat qanday salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin ekan?
7. "Qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" doridan tashqari yana nimalarda bo'ladi?

O'qib tushunish

1. Yo'riqnomadan C vitaminining organizm uchun zarurligini bildiruvchi uchta ma'lumotni ko'chiring.

2. C vitamini qabul qilish tavsiya etiladigan uchta holatni yozing.

3. C vitamini qabul qilish tavsiya etilmaydigan uchta holatni yozing.

Yo'riqnoma matnidan topshiriq shartidagi ma'lumotlar berilgan qismlar aniqlanadi va yoziladi. O'quvchilarga topshiriqni bajarishda matnga tayanish kerakligi aytiladi.

Yo'riqnoma matni asosida berilgan testlarni yeching. Test kalitini tuzib, javoblarni daftarga belgilang.

Yo'riqnoma matnida berilgan ma'lumotlarni hayotiy vaziyatlarga tatbiq eta olish bilan bog'liq ko'nikmalar shakllantiriladi.

Testlar yechilgach, o'quvchi o'z javoblarini izohlaydi, qolgan javoblar nima uchun noto'g'ri ekanini tushuntiradi.

1. B 2. C.

O'qib tushunish


Uyga vazifa

Bolalar ichishi mumkin bo'lgan biror dorining qo'llash bo'yicha yo'riqnomasi bilan tanishing. Undan o'zingiz eng muhim deb bilgan beshta ko'rsatmani ko'chiring.

Yo'riqnoma matnini o'qiy olish, undan foydalana olish bilan bog'liq ko'nikmalar mustahkamlanadi.

O'quvchilar uylarida mavjud bo'lgan yo'riqnoma matnlari bilan tanishadilar, undagi qaysi ma'lumotlar muhimligini ajratib oladilar va daftarlariga yozib keladilar.

3-soat



Matnda qo'llangan olinma so'zlarni ajratib yozing, ularni talaffuz qilish mashqlarini bajaring.

C vitaminining dori shaklidagi tavsifiga oid qismni ko'chirib oling. "Qanday?" so'rog'iga javob bo'luvchi so'zlarning tagiga chizing.

O'zingiz ichgan birorta dorining shunday tavsifini yozing.

Sifatlar tuzilishiga ko'ra **sodda, qo'shma, juft** va **takroriy** bo'ladi.
Sodda sifatlar: *sariq, qalin, tinch, berahm.*
Qo'shma sifatlar: *qimmatbaho, shifobaxsh, kamgap.*
Juft sifatlar: *yaxshi-yomon, maza-bemaza, yakka-yu yagona.*
Takroriy sifatlar: *mayda-mayda, oppoq-oppoq, shirin-shirin, yo'l-yo'l.*
Qo'shma sifat qismlari qo'shib, juft va takroriy sifat qismlari esa chiziqcha bilan yoziladi.

Yo'riqnoma matnida ajratib ko'rsatilgan so'zlardan "qanday?" so'rog'iga javob bo'luvchi so'zlarni aniqlang. Ularni sodda tub va sodda yasama sifatlarga ajratib yozing.

Sodda tub sifatlar	Sodda yasama sifatlar
?	?

Quyida berilgan sifatlarni tuzilishiga ko'ra to'rt turga ajrating. Ular ishtirokida nutqiy mavzuga doir gaplar tuzib, yozing.

Sersuv, xushta'm, achchiq-achchiq, ta'msiz, shifobaxsh, katta-katta, katta-kichik, kamquvvat, barra-barra, turli-tuman, ichakuzdi, qoramtir.

Sodda sifatlar	Qo'shma sifatlar	Juft sifatlar	Takroriy sifatlar

Yo'riqnoma matnidan sonlar bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan gaplarni ko'chirib oling. Ularni miqdor yoki tartibni ifodalashi bo'yicha tahlil qiling.

51

Dars jarayoni

Kirish

Darsning tashkiliy qismi o'tkaziladi, o'quvchilardan ushbu nutqiy mavzu

doirasida olib borilayotgan darslar haqida so‘raladi. Bugungi darsning umumiy mazmuni bo‘yicha ma’lumot beriladi.

Asosiy qism

Leksikologiya

Matnda qo‘llangan olinma so‘zlarni ajratib yozing, ularni talaffuz qilish mashqlarini bajaring.

Olinma so‘zlar, nutqiy mavzu doirasidagi atamalar, ularning talaffuzi va imlosi bilan tanishtiriladi.

O‘quvchilar matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga e’tibor qaratadilar, ularning talaffuzi va imlosida qanday farq borligi haqida suhbat tashkillashtiriladi. Ushbu mashqni avval og‘zaki tarzda so‘zlarni tahlil qilish va kitobni yopgan holda o‘qituvchining aytib turishi orqali, so‘ng tekshirish tarzida bajarish ham mumkin.

Morfologiya

C vitaminining dori shaklidagi tavsifiga oid qismni ko‘chirib oling. “Qanday?” so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘zlarning tagiga chizing.

So‘ralgan ma’lumotni matndan topish, sifat so‘z turkumi, uning so‘rog‘i bilan bog‘liq lingvistik bilimlar mustahkamlanadi.

Yo‘riqnoma matnida keltirilgan ma’lumotlar yozib olinadi, undagi “qanday?” so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘zlar tagiga chizish aytiladi.

Yozma nutq

O‘zingiz ichgan birorta dorining shunday tavsifini yozing.

Sifat so‘z turkumidan foydalanish bilan bog‘liq ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

O‘quvchilar o‘zlari ichgan birorta dorini shunday tavsiflab yozadilar. Bunda “qanday?” so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘zlardan foydalanish kerakligi aytiladi.

Morfologiya

Sifat so‘z turkumi, uning tuzilishiga ko‘ra turlari haqida nazariy ma’lumot beriladi.

Yo‘riqnoma matnida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardan “qanday?” so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘zlarni aniqlang. Ularni sodda tub va sodda yasama sifatlarga ajratib yozing.

Sifat so‘z turkumiga oid bilimlarni mustahkamlanadi.

Yo‘riqnoma matnida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar ustida ish olib boriladi. Ularni guruhlarga ajratishda darslikda berilgan qoidaga tayanish kerakligi aytiladi.

Morfologiya va yozma nutq

Quyida berilgan sifatlarni tuzilishiga ko‘ra to‘rt turga ajrating. Ular ishtirokida nutqiy mavzuga doir gaplar tuzib, yozing.

Sifat so‘z turkumi, uning tuzilishiga oid turlari bilan bog‘liq lingvistik bilimlar mustahkamlanadi.

Berilgan sifatlar jadvalga joylanadi, ular ishtirokida gaplar tuzib, yoziladi.

Morfologiya

Uyga vazifa

Yo‘riqnoma matnidan sonlar bilan bog‘liq ma’lumotlar keltirilgan gaplarni ko‘chirib oling. Ularni miqdor yoki tartibni ifodalashi bo‘yicha tahlil qiling.

Son va uning turlariga oid lingvistik bilimlar rivojlantiriladi.

Yo‘riqnoma matnidan son so‘z turkumiga oid so‘zlar aniqlanadi, darslikda berilgan qoida yordamida ular guruhlarga ajratiladi.

4-soat



Berilgan matnni o‘qing. Shu matn asosida limon iste’mol qilishga doir yo‘riqnoma yozing.

LIMON MEVASI HAQIDA

Limon mevasining nordon va o‘tkir ta’mi insonni tetiklashtiradi. Undagi C vitamini esa immunitetimizga turli kasalliklar bilan kurashishda yordam beradi.

Bundan tashqari, limon kislotasi ovqat hazm qilishni osonlashtiradi, organizmda moddalar almashinuvini yaxshilaydi. Temir moddasiga boyligi sabab kamqonlikni davolaydi. Eng muhimi, shamollashda juda ham samarali yordam beradi.

Biroq limonning zararli taraflari ham yo‘q emas. Masalan, oshqozon yoki ichak yarasidan aziyat chekayotganlar, sitrus mevalarga allergiyasi borlar uni iste’mol qilmasligi kerak. Limon tish emaliga salbiy ta’sir qiladi. Uni juda ko‘p miqdorda iste’mol qilish esa qon bosimiga yomon ta’sir ko‘rsatadi. Oshqozon shilliq qavatiga salbiy ta’sir etishi tufayli uni och qoringa iste’mol qilish tavsiya etilmaydi.

Limon yuqori haroratda foydali xususiyatlarini yo‘qotadi. Shu sababdan qaynoq choyga limon solish xato. Bir kunda bir necha bo‘lak limon iste’mol qilish mumkin. Limonning o‘zini yegandan so‘ng tish emaliga zarar keltirmasligi uchun og‘izni chayish zarur.

Limon xarid qilayotganda mevaning qattiq va tarangligiga e’tibor qiling. Meva yumshoq bo‘lsa, demak, eskirgan. Foydali va sersuv limonning po‘sti silliq va qattiq bo‘ladi.

Limonni sovitkichda 4–5 haftagacha konteyner yoki yelim xaltalarga solib saqlash mumkin. Xona haroratida esa bir haftacha yaxshi saqlanadi, so‘ng quriy boshlaydi.

Internet ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Eslatma

Yo‘riqnoma yozganda “Vitamin C” preparatini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomadan andaza oling. Yoriqnoma qismlari uchun sarlavhalar qo‘ying.

Oila a’zolaringizdan limonning kundalik hayotdagi maishiy ahamiyati (tozalikni saqlashda, dog‘larni ketkazishda va h.k.) haqida so‘rang. O‘rganganlaringizni eslatma sifatida yozib oling.

Quyidagi parchada ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning asosini aniqlang. Ularni namunadagidek tahlil qilib, yozing.

Namuna

Yara.

1. Inson tanasining shikastlanishidan hosil bo‘ladi.
2. Biror ishni bajarishga loyiq bo‘lmoq; bajara olmoq; asqatmoq.

Biroq limonning zararli taraflari ham yo‘q emas. Masalan, oshqozon yoki ichak **yara**sidan aziyat **chek**ayotganlar, sitrus mevalarga allergiyasi **bor**lar uni iste’mol qilmasligi kerak. Limon tish emaliga salbiy ta’sir qiladi. Uni juda ko‘p miqdorda iste’mol qilish esa **qon** bosimiga yomon ta’sir **ko‘r**satadi. Oshqozon shilliq **qavat**iga salbiy ta’sir etishi tufayli uni **och** qoringa iste’mol qilish tavsiya etilmaydi.

52

Dars jarayoni

Kirish

Darsning tashkiliy qismi o‘tkaziladi, bugungi darsda limon va uning iste’moli bilan bog‘liq yo‘riqnoma matni yozilishi haqida ma’lumot beriladi.

Asosiy qism

Yozma nutq

Berilgan matnni o‘qing. Shu matn asosida limon iste’mol qilishga doir yo‘riqnoma yozing.

Yo‘riqnoma matni yozish, berilgan mavzuga oid ko‘rsatmalarni muayyan qismlar va kichik sarlavhalar ostida berish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

Berilgan matn o‘qib chiqiladi. Undagi ma’lumotlar hamda o‘quvchilarning o‘zlarida mavjud bo‘lgan bilimlar asosida yo‘riqnoma matnini yozish so‘raladi. Yo‘riqnomaning eng muhim qismlari haqida eslatib o‘tiladi, shu asosda topshiriq bajariladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning yozma ishlarini nazorat qilib turadi, ularga kerakli ko‘rsatmalarni beradi. Yozilgan ishlar tahlil qilinadi, ularga munosabat bildiriladi va baholanadi.

Uyga vazifa

Oila a’zolaringizdan limonning kundalik hayotdagi maishiy ahamiyati (tozalikni saqlashda, dog‘larni ketkazishda va h.k.) haqida so‘rang. O‘rganganlaringizni eslatma sifatida yozib oling.

Nutqiy mavzu doirasidagi ma’lumotlarni matn ko‘rinishida yoza olish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Eslatmalarni qanday shaklda yozib olish foydali ekani haqida o‘ylab ko‘rish kerakligi aytiladi.

Quyidagi parchada ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning asosini aniqlang. Ularni namunadagidek tahlil qilib, yozing.


Shakldosh so‘zlar va ularning ma’nolari ustida ishlanadi.

Matndan olingan parchada ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar qanday asosdan hosil bo‘lgani aniqlanadi, ular shakldosh so‘z ekani, har bir so‘zning birdan ortiq ma’nosi borligi aytiladi. Ushbu ma’nolar aniqlanadi va namunadagidek yoziladi.

KURASH – MILLIY SPORT TURI

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilarda kurash tarixi, milliy an’analar haqida tasavvur hosil qilish va mavzuga oid til birliklarini nutqida faollashtirish; sifatlar imlosi, ularning yasalishi, ma’nolari ustida ishlash; bog‘lovchilar imlosi; matnning tarkibiy qismlarini bog‘lovchi vositalarni aniqlash; dialog yozish qoidalarini o‘rgatish; berilgan matnning asosiy g‘oyasini aniqlash, ushbu g‘oyani yuzaga chiqaruvchi matn qismlarini ajratish, sport mavzusiga oid suhbat matnini yaratish, ularda murojaat birliklari, soha bilan bog‘liq atamalardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.

1-soat



KURASH – MILLIY SPORT TURI

Bu mavzuda o‘rganamiz

• milliy kurash tarixi • an’analar • sifatlarning yasalishi • bog‘lovchilar • dialog tuzish • murojaat birliklari.

1. “Monolog” hamda “dialog” atamalari haqida nimalarni bilasiz?
2. Monolog va dialogning farqli jihatlari nimada ko‘rinadi?

Ushbu chizmani xattaxtada to‘ldiring.

monolog

dialog

“Yulduzlar mangu yonadi” asaridan olingan parchalarni to‘g‘ri ketma-ketlikda qo‘yib, dialog hosil qiling.

1 – Yana-tag‘in jahon sporti emish deng.

2 – U fransuzlarniki-a?

3 – Himm, juda lanj olish. Klassik kurashda oyoq bilan chil berish degan gap yo‘q.

4 – Mengboy kalning gapida jon bor. Kitoblik Sayfiddin Hodiyev bor-ku, yaqinda o‘sha bilan o‘tirib qoldim. Trenerlar meni jahon chempioni qilib yetishtirdim deb suyunadi, bilmaydilarki, men bolaligimdan to‘ylarda olishib yurgan tayyor polvon edim, deydi.

5 – Shu, Maksim polvon juda sovuq olishar ekan, nima dedingiz?

6 – Aytganday, shu bola ikki marta jahon chempioni bo‘ldi-ya.

7 – Balli! Uzoqlarga qarab yashaymiz-u, oyog‘imiz ostidagi gavharni ko‘rmaymiz.

8 – Shu, fransuzlargayam qoyilman, o‘zining olishini butun jahonga yoygan.

9 – Sportchi-da, seksiyada tarbiya topgan. Ular kitobda nima yozilgan bo‘lsa, shuni qiladi.

54

Dars jarayoni

Kirish

1. *“Monolog” hamda “dialog” atamalari haqida nimalarni bilasiz?*
2. *Monolog va dialogning farqli jihatlari nimada ko‘rinadi?*

Bu savollar “monolog” va “dialog” birliklarining ma’nosini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilardan ushbu birliklar haqidagi dastlabki tushunchalari so‘raladi. So‘ngra o‘qituvchi bildirilgan fikrlarni to‘ldirib, ushbu birliklarga izoh beradi.

Monolog – o‘z-o‘ziga yoki o‘zgalarga qaratilgan, javob talab qilmaydigan nutq.

Dialog – ikki yoki bir necha kishi o‘rtasidagi nutq, suhbat.

Asosiy qism

Yozma nutq. Munosabat bildirish

Ushbu chizmani xattaxtada to‘ldiring.

Mazkur topshiriq ikki narsani o‘zaro taqqoslash, fikrlarni tartiblab ifodalash ko‘nikmasini shakllantiradi. O‘quvchilar yuqoridagi savol-javob asosida o‘zlashtirgan bilimlari hamda ushbu birliklarga oid tushunchalari asosida ushbu chizmani to‘ldirishlari lozim.

Bunda avval o‘qituvchi tomonidan “Venn diagrammasi” va unda ma’lumotlarning joylashtirilishi haqida aytib o‘tilishi maqsadga muvofiq. So‘ngra o‘quvchilar tartib bilan chiqib, ushbu birliklar haqidagi fikrlarini jadvalning mos o‘rniga yozishlari kerak.

Og‘zaki nutq

“Yulduzlar mangu yonadi” asaridan olingan parchalarni to‘g‘ri ketma-ketlikda qo‘yib, dialog hosil qiling.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarda berilgan gap mazmunini tushungan holda fikrlar ketma-ketligini tartiblab, yaxlit matn yaratish ko‘nikmasini shakllanti-

radi. O‘quvchilar berilgan gaplarni o‘qib, mazmunan tartiblab, dialog ko‘rinishiga keltirishlari lozim. Bunda gaplarni ketma-ketlikda ko‘chirib chiqish shart emas, gaplar tepasida berilgan raqamlardan foydalanib o‘zlari uchun belgilab olishlari yetarli. Bunda asosiy e’tibor suhbatni tushunishlari, savollar va javoblarni fikrlar ketma-ketligi asosida joylashtira olishlari hamda dialogni o‘qib bera olishlariga qaratiladi.

Javob: *5, 9, 11, 3, 1, 2, 8, 13, 10, 7, 12, 4, 6.*

— Shu, Maksim polvon juda sovuq olishar ekan, nima dedingiz?

— Sportchi-da, seksiyada tarbiya topgan. Ular kitobda nima yozilgan bo‘lsa, shuni qiladi.

— Televizorda Monreal olimpiadasini ko‘rdilaringizmi? Klassik kurashni olib ko‘rsatdi. Bir sovug‘-e, shuyam olish bo‘ldi-yu.

— Himm, juda lanj olish. Klassik kurashda oyoq bilan chil berish degan gap yo‘q.

— Yana-tag‘in jahon sporti emish deng.

— U fransuzlarniki-a?

— Shu, fransuzlargayam qoyilman, o‘zining olishini butun jahonga yoygan.

— Mo‘min muallim, mana, siz o‘qimishli odamsiz, uyingizda kitobingiz ko‘p deb eshitaman. Siz ayting, nega endi bir lanj klassik kurash butun jahon sporti bo‘ladi-yu, o‘zimizning olishni faqat to‘yda yo ”Hosil bayrami”da ko‘ramiz? Yo, olishimiz sport emasmi?

— Sport ham gapmi, san’at! Ko‘ryapsizmi, Tilovberdining o‘ynab olishuvini. Buni hech qaysi trener, seksiya ham o‘rgatolmaydi.

— Balli! Uzoqlarga qarab yashaymiz-u, oyog‘imiz ostidagi gavharni ko‘rmaymiz.

— Men yaqinda sambo olishi haqidagi kitobni ko‘rdim. Hamma chillarning rasmi bor. Xoh ishoning, xoh ishonmang, oyoqdan olishdan boshqa hammasi o‘zimizning olishda bor ekan-e.

— Mengboy kalning gapida jon bor. Kitoblik Sayfiddin Hodiyev bor-ku, yaqinda o‘sha bilan o‘tirib qoldim. Trenerlar meni jahon chempioni qilib yetishtirdim deb suyunadi, bilmaydilarki, men bolaligimdan to‘ylarda olishib yurgan tayyor polvon edim, deydi.

— Aytganday, shu bola ikki marta jahon chempioni bo‘ldi-ya.

Muhokama

O‘quvchilar dialogni o‘qib bo‘lganlaridan so‘ng, dialog matnini o‘qib tushunishga qaratilgan savollar asosida suhbat o‘tkaziladi.

1. Suhbat nima haqida edi?

Bu savol dialog mazmuni tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar dialogdan qanday mazmun chiqarganlarini o‘z tushunchalari asosida matn bilan asoslab aytib berishlari lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarni tinglagach, ularning fikrlarini to‘ldirib, dialog mazmunini tushuntirib berishi maqsadga muvofiq.

2. Suhbatdoshlar nima haqida kuyinib gapirishmoqda?

Bu savol matndagi ma’lumotlarni integratsiya qilib, yaxlit xulosa chiqarishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan ma’lumotlar asosida o‘z fikrlarini asoslab aytib bera olishlari lozim. Savolning javobini dialogning 8, 13, 10 raqamlari ostidagi ma’lumotlardan yaqqol anglash mumkin.

3. Qaysi so‘z “kurash” so‘ziga ma’nodosh sifatida qo‘llangan?

Bu savol so‘zning kontekstual ma’nosini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar matn tarkibidan “kurash” so‘zi o‘rnida qo‘llangan so‘zni topib, matn mazmuni asosida izohlab berishlari kerak.

Javob: *olish, olishuv.*

4. Nima deb o‘ylaysiz, suhbatda ko‘tarilgan muammo hozirgi kunda o‘z yechimini topganmi? Qanday?

Bu savol dialog mazmuni hamda shaxsiy kuzatishlar asosida javob berishga qaratilgan. Bunda asosiy e’tibor suhbatda ko‘tarilgan muammoning nima ekanini tushunishga qaratiladi.

Javob: *suhbatda kurashni jahon chempionati sporti darajasiga ko‘tarish muammo qilib chiqilgan, hozirgi kunda bu o‘z yechimini topgan. Kurash bo‘yicha bir necha marta jahon chempionatlari o‘tkazilib, yurtdoshlarimiz ularda ko‘plab oltin medallarni qo‘lga kiritganlarini misol keltirish mumkin.*

Qoida. Dialog

Amaliy topshiriq orqali o‘quvchilarda dialog nima ekani haqida tushuncha hosil qilinadi. So‘ng ushbu nazariy ma’lumot berilib, mustahkamlanadi.

Yozma nutq. Punktuatsiya

Yuqoridagi dialog parchalarining barchasida qo‘llangan tire belgisiga diqqat qiling. Tire belgisining bu xususiyati haqida qoida yarating.

Bu topshiriq tirening vazifasini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar yuqoridagi dialog matni asosida tirening qo‘llanishiga doir qoida yozishlari lozim.

Javob: *dialog matnlarida har bir gapning oldidan tire ishlatiladi.*

O‘qib tushunish. Og‘zaki nutq. Morfemika

Quyidagi dialogni rollarga bo‘linib o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni asos hamda so‘z yasovchi qo‘shimchalarga ajrating. Ba’zi so‘zlar asos va qo‘shimchaga emas, ikkita so‘zga ajraladi.

Ushbu topshiriq ikki bosqichli bo‘lib, birinchi bosqichida o‘quvchilar dialogni o‘z partadoshlari bilan rollarga kirib o‘qib berishlari zarur. Bunda asosiy e’tibor, gaplarni mazmuni, tinish belgilariga ko‘ra ohang bilan o‘qiy olishlari, kerakli o‘ringa urg‘uni qo‘ya olishlariga qaratiladi.

Topshiriqning ikkinchi bosqichi leksik bilimlarni amaliy topshiriq orqali mustahkamlashga qaratilgan. O‘quvchilar matn tarkibidan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni aniqlab, ularni asos va qo‘shimchalarga ajratib yozishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor so‘zlarni ma’nosiga ko‘ra qismlarga ajratish, so‘z yasalishini tushunishlariga qaratiladi.

Javob:

asos	***qo‘shimcha***	***so‘z***	***so‘z***
aql	*-li*	*dev*	*qomat*
gul	*-dor*	*quyon*	*yurak*
qulay	*no-*	*xom*	*semiz*
kasal	*-mand*		
harakat	*ser-*		

Muhokama

Ikki qariyaning suhbatiga tayanib ayting-chi, maykasimon kiyim kiyib chiqqan bola qaysi sport turi bilan shug‘ullanadi?

Bu savol suhbat matnini tushunish hamda hayotiy kuzatishlar asosida javob berishga qaratilgan. O‘quvchilar suhbat mazmuni hamda yuqoridagi dialog matnida tilga olingan kurashga o‘xshash sport – *sambo* haqida gap ketayotganini tushunishlari kerak.

Qoida. Morfemika

O‘quvchilar sifatlarning yasalishi bo‘yicha amaliy topshiriq orqali tushuncha hosil qilganlaridan so‘ng, ularning yasalishi nazariy ma’lumot asosida tushuntirib beriladi.


Uyga vazifa

Leksikologiya

Quyidagi jadvalga moslab so‘zlar yozib keling. Bunda “+” belgisi o‘sha narsa bor ekanini, “-” esa yo‘q ekanini anglatadi.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning mustaqil izlanib, ijodiy yondashishlariga qaratilgan. O‘qituvchi tomonidan jadvalni to‘ldirish uchun ko‘rsatma berib o‘tiladi. Unga ko‘ra, o‘quvchilar berilgan namuna asosida antonim so‘zlarni yozishlari lozim, bunda asosiy e’tibor *-li* va *-siz* sifat yasovchi antonim qo‘shimchalari ma’nosini tushunishga qaratiladi.

2-soat



Nega *jigarrang, havorang, siyohrang* so‘zlari qo‘shib yoziladi-yu, *oq rang, qizil rang* so‘zlari ajratib yoziladi?

Matnni o‘qing. Savollarga javob bering.

KURASHNING QAYTA TUG‘ILISHI

Kurash – sportning qadimiy turlaridan biri. U 5 ming yildan ortiq vaqtdan beri mavjud. O‘zbek kurashida xalqimizning ruhiyatiga, asl xislatlariga azal-azaldan xos bo‘lgan mardlik, jasurlik, bag‘rikenglik, raqibga nisbatan oliyjanoblik, halollik, insonparvarlik xususiyatlari mujassamlashgan.

Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, Amir Temur hukmronligi davrida milliy kurashning 400 ga yaqin usuli ma’lum bo‘lgan. Bu usullarning deyarli barchasi hozirgacha saqlanib qolgan.

Qadimdan bayram sayillarida, to‘ylarda odamlar to‘planib, davra hosil qilishgan va unda polvonlar o‘zaro kurash tushishgan. Odamlar qishloqqa qishloq, urug‘ga urug‘, tumanga tuman bo‘lib bellashishgan. G‘olibga turli sovg‘alar berilgan. Mag‘lubning o‘rtoqlari, aka yoki ukasi o‘z yeri va oilasi sha’nini himoya qilishni istasa, g‘olib bilan bellashishiga ruxsat berilgan. G‘irromlik qilgan, raqibiga atay zarar keltirmoqchi bo‘lgan polvonlar davradan quvilgan. Ular el orasida g‘irromchi deya nom chiqarib, sharmanda bo‘lganlar. Halol kurashganlarni esa hatto mag‘lub bo‘lsa ham, el olqishlagan. Kurashchilarning asosiy maqsadi o‘z tug‘ilgan yeri, ota-bobolari or-nomusini himoya qilish bo‘lgan.

57

Dars jarayoni

Kirish

Nega jigarrang, havorang, siyohrang so‘zlari qo‘shib yoziladi-yu, oq rang, qizil rang so‘zlari ajratib yozildi?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Matnni o‘qing. Savollarga javob bering.

Matn: “Kurashning qayta tug‘ilishi”.

Muallif: Asror Mo‘minov

O‘quvchilar matn bilan tanishib bo‘lganlaridan so‘ng, uni o‘qib tushunishga qaratilgan savol-javob o‘tkaziladi.

Muhokama

1. Muallif matnga nega shunday sarlavha tanlagan?

Bu savol matn mazmunini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar matn mazmunidan kelib chiqib, unga nima uchun bunday sarlavha tanlanganini izohlab berishlari kerak. Bunda asosiy e’tibor fikrlarni matn asosida asoslab berishga qaratiladi.

2. Kurash dastlab ko‘ngilochar o‘yin bo‘lganini matnning qaysi qismlaridan bilish mumkin?

Bu savol matn qismlarini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar matnning ushbu o‘rinlarni topib, javobni undagi jumlalar bilan dalillab aytib berishlari lozim.

3. Kurashni xalqaro darajaga olib chiqishda jonbozlik ko‘rsatgan polvon kim?

Bu savol javobi matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. O‘quvchilar matnning 5-qismida berilgan ma’lumot asosida javob berishlari kerak.

Javob: *Komil Yusupov*

4. Nima deb o‘ylaysiz, nega kurashning qonun-qoidalari xalqaro talablarga moslab qayta ishlab chiqildi?

Bu savol o‘quvchining shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishiga qaratilgan.

5. Bayram va to‘ylarda kurashchilar taroziga chiqib, keyin bellashmagani aniq, sizningcha, raqiblar qanday tanlangan?

Bu savol matndagi ma’lumotlarni integratsiya qilib, xulosa chiqarishga qaratilgan. O‘quvchilar matnning uchinchi xatboshisida berilgan ma’lumotlar asosida o‘z fikrlarini ifodalashlari lozim. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarga yo‘naltiruvchi savollar berib, javoblarini to‘ldirib borishi maqsadga muvofiq.

6. Kurashning qanday turlarini bilasiz?

Bu savol matn mazmuni asosida shaxsiy kuzatishlarga tayanib javob berishga qaratilgan. Bunda o‘quvchilardan aniq javob talab etilmaydi. O‘quvchilar o‘z tushunchalarini aytganlaridan so‘ng, bu haqida to‘liqroq ma’lumot berib o‘tilishi maqsadga muvofiq.

Bu savol o‘quvchilar orasida sportga qiziqadiganlarining iqtidorini namoyon qilishga qaratilgan.

7. Kurash atamalaridan qaysilarini bilasiz?

Bu savol o‘quvchi nutqida kurashga oid atamalarni faollashtirishga qaratilgan. O‘quvchilar ushbu atamalar va ularning izohlarini matn mazmuniga asosan aytishlari lozim.

8. Kurash bilan birga yana nimalar xalqaro sport maydoniga kirib bordi deb o‘ylaysiz?

Bu matnda implitsit (yashirin) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. O‘quvchilar matnning oltinchi, yettinchi qismlarida berilgan ma’lumotlar asosida savolning javobini anglashlari kerak. Bu jarayonda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi savollar bilan o‘quvchilarning javoblarini to‘ldirib borishi lozim.

Javob: *kurash tushishda kiyiladigan o‘zbeklarga xos milliy kiyim, sportning qonun-qoidalarini namoyon etadigan til birliklari.*

Leksikologiya

Quyidagi iboralarning kurashga qanday aloqasi bor?

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, berilgan iboralar haqida tushuncha hosil qilishga qaratilgan.

Dastlab o‘quvchilardan ushbu iboralar haqidagi tushunchalari so‘raladi. Bunda lug‘atdan foydalanib javob berish ham mumkin. Asosiy e’tibor ibora mazmunini tushunishga qaratiladi.

O‘quvchilarning fikri tinglab bo‘lingach, iboralar ma’nosi misollar bilan to‘liqroq tushuntirib berilishi lozim.

Og‘zaki nutq

Quyidagi jadvalda kurash bo‘yicha jahon chempionatlari haqida ma’lumot berilgan. Ushbu jadvalga tayangan holda partadoshingizga ikkita savol bering.

Mazkur topshiriq jadvalda berilgan ma’lumotlarni tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar jadvalda berilgan ma’lumotlar asosida partadoshlariga savol berishlari kerak.

Dars jarayoni quyidagicha olib boriladi:

1. O‘quvchilarga jadval bilan tanishish va u asosida 2 ta savol tuzish aytiladi.
2. O‘quvchilar tuzgan savollarini partadoshiga beradilar, partadoshi javobini aytib, o‘z savolini sherigiga beradi.

Bu topshiriq orqali o‘quvchilarda kommunikativ aloqaga kirishish, jadvalni tushunish hamda savol tuzish ko‘nikmasini shakllantirish maqsad qilingan.


Uyga vazifa

Yozma nutq

Quyidagi ma’lumotlarni jadval ko‘rinishida ifodalang.

Bu topshiriq ma’lumotlarni tushunish hamda mazmuniga moslab jadval ko‘rinishida ifodalashga qaratilgan. O‘quvchilar ma’lumotlar bilan tanishib, ularni ixtiyoriy jadvalda ifodalashlari mumkin. Bu jarayonda ma’lumotni qisqa ifodalash, rasm, raqamlardan foydalanish mumkinligi aytiladi.

3-soat



Quyidagi birikmalarni o‘qing. Ularning ma’nosida qanday farqlarni sezyapsiz? Bir xil ma’no anglatayotgan birikmalarni ketma-ket yozing.

Namuna *medal hamda kubok, medal bilan kubok*

medal va kubok yo medal, yo kubok dam medal, dam kubok medal ham kubok	medal yoki kubok medal hamda kubok goh medal, goh kubok	medal bilan kubok na medal, na kubok ba’zan medal, ba’zan kubok

Gaplarni o‘qing. Mazmun to‘g‘ri bo‘lishi uchun quyidagi so‘zlardan mosini qo‘yib, yozing.

va | bilan | biroq | ammo | chunki | lekin | balki

Hamma sport turini hurmat qilaman, ... kurashga mehrim bo‘lakcha.
Uning devday kelbati bor, ... yuragi yo‘q, qo‘rqoq.
Bo‘ri polvon raqibning hiylalariga uchmas, ... o‘ziga qarshi foydalanishga urinardi.
Tilovberdining to‘pori, ... aqlli do‘sti bor.
Naim tutaqib ketdi, ... bakovul raqibi g‘irrom qilganini ko‘rmaganga oldi.

So‘zlarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladigan birliklar **bog‘lovchilar** deyiladi. Ular o‘zidan oldin va keyin kelgan birliklarni turli maqsadlarda bog‘lashga xizmat qiladi.
Masalan:
medal ***va*** *kubok* (har ikkisi)
yo *medal,* ***yo*** *kubok* (ikkisidan faqat bittasi)
na *medal,* ***na*** *kubok* (ikkisi ham emas, hech biri)
ishyoqmas, ***ammo*** *aqlli; ishyoqmas,* ***lekin*** *aqlli; ishyoqmas,* ***biroq*** *aqlli* (ikki jihatning zidlanishi)
Bog‘lovchilar gaplarni ham bog‘lay oladi:
Eshik ochildi ***va*** *ichkariga Karima kirib keldi.*
O‘yin ertaroq tugadi, ***chunki*** *to‘pimiz teshilib qoldi.*
Hozir kelishib olaylik, ***toki*** *keyin tushunmovchilik bo‘lmasin.*

Quyidagi tushunchalar asosida gaplar tuzing. Bog‘lovchilardan foydalaning.

kurash bo‘yicha kubokni yutib oldi	u bilan kurashish armon bo‘lib qoldi
harakatlaridan ko‘ngli to‘lmadi	boshi og‘rib turgan edi
yurt bayrog‘ini baland ko‘tardi	hammani yenga olaman deb o‘yladi
yoshlarni mensimadi	kubokni yuta olmadi

61

Dars jarayoni

Kirish

1. *“Bog‘lamoq” so‘zining qanday ma’nolarini bilasiz?*

2. *Sizningcha, gaplar, so‘zlar bir-biriga nimalar vositasida bog‘lanadi?*

Asosiy qism

Yordamchi so‘zlar

Quyidagi birikmalarni o‘qing. Ularning ma’nosida qanday farqlarni sezyapsiz? Bir xil ma’no anglatayotgan birikmalarni ketma-ket yozing.

Mazkur topshiriqdan maqsad o‘quvchilarda bog‘lovchi turlari haqida amaliy topshiriq orqali tushuncha hosil qilishdan iborat. O‘quvchilar berilgan gaplarni o‘qib, ma’nosi yaqin birliklarni namunadagi singari yozib chiqishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor gaplarga to‘g‘ri so‘roq bera olish hamda bog‘lovchilarni ma’nosiga ko‘ra to‘g‘ri guruhlay olishga qaratiladi.

Javob:

- *medal va kubok, medal bilan kubok, medal hamda kubok, medal, ham kubok;*
- *yo medal, yo kubok, medal yoki kubok;*
- *dam medal, dam kubok, goh medal, goh kubok, ba’zan medal, ba’zan kubok;*
- *na medal, na kubok.*

Yordamchi so‘zlar

Gaplarni o‘qing. Ma’no to‘g‘ri bo‘lishi uchun quyidagi so‘zlardan mosini qo‘yib yozing.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarda bog‘lovchilarni ma’nosiga ko‘ra mos kontekstda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan gaplarni o‘qib, ushbu gaplarga mos bog‘lovchilarni qo‘yib yozishlari lozim.

Javob:

- *Hamma sport turini hurmat qilaman, ammo kurashga mehrim bo‘lakcha.*
- *Uning devday kelbati bor, lekin yuragi yo‘q, qo‘rqoq.*
- *Bo‘ri polvon raqibning hiylalariga uchmas, balki o‘ziga qarshi foydalanishga urinardi.*
- *Tilovberdining to‘pori, biroq aqlli do‘sti bor.*
- *Naim tutaqib ketdi, ammo bakovul raqibi g‘irrom qilganini ko‘rmaganga oldi.*

Qoida. Yordamchi so‘zlar

O‘quvchilarga bog‘lovchi va uning gapdagi vazifasi nazariy ma’lumot asosida tushuntirib beriladi.

Sintaksis

Quyidagi tushunchalar asosida gaplar tuzing. Bog‘lovchilardan foydalaning.

Mazkur topshiriq berilgan birliklarni mazmunan kengaytirib gaplar tuzishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan birliklarni o‘qib, kerakli bog‘lovchilardan foydalanib gapni mazmunan o‘z tushunchalari asosida kengaytirib yozishlari lozim.

Bu jarayonda o‘qituvchi gaplarni kengaytirishga qaratilgan savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qilishi maqsadga muvofiq. *Masalan, “Kurash bo‘yicha kubokni yutib oldi” – kim yutib oldi?, qanday yutib oldi?, yutib olgandan so‘ng nima bo‘ldi?...* kabi.


Uyga vazifa

Yozma nutq. Ma’lumot to‘plash

Bog‘lovchi so‘zlar va gaplarni bog‘lagan o‘rinlarga 4 tadan misol topib, yozing. Boshqa fan darsliklaridan ham foydalaning.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning mustaqil izlanib, ijodiy yondashishlariga qaratilgan. O‘quvchilar kitob, gazeta, jurnal yoki ijtimoiy tarmoqlardan bog‘lovchilar qatnashgan gaplarni topib yozishlari kerak. Bunda e’tiborlarini so‘zlarni emas, gaplarni bog‘lagan bog‘lovchilarga qaratishlari aytiladi.

4-soat


Bog‘lovchilar so‘zlar va gaplarni bog‘lagan o‘rinlarga 4 tadan misol topib, yozing. Boshqa fan darsliklaridan ham foydalaning.

1. Bog‘lovchilar haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. **Ko‘mak bermoq** deganda nimani tushunasiz?

Quyidagi ko‘makchilarni ma’nosiga ko‘ra guruhlang. Bunda lug‘atlardan foydalanishingiz mumkin.

sababli, sari, singari, uchun, tufayli, qarab, qadar, bo‘ylab, haqida, kabi, tomon, to‘g‘risida, bilan, sayin, uzra, birla, bo‘yicha, yanglig‘, chog‘li, doir, so‘ng, buyon

Yo‘nalish	Sabab	Maqsad	O‘rin	Chegara	Mavzuga tegishlilik

Yuqorida biror ustunga ham mos kelmagan so‘zlar bormi? Nega shunday deb o‘ylaysiz?

Ikki ustundagi birliklarni o‘zaro qiyoslang. Ma’nosida qanday o‘zgarish sodir bo‘lmoqda?

maydon tomon yurdi	maydon bo‘ylab yurdi
tatami sari yurdi	tatamiga qadar yurdi
ukasi uchun kurashdi	ukasi tufayli kurashdi
bakovul haqida o‘yladi	bakovul kabi o‘yladi

Butun sinf birgalikda ko‘makchilar haqida qoida yarating. Ko‘makchi hamda bog‘lovchilarni o‘zaro qiyoslang.

Guruhlarga bo‘lining. Tasavvur qiling, sport klubi ochdingiz. Sport klubining reklama banneri hamda to‘garaklar e’lonini tayyorlang. Ko‘makchi va bog‘lovchilardan foydalaning.

1. Sport klubining reklama bannerini tayyorlang.
2. Sport klubidagi to‘garaklar haqida e’lon bering.

62

Dars jarayoni

Kirish

1. Bog‘lovchilar haqida nimalarni bilib oldingiz?

2. Ko‘mak bermoq deganda nimani tushunasiz?

Asosiy qism

Yordamchi so‘zlar

Quyidagi ko‘makchilarni ma’nosiga ko‘ra guruhlang. Bunda lug‘atlardan foydalanishingiz mumkin.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan. O‘quvchilar so‘zning ma’no-mazmunidan kelib chiqib guruhlarga ajratib yozishlari lozim.

Bunda o‘qituvchi tomonidan so‘zni guruhlarga ajratishda ularning ma’nosiga

qarash, mazmuniga mos kontekstda qo‘llab, gap tuzib, keyin shu gap asosida uni guruhlarga ajratib yozish mumkinligi haqida yo‘nalish berilishi lozim.

Javob: *yo‘nalish: tomon, qarab, sari, bo‘ylab, uzra; sabab: sababli, tufayli; maqsad: uchun; o‘rin: dovur, so‘ng, buyon; chegara: qadar; mavzuga tegishlilik: haqida, to‘g‘risida, birla, bo‘yicha.*

Muhokama

Yuqoridagi biror ustunga ham mos kelmagan so‘zlar bormi? Nega shunday deb o‘ylaysiz?

Ushbu topshiriq ko‘makchilarning jadvalda berilgandan boshqa yana bir ma’nosi borligini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar *o‘xshatish-qiyoslash ma’nosi ifodalangan singari, yanglig‘, kabi...* ko‘makchilari ham borligini anglashi zarur.

Muhokama

Ikki ustundagi birliklarni o‘zaro qiyoslang. Ma’nosida qanday o‘zgarish sodir bo‘lmoqda?

Bu – gaplarni integratsiya qilgan holda xulosa chiqarishga qaratilgan topshiriq. O‘quvchilar berilgan gaplarni o‘qib, ularning ma’no mazmunini tushuntirib berishlari lozim.

Bu jarayonda o‘qituvchi bildirilgan har bir fikrni tinglab, gaplarni xattaxtaga yozib, suhbat yakunida to‘liq sharhlab berishi maqsadga muvofiq.

Yozma nutq. Matn yaratish

Butun sinf bilan birgalikda ko‘makchilar haqida qoida yarating. Ko‘makchi hamda bog‘lovchilarni o‘zaro qiyoslang.

O‘quvchilar yuqoridagi topshiriq orqali ko‘makchilar haqida umumiy tushuncha hosil qilganlaridan so‘ng, guruh bilan birgalikda ushbu fikrlarni jamlab, qoida yaratishlari kerak.

Bu jarayonda o‘qituvchi xattaxtaga “ko‘makchi” deb yozib, u haqida har bir o‘quvchidan fikr so‘raydi. O‘quvchilar o‘z tushunchalarini xattaxtaga chiqib yozishlari lozim. So‘ngra o‘qituvchi tomonidan fikrlar jamlanib, xulosa chiqariladi hamda guruh bilan birga ko‘makchi haqida qoida yaratiladi.

Yozma nutq. Matn yaratish

Guruhlarga bo‘lining. Tasavvur qiling, siz sport klubi ochdingiz. Sport klubining reklama banneri hamda to‘garaklar e’lonini tayyorlang. Ko‘makchi va bog‘lovchilardan foydalaning.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning mustaqil izlanib, ijodiy yondashishlariga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan savollar asosida ma’lumot tayyorlab kelishlari hamda bu ma’lumotlariga mos bog‘lovchi va ko‘makchilardan foydalanishlari lozim.

O‘qituvchi tomonidan topshiriqni bajarish uchun yo‘nalish berilishi maqsadga muvofiq. *Masalan, sport klubiga oid bannerlarni qidirib topish, ularda nima aks etgani bilan tanishish, so‘ngra o‘z qarashlari asosida banner matni yaratishlari mumkinligi aytiladi.*

Bu jarayonda o‘quvchilar guruhlarga ajratiladi. Har bir guruhga nom beriladi hamda tayyorlangan materiallar birgalikda tahlil qilinib, eng yaxshi jamoa rag‘batlantiriladi.

KELAJAK KASBLARI

Nutqiy mavzuning maqsadi: audiomatnni tinglab tushunish, matnda berilgan ma'lumotlarni grafik ko'rinishida berilgan ma'lumotlar bilan o'zaro bog'lay olish, matnni o'qib tushunish, nutqiy mavzu doirasida so'rovnoma o'tkazish, xulosaviy fikrlarini esse shaklida yoza olish ko'nikmasini shakllantirish. Tabriknoma yozish qoidalari, unda qo'llanadigan til birliklari bilan tanishish; yuklamalar va ularni qo'llash, atamalar, ularning talaffuzi va imlosi ustida ishlash, atamalardan foydalanishning ahamiyati, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari, ularning vazifasi va qo'llanishi, fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari, qo'shma fe'l va ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi o'rtasidagi farq, gap bo'laklari va ular ifodalagan ma'no, ularning vazifasi, iboralar va ularning vazifalari, nutqdagi ahamiyati kabi lingvistik bilimlarni shakllantirish.

1-soat


KELAJAK KASBLARI

Bu mavzuda o'rganamiz

• kasb tanlashdagi muhim jihatlar • yaqin kelajakda talab kuchayadigan kasblar
• yuklamalar va ularning gapdagi vazifasini aniqlash • fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari
• bosh bo'laklar • ikkinchi darajali bo'laklar • tabriknoma yozish.

Audiomatnni tinglang va savollarga javob bering.

1 2 3 4 5 6 7 8 9

64

Dars jarayoni

Kirish:

Bugungi kunda qaysi kasblarga ehtiyoj ko'p deb o'ylaysiz? Nima uchun?

Asosiy qism

Og'zaki nutq

Darslikda turli kasblar aks etgan rasm berilgan. O'quvchilar rasm bilan tanishib chiqqanlaridan so'ng ushbu kasblar yuzasidan munosabat bildirishlari lozim.

Tinglab tushunish

Audiomatnni tinglang va savollarga javob bering.

Audiomatn: "Reytingi baland kasblar o'ntaligi".

Muallif: Orifjon Madvaliyev.

Bugun rivojlangan mamlakatlarda eng talabgir kasblar tez orada yurtimizda ham alohida mavqe-e'tibor qozonishi aniq. Quyida dunyoda eng ko'p so'raladigan mutaxassisliklar o'ntaligi bilan tanishasiz. Ularning ko'pchiligiga, ayniqsa, IT va nanotexnologiya, kimyo sohasi mutaxassislariga talab mamlakatimizda ham tobora oshib boryapti.

1. Injiniring sohasi mutaxassislari.

Qurilish sanoati va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish shiddat bilan rivojlanib boryapti. Bu jarayonda muhandislar, texnologlarning o'rni beqiyos.

2. IT mutaxassislari.

Axborot texnologiyalari hayotimizga tobora chuqurroq kirib boryapti. Bugun har qanday zamonaviy texnikani ishlab chiqarishda axborot texnologiyalaridan foydalaniladi. Qo'l telefonlarimizdagi ilovalar-u har kuni kiradigan saytlarimiz ana shu soha egalarining – dasturchi va dizaynerlarning mehnati mahsuli. Bu soha yaqin kelajakda iqtisodiyotning hal qiluvchi kuchiga aylanishi shubhasiz.

3. Shifokorlar va tibbiy soha mutaxassislari.

Bu kasb egalariga hamma zamonlarda ehtiyoj katta bo'lgan. Chunki eng qulay, shohona sharoitlarda, to'kin-sochinlikda umr kechiradigan odam ham kasal bo'lishi mumkin.

Zamonaviy tibbiyot shifokorlar oldiga yangi texnologiyalardan unumli foydalana olish shartini ham qo'yyapti. Yangi texnologiyalar tashxis va muolaja jarayonini yengillashtirib, aniqlik darajasini kuchaytiradi. Bunday ko'nikmaga ega shifokorga esa talab yuqori bo'lishi tabiiy.

4. Turizm sohasi mutaxassislari.

Sayyohlik sohasi dunyoning juda ko'p mamlakatlarida iqtisodiyotning jon tomiri hisoblanadi. Bu yo'nalish yurtimizda ham birmuncha rivojlangan, hozir yanada taraqqiy etyapti. Odamlarning turmush darajasi oshib, moddiy ahvoli yaxshilangani sari sayohat qilish istagi ham kuchaya boradi. Ularga yaxshi xizmat ko'rsatish esa sohaning ertasini kafolatlaydi. Shu sababli yaxshi xodimlarga talab ham ortadi.

5. Logist-naqliyotchilar.

Bozor iqtisodiyotidagi keskin raqobat sharoitida transport-logistika va mahsulotlar oqimini boshqarish strategik ahamiyatga ega. Bozorda munosib o'ringa va doimiy xaridorlarga ega bo'lishni istagan firma va kompaniyalar bu yo'nalishda muntazam ish olib borishi shart. Buning uchun ularga naqliyot sohasini chuqur biladigan, iqtisodiyotni nozik his qiladigan mutaxassislar kerak bo'ladi.

6. Ekologlar.

Sanoat va ishlab chiqarish rivojlanib, iste'mol hajmi ortgani sari ekologiya va atrof-muhitni asrashning ahamiyati oshib boraveradi. Bu hol, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Shu sababli ham bunday hududlarda ekologiya mutaxassislariga ehtiyoj katta.

7. Kimyogarlar va energetiklar.

Resurslar cheklangani, ulardan oqilona foydalanish hayot-mamot masalasi ekani bugun hammaga ma'lum. Tejamkor usullarni ishlab chiqish, yangi energiya manbalarini izlab topish dunyoning iqtisodiy kelajagini belgilab beradi. Bu vazifani uddalashda kimyogarlar va energetiklarning xizmati katta.

8. Nanotexnologlar.

Nanotexnologiya bugun mashinasozlik, tibbiyot va hatto oziq-ovqat sanoatida qo'llanyapti. Robotlar va mikrotizimlardan foydalanadigan soha va tarmoqlar soni tobora ko'payib boryapti. O'z-o'zidan, bu sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislarga ham talab ortaveradi.

9. Xizmat ko'rsatish sohasi mutaxassislari.

Iqtisodiyoti rivojlangan, aholisining turmush sharoitlari yuqori bo'lgan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasi yetakchi tarmoqlardan hisoblanadi. Turmushga sin solib qarasangiz, xizmatlar sohasi qanchalar taraqqiy etayotganiga guvoh bo'lasiz. Agar xohishingiz bo'lsa, taksi tutgani ko'chaga chiqib o'tirmaysiz. O'zi eshigingiz tagidan olib ketadi. Yoki

ovqatlanish uchun kafega borish ham shart emas. Uyingizga eltib berishadi. Bularning bari – xizmatlar sohasining qulayliklari.

10. Jurnalistlar va imijmeykerlar.

Katta kompaniyalarning o‘z matbuot xizmatlari va PR bo‘limlari bor. Chunki bugun axborot juda ko‘p narsani hal qiladi. O‘z mahsuloti yoki xizmatini yetarlicha targ‘ib-tashviq qilmagan kompaniya katta muvaffaqiyatga erisha olmaydi.

Jamiyat hayotining eng muhim nuqtalarini ko‘ra bilish, jamoatchilikda fikr uyg‘otish, chuqur tahlil va ravon uslubga ega bo‘lish jurnalistning ustun jihatlaridan biridir. Axborotga ehtiyoj har doimgidan ko‘ra ko‘p bo‘lgan bugungi dunyoda malakali jurnalistlarga talab ham ortib boraveradi.


Bu ro‘yxat, albatta, nisbiy. Chunki mintaqa va mamlakatning ichki shart-sharoitiga ko‘ra mutaxassislarga ehtiyoj farqlanadi. ***Moliyachilar, menejerlar, genetiklar, tarjimonlar, agrar soha mutaxassislari****ga ham ko‘p mamlakatlarda talab yuqori. Bundan tashqari, tor mutaxassislik egalari, ya’ni biror sohaning alohida yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatuvchilar ish beruvchilarning doimiy diqqat-e’tiborida bo‘ladi.*

Reytingi baland mutaxassisliklarning noqulay tomonlari ham bor. Yetakchi sohalarga ixtisoslashgan o‘quv yurtlariga kirishda katta raqobat bo‘ladi. Ta’lim berish narxi nisbatan yuqori. Talaba ilm dargohini tugatganidan keyin yana katta raqobat bilan yuzlashadi. Reytingi baland yo‘nalishlarda ta’lim olganlar bora-bora boshqa yo‘nalishdagilarga qaraganda ko‘payib ketadi, shu sababli ishga qabul qilish me’yorlari o‘zgarib, yangi-yangi tartib va talablar qo‘shiladi.

Aslida, har bir kasb-hunarning hayotda o‘z o‘rni, ahamiyati bor. Qaysi sohani tanlashingizdan qat’i nazar, chuqur bilim va tajribaga, ko‘nikmaga ega bo‘lishingiz, shaxsiy fazilatlaringiz sizning istiqbolingizni ta’minlovchi asosiy mezondir.

O‘quvchilar audiomatnni tinglab bo‘lganlaridan so‘ng, tinglab tushunishga asoslangan savollar bilan suhbat boshlanadi.

Audiomatn yuzasidan berilgan savollar o‘quvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirish, u orqali matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotlarni topish, gaplarni integratsiya qilib xulosa chiqarish, o‘z shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishlariga qaratilgan. O‘quvchilardan audiomatndagi jumlalarni so‘zma-so‘z aytib berishlari talab etilmaydi. Asosiy e’tibor audiomatn mazmunini tushunib, munosabat bildirishlariga qaratiladi.



Berilgan so‘zlar ichidan to‘g‘ri yozilganini aniqlab, ularni daftaringizga ko‘chiring.

Injiniring sohasi mutaxassislari	Ay-ti mutaxassislari
Injenering sohasi mutaxassislari	I-T mutaxassislari
Injeynering sohasi mutaxassislari	IT mutaxassislari
Lagist-naqliyotchilar	Jurnalist va imijmeykerlar
Logist-naqliyotchilar	Jurnalist va emijmeykerlar
Lo‘gist-naqliyotchilar	Jo‘rnalist va imijmekirlar
Energetiklar	Nanatexnologlar
Inergetiklar	Nanotexnoloklar
Energitiklar	Nanotexnologlar
Turizim sohasi mutaxasislari	Xizmat ko‘rsatish sohasi mutaxassislari
Turizm sohasi mutaxassislari	Hizmat ko‘rsatish sohasi mutaxassislari
Turizm soxasi mutahassislari	Xizmat ko‘rsatish soxasi mutahassislari

Berilgan rasmlardagi raqamlarning kasblar bilan mosligini aniqlang hamda ularni talaffuz qiling. Urg‘uli bo‘g‘inni aniqlang.

Matnni o‘qing. Gaplarga qo‘shimcha ma’no yuklaydigan so‘z va qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, yozing.

Bu kasb egalariga hamma zamonlarda ehtiyoj katta bo‘lgan. ... eng qulay, shohona sharoitlarda, to‘kin-sochinlikda umr kechiradigan odam ham kasal bo‘ladi-ku.

Zamonaviy tibbiyot shifokorlar oldiga yangi texnologiyalardan unumli foydalana olish shartini ... qo‘yyapti. Yangi texnologiyalar tashxis va muolaja jarayonini yengillashtirib... qolmay, aniqlik darajasini ... kuchaytiradi. Bunday ko‘nikmaga ega shifokorga esa talab yuqori bo‘lishi tabiiy... .

Qo‘yish uchun: *-kina, ham, -gina, go‘yo, -da, axir, -mi, xuddi.*

66

Orfografiya

Berilgan so‘zlar ichidan to‘g‘ri yozilganini aniqlab, ularni daftaringizga ko‘chiring.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning mavzuga oid atamalar bilan ishlash, ularni imloviy jihatdan tahlil qila olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan ikki ustundagi gaplarni o‘qib, to‘g‘ri yozilgan so‘zlarni ko‘chirishlari hamda noto‘g‘ri yozilgan so‘zlardagi xatolikni aniqlab, aytishlari lozim.

Javob:

- *Injiniring mutaxassislari.*
- *Logist-naqliyotchilar.*
- *Energetiklar.*
- *Turizm sohasi mutaxassislari.*
- *IT mutaxassislari.*
- *Jurnalist va imijmeykerlar.*
- *Nanotexnologlar.*
- *Xizmat ko‘rsatish sohasi mutaxassislari.*

Orfografiya

Berilgan rasmlardagi raqamlarning kasblar bilan mosligini aniqlang hamda ularni talaffuz qiling. Urg‘uli bo‘g‘inni aniqlang.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning atamalarni to‘g‘ri talaffuz qilish, ularni rasmli ma’lumot bilan bog‘lay olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Bunda o‘quvchilarga rasmlarda tinglangan audiomatndagi qaysi kasb egalari tasvirlanganini yozishlari aytiladi. So‘ngra xattaxtada rasmning tartib raqami va unga mos kasb egasining nomi yozilib, o‘quvchilarga navbat bilan talaffuz qildiriladi. Bu jarayonda ularning nutqi kuzatilishi hamda xatolari tuzatilib, ifodali talaffuz qilib berilishi lozim. O‘quvchilarning e’tibori urg‘uning qaysi bo‘g‘inga tushayotganiga qaratiladi.

Javob:

1 – injiniring sohasi mutaxassislari.
2 – IT mutaxassislari.
3 – shifokorlar.
4 – turizm sohasi mutaxassislari.
5 – logist-naqliyotchilar.
6 – ekologlar.
7 – kimyogarlar.
8 – jurnalist va imijmeykerlar.
9 – nanotexnologlar.

Yordamchi so‘zlar

Matnni o‘qing. Gaplarga qo‘shimcha ma’no yuklaydigan so‘z va qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, yozing.

Bu topshiriq o‘quvchilarning noto‘liq matnni to‘liq matnga aylantirib yozish, gaplarni o‘zaro bog‘lash hamda qo‘shimcha ma’no yuklashga xizmat qiladigan yuklamalar va ularning vazifasi bilan bog‘liq lingvistik bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan.

O‘quvchilarga berilgan parchani o‘qib, tushirib qoldirilgan yuklamalarni o‘z o‘rniga qo‘yishlari aytiladi.

Javob:

*Bu kasb egalariga hamma zamonlarda ehtiyoj katta bo‘lgan. **Axir** eng qulay, shohona sharoitlarda, to‘kin-sochinlikda umr kechiradigan odam ham kasal bo‘lishi mumkin.*

*Zamonaviy tibbiyot shifokorlar oldiga yangi texnologiyalardan unumli foydalana olish shartini **ham** qo‘yyapti. Yangi texnologiyalar tashxis va muolaja jarayonini yengillashtirib**gina** qolmay, aniqlik darajasini **ham** kuchaytiradi. Bunday ko‘nikmaga ega shifokorga esa talab yuqori bo‘lishi tabiiy**-da**.*

So‘z yoki gaplarga so‘roq, ta’kid, ayirish-chegaralash, gumon, o‘xshatish, inkor kabi ma’nolarni yuklovchi so‘z yoki qo‘shimchalar **yuklamalardir.**
Yuklamalarga:
1) *axir, hatto, faqat, ham, xuddi, go‘yo, go‘yoki, naq, hech, sira, nahotki, na ... na* so‘zlari;
2) *-mi, -chi, -gina (-kina, -qina), -dir, -u, -yu, -da, -a* singari qo‘shimchalar kiradi.
Ularning birinchi guruhi **so‘z-yuklamalar,** ikkinchi guruhi esa **qo‘shimcha-yuklamalar** hisoblanadi.

Quyidagi gaplarda yuklama qanday ma’no bildirayotganini aniqlang. Yuklamalar olib tashlanganda gap mazmunida qanday o‘zgarish bo‘layotganiga e’tibor qarating.


Namuna *Raqib bu usuldan xabardor ekan-**da**. (ta’kid)*
1. *Bizni bu azobdan **faqat** direktorning qarori qutqarib qola oladi.*
2. *Ertangi o‘yin uchun ham, ehtimol, Sobirov qaydnomaga kiritilmagan**dir**.*
3. *Abduxoliq otasining **naq** o‘zi.*
4. *Xafa bo‘lma: seni **ham** o‘zlari bilan olib ketishadi.*


Yuklamalardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Gap mazmunida qanday o‘zgarish bo‘lganiga e’tibor bering.

1. Har bir kasb-hunarning hayotda o‘z o‘rni, ahamiyati bor.
2. Yetakchi sohalarga ixtisoslashgan o‘quv yurtlariga kirishda katta raqobat bo‘ladi.
3. Sayyohlik sohasi dunyoning juda ko‘p mamlakatlarida iqtisodiyotning jon tomiri hisoblanadi.
4. Odamlarning turmush darajasi oshib, moddiy ahvoli yaxshilangani sari sayohat qilish istagi kuchaya boradi.

Matnda berilgan ma’lumotlar diagramma ko‘rsatkichlariga mosligini aniqlang. Tushunganlaringizni yo‘riqnoma asosida gapirib bering.

Yo‘riqnoma:
- matnni o‘qib chiqing;
- diagrammaga nom tanlang;
- ranglarga e’tibor bering;
- matndagi raqamlar hamda diagrammadagi ko‘rsatkichlarni solishtiring;
- fikringizni xulosalang.





67

Qoida. Yordamchi so‘zlar

O‘quvchilar amaliy topshiriq orqali yuklama haqida ma’lumotga ega bo‘lganlaridan so‘ng yuklamaga oid nazariy ma’lumot misollar bilan tushuntirib beriladi.

Yordamchi so‘zlar

Quyidagi gaplarda yuklama qanday ma’no bildirayotganini aniqlang. Yuklamalar olib tashlanganda gap mazmunida qanday o‘zgarish bo‘layotganiga e’tibor qarating.

Ushbu topshiriq yuklama va uning vazifasi bilan bog‘liq lingvistik bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Bunda o‘quvchilar bilan berilgan gaplar muhokama qilinadi, unda ishtirok etgan yuklamalar gapga mazmun jihatidan qanday qo‘shimcha ma’no yuklayotgani, shuningdek, yuklamaning shakl jihatdan qaysi turi ishtirok etayotgani haqidagi munosabatlari so‘raladi.

Uyga vazifa

Yordamchi so‘zlar

Yuklamalardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Gap mazmunida qanday o‘zgarish bo‘lganiga e’tibor bering.

O‘quvchilar bilan yuklamalar haqidagi bilimlar umumlashtirilib, xulosa chiqariladi. Ularga berilgan gaplar mazmuniga mos yuklamalarni qo‘yib yozishlari aytiladi.

2-soat

Dars jarayoni

Kirish

So‘rovnoma nima? U nima maqsadda olinadi?

UNICEFning maxsus loyihasi bo‘lgan **U-REPORT** yoshlar **platforma**si 2019-yil 13-may kuni yoshlarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazdi. Unda 6300 dan ortiq o‘zbekistonlik yoshlar qatnashdi. **Respondent**larning javoblari tahliliga ko‘ra, kasb tanlashga quyidagi 4 omil ta’sir o‘tkazadi:
· shaxsiy qobiliyat (34%);
· kasbga muhabbat (20%);
· moliyaviy imkoniyatlar (20%);
· ota-onalar qarori (11%).
Ishtirokchilarning 82 foizi yoshlarni kasbga yo‘naltirish hukumat tomonidan tashkil etilishi kerak deb hisoblaydi.

1. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni talaffuz qiling. Qaysi so‘z(lar) ma’nosini o‘zbek tilida ham ifodalash mumkin deb hisoblaysiz?
2. Matnda nima uchun *o‘zbekistonlik* so‘zi kichik harfda yozilgan? Bu to‘g‘rimi? Javobingizni izohlang.

Matn bilan tanishing. Matndagi sodda fe’llarni ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalari bilan almashtirib, ularni ko‘chiring. Fe’l ma’nolarida qanday o‘zgarish bo‘layotganini aniqlang.

Namuna *aytilmoqda – aytib kelinmoqda.*

Nanotexnologiya bugun mashinasozlik, tibbiyot va hatto oziq-ovqat sanoatida **qo‘llanyapti.** Robotlar va mikrotizimlardan foydalanadigan soha va tarmoqlar soni tobora **ko‘paymoqda.** O‘z-o‘zidan bu sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislarga ham talab **ortaveradi.**

4 ta guruhga bo‘lining hamda fe’llarning tuzilishiga ko‘ra turlariga misollar topib, xattaxtaga yozing. Ularning imlosiga e’tibor bering.

Quyida berilgan fe’llar ishtirokida tanlagan kasbingiz haqida gaplar tuzib, yozing. Fe’llarning tuzilishi va imlosiga e’tibor bering.

Sodda fe’l	Qo‘shma fe’l	Juft fe’l	Takroriy fe’l
tanlamoq	..... (kasb nomi) bo‘lmoq	yelib-yugurmoq	o‘ylay-o‘ylay
suhbatlashmoq	baxshida etmoq	qo‘llab-quvvatlamoq	ishlab-ishlab

68

Asosiy qism

O‘qib tushunish. Og‘zaki nutq

Matnda berilgan ma’lumotlar diagramma ko‘rsatkichlariga mosligini

aniqlang. Tushunganlaringizni yo‘riqnoma asosida gapirib bering.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning matnni o‘qib tushunish, undagi ma’lumotlarni diagrammada berilgan ma’lumotlar bilan taqqoslab, bog‘lay olish hamda qayta so‘zlab berish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

O‘quvchilarga yo‘riqnoma tushuntiriladi. So‘ngra ularning nutqi navbat bilan tinglanadi. Bu jarayonda bir o‘quvchi gapirganda qolgan o‘quvchilar tinglab, munosabat bildirishlari aytiladi.

Muhokama

1. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni talaffuz qiling. Qaysi so‘z(lar) ma’nosini o‘zbek tilida ham ifodalash mumkin deb hisoblaysiz?

Ushbu topshiriq qisqartmalar imlosi va uning talaffuzini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni talaffuz qilib, munosabat bildirishlari lozim.

2. Matnda nima uchun *o‘zbekistonlik* so‘zi kichik harfda yozilgan? Bu to‘g‘rimi? Javobingizni izohlang.

Bunda *-lik* qo‘shimchasi o‘rin-joy bildiruvchi turdosh va atoqli otlarga qo‘shilib, shaxsning shu hududga mansubligini bildirishi, atoqli otlarga qo‘shilgan -lik qo‘shimchasi atoqli otni turdosh otga aylantirishi va kichik harf bilan yozilishi haqida ma’lumot beriladi.

Morfologiya

Matn bilan tanishing. Matndagi sodda fe’llarni ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalari bilan almashtirib, ularni ko‘chiring. Fe’l ma’nolarida qanday o‘zgarish bo‘layotganini aniqlang.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning matnni lingvistik tahlil qilish, ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalari, ularning vazifasi va qo‘llanishi bilan bog‘liq lingvistik bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Dastlab o‘quvchilar bilan ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarini savol-javob orqali takrorlab olish maqsadga muvofiq. So‘ngra o‘quvchilardan berilgan parchadagi fe’llarni namuna asosida yozib, gap mazmunida bo‘ladigan o‘zgarishlarini tushuntirib berishlari so‘raladi.

Morfologiya

4 ta guruhga bo‘lining hamda fe’llarning tuzilishiga ko‘ra turlariga misollar topib, xattaxtaga yozing. Ularning imlosiga e’tibor bering.

Mazkur topshiriq fe’llarning tuzilishiga ko‘ra turlariga oid lingvistik bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan.

O‘qituvchi o‘quvchilarni to‘rt guruhga bo‘ladi. Fe’llarning tuzilishiga ko‘ra turlari yodga olinadi. O‘quvchilarga navbat bilan chiqib, xattaxtaga misollar yozish aytiladi. Qaysi guruh eng ko‘p misol topa olsa, o‘sha guruh a’zolari rag‘batlantiriladi.

Morfologiya. Sintaksis

Quyida berilgan fe’llar ishtirokida tanlagan kasbingiz haqida gaplar tuzib, yozing. Fe’llarning tuzilishi va imlosiga e’tibor bering.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning fe’llarni tuzilishiga ko‘ra guruhlarga ajratish hamda ularni ma’no-mazmuniga mos kontekstda qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Berilgan jadval o‘quvchilar bilan birga tahlil qilinadi. So‘ngra o‘quvchilarga ularni ma’no-mazmuniga mos kontekstda qo‘llab gap tuzishlari aytiladi.

Uyga vazifa

Morfologiya

Berilgan matnlar bilan tanishing. Ularda qo‘llangan fe’llarni quyidagi tartibda guruhlarga ajratib yozing. Ko‘makchi fe’lli so‘z shakllaridagi ma’noga diqqatingizni qarating.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning matnni lingvistik tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish hamda qo‘shma fe’l va ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi o‘rtasidagi farq bilan bog‘liq lingvistik bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan.

Fe’llarning tuzilishiga ko‘ra turlari hamda qo‘shma fe’l va ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalari o‘rtasidagi farq haqida ma’lumot beriladi. Shundan so‘ng matnda ishtirok etgan fe’llarni guruhlarga ajratish kerakligi aytiladi.

3-soat



Kasb tanlashda O‘zbekistondagi sharoitni ham hisobga oling. Ya’ni yurtimizda qanday kasblarga ehtiyoj bor, qanday sohalar hali rivojlanmagan yoki umuman bizga kirib kelmagani haqida o‘ylang. Tag‘in o‘zingizcha, hech kim bilan maslahatlashmay kasb tanlab, kelajakda ishsiz qolib ketmang!

1. Matn muallifi ushbu fikrlari orqali kimlarga murojaat qilmoqda?
2. Matnning asosiy maqsadi nimadan iborat?
3. Robotlarning asosiy vazifasi haqida gapiring.
4. Kelajakda qanday kasb egalariga ehtiyoj ortishi kutilmoqda? Buning sababini tushuntirishga harakat qiling.
5. Aktyorlarning vazifasini kompyuterlar qay darajada uddalay oladi deb hisoblaysiz? Kompyuter dasturlarida yaratilgan qahramonlar faoliyatini qanday baholaysiz?
6. Tanlaydigan kasbingiz borasida kimlar bilan maslahatlashishni ma’qul ko‘rasiz?
7. Matn bilan tanishganingizdan so‘ng sizda tanlagan kasbingizni o‘zgartirish fikri paydo bo‘lmadimi? Javobingizni izohlang.

Xattaxtada robotlarga o‘rnini beradigan kasblarni bir ustunga, robotlarga o‘rnini bermaydigan kasblarni esa ikkinchi ustunga yozing.

Robotlarga o‘rnini beradigan kasblar	Robotlarga o‘rnini bermaydigan kasblar

70

Dars jarayoni

Kirish

Kelajakda qaysi kasb egasi bo‘lmoqchisiz? Nima uchun?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

Matn: “Kelajakda ishsiz qolmang!”

O‘quvchilarga matnni o‘qib chiqishlari aytiladi. So‘ngra matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Muhokama

1. Matn muallifi ushbu fikrlari orqali kimlarga murojaat qilmoqda?

Bu savol matndan muallif maqsadini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar matnda qo‘llangan til birliklari (*o‘ylab ko‘ring, hisobga oling, ishsiz qolib ketmang*) orqali u matn bilan tanishib chiqadigan har bir o‘quvchiga qaratilganini anglashlari mumkin.

2. Matnning asosiy maqsadi nimadan iborat?

Bu savol matn mazmunini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilarning javoblari turlicha bo‘lishi mumkin. Asosiy e’tibor *matn o‘quvchini kasbga to‘g‘ri yo‘naltirishni maqsad qilganini* aniqlab, ayta olishlariga qaratiladi.

3. Robotlarning asosiy vazifasi haqida gapiring.

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni tushunib, aytib bera olishga qaratilgan. O‘quvchilar matnda berilgan ma’lumotlar hamda o‘z shaxsiy kuzatishlari asosida robotning vazifasi haqida munosabat bildirishlari lozim.

4. Kelajakda qanday kasb egalariga ehtiyoj ortishi kutilmoqda? Buning sababini tushuntirishga harakat qiling.

O‘quvchilar avval matnda berilgan ma’lumotlar *asosida javob berishlari, astronomiya, kimyo, biologiya, matematika, IT mutaxassislariga* ehtiyoj ortishini hamda buning sabablarini tushuntirishlari lozim.

5. Aktyorlarning vazifasini kompyuterlar qay darajada uddalay oladi deb hisoblaysiz? Kompyuter dasturlarida yaratilgan qahramonlar faoliyatini qanday baholaysiz?

Bunda o‘quvchilar *axborot texnologiyasi jadal rivojlanib, insonlar o‘ynaydigan rol, sahna manzaralarini kompyuter orqali amalga oshirish mumkinligi haqida hamda ushbu jarayonni real aktyor va aktrisalar faoliyati bilan taqqoslab* fikr bildirishlari lozim.

6. Tanlaydigan kasbingiz borasida kimlar bilan maslahatlashishni ma’qul ko‘rasiz?

Matn mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quvchilar ushbu mavzu haqida o‘ylab ko‘radilar. O‘zlari tanlagan kasb haqida, uni tanlashda kimlar bilan maslahat qilganligi, ushbu kasbning afzalliklari haqida gapirib berishlari so‘raladi.

7. Matn bilan tanishganingizdan so‘ng, sizda tanlagan kasbingizni o‘zgartirish fikri paydo bo‘lmadimi? Javobingizni izohlang.

Bu savol matn mazmunidan kelib chiqib, o‘quvchilarning o‘z shaxsiy qarashlarini ifodalashiga qaratilgan. O‘quvchilar tanlagan kasbiga munosabatini aytib bera olish kerak.

Yozma nutq

Xattaxtada robotlarga o‘rnini beradigan kasblarni bir ustunga, robotlarga o‘rnini bermaydigan kasblarni esa ikkinchi ustunga yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarda guruh bilan ishlash, yaxlit matn mazmunidan xulosa chiqarish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Bunda o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi, birinchi guruhga robotlarga o‘rnini beradigan kasblar, ikkinchi guruhga robotlarga o‘rnini bermaydigan kasblarga misol topib yozishlari aytiladi. Guruh a’zolari o‘zaro maslahatlashib, xattaxtaga ketma-ketlikda yozishlari hamda yozganlarini asoslab berishlari lozim. Bu jarayonda matndan foydalanishlariga ruxsat beriladi.

Morfologiya

Matnda ajratib ko‘rsatilgan gaplarni yozing. Gap bo‘laklarini quyidagi belgilariga ko‘ra farqlang.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning matnni lingvistik tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar matnda ajratib ko‘rsatilgan gaplar tarkibini aniqlab yozishlari lozim.

Bunda gap bo‘laklarini aniqlash tartibi ketma-ketlikda berilgan, o‘quvchilar mana shu berilgan savollarga javob topish orqali matndan ajratib ko‘rsatilgan gaplardagi gap bo‘laklarini aniqlashlari mumkinligi misollar bilan tushuntirilishi zarur.

Qoida. Morfologiya

O‘quvchilar amaliy topshiriq orqali gap bo‘laklari tartibini o‘zlashtirganlaridan so‘ng, gap bo‘laklari va ularning vazifasiga oid nazariy bilimlar misollar bilan tushuntirib berilishi lozim.

Og‘zaki nutq

Quyida berilgan iboralar bilan tanishing. Partadoshingiz bilan kelajak

kasblari mavzusida iboralar bilan bog‘liq nutqiy vaziyatlarni yarating. Iboralar yordamida fikr ifodalashning ahamiyatli jihatlari haqida o‘ylab ko‘ring.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning iboralar mazmunini tushunish hamda uning ma’nosiga mos vaziyat yarata olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Bunda o‘quvchilarga o‘z partadoshlari bilan iboralar mazmunini muhokama qilib, ixtiyoriy bittasini tanlab, uning mazmuniga mos vaziyat yaratishlari aytiladi. Bu jarayonda lug‘atdan foydalanishlariga ruxsat beriladi.

Leksikologiya. Sintaksis

Berilgan iboralarning qaysilaridan o‘z ma’nosida ham, ko‘chma ma’noda ham foydalanish mumkin? Ularni ajrating, o‘z ma’nosi va ko‘chma ma’nosidan foydalanib gaplar tuzib, ayting.

Bu topshiriqda o‘quvchilar iboralarni so‘z birikmalaridan farqlashlari lozim, ya’ni gapning o‘z va ko‘chma ma’nosida kelganini aniqlab yozishlari kerak.

Dastlab bu bir jumla misolida tushuntirib berilishi maqsadga muvofiq. *Masalan, xamirdan qil sug‘urganday – ushbu birlikni o‘z ma’nosida ham, ko‘chma ma’noda ham ishlatish mumkin. O‘z ma’nosida xamirdan qilni sug‘urib olish jarayonini tushunish mumkin bo‘lsa, ko‘chma ma’noda osonlik bilan, hech qanday qiyinchiliksiz amalga oshadigan ishga nisbatan aytilishini tushunish mumkin.*

Uyga vazifa

Og‘zaki nutq. Yozma nutq

Sinfdoshlaringiz o‘rtasida “Kelajakda kim bo‘lmoqchiman?” mavzusida so‘rovnoma o‘tkazing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning so‘rovnoma tuzish, o‘tkazish va uni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarga berilgan savollar asosida so‘rovnoma o‘tkazish kerakligi, so‘rovnomani o‘tkazish tartibi, uning natijalari qanday aniqlanishi haqida ma’lumot beriladi.

Bunda o‘quvchilar so‘rovnoma olish jarayonida o‘zlariga qulay usuldan: jadval, diagramma, audiomateriallardan foydalanishlari mumkin.

4-soat



O‘tkazgan so‘rovnomangizning natijalari haqida tahliliy matn yozing va to‘plangan ma’lumotlarga nisbatan munosabatingizni ifodalang.

Quyidagi mavzulardan birini tanlang hamda esse qoralamasini tayyorlang.

Robotlarga o‘rnini beradigan kasblar

Robotlarga o‘rnini bermaydigan kasblar

Yozadigan matningiz quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi lozim:

kirish (robotlarga o‘rnini beradigan/bermaydigan kasblar haqida umumiy ma’lumot);
asosiy qism (fikringizni asoslovchi 2–3 ta dalil, sharh);
xulosa (kirish, asosiy qismdan kelib chiqqan holda 2–3 ta gap, yakunlovchi fikr).

Esseni daftaringizga yozing. Qayta tahrirdan so‘ng o‘qituvchingizga taqdim eting.

Berilgan namuna asosida kasbiy bayramlar bilan bog‘liq tabriknoma yozing. Tabriknoma yozishda qo‘llanadigan til birliklariga alohida e’tibor qiling.

TABRIKNOMA

Avvalo, o‘z hayotini el-yurt salomatligini asrashdek g‘oyat mas’uliyatli va sharafli ishga bag‘ishlagan barcha shifokor va hamshiralarni kasb bayrami – Tibbiyot xodimlari kuni bilan chin qalbimdan samimiy tabriklab, o‘zimning chuqur hurmatim va ezgu tilaklarimni bildirishdan mamnunman.

Xalqimiz sizlarni dunyodagi eng ulug‘ kasb egalari, muqaddas qasamyodiga sodiq, o‘z ishiga fidoyi insonlar deb biladi va mashaqqatli mehnatingizni yuksak qadrlaydi.

Sizlarni qutlug‘ kasb bayramingiz bilan samimiy muborakbod etib, barchangizga baxt-saodat, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Qo‘lingiz dard ko‘rmasin, hamisha sog‘-omon bo‘ling, aziz shifokorlar!

Prezident Shavkat Mirziyoyevning tibbiyot xodimlariga yo‘llagan tabrigidan

72

Dars jarayoni

Kirish

Ayting-chi, so‘rovnoma olishda nimalarga e’tibor qaratish lozim?

Asosiy qism

Yozma nutq

O‘tkazgan so‘rovnomangizning natijalari haqida tahliliy matn yozing va

to‘plangan ma’lumotlarga nisbatan munosabatingizni ifodalang.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning so‘rovnomani tahlil qilish, natijalarga munosabat bildirish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilarga olgan so‘rovnoma natijalarini tahlil qilib, matn ko‘rinishida yozishlari hamda umumiy xulosalarini aniqlashlari aytiladi.

Bunda *so‘rovnoma uchun asos qilib olingan har bir band, savollariga sinfdoshlari bergan javoblarning tahlili, bir xil fikrlar soni, farqli fikrlar sonini aniqlab tartiblash, eng ko‘p tanlangan kasb, kasb tanlashga sabab bo‘luvchi omillarni aniqlab, tartiblab yozishlari* tushuntiriladi.

Yozma nutq

Quyidagi mavzulardan birini tanlang hamda esse qoralamasini tayyorlang.

Bu topshiriq o‘quvchilarni esse yozish jarayoniga olib kirish, berilgan hukmlardan birini tanlab, munosabat bildira olish hamda fikrlarini tartiblab esse shakliga keltirish jarayoni bilan tanishishlariga qaratilgan.

Bunda o‘quvchilarga esse qanday tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi hamda ularda nima aks etishini ifodali yozishlari kerakligi misollar bilan tushuntirib o‘tilishi lozim.

Yozma nutq. Tahlil

Esseni daftaringizga yozing. Qayta tahrirdan so‘ng o‘qituvchingizga taqdim eting.

O‘quvchilar yozib bo‘lgach, ularga esselarini qayta tahrir qilib, xato va kamchiliklarini aniqlashlari hamda uni tuzatib, oqqa ko‘chirishlari aytiladi. Bu jarayonda quyidagilarga e’tibor qaratishlari kerakligi aytiladi:

- *essening tuzilishi;*
- *gaplarning shakl va mazmun jihatdan bog‘lanishi;*
- *imloviy, uslubiy, ishoraviy xatolar.*

Uyga vazifa

O‘qib tushunish. Yozma nutq

Berilgan namuna asosida kasbiy bayramlar bilan bog‘liq tabriknoma yozing. Tabriknoma yozishda qo‘llanadigan til birliklariga alohida e’tibor qarating.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning o‘qib tushunish hamda mazmun va til birliklariga rioya qilgan holda tabriknoma yozish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.


Bunda o‘quvchilarga berilgan matn bilan tanishib chiqib, mustaqil holatda shunday mazmundagi taklifnomani yozish topshirig‘i beriladi. O‘qituvchi tabriknoma matniga xos bo‘lgan til birliklarini berilgan matndan ajratib ko‘rsatishi hamda ulardan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar berishi zarur.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

VETERINAR

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilarda veterinarlik kasbi haqida tasavvur hosil qilish va nutqida unga oid til birliklarini faollashtirish; olinma so‘zlar, shifokorlik sohasiga oid til birliklarining talaffuzi va imlosi, berilgan matn yordamida veterinarlik kasbining asosiy vazifalari bilan tanishtirish, belgilash olmoshlari, jamlik ma’nosini ifodalovchi belgilash olmoshlari, ajratib ifodalovchi belgilash olmoshlari, fe’l zamonlari, uni hosil qiluvchi qo‘shimchalar, matn tarkibidan o‘tgan zamonni ifodalovchi fe’llarni aniqlashni o‘rgatish; mavzu yuzasidan yo‘riqnoma asosida matn yozish ko‘nikmasini shakllantirish.

1-soat


VETERINAR

Bu mavzuda o‘rganamiz

• qishloq xo‘jaligida veterinarlik kasbining ahamiyati • hayvonlarni, tabiatni asrash • sohaga oid til birliklari • belgilash olmoshlari • matn va lug‘atlar ustida ishlash • taqlid so‘zlar • fe’l zamonlari.

1. Uyingizda qanday hayvonlar boqasiz? Ularni nima maqsadda boqishingiz haqida gapirib bering.
2. Uy hayvonlarini parvarishlashga doir nimalarni bilasiz?
3. Uy hayvonlaringiz kasal bo‘lib qolganmi? Bunday holatlarda qanday yo‘l tutish kerak? Hayvonlarni shifokorga olib borganmisiz?

Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.

73

Dars jarayoni

Kirish

1. Uyingizda qanday hayvonlar boqasiz? Ularni nima maqsadda boqishingiz haqida gapirib bering.

2. Uy hayvonlarini parvarishlashga doir nimalarni bilasiz?

3. Uy hayvonlaringiz kasal bo‘lib qolganmi? Bunday holatlarda qanday yo‘l tutish kerak? Hayvonlarni shifokorlarga olib borganmisiz?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.

Veterinarlik kasbi, hayvonlarni parvarish qilishga oid rasmlar berilgan. O‘quvchilarga ushbu rasmlar bilan tanishib chiqishlari aytiladi.

Muhokama

1. Veterinarlik kasbi haqida nimalarni bilasiz?

Bu savol o‘quvchilarda veterinarlik kasbi, uning ijtimoiy ahamiyati haqida tasavvur hosil qilishga qaratilgan. O‘quvchilarning fikri tinglangach, bu birlik ma’nosi izohlanib, kasb haqida tushuncha berib o‘tiladi.

Veterinar – hayvonlarning kasalliklari, ularning oldini olish usullari hamda davolash choralarini ko‘ruvchi hayvonlar doktori.

2. Veterinarlik kasbining qanday yo‘nalishlari bo‘lishi mumkin?

Bu savol o‘quvchilarning shu kasbning ham boshqa kasblar qatori o‘rni borligi, inson salomatligi haqida shifokorlar qanchalik qayg‘ursa, veterinarlar ham hayvonlar uchun shunday g‘amxo‘rlik

ko‘rsatishi haqida tushuncha hosil qilishi hamda unga oid til birliklarini nutqida faollashtirishiga qaratilgan.

O‘quvchilar shaxsiy kuzatishlari asosida javob berganlaridan so‘ng, bu kasbning *parrandachilik, qoramolchilik, yilqichilik* kabi yo‘nalishlari borligi haqida ma’lumot berilishi lozim.

3. Bu kasb nima uchun kerakli va muhim?

Ushbu savoldan maqsad o‘quvchilarda hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilish, tabiatni asrash va aholini oziq-ovqat bilan ta’minlashda bu kasbning o‘rni haqida tushuncha hosil qildirishdan iborat.

Leksikografiya

Veterinariya sohasiga oid bo‘lgan atamalar bilan tanishing. Ularni izohlashga harakat qiling.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish hamda veterinarlikka oid til birliklarini nutqida faollashtirishga qaratilgan.

O‘quvchilar berilgan birliklarni izohlab aytishlari kerak. Bunda ulardan qo‘shimcha bilim talab qilinmaydi. Ularning atamalar haqidagi dastlabki tushunchalari so‘raladi.

Leksikografiya

Yuqoridagi atamalar uchun berilgan izohlarni aniqlang. Atamalar izohini sinfda muhokama qiling. Hayotiy misollar topishga harakat qiling.

Bu yuqoridagi topshiriqning mantiqiy davomi bo‘lib, o‘quvchilar oldinroq mustaqil izohlab aytgan birliklarini quyidagi birliklar bilan mosligini tekshirishlari hamda izohi bilan moslashtirib yozishlari lozim. Bunda asosiy e’tibor ushbu birliklar haqida tushuncha hosil qilishga qaratiladi.

1	Hayvonlar yemishida yetishmaydigan ozuqaviy va mineral moddalar hamda vitaminlarning manbalari sifatida foydalaniladigan, kelib chiqishi organik, mineral va sintetik moddalar	*Ozuqabop qo‘shimchalar*
2	Go‘sht va go‘sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, baliq va baliq mahsulotlari, tuxum va tuxum mahsulotlari, shuningdek, asalarichilik mahsulotlari	*Kelib chiqishi hayvonotga aloqador mahsulot*
3	Veterinariya-sanitariya jihatidan xavfli deb topilgan hayvonlarga tegishli chiqindilar, hayvon jasadi	*Biologik chiqindilar*
4	Biror hududda hayvonlarning o‘ta xavfli va yuqumli kasalliklari tarqalishi	*Epizootiya*
5	Hayvonlarning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir qilmaydigan, epizootiya mavjud bo‘lmagan qulay shart-sharoitlarning yaratilishi	*Veterinar osoyishtalik*

Sintaksis

Yuqoridagi atamalar yordamida veterinar kasbining majburiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan gaplar tuzib, yozing.

O‘quvchilar veterinarlik kasbi haqida tasavvur hosil qilganlaridan so‘ng, ularning majburiyatlariga oid namunadagi singari gaplar tuzib yozishlari lozim. Bunda asosiy e’tibor birliklarni mazmunan bog‘lab gap tuza olishga qaratiladi.

Morfologiya

Uy hayvonlari va parrandalarning tana a’zolari qanday nomlanadi? Ularni 2 ustunga ajratib yozing.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning shaxsiy kuzatishlariga asoslangan. O‘quvchilar hayotiy kuzatishlari asosida uy hayvonlarining tana a’zolari nomini guruhlarga ajratib yozishi kerak.

Masalan, parrandalar: qanot, toj, panja, qanot, tumshuq, pat; qoramol: shox, dum, quloq... kabi.

Uyga vazifa

Yozma nutq. Matn yaratish

Tasavvur qiling, sizga tegishli bo‘lgan hayvonda qandaydir kasallikning belgilari bor. Shu sababdan uni veterinar ko‘rigiga olib bordingiz. Veterinar bilan suhbatni qanday olib borasiz? Suhbatni dialog ko‘rinishida yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarda berilgan vaziyat yuzasidan dialog matni yaratish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar veterinar bilan bo‘ladigan suhbat jarayonlarini yozib kelishlari lozim.

2-soat



Tasavvur qiling, uyingizdagi hayvon yoki parrandada kasallik belgilari paydo bo‘lgani uchun uni veterinar ko‘rigiga olib bordingiz. Shifokor qabulidagi suhbatni dialog ko‘rinishida yozing.

MUHIM KASB

Shunday kasblar borki, qanchalar muhim va ahamiyatli bo‘lmasin, ko‘pchilik ularni **pisand qilmaydi**. Yoshlar esa bu kasblarni egallashga unchalik **qiziqmaydi**. Biroq bu kasb egalari bo‘lmasa, hayotimiz qiyinlashib, turli muammolar **kelib chiqadi**. Ana shunday kasblardan biri veterinarlikdir. Aholi orasida bu kasb egalarini “mol doktori” deb **atash urf bo‘lgan**. Lekin mazkur atamaning qamrovi veterinar kasbi uchun biroz **torlik qiladi**. Sababi veterinar hayvonlarni davolash bilan birga go‘sht-sut mahsulotlarini nazorat qilish markazlarida, laboratoriyalarda, veterinariya ilmiy-tadqiqot institutlarida faoliyat yuritishi ham mumkin.

Veterinarning asosiy vazifalariga hayvon kasalliklarini davolash va oldini olish, rivojlanib borishini tekshirish, emlash, mikrochiplash, jarrohlik amaliyotini o‘tkazish, shuningdek, mijozlarga hayvonlarni parvarish qilish bo‘yicha maslahat berish kiradi.

Veterinarlik jamiyatimizdagi eng muhim kasblardan biridir. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligida uning ahamiyati yuqori. Chunki qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hajmi va sifati shu kasb egalarining malakasiga bog‘liq. Hududlarda malakali, zamonaviy bilimlarga ega veterinarlar ko‘paysa, odamlarning chorvachilikdan topadigan daromadi ortadi. Yurt rivojlanadi.

Aytgancha, siz dunyoga mashhur yozuvchi Chingiz Aytmatovning asl kasbi veterinar bo‘lganini bilasizmi? Yozuvchi ilk asarlarini qishloqda veterinarlik qilib yurgan vaqtlari yozgan ekan.

76

Dars jarayoni

Kirish

Qanday kasblarni muhim deb hisoblaysiz? Nima uchun?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Matn: “Muhim kasb”.

O‘quvchilar matn bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng, matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Muhokama

1. Nega yoshlar veterinarlik kasbiga unchalik qiziqmaydi? Balki, ular bu kasb haqida yaxshi bilishmas?

Bu o‘quvchi shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishiga qaratilgan savol bo‘lib, *yoshlarning bu kasb haqida to‘liq ma’lumotga ega emasligi, bu kasbning*

ahamiyati haqida tushuncha hosil qilmaganliklari ularda bu kasbga nisbatan qiziqish uyg‘onmasligiga sabab bo‘lishini tushunishi lozim.

2. Veterinarning vazifasiga nimalar kiradi? Sizningcha, ularning qay biri muhimroq?

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. O‘quvchilar matnning 2-xatboshisida berilgan ma’lumotlarni tushunib aytib berishi hamda qay biri muhim ekaniga o‘z munosabatlarini bildirishlari lozim.

3. Veterinarlikning ahamiyati ko‘proq qaysi sohada ko‘rinadi? Nima uchun?

Bu savol ham matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. Matnning 3-xatboshisida veterinarlikning qishloq xo‘jaligida muhim ahamiyati borligi aytilgan bo‘lib, o‘quvchilar ushbu fikrga o‘z munosabatlarini bildirishlari lozim.

Yozma nutq. Matn bilan ishlash

Matn mazmuni asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. *“Shunday kasblar borki, qanchalar muhim va ahamiyatli bo‘lmasin, ko‘pchilik pisand qilmaydi”*. Ushbu fikrga izoh sifatida keltirilgan gapni aniqlang va yozing.

Mazkur topshiriq matndagi ma’lumotlarni tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar keltirilgan jumlaning izohini topib, yozishlari kerak.

Javob: *Ana shunday kasblardan biri veterinarlikdir.*

2. Muallifning matnni yaratishdan maqsadi yoshlarning veterinarlik kasbiga bo‘lgan qiziqishini oshirish va uni egallashga da’vat etish bo‘lgan. Ushbu maqsad aniq ko‘rinib turgan jumlalarni topib, yozing.

Bu – matndan muallif maqsadini aniqlashga qaratilgan savol. O‘quvchilar matnning oxirgi xatboshisida berilgan ma’lumotlarni aytishlari lozim. Bunda so‘zma-so‘z aytishlari talab qilinmaydi. Asosiy e’tibor muallif maqsadini aniqlay olishga qaratiladi.

Javob: *Hududlarda malakali, zamonaviy bilimlarga ega veterinarlar ko‘paysa, odamlarning chorvachilikdan topadigan daromadi ortadi. Yurt rivojlanadi. Aytganча, siz dunyoga mashhur yozuvchi Chingiz Aytmatovning asl kasbi veterinar bo‘lganini bilasizmi? Yozuvchi ilk asarlarini qishloqda veterinarlik qilib yurgan vaqtlari yozgan ekan.*

Xullas, agar kasb masalasida biror qarorga kelmagan bo‘lsangiz va hayvonlarni yaxshi ko‘rsangiz, veterinarlik haqida ham o‘ylab ko‘ring.

3. Bu kasb egalari qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak deb hisoblaysiz? Ularni yozing.

Ushbu topshiriqda o‘quvchilar matndan olgan xulosalari asosida veterinarlar qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerakligini, tartib bilan yozishlari zarur. Yozib bo‘lganlaridan so‘ng, nima uchun shunday shunday deb hisoblashlarini matn asosida izohlab berishlari kerak.

Leksikologiya

Matn tarkibidan veterinarlik sohasi bilan bog‘liq bo‘lgan atamalarni topib yozing. Atamalarning ma’nolarini sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning atamalarni tushunish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar matn tarkibidan atamalarni aniqlab, ma’nosini muhokama qilishlari lozim.

Dastlab o‘quvchilar bilan atama nima ekani savol-javoblar orqali takrorlab olinishi kerak. So‘ngra ularga matndan atamalarni topib, yozishlari aytiladi.

Atama – termin, ma'lum sohaga oid til birliklari nomi.

Morfologiya

Matnning birinchi xatboshisida ajratib ko'rsatilgan fe'llarni namunadagidek tuslab, yozing.

Ushbu topshiriq o'quvchilarning matnni lingvistik tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O'quvchilar matn tarkibidan ajratib ko'rsatilgan so'zlarni namunadagi singari tuslab yozishlari lozim. Bunda o'quvchilarga gap mazmuni hamda zamon qo'shimchalariga e'tibor qaratishlari aytiladi.

Javob:

O'tgan zamonda	Hozirgi zamonda	Kelasi zamonda
pisand qilmaydi	*pisand qilmayapti*	*pisand qilmoqchi emas*
qiziqmaydi	*qiziqmayapti*	*qiziqmoqchi emas*
kelib chiqadi	*kelib chiqyapti*	*kelib chiqmoqchi*
urf bo'lgan	*urf bo'lyapti*	*urf bo'lmoqchi*
atagan	*atayapti*	*atamoqchi*
torlik qilgan	*torlik qilyapti*	*torlik qiladi*

Qoida. Morfologiya

O'quvchilar fe'l zamonlari haqida amaliy topshiriq orqali tushuncha hosil qilganidan so'ng, ularga fe'l zamonlari haqida nazariy ma'lumot beriladi.

Morfologiya

Berilgan fe'llarni o'tgan zamon shaklidagi fe'llarga aylantirib yozing. Bunda quyidagi vositalardan foydalanishingiz mumkin.

Ushbu topshiriq o'quvchilarda zamon va shaxs-son qo'shimchalarini kerakli o'rinda qo'llash, berilgan fe'llarga qo'shimchalarning mosini qo'yib, zamonni hosil qilish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'quvchilar berilgan fe'llarga mos zamon va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shib yozishlari lozim.


Uyga vazifa

Sintaksis

Berilgan fe'llarning o'tgan zamon shakllaridan foydalanib veterinarlik sohasi bilan bog'liq mazmundagi gaplar tuzib, yozing.

Mazkur topshiriq o'quvchilarning so'zni mos kontekstda qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar yuqorida berilgan fe'llarning o'tgan zamonini hosil qilib, ular ishtirokida veterinarlik sohasiga oid gap tuzib yozishlari kerak.

3-soat



2 Karim podachi oyoqlari ostida o'ralashayotgan inisi – Oqto'shni qo'liga olib, obdan paypaslab ko'rdi, panjalarini diqqat bilan ko'zdan kechirdi. Yoqtirmadi. Oqto'sh nari ketishni xayoliga ham keltirmay, tag'in suykala boshlagandi, Karim podachi etigi uchi bilan turtib yubordi. Joni og'rigan Oqto'sh angillagancha onasi tomon pildirab qochdi.

3 Karim podachi – **sinchi**, itni farqlay biladi. Umri fermada o'tgan bu odam itni ishqibozlik uchun emas, zarurat yuzasidan asraydi. Negaki, qish kezlari qir oshib keladigan bo'rilardan kuygan – jondor desa yetmish yetti tomiri tortishadi, bo'rilarga yemish bo'lgan tomday-tomday novvoslari ko'z oldiga kelib, ichi-tashi baravar yonadi. Avvallari ahvol aytarli darajada yomon emasdi, salgina po'pisa-yu **qutqu** bilan jondor zotini daf etmoq mumkin edi. Ammo uch yil burun Yoldor degan bir maxluq paydo bo'ldi-yu podachidan halovat ketdi. Arloni bo'ri itlarni pisand qilmaganidek, miltiqqa ham osongina chap berardi. Tunlari bo'ri poylayverib, biqinini shamollatib qo'yganidan so'ng, Karim podachi qopqon qo'yib ko'rdi. Biroq Yoldor qolib, qopqonga ferma tevaragida aylanib yuradigan daydi eshaklardan biri tushdi. **Et**ni dorilab yo'lga tashladi. Yoldor emas, iti zaharlanib o'ldi. Keyingi asragan iti esa g'oyat yuraksiz chiqdi. Yoldorning qorasini ilg'ar-ilg'amas eshik tirnab, g'ingshigancha ichkariga intiladi, ba'zida qishloqqa qochib qolardi... Shundan buyon podachi yaxshi it qidirib yuradi.

1. Qissa qahramoni kim yoki nima? Sizningcha, uning ko'rinishi qanday?
2. Qissa qahramonining hayotida qanday voqea ro'y bermoqda?
3. Yoldor nima? Nega podachi uni shunchalar yomon ko'radi?
4. Sizningcha, qissaning davomida qanday voqealar sodir bo'ladi?

Matn asosida berilgan testlarni yeching. Javobingizni izohlashga harakat qiling.

1. **Quyidagi gaplar orqali qissa qahramoni haqida nimalarni bilib olish mumkin?**

"Oqbo'yin notanish hidni darrov ilg'adi. Parvo qilmadi. Tovuq patini o'ynashda davom etdi".

a) Oqbo'yin – qiziquvchan, o'yinqaroq. Pat o'ynashni yaxshi ko'radi.
b) Oqbo'yin – it. Biroq hali jajji o'yinqaroq kuchukcha.
c) Oqbo'yin – beparvo kuchukcha.
d) Oqbo'yin – juda ham sezgir it.

79

Dars jarayoni

Kirish

Uyingizda qanday hayvonlarni parvarish qilasiz? Ularni nima deb chaqirasiz?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Matn: “Oqbo‘yin”.

Muallif: Normurod Norqobilov.

O‘quvchilar matn bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng, matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Muhokama

1. Qissa qahramoni kim yoki nima? Sizningcha, uning ko‘rinishi qanday?

Bu savol matn kimning tilidan hikoya qilinayotganini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar matn mazmunidan matn *muallif tomonidan* hikoya qilinayotganini aniqlab, aytib bera olishlari lozim.

2. Qissa qahramonining hayotida qanday voqea ro‘y bermoqda?

Ushbu savol matnda berilgan ma’lumotlarni integratsiya qilib, ma’no-mazmun chiqara olishga qaratilgan. O‘quvchilar qissa qahramoni *Oqbo‘yin ekani, uning hayotidagi o‘zgarish og‘a-inilaridan birining olib ketilishi hodisasiligini aytib bera* olishi zarur.

3. Yoldor nima? Nega podachi uni shunchalar yomon ko‘radi?

Bu savol “Yoldor” birligining ma’nosini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar ushbu birlikning ma’nosini mantiqan o‘ylab aytishlari hamda matnning 3-qismida berilgan ma’lumotlardan xulosa chiqarib, podachining Yoldorni yomon ko‘rishi sabablarini aytib berishlari lozim.

Yoldor – qalin va uzun yolli bo‘ri, sirtlon.

4. Sizningcha, qissaning davomida qanday voqealar sodir bo‘ladi?

Bu savol o‘quvchilarning matn mazmunidan kelib chiqib, mantiqan javob berishlarini talab qiladi. Bunda javoblar turlicha bo‘lishi mumkin. Asosiy e’tibor matn mazmunini tushunib, uni mantiqan davom ettira olishlariga qaratiladi.

Bu savoldan maqsad ijodkor o‘quvchilarning qobiliyatini yuzaga chiqarishdir.

Test

Berilgan testlarni bajaring. Javobingizni izohlashga harakat qiling.

1. To‘g‘ri javob: *d) Oqbo‘yin – it. Biroq hali jajji o‘yinqaroq kuchukcha.*

Mazkur test matnda implitsit (yashirin) ifodalangan ma’lumotni tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar keltirilgan birlik mazmuni orqali buni tushunib aytishlari lozim. Bunda gapdagi iboraga e’tibor qaratishlari aytiladi.

2. To‘g‘ri javob: *c) Kunora odamlar kelib, kuchukchalarni ko‘rishadi, ma’qul kelsa, olib ketishadi.*

Mazkur test matndagi ma’lumotlarni integratsiya qilib, ma’no chiqarishga qaratilgan. O‘quvchilar keltirilgan birlik va matnning umumiy mazmuni orqali ushbu savolga javob topishlari kerak.

Leksikologiya

Ushbu so‘zlarning ma’nolarini matn mazmuni yordamida aniqlang hamda ularni ko‘chirib yozing.

Ushbu topshiriq so‘zning kontekstual ma’nosini tushunishga qaratilgan. Jadvalda so‘z va uning izohlari keltirilgan bo‘lib, o‘quvchilar matnda ushbu so‘zning qaysi ma’nosi qo‘llanganini aniqlab, yozishlari lozim.

Javob: *sinchi – hayvonlarning tashqi ko‘rinishi, o‘zini tutishiga qarab, fe’lini*

aytib bera oladigan odam; qutqu – qo‘rquv holati, hissi, dahshat, vahima; et – go‘sht.

Orfografiya

Matnda berilgan hayvon nomlariga e’tibor bering. Nega ular matn tarkibida bosh harf bilan yozilgan? Izohlang.

Bu topshiriq bosh harflar imlosini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar hayvon nomlari bosh harf bilan yozilishini aytib bera olishlari lozim.

Morfologiya

Ushbu hayvonlarga nega shunday nom tanlangani haqida izoh yozing. Yana qanday hayvon nomlarini bilishingiz, nima uchun hayvonlarga shunday nom berilishi haqida yozing.

Mazkur topshiriq so‘z ma’nosi, qo‘shma otlarning hosil bo‘lishini tushunishga qaratilgan. Bunda o‘quvchilardan hayvonlarning harakati, belgisi, rangiga qarab nom qo‘yilishini misollar bilan aytib berishlari talab qilinadi. Ularning javobi tinglangach, o‘qituvchi tomonidan ushbu nomlarning yasalishi, imlosi va nimani atab kelgani haqida umumiy izoh berib o‘tilishi maqsadga muvofiq.

Masalan: Oqbo‘yin bu – itning nomi, itning bo‘ynidagi belgisiga ko‘ra, ya’ni bo‘yni oq bo‘lgani uchun shunday nom qo‘yilgan. U “oq” va “bo‘yin” so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan qo‘shma ot, gapda doim bosh harf bilan, qo‘shib yoziladi.

Leksikologiya

Matn tarkibida qo‘llangan iboralarning izohini yozing. Iboralarni o‘zingiz yozgan izohlar bilan almashtirib, matnni qayta o‘qing. Qanday farq borligini partadoshingiz bilan muhokama qiling.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish hamda iboralarning gapdagi mazmunini tushuna olishlariga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan iboralarga matn mazmunidan kelib chiqib izoh yozishlari lozim. Bu jarayonda lug‘atdan foydalanishlari ham mumkin. Asosiy e’tibor iboraning gapdagi ma’nosini tushunishlariga qaratiladi.


Uyga vazifa

Morfologiya

Matnning birinchi xatboshisini ko‘chiring. O‘tgan zamon fe’llarini aniqlab, ularning tagiga chizing.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarda matnni lingvistik tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar “Oqbo‘yin” matnining 1-xatboshini ko‘chirib, undan o‘tgan zamon fe’llarini belgilashlari kerak.

4-soat



Hadislar bilan tanishing, ularning mazmuni haqida suhbatlashing.

Abdulloh ibn Abbos(r.a.)dan rivoyat qilinadi. “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam hayvonlarni bir-biri bilan urishtirishdan qaytardilar”.

Imom Termiziy rivoyati

Abdulloh ibn Umar (r.a.) molning yuziga belgi qo‘yishni rad etib: “Janob Rasululloh molning yuziga tamg‘a bosishdan qaytarganlar”, — dedilar.

Imom Buxoriy rivoyati

Hishom ibn Zayd rivoyat qiladi: “Men Anas bilan birga Hakam ibn Ayyubning huzuriga kirdim. Anas bir guruh bolalar bir tovuqni bog‘lab qo‘yib, toshbo‘ron qilayotganlarini ko‘rib: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam jonivorlarni ushlab olib, qiynashdan qaytarganlar”, – dedi”.

Imom Buxoriy rivoyati

“Hayvonlarga shafqatsizlarcha munosabatda bo‘lmang!” mavzusida matn yarating. Bunda o‘z qoidalaringizni hadislar yordamida dalillash tavsiya etiladi.

Yozgan matningizni tahrir qiling. Bu matndan qanday savollarga javob olish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.

82

Dars jarayoni

Kirish

Hayvonlarga ozor bergan kishini ko‘rganmisiz? Unga nima degan bo‘lardingiz?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Ushbu rasmlarni diqqat bilan kuzating. Ularda qanday holatlar tasvirlangani haqida suhbatlashing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning berilgan holatlarini kuzatib, vaziyatga baho berish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar rasmlarni kuzatib, berilgan vaziyat yuzasidan o‘z munosabatlarini bildirishlari lozim. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning og‘zaki nutqi hamda holatlarni asoslab tushuntira olishiga qaratiladi.

Yozma nutq. Matn yaratish

Suhbat asosida hayvonlar bilan qanday munosabatda bo‘lish kerakligi haqida qoidalar yozing.

Ushbu topshiriq o‘quvchining shaxsiy kuzatishlari asosida fikr bildirishiga qaratilgan. O‘quvchilar hayotiy kuzatishlari hamda bildirilgan fikrlar asosida hayvonlar bilan qanday munosabatda bo‘lish kerakligi haqida qoida yozishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor bog‘lanishli nutq tuza olishlariga qaratiladi.

O‘qib tushunish

Hadislar bilan tanishing, ularning mazmuni haqida suhbatlashing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirish hamda hadislar mazmunini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar o‘qib bo‘lganlaridan so‘ng, hadislar birgalikda muhokama qilinib, ularning ma’nosi izohlab berilishi zarur.

Yozma nutq. Matn yaratish

“Hayvonlarga shafqatsizlarcha munosabatda bo‘lmang!” mavzusida matn yarating. Bunda o‘z qoidalaringizni hadislar yordamida dalillash tavsiya etiladi.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning yozma matn yaratish hamda fikrlarini dalillay olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan sarlavha ostida dalilly-tavsifiy matn yozishlari lozim. Bunda o‘quvchiga qo‘shimcha ma’lumot to‘plash uchun kitob, gazeta va jurnallardan foydalanish mumkinligi aytiladi.

Uyga vazifa

Yozma nutq. Tahlil

Yozgan matningizni tahrir qiling. Bu matndan qanday savollarga javob olish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarda yozgan matnlarini tahrir qilish, qayta tuzatish hamda o‘zlari yozgan matn mazmunini anglab, savol tuza olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

MUSTAHKAMLASH

Dars jarayoni

Kirish

Veterinar kasbi haqida nimalarni bilib oldingiz?

Asosiy qism

Alohida olingan so‘zlar

Hayvonlarga xos taqlid so‘zlardan hosil bo‘lgan fe’llar bilan tanishing. Ularni ikki ustunga ajratib yozing.

Mazkur topshiriqdan maqsad o‘quvchilarda fe’llarning taqlid so‘zlardan yasalishi haqida tushuncha hosil qilishdan iborat. O‘quvchilar berilgan fe’llarni ma’no-mazmuniga ko‘ra guruhlarga ajratib yozishi lozim. Dastlab o‘quvchilar bilan taqlid so‘zlar haqida savol-javob o‘tkazib olish maqsadga muvofiq. So‘ngra ularga berilgan fe’llarni guruhlarga ajratib yozish aytiladi.

Javob:

Holatga taqlidni bildiruvchi fe’llar	Tovushga taqlidni bildiruvchi fe’llar
pishqirmoq, parillamoq, lapanglamoq, dikanglamoq, g‘ingshimoq	*akillamoq, miyovlamoq, vovullamoq, chiyillamoq, uvullamoq, vishillamoq, ma’ramoq, vizillamoq, vaqillamoq, g‘uvullamoq, angillamoq, dupurlamoq, qurullamoq*

Sintaksis

Ushbu fe’llarni o‘tgan zamon shaklida qo‘llab, gaplar tuzing va yozing.

Bunda o‘quvchilarga yuqorida guruhlab yozgan fe’llarini o‘tgan zamonda qo‘llab, gap tuzib yozishlari aytiladi. Asosiy e’tibor so‘zni ma’nosiga mos kontekstda qo‘llay olishlariga qaratiladi.

Leksikologiya

Hayvon nomlari bilan bog‘liq iboralar ma’nosini namunadagidek izohlab yozing. Ularni qo‘llash bilan bog‘liq og‘zaki dialoglar yaratib, uni partadoshingiz bilan ijro etib bering.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, iboralarning ma’no-mazmunini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar dastlab berilgan iboralarni namunadagi singari izohlab yozishlari lozim. Bu jarayonda iboralar lug‘atidan foydalanish mumkinligi aytiladi.

Iboralarning izohlarini yozib bo‘lganlaridan so‘ng, ularni qo‘llab, sheriklari bilan dialog matni yaratib, ijro qilib berishlari zarur.

Uyga vazifa

Yozma nutq. Matn yaratish

Kasal hayvonlar bilan qanday munosabatda bo‘lish kerakligi haqida yozing. Bunda quyidagi ma’lumotlar va birliklardan foydalaning.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirish hamda ularda hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilish hissini uyg‘otishga qaratilgan. O‘quvchilarga kasallangan hayvonlar haqidagi ma’lumotlar aytib, tushuntiriladi va ushbu yo‘riqnoma hamda berilgan til birliklari asosida hayvonlarga qanday munosabatda bo‘lish kerakligi haqida matn yozishlari aytiladi.

MAQSADLI XARAJATLAR

Nutqiy mavzuning maqsadi: matnni o‘qib tushunish, muhokamaga kirishish, matnni tinglab tushunish, matn yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajara olish, berilgan maqollarning mazmunini tushunish, uni muayyan vaziyatda qo‘llay olish, ma’lumotlarni jadval ko‘rinishida ifodalash bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish; munozarali mavzu yuzasidan o‘z qarashlarini ifodalash maqsadida fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar orqali asoslab yoza olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish; hisob so‘zlar, ularning ifodalanishi, zamon va uning ifodalanishi, tartib son va uning imlosi bilan bog‘liq lingvistik bilimlarni mustahkamlash.

1-soat



MAQSADLI XARAJATLAR

Bu mavzuda o‘rganamiz

• muhim hayotiy, iqtisodiy ko‘nikmalar • zaruriy, majburiy, ixtiyoriy xarajatlar • hisob-o‘lchov so‘zlar • miqdor va tartib sonlar • sonlarning imlosi • munozara matni.

1. Siz odatda nimalarga pul sarflaysiz?
2. O‘ylab ko‘ring-chi, qaysi xarajatlaringiz keraksiz?

Xarajat turlarini ularning izohi bilan moslashtiring.

ZARURIY | MAJBURIY | IXTIYORIY

A Ushbu tur yashashingiz uchun juda ham muhim bo‘lgan narsalarga sarflaydigan pulingizni anglatadi. Masalan, oziq-ovqat sotib olishga ketadigan xarajat. Un, yog‘, mevalar, kartoshka, piyoz kabi narsalar yashash uchun muhim hisoblanadi, shuning uchun ham bu turdagi xarajatlarni qilmaslikning iloji deyarli yo‘q.

B Ushbu tur xarajatlarga ham pul sarflashingiz kerak. Aks holda sizni turli ko‘ngilsizliklar qarshi olishi mumkin. Masalan, yo‘l haqi. Siz biror transport xizmatidan (avtobus, poyezd, metro, taksi) foydalandingizmi, uning haqini ham to‘lashingiz kerak.

D Ushbu tur xarajatlari kundalik emas. Ular uchun pul sarflash ixtiyoriy bo‘ladi. Masalan, bodroq sotib olishga ketadigan xarajat. Siz bodroq sotib olmasangiz ham, yashay olasiz, lekin uning iste’moli sizga rohat bag‘ishlashi mumkin. Demak, bu turdagi xarajatlarsiz yashasa bo‘ladi, ammo ular sizga zavq yoki rohat berishi ham mumkin.

85

Dars jarayoni

Kirish

Yangi nutqiy mavzu e’lon qilinadi. Quyidagi savollar asosida kirish suhbati tashkillashtiriladi.

1. Siz odatda nimalarga pul sarflaysiz?

2. O‘ylab ko‘ring-chi, qaysi xarajatlaringiz keraksiz?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Xarajat turlarini ularning izohi bilan moslashtiring.

Matnni o‘qib tushunish, uning mazmuniga nisbatan munosabat bildirish bilan bog‘liq ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

Berilgan matnlar alohida o‘qib chiqiladi. Ularni tur jihatdan ajratishda nimalarga asoslanilgani haqida qo‘shimcha savollar beriladi. Rasmlarning berilgan matnlar bilan aloqasi haqida suhbat olib boriladi.

Yozma nutq

Quyidagi xarajat turlarini jadvalga joylashtiring. Oilangizda bulardan qaysilari mavjud?

Berilgan ma’lumotlarni ma’lum bir me’yor asosida tasniflay olish bilan bog‘liq ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

O‘quvchilar berilgan xarajatlarni mustaqil ravishda, muhokama qilmasdan jadvalga joylaydilar.

Og‘zaki nutq

Xarajat turlarini nega bunday tasniflaganingizni og‘zaki tushuntirib bering.

Muhokamaga kirishish, muhokamani olib borish jarayonida boshqalarning fikrini tinglashni o‘rganish, ularga hurmat bilan murojaat etish, o‘z fikrlarini asoslab bera olish, shuningdek, xulosaviy fikrlarni ayta olish bilan bog‘liq ko‘nikmalar shakllantiriladi.

Shundan so‘ng o‘qituvchi bir o‘quvchining tanlovi asosida ushbu xarajat turlarini muhokama qiladi. O‘quvchilar sinfdoshining tanloviga nisbatan baho beradi, unga munosabat bildiradi. Agar boshqalarnikidan farqli tanlovlar mavjud bo‘lsa, uni izohlash so‘raladi. Shunday shaklda bir nechta o‘quvchi misolida mavzu yuzasidan muhokama uyushtiriladi. O‘quvchilar muhokamani olib borish jarayonida boshqalarning fikrini tinglashlari, ularga hurmat bilan murojaat etishlari, o‘z fikrlarini asoslab bera olishlari, shuningdek, xulosaviy fikrlarini aytishlari muhim sanaladi.

Morfologiya

Quyidagilarni o‘lchash uchun qanday o‘lchov birliklaridan foydalanamiz? Daftaringizga yozing.

Hisob so‘zlar, ularning ifodalanishi bilan bog‘liq lingvistik bilimlar mustahkamlanadi.

Berilgan narsalar qanday so‘zlar bilan o‘lchanishi mumkinligi haqida o‘ylab ko‘rish aytiladi. O‘quvchilar bir so‘z uchun bir nechta birlikni keltirishi mumkinligi tavsiya sifatida eslatiladi. Ular qanday so‘zlar bilan (ot) ifodalanayotganiga e’tiborni qaratish muhim.

Yozma nutq


Uyga vazifa

Sizningcha, xarajatlar maqsadli yoki maqsadsiz bo‘lishi mumkinmi? Shu haqida esse yozing. O‘z fikringizni misollar bilan isbotlang. Esse yanada sifatli bo‘lishi uchun *“maqsad”, “maqsadli”, “maqsadsiz”* so‘zlarining izohini lug‘atdan ko‘rib oling.

Biror narsani tushuntirish yoki ma’lum predmet, hodisa haqida ma’lumot yetkazish maqsadida fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar orqali asoslab yoza olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

Berilgan mavzu haqida o‘ylab ko‘rish hamda o‘z fikrlarini esse shaklida yozib kelish aytiladi. Esse yozishning qoidalari yodga olinadi.

2-soat



Sizningcha, xarajatlar maqsadli yoki maqsadsiz bo‘lishi mumkinmi? Shu haqida esse yozing. O‘z fikringizni misollar bilan isbotlang. Esse yanada sifatli bo‘lishi uchun *“maqsad”, “maqsadli”, “maqsadsiz”* so‘zlarining izohini lug‘atdan ko‘rib oling.

Esse yozish jarayonida nimalarni bilib oldingiz?
Esseda yozgan fikrlaringizni qisqa tarzda sinfdoshlaringizga tushuntirib bering.

Quyidagi test savollarini diqqat bilan o‘qing. Keyin sizga audiomatn eshittiriladi. O‘sha matnni eshitish jarayonida testlarning javobini belgilashingiz kerak bo‘ladi. Testni hozir yechib qo‘ymang. Kitobga belgilamang.

TEST SAVOLLARI

1. To‘g‘ri javobni toping.
“Numerativlar” qaysi atama bilan ma’nodosh emas?
A) hisob so‘zlari B) o‘lchov so‘zlari C) son

2. Hukmning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.
Hisob so‘zlari ot so‘z turkumiga mansub.
A) to‘g‘ri B) noto‘g‘ri

3. To‘g‘ri javobni toping.
“1 kilo shakar” birikmasida “kilo” qaysi so‘z o‘rnida ishlatilgan?
A) kilometr B) kilogramm C) gramm

4. To‘g‘ri javobni toping.
Sof hisob so‘zlari haqida to‘g‘ri ma’lumotni toping.
A) Faqatgina o‘lchov birligini bildirmaydi, boshqa ma’nolari ham bo‘ladi.
B) Faqatgina uzunlik va hajm o‘lchov birliklarini o‘z ichiga oladi.
C) Faqatgina o‘lchov birligini bildiradi, boshqa ma’nolari mavjud emas.

5. To‘g‘ri javobni toping.
Quyidagilardan qaysi biri orqali og‘irlikni ifodalash mumkin?
A) kilometr B) sentner C) sotix

87

Dars jarayoni

Kirish

Quyidagi savollar asosida kirish suhbati tashkillashtiriladi.

1. Esse yozish jarayonida nimalarni bilib oldingiz?

2. Esseda yozgan fikrlaringizni qisqa tarzda sinfdoshlaringizga tushuntirib bering.

Asosiy qism

Tinglab tushunish

Quyidagi test savollarini diqqat bilan o‘qing. Keyin sizga audiomatn eshittiriladi. O‘sha matnni eshitish jarayonida testlarning javobini belgilashingiz kerak bo‘ladi. Testni hozir yechib qo‘ymang. Kitobga belgilamang.

Matnni tinglab tushunish, matn yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajara olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

O‘quvchilarning e’tibori berilgan testlarga qaratiladi. O‘quvchilar testlarni diqqat bilan o‘qiydi. Audiomatnni tinglash jarayoniga tayyorlanadi.

Endi hisob so‘zlari haqida gaplashamiz. Hisob so‘zlari, o‘lchov so‘zlari, numerativlar kabi atamalar bilan yuritiladigan bu so‘zlar turkum jihatidan son emas, balki ot hisoblanadi. Lekin ular sonlarning eng yaqin hamrohidir. Masalan, siz shakar olmoqchisiz. Shu shakarni o‘lchash uchun sonning o‘zidan foydalana olmaysiz-da, ya’ni “Menga bitta shakar bering”, “Ikkita shakar bering”, deya olmaysiz. Albatta, “Bir kilo shakar bering”, “Ikki kilo shakar bering” deya aytasiz. Bu yerda siz ishlatayotgan “kilo” so‘zi, aslida kilogramm va bu son emas. Balki songa o‘lchashda ko‘maklashuvchi ot turkumiga mansub so‘z. Mana shunaqa so‘zlar ***o‘lchov so‘zlari*** *yoki* ***hisob so‘zlari*** *yoki* ***numerativlar*** *deb ataladi.*

Hisob so‘zlari deb biz son va sanaladigan predmet o‘rtasida keladigan ***metr***, ***kilo***, ***litr*** *kabi so‘zlarni tushunamiz. Lekin hisob so‘zlari ham ikki xil bo‘ladi. Birinchisi, sof hisob so‘zlari. Sof hisob so‘zlari faqat va faqat o‘lchash uchun ishlatiladi. Ular “o‘lchov birligi” deb ataladigan so‘zlar. Masalan, uzunlikka nisbatan ishlatiladigan* ***metr***, ***kilometr***, ***santimetr*** *va hokazolar sof hisob so‘zlari hisoblanadi. Chunki santimetrni o‘lchov birligi deymiz. Demak, o‘lchov birligi so‘zlari hammasi sof hisob so‘zlari ekan. Nafaqat uzunlik, balki hajmga nisbatan ishlatiladigan* ***litr***, ***metr kub*** *kabi so‘zlar yoki maydonga nisbatan ishlatiladigan* ***gektar***, ***sotix***, ***metr kvadrat*** *kabi so‘zlar, og‘irlik, vaznga nisbatan ishlatiladigan* ***tonna***, ***sentner***, ***kilogramm*** *kabi so‘zlar – bularning hammasi sof hisob so‘zlari ekan. Bundan tashqari, kam ishlatilsa-da, bilishimiz kerak bo‘lgan vaqt o‘lchov birliklari ham bor:* ***soat***, ***daqiqa***, ***soniya*** *kabi. Pul miqdori, pul qiymatini bildiradigan so‘zlar ham bor:* ***so‘m***, ***dollar*** *kabi.*

Ayrim hisob so‘zlarini maqollarda eshitib qolamiz-u, lekin bugungi hayotda qo‘llamaymiz. Ular eskirgan, arxaik hisob so‘zlaridir. Masalan:

O‘bro misqollab keladi, botmonlab ketadi.

Uyda chaksa uni yo‘q, tom boshida qo‘sh tandir.

Uch chaqirimdan biladi.

Bir tosh yo‘l yurdi.

Uch yig‘och yo‘l yurdi.

Demak, ***misqol, botmon, chaksa****lar vazn o‘lchov birliklari,* ***chaqirim, tosh, yig‘och****lar o‘tmishda ishlatilgan masofa o‘lchov birliklaridir.*

Agar tushunarli bo‘lsa, endi sof bo‘lmagan hisob so‘zlari haqida gaplashamiz. Hisob so‘zlarning ikkinchi turi vazifadosh hisob so‘zlaridir.


Biz bularni shartli ravishda vazifadosh deb nomladik. Aslida bu so‘zlar predmetni bildiradi. Faqat ba’zan gapda, nutqimizda hisob so‘zi vazifasida keladi.

Masalan, chelak. Chelak nima desa, o‘lchov birligi deymizmi? Yo‘q, chelak suv tashish yoki uni saqlashda ishlatiladigan idish turi deymiz. Demak, bu sof hisob so‘zi emas ekan. Chunki bu o‘lchov birligi

emas. Lekin ba'zida u o'lchov birligi vazifasida kelib qolishi mumkin. Masalan, uch chelak suv. Biz bu yerda suv miqdorini o'lchayapmiz. Ba'zan ***chelak*** *hisob so'zi vazifasida kelmasligi ham mumkin. Masalan, chelak suvda oqib ketdi. Demak, birinchi misolimizdagina u hisob so'zi vazifasida kelyapti ekan.*

Boshqa misollarni ham keltirish mumkin. Masalan, qoshiq: bir qoshiq tuz. Qop: bir qop un. Uy: bir uy odam. Og'iz: bir og'iz gap va hokazo.

Odamga, odam a'zolariga bog'liq ***qadam, qarich, quloch*** *kabi so'zlar ham vazifadosh hisob so'zlariga kiradi. Chunki qadam nima desa, o'lchov birligi demaymiz. Ularni sonsiz ham ishlatishimiz mumkin. Masalan, "Qadamingni tezlat"da hech qanday son bilan kelayotgani yo'q. Demak, bu so'zlar hisob so'z bo'lishi uchun chap tarafida bir son, o'ng tarafida esa boshqa bir predmet kelishi kerak.*


6. To'g'ri javobni toping.
"Eskirgan", "arxaik" atamalari qanday so'zlarga nisbatan ishlatiladi?
A) hozirda ishlatilmaydigan
B) maqollarda qo'llanadigan
C) qadimda ishlatilmagan

7. To'g'ri javobni toping.
Quyidagilardan qaysi bir arxaik o'lchov birligi hisoblanadi?
A) chaksa B) tiyin C) sotix

8. To'g'ri javobni toping.
Hisob so'zlari ikki xil bo'ladi: sof va ...
A) vazifadosh B) asl C) yordamchi

9. Hukmning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.
Predmetni bildirgan ba'zi so'zlar o'lchov birligini ham anglatishi mumkin.
A) to'g'ri B) noto'g'ri

10. To'g'ri javobni toping.
Quyidagi qaysi gapda sof hisob so'zi qo'llangan?
A) Narimon eshikni ochdi-yu bir uy bug'doyni ko'rib, qotib qoldi.
B) Naima tushundiki, bir daqiqa ham kutish mumkin emas, ketish kerak.
C) O'n qadam sanab, mana shu joydan chegara chizish kerakligini aytdi.

Audiomatnni tinglang va daftaringizga javoblarni belgilab boring.

Quyidagi maqollarning ma'nosini izohlashga harakat qiling.

Obro' misqollab keladi, botmonlab ketadi.

Uyida chaksa uni yo'q, tom boshida qo'sh tandir.

Tentakka Quva bir tosh.

Guruhlarga bo'lining. Audiomatndan o'rganganlaringiz asosida "Hisob so'zlari" nomli qoida yarating. Har bir guruh o'zi yaratgan qoidani izohlab berishi kerak.

Muhokama qiling. Nima uchun xarajatlar haqidagi mavzuda hisob so'zlari o'rganilmoqda?

88

Audiomatnni tinglang va daftaringizga javoblarni belgilab boring.

Audiomatnni tinglash jarayonida matn yuzasidan berilgan test savollariga javoblarni belgilash so'raladi. Har bir o'quvchi mustaqil ravishda testni bajarishi lozim.

1. C 2. A 3. B 4. C 5. B
6. A 7. A 8. A 9. A 10. B

Har bir test javobi o'quvchilar bilan birgalikda muhokama qilinadi.

Zarurat sezilsa, audiomatnni qayta eshittirish mumkin.

Leksikologiya

Quyidagi maqollarning ma'nosini izohlashga harakat qiling.

Berilgan maqollarning mazmunini tushunish, uni muayyan vaziyatda qo'llay olish bilan bog'liq ko'nikmalar rivojlantiriladi.

Audiomatndan olingan maqollar mazmuni muhokama qilinadi. O'quvchilar ushbu maqollardan qanday vaziyatlarda foydalanish mumkinligi haqida gapiradilar.

Yozma nutq

Guruhlarga bo'lining. Audiomatndan o'rganganlaringiz asosida "Hisob so'zlari" nomli qoida yarating. Har bir guruh o'zi yaratgan qoidani izohlab berishi kerak.

Tinglab tushunganlari asosida yangi matn yarata olish bilan bog'liq nutqiy ko'nikmalar mustahkamlanadi.

O'qituvchi o'quvchilarni bir nechta guruhga bo'ladi. Tinglaganlari va berilgan testlar yordamida hisob so'zlari bilan bog'liq nazariy qoida yaratiladi. O'zida eng ko'p va kerakli ma'lumotni muayyan izchillik bilan bera olgan qoida tuzuvchilar rag'batlantiriladi.

Og‘zaki nutq

Muhokama qiling. Nima uchun xarajatlar haqidagi mavzuda hisob so‘zlari o‘rganilmoqda?

Muhokamaga kirishish, muhokamani olib borish jarayonida boshqalarning fikrini tinglashni o‘rganish, ularga hurmat bilan murojaat etish, o‘z fikrlarini asoslab bera olish, shuningdek, xulosaviy fikrlarni ayta olish bilan bog‘liq ko‘nikmalar shakllantiriladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning fikrlarini tinglaydi, ularga munosabat bildiradi. Agar boshqalarnikidan farqli fikrlar mavjud bo‘lsa, uni izohlash so‘raladi. Shunday shaklda bir nechta o‘quvchi misolida mavzu yuzasidan muhokama uyushtiriladi. O‘quvchilar muhokamani olib borish jarayonida boshqalarning fikrini tinglashlari, ularga hurmat bilan murojaat etishlari, o‘z fikrlarini asoslab bera olishlari, shuningdek, xulosaviy fikrlarini ayta olishlari muhim sanaladi.

Yozma nutq

Uyga vazifa

Oilangizning bir oylik xarajatlari jadvalini tuzing. Kattalardan yordam oling. Bir oyda taxminan qancha pul sarflar ekansiz?

Ma’lumotlarni jadval ko‘rinishida ifodalash bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

Ma’lumotlarni jadval ko‘rinishida ifodalash bilan bog‘liq tavsiyalar, hisob so‘zlarini qo‘llashga oid qoida yodga olinadi.

3-soat

Dars jarayoni

Kirish

Quyidagi savollar yordamida kirish suhbati tashkillashtiriladi.

1. Nimalar bizni xarajat qilishga undaydi?

2. Xarajatlarning darajasi hammada bir xilmi? Javobingizni izohlang.

3. Blog, blog yuritish, bloger haqida nimalarni bilasiz?



Oilangizning bir oylik xarajatlari jadvalini tuzing. Kattalardan yordam oling. Bir oyda taxminan qancha pul sarflar ekansiz?

Xarajat nomi	O‘lchov	Xarajat turi	Sarflanadigan pul
Yo‘l haqi	-	majburiy	120 000 so‘m
Kartoshka	10 kilogramm	zaruriy	50 000 so‘m
?	?	?	?

1. Nimalar bizni xarajat qilishga undaydi?
2. Xarajatlarning darajasi hammada bir xilmi? Javobingizni izohlang.
3. Blog, blog yuritish, bloger haqida nimalarni bilasiz?

Iqtisodchining blogidan olingan matnni o‘qing. Savollarga javob bering.

XARAJATLARNI FARQLASH

Oylik maosh olishimiz bilan juda ko‘pchiligimiz uni turli sarf-xarajatlarga taqsimlab chiqamiz. Barcha xarajatlar ham birdek emas. Ijara haqi, kommunal to‘lovlar kabi ba’zi xarajatlar borki, ular zaruriy va majburiydir. Yana bir tur xarajatlar bizning hayotimizni yanada to‘liq va quvonchga boyroq qilsa-da, zaruriy yoki majburiy hisoblanmaydi, ular mutlaqo ixtiyoriydir.

Zaruriy, majburiy va ixtiyoriy xarajatlar o‘rtasidagi farqni tushunish byudjetimizni to‘g‘ri taqsimlab, sarf-xarajatimizni kamaytirishga yordam berishi mumkin.

Byudjet bu bir oy davomida biz topadigan va sarflaydigan barcha pullarning miqdoridir. Byudjet hisobini

89

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Iqtisodchining blogidan olingan matnni o‘qing. Savollarga javob bering.

O‘qib tushunish, matn yuzasidan berilgan savollarga javob topa olish, matn tafsilotlarini qayta so‘zlab berish, muallifning nuqtayi nazarini baholash, munosabat bildirish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni mustahkamlash ustida ishlanadi.

O‘quvchilar o‘qish jarayoniga tayyorlanadilar. Matnni qismlarga bo‘lib o‘qitish yoki ichda o‘qish uchun vaqt berish maqsadga muvofiq. Quyidagi

savollar asosida suhbat olib boriladi.

1. Ixtiyoriy va zaruriy xarajatlar orasidagi farqlarni sanang.

O‘qituvchi o‘quvchilarning imkon qadar matnga asoslangan holda javob berayotganlarini kuzatib turadi. Agar o‘quvchi shaxsiy kuzatuvlari asosida savolga javob bersa, bunda nimaga asoslanayotganini aytib o‘tishi, o‘z qarashlarini matndagi ma’lumotlar bilan qiyoslab ifodalashi so‘raladi.

2. Byudjet hisobini yuritish nima uchun kerak deb o‘ylaysiz?

Matndagi ma’lumotlar asosida savolga javob beriladi. O‘qituvchi bir nechta yo‘naltiruvchi savollar bilan murojaat etadi. Masalan, “Byudjet hisobi yuritilmaydigan oilada nimalar sodir bo‘lishi mumkin?”, “Bu qanchalik zarur?”, “Sizning oilangizda ham shunday hisob yuritiladimi?” kabi savollarni berish tavsiya etiladi.

3. Biror nimaga pul yig‘moqchi bo‘lsak, qaysi turdagi xarajatlarni kamaytirish lozim?

Bu savolga javob berishda ham avval berilgan tavsiyalar, shaxsiy fikrlarga tayaniladi. O‘quvchilar o‘z nuqtayi nazarini tushuntiradilar, asoslaydilar.

4. Muallif o‘z byudjetini nazorat qilish uchun nimalar qildi?

Matnda ochiq holatda keltirilgan ma’lumotlar asosida savolga javob beriladi.

5. Sizningcha, muallif nimaga non uchun xarajat qarshisiga “har kuni” deb yozib qo‘ygan?

Shaxsiy qarashlar asosida javob beriladi, yana shunday kundalik va zaruriy xarajatlarga misollar aytish so‘raladi.

6. Muallif kabi siz ham o‘zingizni so‘roq qilib ko‘rganmisiz? Qachon? Nima maqsadda shunday qilgansiz?

Ushbu vaziyatni kundalik hayot bilan bog‘lash, o‘quvchilar “Ha” deb javob bersa ham, “Yo‘q” deb javob bersa ham “Nima uchun?” singari savollar bilan murojaat etib, masalaning tub mohiyatini ochishga, shunday hisobot berishga chorlash kerak.

7. Matnni kattalarga ham o‘qib bering.

Muallifning bundan ko‘zlagan maqsadi so‘raladi, matn kattalar uchun qanchalik foydali bo‘lishi mumkinligi haqida suhbat olib boriladi.

Morfologiya

Matndagi zamon qo‘shimchalarini aniqlang. Nima deb o‘ylaysiz, ular qaysi zamonga ishora qilmoqda? Nega shunday deb o‘ylaysiz?

Zamon va uning ifodalanishi bilan bog‘liq lingvistik bilimlar mustahkamlanadi.

Matnni qayta o‘qish, undagi asosiy fikr qaysi zamonda ekani so‘raladi. Nima uchun muallif o‘z fikrlarini o‘tgan zamonda ifodalayotgani tushuntiriladi, bu ma’no qanday vositalar orqali yuzaga chiqayotgani haqida ma’lumot beriladi.

Sizningcha, qaysi biri to‘g‘ri? Nima uchun?

Tartib son va uning imlosi bilan bog‘liq lingvistik bilimlar mustahkamlanadi.

O‘quvchilar berilgan variantlardan qaysi biri to‘g‘ri ekanini aytadilar, shundan so‘ng o‘qituvchi to‘g‘ri variantni ko‘rsatib, son va uning imlosi bilan bog‘liq qoidani yodga soladi yoki o‘quvchilardan ushbu qoidani yodga olishni so‘raydi. Ushbu qoidadan yana qanday o‘rinlarda foydalanish mumkinligi haqida ma’lumot beriladi.

Munozara matnlarining o‘ziga xos jihatlari haqida darslikda keltirilgan ma’lumot asosida suhbat uyushtiriladi, berilgan ma’lumotlar tahlil qilinadi.

Shundan so‘ng o‘quvchilar bilan esse yozishda ko‘mak beradigan ba’zi tavsiyalar tahliliga o‘tiladi. O‘qituvchi har bir berilgan tavsiyaga alohida to‘xtaladi, ish jarayonida ushbu tavsiyadan qanday foydalanish mumkinligi haqida ko‘rsatmalar beradi, buni biror esse misolida ko‘rsatib berish ham mumkin.

Yozma nutq

Uyga vazifa

Quyidagi vaziyat asosida esse yozing. Essega chiroyli sarlavha toping.

Munozarali mavzu yuzasidan o‘z fikrlarini ifodalash maqsadida fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar orqali asoslab yoza olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

O‘qituvchi mavzu yuzasidan bir nechta muhokamaga sabab bo‘luvchi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat etadi. Masalan, “Qimmatbaho soat insonga zarur emas degan fikrga qo‘shilasizmi? Nima uchun?” singari savollar hamda darslikdagi tavsiyalar asosida esse yozib kelish topshirig‘i beriladi.

4-soat

Dars jarayoni

Kirish

Bugungi darsda yozib kelingan esselar taqdimoti va tahlili bo‘lib o‘tishi haqida, taqdimot qilishda nimalarga e’tiborli bo‘lish, baholashda qanday jihatlar ustunlikka ega ekani haqida ma’lumot beriladi.

Asosiy qism


Yozma nutq

Yozib kelingan esselar tahlili va tahriri.

Har bir o‘quvchi o‘z essesini o‘qib beradi, qolgan o‘quvchilar aniqlashtiruvchi savollar beradi hamda matn tuzilishining qoidaga mos ekanini tekshiradi.

Munozarali mavzu yuzasidan o‘z fikrlarini ifodalash maqsadida fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar orqali asoslab yoza olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

Har bir o‘quvchi o‘zi yozib kelgan esseni boshqalarga o‘qib beradi. O‘qituvchi avval o‘quvchilarning fikrini tinglaydi, keyin esa ularni to‘ldiradi. O‘rinli deb hisoblangan kamchiliklarni tuzatish yuzasidan tavsiyalar beriladi. Bunda sinfdagi ayrim o‘quvchilarni ekspert sifatida tayinlash, boshqalar tomonidan bo‘lgan e’tirozlarga munosabat bildirish vazifasini yuklash mumkin. Ekspertlarni tez-tez o‘zgartirib turish maqsadga muvofiq.



Esse yozishda ko‘mak beradigan ba’zi tavsiyalar:

- Yozishga kirishishdan oldin **masala**ning ijobiy va salbiy jihatlari ro‘yxatini tuzib oling.
- Asosiy qismdagi har bir jihatga alohida to‘xtaling va har bir fikrni hayotiy dalillar bilan asoslang.
- *Shuni aniq aytishim mumkinki, to‘liq ishonamanki, qat’iy ishonamanki* kabi birliklarni qo‘llamang.
- Adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda, so‘zlashuv uslubini qo‘shmasdan yozing.
- Mavzuga mos fakt, iqtibos, ibora va maqollar keltirishga harakat qiling.
- Har bir xatboshini uning nima haqida ekaniga ishora qiluvchi jumla bilan boshlang.

Quyidagi vaziyat asosida esse yozing. Essega chiroyli sarlavha toping.

Odamlar hayotini yanada zavqli qilish uchun ixtiyoriy xarajatlarini ko‘paytirib yuboradilar. Ixtiyoriy xarajatlarning ijobiy va salbiy jihatlarini muhokama qiling va o‘z qarashlaringizni esseda ifodalang.

Yozib kelingan esselar tahlili va tahriri.

Har bir o‘quvchi o‘z essesini o‘qib beradi, qolgan o‘quvchilar aniqlashtiruvchi savollar beradi hamda matn tuzilishining qoidaga mos ekanini tekshiradi.


93

Yozib kelingan esselarning har biri tahlil qilinadi va baholanadi.

BOBOMNING PENSIYASI

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilarda pensiyaning qanday yig‘ilishi, pensiya yoshi haqida tasavvur hosil qilish va unga oid til birliklarini nutqda faollashtirish; ularning ma’nolari; matn tarkibidan qavm-qarindoshlikni ifodalovchi til birliklarini aniqlash; ravish imlosi, ularning yasalishi; otlarning lug‘aviy shakllari, ularning qo‘llanishi, erkalash-kichraytirish shakllarining nutq ifodasidagi vazifasi va o‘rni, *-gina* shaklining imlosiga oid lingvistik bilimlarni berish; berilgan yo‘riqnoma asosida infografika yaratish ko‘nikmasini shakllantirish.

1-soat


BOBOMNING PENSIYASI

Bu mavzuda o‘rganamiz

• pensiya tizimining iqtisodiy ahamiyati • qavm-qarindoshlikni ifodalovchi til birliklari • ravishlar imlosi, ularning yasalishi • otlarning lug‘aviy shakllari • infografika yaratish.

O‘zbek tilida qarindosh-urug‘lar qanday nomlanishini bilasizmi? Ayting.

Rasmlarga qarang va savollarga javob bering.

1. Rasmda kimlar tasvirlangan bo‘lishi mumkin? Ularni shevangizda qanday ataladi? Adabiy tilda-chi?
2. Sizningcha, rasmda qavm-qarindoshlardan kimlar tasvirlanmagan?

94

Dars jarayoni

Kirish

O‘zbek tilida qarindosh-urug‘lar qanday nomlanishini bilasizmi? Ayting.

Bu savol o‘quvchilarni mavzuga olib kirish, og‘zaki nutqida qarindosh-urug‘ nomlarini faollashtirish, ushbu til birliklaridan o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarga yo‘naltiruvchi savollar bilan ko‘rsatma berishi maqsadga muvofiq.

1. *Otangizning opalari sizga kim bo‘ladi?*
2. *Onangizning akasi yoki ukasini qanday ataysiz?*
3. *Bobo-buvilaringizga siz kim bo‘lasiz?*

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Rasmlarga qarang va savollarga javob bering.

1. Rasmda kimlar tasvirlangan? Ular shevangizda qanday ataladi? Adabiy tilda-chi?

Bu savol o‘quvchilarning shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishiga qaratilgan. Bunda o‘quvchilar rasmda kimlar tasvirlangani va ularni o‘z shevalarida qanday atashlarini aytishlari lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarning fikrini to‘ldirib, bir-ikki misollar bilan tilimizning sheva asosida boyishi, turli so‘z bilan bir tushunchani ifodalash mumkinligi, bu o‘sha hududning kelib chiqishi tarixiga borib taqalishi haqida ma’lumotlar berishi kerak.

Masalan:

buvi (adabiy tilda) – katta, to‘ta, momo (shevada);


ona (adabiy tilda) – aya, oyi, opa, ena (shevada);

ota (adabiy tilda) – ada, dada (shevada).

2. Sizningcha, rasmda qavm-qarindoshlardan kimlar tasvirlanmagan?

Bu savol o‘quvchining shaxsiy kuzatishlari asosida qavm-qarindoshlikka oid til birliklarini nutqida faollashtirishga qaratilgan. O‘quvchilar rasmda berilmagan qavm-qarindoshlar qanday atalishini aytishlari lozim.

Masalan, amakivachcha, xolavachcha, jiyan, nabira kabi.



To‘g‘ri yozilgan so‘zlarni aniqlab, daftaringizga ko‘chiring. Har ikki so‘z to‘g‘ri bo‘lishi ham mumkin.

kennoyi/kelinoyi	qarindosh-urug‘/qarindosh urug‘
nabira/nevara	otayu ona/ota-yu ona
xola/hola	evara/avara
amakivachcha/amakivacha	tog‘ayu jiyan/tog‘a-yu jiyan

Qarindoshlaringiz ro‘yxatini tuzing. Ushbu ro‘yxatni namunadagidek izohlab yozing.

Namuna

xolam – *onamning singlisi/opasi.*

Quyidagi so‘zlarni izohi bilan moslab yozing.

So‘zlar	Izohi
Evara	Bitta ota-onadan dunyoga kelgan bola; o‘g‘il yoki qiz (ota-onaga nisbatan)
Nevara	Ma’lum bir urug‘ vakillarining kelib chiqishi va o‘zaro qarindoshlik darajasini ko‘rsatuvchi ro‘yxat
Oila	O‘g‘il yoki qizning farzandi (bobo va buviga nisbatan)
Farzand	Evaraning farzandi – o‘g‘li yoki qizi (katta boboga, buviga nisbatan)
Shajara	Nevaraning bolasi (bobo va buviga nisbatan)
Chevara	Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug‘ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar jamoasi

Eslatma

Xesh-aqrabo – ikki qismdan iborat juft so‘z:
– *xesh* forsiy so‘z bo‘lib, *qavm-qarindosh, yaqinlar* degan ma’noni anglatadi;
– *aqrabo* esa arab tilidan olingan va u ham *yaqinlar, yor-birodarlar* degan ma’nolarni bildiradi.
Demak, *xesh-aqrabo* deganda *qavm-qarindoshlar, urug‘-aymoqlar, do‘st-birodarlar* va *barcha yaqin kishilar* nazarda tutiladi.

95

Orfografiya

To‘g‘ri yozilgan so‘zlarni aniqlab, yozing. Har ikki so‘z to‘g‘ri bo‘lishi ham mumkin.

Ushbu topshiriq qavm-qarindosh nomlarining imlosini o‘zlashtirishga qaratilgan. O‘quvchilar ikki xil ko‘rinishdagi birlikdan to‘g‘ri yozilganini topib, yozishlari lozim.

Javob: *kelinoyi, nabira, xola, amakivachcha, momo, qarindosh-urug‘, ota-yu ona, evara, tog‘a-yu jiyan.*

Leksikologiya

Qarindoshlaringiz ro‘yxatini tuzing. Ushbu ro‘yxatni namunadagidek izohlab yozing.

Mazkur topshiriq dars davomida o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan. Bunda o‘quvchilar qarindoshlarining qanday atalishini izohi bilan birgalikda namunadagi singari yozishlari kerak.

Bunda asosiy e’tibor qavm-qarindosh nomlari haqida tushuncha hosil qilish, imlosini o‘zlashtirish hamda unga izoh yoza olishga qaratiladi.

Leksikologiya

Quyidagi so‘zlarni izohi bilan moslab yozing.

Bu topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan. O‘quvchilar jadvalning birinchi ustunida berilgan so‘zlarni ikkinchi ustundagi izohlari bilan moslab yozishlari lozim. Bu jarayonda lug‘atdan ham foydalanishlari mumkin. Asosiy e’tibor ushbu so‘z haqida tushuncha hosil qilish va uni nutqda qo‘llay olishga qaratiladi.

Javob:

- *Evara – nevaraning bolasi (bobo va buviga nisbatan).*
- *Nevara – o‘g‘il yoki qizning farzandi (bobo va buviga nisbatan).*
- *Oila – er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug‘ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar jamoasi.*
- *Farzand – bitta ota-onadan dunyoga kelgan bola; o‘g‘il yoki qiz (ota-onaga nisbatan).*
- *Shajara – ma’lum bir urug‘ avlodlarining kelib chiqishi va o‘zaro qarindosh-*

lik darajasini izchillik bilan ko‘rsatuvchi ro‘yxat.

- *Chevara – evaraning farzandi – o‘g‘li yoki qizi (katta boboga, buviga nisbatan).*

Qoida. Leksikologiya

O‘quvchilar qavm-qarindoshlar kimligi, bunga oid til birliklari hamda imlosini amaliy topshiriq orqali o‘rganganlaridan so‘ng, nazariy ma’lumot misollar bilan tushuntirib beriladi.

Morfologiya

Berilgan matnni o‘qing va ajratib ko‘rsatilgan qo‘shimchalarga diqqat qiling. Qaysi so‘z(lar)da *-lar* qo‘shimchasi hurmat ma’nosini, qaysi so‘z(lar)da ko‘plikni ifodalayapti?

Mazkur topshiriq o‘quvchilarda *-lar* qo‘shimchasining xususiyati haqida tushuncha hosil qilishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan gapni o‘qib, gap mazmunidan *-lar* qo‘shimchasining hurmat va ko‘plik ma’nolarini farqlab aytishlari lozim.

Demak, *bobomlar, keldilar* – hurmatni; *qanotlar, qushlar, ular* – ko‘plikni ifodalab kelgan.

Morfologiya

Oila a’zolaringiz, qarindoshlaringizdan kimlarning ismida *-jon, -xon, -oy, -bek* yoki shunga o‘xshash qo‘shimchalar bor? Ularning ismlarini yozing. Nima uchun ismlarga bunday qo‘shimchalar qo‘shilishini izohlang.

Ushbu topshiriq otning lug‘aviy ma’nolarini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan qo‘shimchalarni qo‘shib so‘zlar yozib, ularga shunday qo‘shimcha qo‘shilishining sababini keltirishlari lozim.

Bu topshiriqni bajarishda ular oldingi mavzularda o‘zlashtirgan bilimlari hamda hayotiy kuzatishlariga tayanadilar.

Uyga vazifa

Yordamchi so‘zlar

Berilgan matnlarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni qachon va qanday holatlarda ishlatamiz? So‘zlashuv nutqidan yoki sevimli asaringizdan shu kabi so‘zlarni topib, ko‘chiring.

Bu topshiriq matn tarkibida ajratib ko‘rsatilgan birlik mazmunini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan gaplarni o‘qib, ajratib ko‘rsatilgan birliklarning ma’nosini izohlashlari lozim.

Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarga gap holatini ifodali ohang bilan o‘qib berishi hamda ularning ma’nosini tushuntirishi lozim.

2-soat

Dars jarayoni

Kirish

Yaqinlaringiz sizni erkalab chaqirishganda qanday murojaat qilishadi?


Asosiy qism

Morfologiya

Quyidagi so‘zlarga *-gina* erkalash qo‘shimchasi hamda egalik qo‘shimchalarini qo‘shing. Imlo qoidasiga rioya qilgan holda ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing.

Mazkur topshiriq otning lug‘aviy ma’nolari va ularning imlosini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan

so‘zlarga *-gina* qo‘shimchasini qo‘shib, ma’nosi hamda imlosiga e’tibor qaratib yozishlari lozim.



Berilgan fe’llar bilan bog‘lana oladigan so‘zlarni aniqlang, ularni jadvalning kerakli ustuniga yozing. Bir so‘z har uchala fe’lga mos kelishi ham mumkin.

Yildan yilga, dastlab, majburan, arang, har kuni, oz-ozdan, oyma-oy, doimo, asta-sekin, birgalikda, ancha, darrov, bafurja, hozircha, kech, har doim, erta, picha, sal, kunma-kun, oydan oyga, ko‘pincha, oz-moz.

jamg‘armoq	to‘lamoq	hisoblamoq
oyma-oy	oyma-oy	oyma-oy

O‘zingiz hosil qilgan birikmalar yordamida “Oilamiz byudjeti” mavzusida kichik matn yarating. Unda oilangizga bir oyda qancha mablag‘ kelishi va u qanday sarflanishi haqida ma’lumot bering.

Oilaviy byudjetingiz bilan bog‘liq infografika yaratishga harakat qiling. U 3 qismdan iborat bo‘lishi lozim.

AZIZOVLAR OILASI

DAROMAD

Oylik maosh: .....
Pensiya: .....
Qo‘shimcha daromad: .....

XARAJAT

Majburiy to‘lovlar: .....
Qo‘shimcha to‘lovlar: .....
Bu oy uchun rejalashtirilgan alohida xarajatlar: .....

JAMG‘ARMA

97

Qoida. Morfologiya

O‘quvchilar otning lug‘aviy shakllari haqida amaliy topshiriq orqali tushuncha hosil qilganlaridan so‘ng, ularga nazariy ma’lumot misollar bilan tushuntirib beriladi.

Sintaksis

Berilgan fe’llar bilan bog‘lana oladigan so‘zlarni aniqlang, ularni jadvalning kerakli ustuniga yozing. Bir so‘z har uchala fe’lga mos kelishi ham mumkin.

Ushbu topshiriq so‘zlarni ma’nosiga ko‘ra bog‘lab, so‘z birikmasi hosil qilishga qaratilgan. Bunda o‘quvchilar so‘zlarga so‘roq berib, qaysi fe’l bilan birika olishini aniqlab, jadvalni to‘ldirishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor so‘zlarni ma’nosiga ko‘ra bog‘lay olish hamda ularning ma’nosini tushunishga qaratiladi.

Yozma nutq. Matn yaratish

O‘zingiz hosil qilgan birikmalar yordamida “Oilamiz byudjeti” mavzusida kichik matn yarating. Unda oilangizga bir oyda qancha mablag‘ kelishi va u qanday sarflanishi haqida ma’lumot bering.

Bu topshiriq yuqoridagi topshiriqning davomi bo‘lib, o‘quvchilarning hosil qilgan birliklarini ma’nosiga ko‘ra kontekstda to‘g‘ri qo‘llay olish hamda matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan mavzuga oid matn yozishlari lozim. Bunda shaxsiy kuzatishlari asosida mustaqil yozishlari maqsad qilingan.

Uyga vazifa

Yozma nutq. Infografika yaratish

Oilaviy byudjetingiz bilan bog‘liq infografika yaratishga harakat qiling. U 3 qismdan iborat bo‘lishi zarur.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning matnni infografikaga aylantirish, infografika orqali axborot yetkazish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar o‘zlari yozgan matnlarini qayta tahrirlab, oila a’zolaridan so‘rab, to‘ldirishlari mumkin. So‘ngra quyida berilgan namunadan foydalangan holda o‘z matnlarini infografika ko‘rinishida ifodalab berishlari kerak.

3-soat

Dars jarayoni


Kirish

1. Maosh nima? Uni kimlar oladi?

2. Eng ko‘p maosh to‘lanadigan kasblarni bilasizmi? Ayting.

Bu savol o‘quvchilarni mavzuga olib kirish, ularda “maosh” birligining ma’nosi, ushbu birlikka oid tushuncha hosil qilishga qaratilgan. O‘quvchilarning savollarga munosabatlari erkin so‘raladi. Ularning fikri tinglangach, ushbu birlik va uning ijtimoiy ahamiyati haqida ma’lumot berilishi lozim.

Maosh – xizmat, ish uchun muassasa tomonidan belgilanadigan, beriladigan pul; ish haqi, oylik.



1. Maosh nima? Uni kimlar oladi?
2. Eng ko‘p maosh to‘lanadigan kasblarni bilasizmi? Ularni sanang.

Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

KEKSALARNING “MAOSHI”

Yodgorning bobosi ham, buvisi ham pensiyaga chiqqan. Ular ishlamasalar ham, har oyda pul olishadi. Yodgor esa bunga **sira** tushunmaydi: “Qanday qilib odamlar ishlamasa ham, maosh olishlari mumkin?”

Bir vaqtlar Yodgorning bobosi avtomobil zavodida muhandis, buvisi esa maktabda o‘qituvchi bo‘lib ishlagan. Ular keksalikda mehnat qilib pul topish qiyin ekanini yaxshi bilar edi. Chunki odam qariganida **tez** charchaydigan bo‘lib qoladi. Shu sababli Yodgorning bobosi va buvisi yoshlikda ko‘p mehnat qilib, o‘z vaqtida daromad soliqlarini to‘lab borishgan. Boshqacha aytganda, ular **har oy**da to‘lab borgan soliqlari hisobidan pensiya jamg‘armasi shakllantirilgan. Kishining mehnat faoliyati qanchalik uzoq bo‘lsa, unga to‘lanadigan pensiya miqdori ham ko‘p bo‘ladi. Yodgorning bobosi 60 yoshda, buvisi esa 55 yoshda ishdan bo‘shab, **shu yildan** pensiyaga chiqqanlar. O‘shanda boboning mehnat faoliyati 35, buviniki esa 30 yilga teng edi.

Endi tasavvur qiling, bobo 5 million so‘m maosh to‘lanadigan korxonada ishlagan. **Har oy** maoshining 12 foizini soliq sifatida ushlab qolingan. Bu 600 000 so‘m degani.

35*12= 420 oy.

420*600 000 = 252 000 000.

Ko‘rdingizmi, Yodgorning bobosi mehnat faoliyati davomida davlatga kattagina – 252 million so‘m soliq to‘lagan. O‘z vaqtida u kishi to‘lagan soliqlarni davlat qariyalarning nafaqasi va boshqa ko‘plab ijtimoiy ehtiyojlar uchun sarflagan. Demak, bobo ham pensiyaga chiqqanidan **keyin** boshqalar to‘layotgan soliqlar hisobidan nafaqa olib turishga haqli. Ijtimoiy adolat mana shunday bo‘ladi.

“Jajji akademik” jurnalidan

98

O‘qib tushunish

Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

Matn: “Keksalarning maoshi”.

Manba: “Jajji akademik” jurnali.

O‘quvchilar matn bilan tanishganlaridan so‘ng, matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

1. Yodgorning ushbu matn mazmunini yuzaga chiqarishdagi o‘rni va ahamiyatini tushuntiring. Muallif nima uchun ushbu qahramondan foydalangan?

Bu savol matndan obrazlarni aniqlash, nutqi orqali ularning matn mazmunidagi o‘rnini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar fikrlarini erkin bildirishlari mumkin. Fikrlarini matn orqali asoslab berishlariga e’tibor qaratiladi.

2. Yodgorning bobosi va buvasi qayerlarda ishlagan? Ular nima maqsadda yillar davomida pul jamg‘arganlar?

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. O‘quvchilar matndan ushbu o‘rinni topib, o‘z munosabatlarini bildirishlari kerak.

Javob: *bobosi – avtomobil zavodida muhandis, buvisi – maktabda o‘qituvchi. Qariganda odamning belidan quvvat ketib, kuchsizlanib qoladi, mana shunday vaqtda ishlagan davrida to‘lagan soliqlari nafaqa puli sifatida beriladi.*

3. Maoshdan ushlanib qolinadigan mablag‘larning pensiya bilan qanday aloqasi borligi haqida suhbatlashing.

Bu savol matn mazmunini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar matndan olgan xulosalari asosida o‘z munosabatlarini bildirishlari lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarning fikrlarni tinglab bo‘lgach, matn mazmunini izohlab o‘tishi maqsadga muvofiq.

4. Sizning bobongiz va buvangiz yoki biror qarindoshingiz ham nafaqa olishadimi?

Bu savol o‘quvchi shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishiga qaratilgan. O‘quvchilar oila a’zolari, yaqin qarindoshlari misolida javob berishlari mumkin.

5. Ota-onangiz yoki yaqin qarindoshingizdan maoshlarining qancha

qismini keksalik uchun jamg‘arib borishayotganini so‘rang.

Bu savol matnning uchinchi xatboshisida berilgan ma’lumot mazmunini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar ushbu ma’lumotni tushunib, yaqinlaridan maoshlarining qanchasini jamg‘arganliklarini so‘rab, ularga nima uchun bunday jamg‘arilayotganligi haqida dars davomida egallagan bilimlari asosida aytib berishi lozim.

Morfologiya. Sintaksis

Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq bering va ularni ko‘chiring. Ushbu so‘zlarni qatnashtirib mavzuga aloqador gaplar tuzing.

Mazkur topshiriq ravishning ma’nosini amaliy topshiriq orqali tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar matn tarkibidan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni aniqlab, ularga so‘roq berishlari lozim. Bu jarayonda asosiy e’tibor so‘zlarga so‘roq berish orqali kontekstdagi ma’nosini aniqlab, ma’no-mazmuniga mos boshqa kontekst tuza olishiga qaratiladi.

Morfologiya. Morfemika

So‘zlarga qo‘shimchalardan mosini qo‘shib, yangi so‘zlar yasang.

Ushbu topshiriq maqsadi o‘quvchilarga ravish yasalishini amaliy topshiriq orqali tushuntirishdan iborat. O‘quvchilar so‘zlarning ma’nosiga mos qo‘shimchalardan birini qo‘yib, yangi so‘z hosil qilib yozishlari kerak.

Bunda o‘qituvchi so‘zlar va hosil bo‘lgan yangi so‘zlarni yozib, ikkala so‘zga so‘roq berib, ma’nosini tushuntirib berishi lozim.


Javob:

yil	*yillab*
fidoyi	*fidoyilarcha*
vijdon	*vijdonan*
ota	*otalarcha*
hafta	*haftalab*
do‘st	*do‘stona*
ochiq	*ochiqchasiga*
taxmin	*taxminan*
fidokor	*fidokorona*

Sintaksis

Yasagan so‘zlaringiz ishtirokida gaplar tuzing.

O‘quvchilar yuqoridagi so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shib yangi so‘z hosil qilganlaridan so‘ng, ushbu so‘zlarni qatnashtirib gap yozishlari lozim. Bunda asosiy e’tibor so‘zlarni ma’no-mazmuniga mos kontekstda qo‘llab, matn yozishga qaratiladi.


1. Yodgorning ushbu matn mazmunini yuzaga chiqarishdagi o'rni va ahamiyatini tushuntiring. Muallif nima uchun ushbu qahramondan foydalangan?
2. Yodgorning bobosi va buvisi qayerda ishlagan? Ular nima maqsadda yillar davomida soliq to'lashgan?
3. Maoshdan ushlab qolinadigan mablag'larning pensiya bilan qanday aloqasi borligi haqida suhbatlashing.
4. Sizning bobongiz va buvingiz yoki biror qarindoshingiz pensiya yoki nafaqa oladimi?
5. Ota-onangiz yoki yaqin qarindoshingizdan maoshining qancha qismini keksalik uchun jamg'arib borishayotganini so'rang.

Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering va ularni ko'chiring. Ushbu so'zlarni qatnashtirib mavzuga aloqador gaplar tuzing.

So'zlarga qo'shimchalardan mosini qo'shib, yangi so'zlar yasang.

yil, do'st, fidoyi, ochiq, vijdon, taxmin, ota, fidokor, hafta

-cha, -ona, -lab, -an, -larcha, -chasiga

Yasagan so'zlaringiz ishtirokida gaplar tuzing.

Nutqimizda harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o'rni, daraja-miqdori kabi belgilarini bildiruvchi so'zlar bor, ularni **ravish**lar deymiz. Ularning tuzilishiga ko'ra quyidagi turlari bor:
- **sodda:** hamisha, doimo, ko'p, oz;
- **qo'shma:** bir talay, shu vaqt, biroz, har doim;
- **juft:** erta-kech, eson-omon, nari-beri, bugun-erta;
- **takror:** oz-oz, tez-tez, sekin-sekin, ustma-ust.

99

Qoida. Morfologiya

O‘quvchilar amaliy topshiriq orqali ravish haqida ma’lumotga ega bo‘lganlaridan so‘ng, ravish va uning ma’no turlari, gapdagi ahamiyati haqida nazariy ma’lumot beriladi.

Uyga vazifa

Yozma nutq. Matn yaratish

Faraz qiling, siz qaysidir kasb yoki hunarni egallagansiz. Belgilangan yoshgacha ishlab, pensiyaga chiqdingiz. Taxminiy pensiya jamg‘armangizni hisoblab chiqing.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning mustaqil izlanib, erkin yondashishlariga asoslangan. O‘quvchilar berilgan ko‘rsatma asosida matn yozib kelishlari lozim. Bunda asosiy e’tibor pensiya haqida tasavvurga ega bo‘lishlari, unga oid til birliklaridan o‘rinli foydalanib, bog‘lanishli matn tuza olishlariga qaratiladi.

4-soat

Dars jarayoni

Kirish

Taqdimotga baho berishda nimalarga e’tibor qaratish zarur?

Asosiy qism


Og‘zaki nutq

Uy vazifasi yuzasidan taqdimot qiling.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish hamda jamoat oldida nutq so‘zlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar uyga vazifa sifatida yozib kelgan matnlarini taqdimot qilib berishlari kerak.

Bu jarayonda bir o‘quvchi gapirganda qolgan o‘quvchilar tinglovchi bo‘lib, sinfdoshlarining nutqiga munosabat bildirishlari lozim. Bunda quyidagilarga amal qilish talab etiladi:

- *o‘zini tutish qoidalari;*
- *mavzuga mos ohang, emotsiyadan foydalanish;*
- *mavzuga oid til birliklarini ma’nosiga ko‘ra to‘g‘ri qo‘llash;*
- *mazmunni yetkazib bera olish;*
- *so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, urg‘uni kerakli o‘rinlarga qo‘ya olish;*
- *kirish, fikrni xulosalashga oid til birliklaridan foydalanish.*



Faraz qiling, qaysidir kasb yoki hunarni egallagansiz. Belgilangan yoshgacha ishlab, pensiyaga chiqdingiz. Taxminiy pensiya jamg‘armangizni hisoblab chiqing.

Yo‘riqnomadan foydalanishingiz mumkin:

- Qaysi kasb yoki hunar bilan shug‘ullanasiz?
- Qayerda ishlaysiz?
- Maoshingiz taxminan qancha bo‘ladi?
- Har oy qanchadan jamg‘arishingiz mumkin?
- Bir yilda qancha bo‘ladi? Pensiya yoshiga yetganingizda-chi?
- Har oy pensiya olganingizda uni qanday sarflaysiz?

Uy vazifasi yuzasidan taqdimot qiling.

Bo‘sh o‘rinlarni mos ravishlar bilan to‘ldirib, gaplarni ko‘chiring. O‘zingizga yoqqan hikmat asosida matn yozing. Matningizda ravishlardan foydalaning.

Hikmatlar	So‘zlar
Yoshlik bilan keksalik orasidagi muddat ... qisqa!	ko‘proq
	uzoq
Keksalik xuddi qorday ... bosadi, ... tursangiz – hammayoq oppoq.	ertalab
	hamisha
Qariganingda ... yoshliging haqida o‘ylaysan.	to‘satdan
Qariganda ko‘zlar yuzdan bosh orqasiga o‘tib qoladi: ... orqaga qaraysan, ... hech narsani ko‘rmaysan, ya’ni qolgan umring bilan emas, balki xotiralar bilan yashay boshlaysan.	orqasiga
	avval
	naqadar
Biz ... yashashni orzu qilamiz-u, ammo qarishdan qo‘rqamiz.	nuqul
... o‘zimizni yoshimizga munosib tarzda tutaylik.	zo‘rg‘a
	sekinroq
Sizni ... qayerdadir ko‘rgandekman.	oldinda

100

Morfologiya

Bo‘sh o‘rinlarni mos ravishlar bilan to‘ldirib, gaplarni ko‘chiring. O‘zingizga yoqqan hikmat asosida matn yozing. Matningizda ravishlardan foydalaning.

Ushbu topshiriq o‘quvchilar ravishning ma’nosini tushunishi hamda mazmuniga mos kontekstda qo‘llay olishiga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan hikmatlarni o‘qib, bo‘sh o‘rinlarni kerakli ravish bilan to‘ldirishlari lozim. So‘ngra o‘zlariga yoqqan bitta hikmatni tanlab, u asosida matn yozishlari talab etiladi.

Javob:

Yoshlik bilan keksalik orasidagi muddat naqadar qisqa!
Keksalik xuddi qorday to‘satdan bosadi, ertalab tursangiz – hammayoq oppoq.
Qariganingda ko‘proq yoshliging haqida o‘ylaysan.
Qariganda ko‘zlar yuzdan bosh orqasiga o‘tib qoladi: nuqul orqaga qaraysan, avvalgi hech narsani ko‘rmaysan, ya’ni umrlar bilan emas, balki xotiralar bilan yashay boshlaysan.
Biz ko‘proq yashashni orzu qilamiz-u, ammo qarishdan qo‘rqamiz.
Hamisha o‘zimizni yoshimizga munosib tarzda tutaylik.
Ajinlar faqat avvalgi tabassum o‘rinlarini ko‘rsatib tursin.

Uyga vazifa

Yozma nutq. Tahlil

Sevimli kinofilm yoki multfilmingizni qayta ko‘ring. Qahramonlar nutqida qo‘llangan ravishlarni qayd etib boring. Shu qismni qayta tinglang. Ularning gapda tutgan o‘rnini quyidagi jihatiga ko‘ra aniqlang.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning tahlil qilish ko‘nikmala rini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarga berilgan ko‘rsatma asosida mustaqil izlanib, o‘zlari uchun kerakli holat va unda ifodalangan ravishlarni aniqlab, qayd etib olishlari aytiladi.

O‘qituvchi ularning kuzatishlari, qayd va izohlarini so‘rab, munosabat bildirishi lozim.

MUSTAHKAMLASH

Dars jarayoni

Morfologiya

“Keksalarning maoshi” matnida keltirilgan sonlarni so‘zlar orqali ifodalab yozing. Bu sonlarning aytilishi va yozilishida farq bormi? Qanday?

Mazkur topshiriq o‘quvchilarda bir ma’noni ikki xil ifodalash hamda ularni ishlatilish holatlariga ko‘ra farqlay olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar matn tarkibidan sonlar bilan ifodalangan o‘rinlarni topib, ularni namuna asosida yozishlari kerak.

Javob: *55 – ellik besh, 35 – o‘ttiz besh, 30 – o‘ttiz, 5 mln – besh million, 12% — o‘n ikki foiz, 600000 – olti yuz ming so‘m, 420 – to‘rt yuz yigirma, 252000000 – ikki yuz ellik ikki million.*

Morfologiya

Berilgan ravishlarga so‘roq bering hamda ularni quyidagi guruhlarga ajratib yozing.

Ushbu topshiriq ravishning ma’no turlarini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilarga keltirilgan ravishlarga so‘roq berib, ularni guruhlarga ajratib yozishlari aytiladi. Bu jarayonda o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, har bir guruh ravishning bir ma’no turini yozishini aytish ham mumkin. Asosiy e’tibor o‘quvchilarning ravishlarni ma’nosiga ko‘ra farqlab, kerakli vaziyatda foydalana olishlariga qaratiladi.

Javob:

Holat	Payt	O‘rin	Miqdor-daraja	Maqsad-sabab
jim, bafurja, to‘satdan, piyoda, tasodifan, astoydil, birma-bir, yayov, yakkama-yakka, zo‘rg‘a, yonma-yon	*hamon, endi, avval, kecha-kunduz, so‘ngra, dastlab, hozircha, doimo*	*ichkarida, olg‘a, tashqarida*	*oz, sal, picha, xiyol, ko‘p, ancha, kam*	*qasddan, ataylab, noiloj, jo‘rttaga*



O‘QING VA MULOHAZA QILING

PAND-NASIHAT

"Pand-nasihat" tilimizda o'git ma'nosini anglatishini hammamiz yaxshi bilamiz. Biroq undagi "pand" so'zi boshqacha ma'noga ega. Ya'ni "pand" so'zining tub ildizi "yolg'on", "aldov" ma'nosini anglatadi.

Shuning uchun tilimizdagi "pand berib ketibdi" iborasi "o'git beribdi" mazmunida emas, "aldab ketibdi" mazmunida tushuniladi. Lekin "pand-nasihat berish" deganda, dastlab "aldab-suldab yo'lga solish" ma'nosi anglashilgan.

Qolaversa, "pand" so'zining tilimizda ikkinchi ma'nosi paydo bo'lgan. Ya'ni birinchi ma'nosi aldab ketish, ikkinchisi dakki berish. "Pand-nasihat"dagi *pand* so'zi *dakki berish* ma'nosidagi "pand"ga to'g'ri keladi.

"MUJMAL" ASLI MUJMALMI?

"Mujmal" so'zini hozirgi paytda *lanj, mavhum, na u yoqlik, na bu yoqlik, tushunarsiz, tayinsiz* degan ma'nolarda ishlatamiz. Lanj, kesib gapirmaydigan, ezma kishilarga nisbatan "mujmal odam" deymiz. Holbuki, bu so'zning tub ildizi "qisqa", "lo'nda" ma'nolarida keladi. Bu ma'no so'zning hozirgi ma'nosiga mutlaqo zid. Alisher Navoiy asarlarida ham "mujmal" so'zi "qisqa" ma'nosini ifodalagan. Masalan, "Sab'ayi sayyor" dostonida shunday misralar bor:

Dostonlarki aytdim mujmal,
Manga yo'q hech anda bahs-u jadal.

Mazmuni: men bu dostonlarni shunchalik qisqa bayon qildimki, so'zlarim orasida birorta ham bahsga sabab bo'ladigan, tushunilmaydigan o'rin yo'q.

Shuningdek, arabcha "mujmal" so'zining "yig'indi" degan ma'nosi ham borki, u "jumla" so'ziga to'g'ri keladi.

Eshqobil Shukur, "Boboso'z izidan"

103

Leksikologiya

"Qarisi bor uyning parisi bor" maqolini izohlab, kichik ijodiy matn tuzing. Matningizda ravishlardan o‘rinli foydalanishga harakat qiling.

Ushbu topshiriq maqol mazmunini tushunish, uning mohiyatidan kelib chiqib matn yarata olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan maqolni izohlab, kichik matn yozishlari lozim. Bunda asosiy e’tibor bog‘lanishli nutq tuza olishlariga qaratiladi.

Uyga vazifa

O‘qib tushunish

Turli sohalarda o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan saxovatli inson nafaqadagi keksalar uchun bir nechta imtiyozlarni belgiladi. Ular bilan tanishing.

Mazkur topshiriq jadvalda berilgan ma’lumotlarni tushunish, ularning ma’no-mazmunini izohlab aytib berishga qaratilgan. O‘quvchilar jadval bilan tanishib, o‘z munosabatlarini bildirishlari kerak. Bunda asosiy e’tibor *og‘zaki nutqqa: sonlarni ifodalash ohangi; jadval qismlarini tushunish; har bir qismda nima ma’lumot borligini izohlashga* qaratiladi.

Yozma nutq. Matn yaratish

Erkin bobo va Umri buvi xizmatlardan quyidagi shaklda foydalanishgan bo‘lsa, ularga belgilangan imtiyozlar asosida har bir xizmat uchun qancha pul to‘lashi kerakligini aniqlab, matn ko‘rinishida yozing. Matningizda ravishlardan foydalaning.


Bu yuqoridagi topshiriqning davomi bo‘lib, o‘quvchilar tanishgan imtiyozlari asosida ushbu jadvalni to‘ldirib, uni matn ko‘rinishida ifodalab yozishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor jadvaldagi ma’lumotlarni tushunib, ketma-ketlikda ifodalab, bog‘lanishli nutq tuzib, matn yoza olishga qaratiladi.

FIZIKA HAYOTNI YENGILLASHTIRADI

Nutqiy mavzuning maqsadi: matnni o‘qib tushunish, uning tafsilotlarini belgilay olish, nutqiy mavzu doirasidagi videoma’lumotni tushunish, nutqiy mavzu yuzasidan berilgan atamalar talaffuzi va imlosini o‘rganish, uyushiq bo‘laklar, ularning gap tarkibida qo‘llanishi, vergul, tire va ularning qo‘llanishi, ma’nodosh so‘z birikmalari, ko‘plikni ifodalovchi -lar qo‘shimchasining uslubiy jihatdan qo‘llanishiga oid qoidalar bilan tanishtirish.

1-soat



FIZIKA HAYOTNI YENGILLASHTIRADI

Bu mavzuda o‘rganamiz

• fizikaning hayotdagi o‘rni • fanga oid til birliklari • otlarning lug‘aviy shakllari • tinish belgilari • lug‘at bilan ishlash.

1. “Fizika” so‘zini eshitganda xayolingizga nimalar keladi?
2. Fizika fani nimalarni o‘rgatadi?
3. Fizikani o‘rganishning qanday ahamiyati bor deb o‘ylaysiz?

Savol-javoblarni o‘qing. Fizikaga doir bu bilimlar hayotimizni qanchalar yengillatishi mumkinligi haqida mulohaza qiling. O‘zingiz ham hayotiy misollar topishga harakat qiling.

Savol: sizda qizil hamda yashil pomidorlar bor va ular aralashib ketgan. Qisqa vaqt ichida ularni qanday qilib bir-biridan ajratish mumkin?

Javob: pomidorlar suv to‘la katta idishga solinadi. Og‘irlikdagi farqi sabab pishgan pomidorlar idish tubiga cho‘kadi, yashillari esa yuzaga qalqib chiqadi.

Savol: sovun ko‘pigi naychadan puflansa, hosil bo‘lgan shaffof pufak nega avval yuqoriga ko‘tarilib, so‘ng pastlay boshlaydi?

Javob: puflab chiqarilgan havo iliq va uning zichligi atrofdagi havo zichligidan kichik. Biroz muddatdan so‘ng sovun pufagi ichidagi havo soviydi, zichligi ortadi va u pasaya boshlaydi.

104

Dars jarayoni

Kirish

Yangi nutqiy mavzu e’lon qilinadi. Quyidagi savollar asosida kirish suhbati uyushtiriladi.

1. “Fizika” so‘zini eshitganda xayolingizga nimalar keladi?

2. Fizika fani nimalarni o‘rgatadi?

3. Fizikani o‘rganishning qanday ahamiyati bor deb o‘ylaysiz?

Asosiy qism

Og‘zaki suhbat

Savol-javoblarni o‘qing. Fizikaga doir bu bilimlar hayotimizni qanchalar yengillatishi mumkinligi haqida mulohaza qiling. O‘zingiz ham hayotiy misollar topishga harakat qiling.

O‘quvchilarning mavzuga nisbatan qiziqishlarini oshirish, mavzu bilan bog‘liq ma’lumotlarni o‘qib tushunishga oid ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

Berilgan savol-javoblar o‘qib chiqiladi. Ularning mohiyati hamda shunday vaziyatlar haqida suhbat tashkillashtiriladi. Savollarga javob berish so‘raladi.

1. Ayting-chi, nega pishgan pomidorlar xomiga nisbatan og‘ir bo‘ladi?

Sababi pishgan pomidorning ichi nisbatan suvli, ozuqaviy moddalar zich joylashgan bo‘ladi.

2. Vaqt o‘tib, sovun pufagining pastlashiga nima sabab bo‘ladi?

3. Nega temir yog‘ochga nisbatan sovuq tuyuladi?

4. Nega botqoqda harakatlanish qiyin?

5. Bu hodisalar boshqacha ko‘rinishda hayotimizda yana uchraydimi? Qaysi holatlarda?

2–5-savollarga darslikdagi ma’lumotlar asosida javob beriladi, o‘quvchilarning hayotiy kuzatishlari bilan bog‘liq qo‘shimcha savollar beriladi.

Punktuatsiya

Matndan vergulni qo‘llashga doir uch turdagi gaplarni topib, yozing.

Vergul va uning qo‘llanishi bilan bog‘liq lingvistik bilimlar mustahkamlanadi.

O‘qituvchining topshiriq shartiga o‘quvchilar e’tiborini qaratadi, zarurat sezilganda uyushiq bo‘laklar, qo‘shma gap, kirish so‘zlar qanday ifodalanishi haqidagi ma’lumotlarni yodga soladi. Matndan tashqarida olingan bir nechta misollarni elektron xattaxta orqali namoyish etishi mumkin.

Yozma nutq

Yuqoridagi savol-javob matnidan qanday ma’lumotlar olganingizni yozma shaklda ifodalang. Bunda uyushiq bo‘laklardan foydalaning.

Uyushiq bo‘laklar, ular imlosiga oid bilimlarni rivojlantirish, bir shaklda berilgan ma’lumotlarni ikkinchi shaklda (bog‘lanishli matn shaklida) ifodalay olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

O‘qituvchi berilgan ma’lumotlarni boshqa shaklda, masalan, bog‘lanishli matn shaklida ifodalashni so‘raydi. Bunda uyushiq bo‘laklardan qay tartibda foydalanish mumkinligi, ular imlosiga oid qoidalarni o‘quvchilarning yodiga soladi.

Sintaksis

Botqoq bilan bog‘liq matn tarkibidagi gaplarni quyidagi xususiyatlar asosida tahlil qiling va shu orqali uyushiq bo‘laklarga oid bilimlaringizni mustahkamlang.

Uyushiq bo‘laklar, ularning gap tarkibida qo‘llanishi bilan bog‘liq bilimlar mustahkamlanadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning e’tiborini topshiriqda berilgan ko‘rsatmalarga qaratadi. Berilgan talablarning har biriga mos keluvchi bo‘laklar ishtirok etgan gaplar aniqlanadi, shu asosda uyushiq bo‘laklar bilan bog‘liq bilimlar mustahkamlanadi.

Matn tarkibidagi uyushiq bo‘laklar qanday vositalar bilan bog‘langaniga e’tibor bering. Quyida keltirilgan vositalar yordamida uyushiq bo‘lakli gaplar tuzib, yozing.

Uyushiq bo‘laklar, ularning gap tarkibida qo‘llanishi bilan bog‘liq bilimlar mustahkamlanadi.

O‘qituvchi avval matnlarning yana qaysi o‘rinlarida uyushiq bo‘laklar ishtirok etganini aniqlashni so‘raydi. Berilgan vositalarning uyushiq bo‘laklarni bog‘lashdagi o‘rni haqida ma’lumot beradi. Shundan so‘ng ushbu vositalardan foydalangan holda misollar tuzib, yozish kerakligini aytadi.


Uyga vazifa

Uyga vazifa. Fizika kitobingizdan uyushiq bo‘laklar ishtirok etgan 7–10 ta gapni ko‘chirib yozing. Uyushiq bo‘laklar qaysi vositalar yordamida bog‘lanayotganini aniqlang.

Uyushiq bo‘laklarga oid bilimlarni qo‘llash bilan bog‘liq ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

“Fizika” darsligidan uyushiq bo‘lakli gaplarni ko‘chirib olish aytiladi, bunda uyushiq bo‘laklar yuqoridagi talablarga javob berayotganiga e’tibor qaratish so‘raladi.

2-soat



Matnni diqqat bilan o'qing, savollarga javob berishga tayyorlaning.

FIZIKA QONUNLARI NIMA UCHUN KERAK?

Fizika to'g'risida gap ketsa, biz qandaydir murakkab **formula, gipoteza**-yu, **teorema**larni, xullas, oddiy odamga keraksiz, tushunarsiz voqea-hodisalarni **tasavvur qila boshlaymiz**. Go'yo bu soha bizga begona – juda-juda uzoqda.

Balki **qulog'ingizga chalingandir**, fizikada "kvant mexanikasi" va "kosmologiya" degan tushunchalar bor. Aslida bu ikki tushuncha olam qonuniyatlarining ilmiy asosidir. Bizning hayotimizni tashkil qiluvchi hamma narsa: sayyoralar-u yulduzlar, bulutlar-u vulqonlar, mevalar-u shirin taomlar, binolar, tovushlar, musiqa asboblari, xullas, bari shu ikki qutb orasida joylashgan. Qolaversa, bularning hammasini fizik qonunlar boshqaradi.

Atrofga diqqat bilan qarang, fizika qonunlarining amalda qanday ishlayotganini his qilishga urining. Yoki o'zingiz buni sinab ko'ring. Buning uchun sizga ikkita tuxum kerak bo'ladi. Biri xom, ikkinchisi qaynatib pishirilgan bo'lsin. Ularni aylantirasiz. Keyin esa to'xtatasiz. Qaynatilgan tuxum shu zahoti to'xtab qoladi. Xomi esa to'xtashni "istamaydi". Chunki siz uning faqat qobig'ini to'xtatdingiz, ichidagi suyuqlik hamon aylanishda davom etmoqda. Bu ichki impuls momenti saqlanish qonunining ko'z oldingizda namoyon bo'lishidir. Uni soddaroq qilib shunday tushuntirish mumkin: **tizim** o'zining doimiy o'qi atrofida aylanishni boshlar ekan, to nimadir uni to'xtatmaguncha aylanishda davom etaveradi. Bu koinotning asosiy qonunlaridan biri hisoblanadi.

Dars jarayoni

Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'quvchilar fizika fani bilan bog'liq qanday qiziqarli tajribalarni bilishlari haqida so'raladi. Shu asosda kirish suhbati uyushtiriladi.

Asosiy qism

O'qib tushunish

Matnni diqqat bilan o'qing, savollarga javob berishga tayyorlaning.

Matnni o'qib tushunish, uning tafsilotlarini belgilay olish, matn qismlari asosida berilgan savollarga javob topish, nutqiy mavzuga oid atamalar talaffuzi bilan bog'liq ko'nikmalar rivojlantiriladi.

O'quvchilar matnni o'qish jarayoniga tayyorlanadilar. Matnni qismlarga bo'lib yoki alohida-alohida ovoz chiqarib yoki ichda o'qish tavsiya etiladi. Matn mazmuni asosida quyidagi savollarga javob berish so'raladi.

1. "Olamdagi hamma narsani fizik qonunlar boshqaradi" degan fikrni qanday tushunish mumkin? Izohlab bering.

Ushbu savolga javob berishda matndagi ma'lumotlarga hamda o'quvchining o'zida oldindan mavjud bo'lgan bilimlarga tayanish so'raladi. O'quvchilar o'z fikrlarini tushunarli va asosli tarzda yetkazishga harakat qilishlari lozim.

2. Nega qaynatilgan tuxum aylanishdan to'xtadi, xom tuxum esa yo'q? Matn asosida javob bering.

Matnda berilgan ma'lumotlar yordamida ushbu tajriba haqida so'zlab beriladi. O'qituvchi o'quvchilarning nutqini kuzatishi, unda uchraydigan fizik atamalarning talaffuziga e'tibor qaratishi zarur. Bu haqida bir necha o'quvchidan so'rash tavsiya etiladi.

3. Matn orasida berilgan suratda nima aks etgan deb o'ylaysiz? Olim nima bilan mashg'ul?

Matn mazmuni va rasmda berilgan ma'lumotlarni o'zaro bog'lash so'raladi. Berilgan suratda fizik olimning turli ilmiy kashfiyotlar qilayotgani tasvirlangan bo'lib, uning kashfiyotlari yangi texnologiyalar uchun asos bo'lishi tushuntirilgan. Masalan, raketa va samolyotlarning parvozi fizik hodisadir.

4. O'ylab ko'ring-chi, fizikaga doir qaysi qonunlar biz bilgan texnik qurilmalarning ixtiro qilinishiga sabab bo'lgan?

Fizika fanidan egallangan bilimlar asosida bir nechta o'quvchilardan savolga javob olinadi.

5. Nima uchun "Fizika hayotimizni yengillashtiradi", deymiz?

Bunda ham berilgan matn mazmuni hamda hayotiy bilimlar asosida suhbat olib boriladi.

Leksikologiya

Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning izohini o‘qing. Ularni sinfda muhokama qiling.

Nutqiy mavzu doirasidagi atamalar, ularning izohi, talaffuzi va imlosi ustida ishlash.

Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning izohlari ko‘chirib olinadi, o‘quvchilar ularni matn mazmuni bilan bog‘laydilar.

Berilgan jumlalarda ajratib ko‘rsatilgan qismlarni shunday so‘zlar bilan almashtirib yozingki, jumlaning ma’nosi o‘zgarmasin.

Ma’nodosh so‘z birikmalari bilan bog‘liq lingvistik bilimlar mustahkamlanadi, ulardan foydalanish bo‘yicha nutqiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

Matndan ajratib olingan ayrim jumlalardagi so‘zlarni shunday ma’noni ifodalay oladigan boshqa jumlalar bilan almashtirish so‘raladi. Ushbu jarayonning o‘ziga xos jihatlari, mohiyati haqida suhbat tashkillashtiriladi.

Nutq uslublari

Matn mazmuni asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Matn qanday toifadagi insonlarga mo‘ljallangani, matn manbasi bilan bog‘liq ma’lumotlar, matndagi ayrim ma’lumotlarning berilishidan ko‘zlangan maqsad, ayrim jumlalarning ma’nolarini tushunish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

Berilgan har bir topshiriqni bajarishda o‘quvchilar matn mazmunini yaxshi anglagan bo‘lishlari, undagi har bir jumlaning mazmuni va uni keltirishdan maqsadni tushunishlari kerak.

1. Ushbu matnni qayerlarda uchratish mumkin? Ro‘yxatni davom ettiring.

2. Matn tarkibidan uning siz, biz va umuman butun ommaga mo‘ljallanganini aniqlashtiruvchi gaplardan birini topib, yozing.

1–2-savolga javob berishda matnning uslubiy jihatlariga e’tibor qaratiladi.

3. Matn tarkibidan tavsiya ma’nosi ifodalangan jumlani aniqlab, yozing.

Bizni o‘rab turgan olamning qanday tuzilganini bilish uchun dastlab uning asosi bo‘lgan fizik qonuniyatlarni o‘rganishimiz kerak. Fizika faqat murakkab formulalardangina iborat emasligini tushunishimiz lozim.

4. Matnda berilgan tajribaning fizika bilan bog‘liq ekanini asoslovchi jumlani aniqlab, yozing.

Bu ichki impuls momenti saqlanish qonunining ko‘z oldingizda namoyon bo‘lishidir.

Yozma nutq

Matnning har bir qismida berilgan ma’lumotlarni bitta gap bilan ifodalang. Ularni o‘zaro bog‘lang, berilgan matnni kichik matnga aylantirib yozing.

Matnning alohida qismlarida keltirilgan kichik mavzuni aniqlay olish, uni qismlarga bo‘lishdan ko‘zlangan maqsadni anglash, kichik sarlavhalar tanlay olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

O‘quvchilar matn qismlari uchun shunday jumlalar tanlab yozishlari kerakligi, ushbu jumla kichik matnning butun mazmunini ifodalash imkoniyatini berishi haqida aytiladi. Bir nechta o‘quvchining tanlovi sinfda muhokama qilinadi, eng maqbul gaplar sinf taxtasiga yoziladi, ularning afzalliklari haqida ma’lumot beriladi.


Uyga vazifa

“Energiyaning bir turdan boshqa turga aylanishi” deb nomlangan tajribani tomosha qiling. Quyidagi savollar asosida tajriba bosqichlarini ketma-ketlikda yozing.

Nutqiy mavzu doirasidagi videoma’lumotni tushunish, u bilan bog‘liq savollarga javob bera olish, videoma’lumotga xos ma’lumotlarni yozma ifodalash bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

Tajribani yozma shaklda ifodalash uchun topshiriq shartida berilgan har bir savolga alohida-alohida javob yozish kerakligi tushuntiriladi.

3-soat



“Fizika hayotni yengillashtiradi” matnidan olingan quyidagi gapda ko‘plikni ifodalovchi *–lar* qo‘shimchasi uyushiq bo‘laklarning qaysi biriga tegishli? Nima uchun muallif uni shu tarzda qo‘llagan?

Fizika to‘g‘risida gap ketsa, biz qandaydir murakkab **formula**, **gipoteza**-yu, **teorema**larni, xullas, oddiy odamga keraksiz, tushunarsiz voqea-hodisalarni tasavvur qila boshlaymiz.

Siz ham *–lar* qo‘shimchasini shu tarzda uyushiq bo‘laklar orasida qo‘llab 3 ta gap tuzing va yozing.

“Fizika hayotni yengillashtiradi” matnidan olingan ushbu gaplarni taqqoslang. Ularda qo‘llangan tirening vazifasini tushuntiring.

Go‘yo bu soha bizga begona – juda-juda uzoqda.	Go‘yo bu soha bizga begona, juda-juda uzoqda.
Bizni o‘rab turgan olamning qanday tuzilganini bilish uchun avvalo uning asosi – fizik qonuniyatlarni o‘rganishimiz kerak.	Bizni o‘rab turgan olamning qanday tuzilganini bilish uchun avvalo uning asosi bo‘lgan fizik qonuniyatlarni o‘rganishimiz kerak.

Quyida berilgan gaplar tarkibida tire tinish belgisi tushib qolgan. Gapning mazmunidan kelib chiqqan holda uning o‘rnini aniqlang va gaplarni ko‘chirib yozing.

1. Fazo haqidagi tasavvurlarimizni faqat matematik ko‘rinishda sonlar bilan ifodalashimiz mumkin.
2. Doskaga bo‘r bilan chizilganda, avtomobil qorli yo‘lda yurganda, osmondagi tosh bo‘lagi meteor atmosferadan o‘tganda, iz qoldiradi.
3. Maydonda tinch turgan to‘pga boshqa jism futbolchining oyog‘i ta’sir etmaguncha, u o‘zining tinch holatini saqlaydi.
4. Tezlanish vaqt birligida jism tezligining o‘zgarishiga son jihatdan teng keladigan kattalik.

110

Dars jarayoni

Kirish

Bugungi darsda “Fizika hayotni yengillashtiradi” matni ustida ishlash aytiladi. O‘quvchilarga uning mazmunini yodga soladigan bir nechta savollar bilan murojaat etish mumkin.

Asosiy qism

Morfologiya

“Fizika hayotni yengillashtiradi” matnidan olingan quyidagi gapda ko‘plikni ifodalovchi -lar qo‘shimchasi uyushiq bo‘laklarning qaysi biriga tegishli? Nima uchun muallif uni shu tarzda qo‘llagan?

Ko‘plikni ifodalovchi *-lar* qo‘shimchasining uslubiy jihatdan qo‘llanishiga oid qoidalar bilan tanishtiriladi.

O‘quvchilar ushbu holatni tushunib olishlari uchun *-lar* qo‘shimchasini uyushiq bo‘laklarning har biriga alohida qo‘shib, keyin esa muallif qo‘llagan shaklni o‘qib ko‘rish, ikkala holatni o‘zaro taqqoslash so‘raladi. O‘qituvchi tomonidan ushbu holatga izoh beriladi. O‘quvchilar xuddi shunday shakldagi gaplarni tuzib yozishga tayyorlanadilar.

Siz ham *-lar* qo‘shimchasini shu tarzda uyushiq bo‘laklar orasida qo‘llab 3 ta gap tuzing va yozing.

Punktuatsiya

“Fizika hayotni yengillashtiradi” matnidan olingan ushbu gaplarni taqqoslang. Ularda qo‘llangan tirening vazifasini tushuntiring.

Tire, uning qo‘llanish o‘rinlari va vazifasiga oid lingvistik bilimlar rivojlantiriladi.

Ikkala gap ham alohida-alohida o‘qib chiqiladi, ularning mazmunida qanday o‘ziga xoslik borligi tahlil qilinadi. Tirening ushbu gaplardagi vazifasi haqida ma’lumot beriladi.

Quyida berilgan gaplar tarkibida tire tinish belgisi tushib qolgan. Gapning mazmunidan kelib chiqqan holda uning o‘rnini aniqlang va gaplarni ko‘chirib yozing.

Tirening qo‘llanishiga oid qoidalardan foydalanish bilan bog‘liq ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

Nutqiy mavzu doirasida berilgan gaplar tarkibida tiredan qaysi o‘rinda foydalanish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘riladi. Har bir qo‘yilgan tirening vazifasi, u orqali ifodalanayotgan ma’no haqida ma’lumot beriladi.

Yozma nutq

Rasmlardagi holatlarni fizik qonuniyatlar asosida tahlil qiling. Holatlarni izohlab kichik matn yozing. Fizik olimlarday fikrlashga harakat qiling.

Berilgan rasmlarda velosportchining velosiped haydayotganda gavdasini qanday tutishi va buning havo oqimiga ta’siri aks etgan. Avvalo, rasmlar haqida qisqa suhbat tashkillashtiriladi. Bunda fizikadagi aerodinamika qonunlari haqida yengil eslab o‘tish maqsadga muvofiq.

Aerodinamika – *havoning harakat qonunlari va jismlar sirtida vujudga keladigan kuch qonuniyatlari hamda jismlarning havoga nisbatan harakatini o‘rganadi.*

Sodda qilib aytganda, **aerodinamika** jism va havoning o‘zaro ta’sirini o‘rganadi. Rasmlarda ham sportchi va havoning o‘zaro ta’siri aks etgan. Ya’ni yaxshi velosportchi havoning harakatini hisobga olib, tanani to‘g‘ri tutish texnikasini qo‘llaydi. Bu unga havo qarshiligini oson yengish, yanada tezroq harakat qilish imkonini beradi.

O‘quvchilar aynan yuqorida keltirilganidek sharh berishi shart emas, lekin ularning rasmlardagi holatlarni tabiat qonunlari bilan bog‘lay olishiga e’tibor qaratiladi.

Leksikologiya

Matn tarkibidan fizika faniga xos bo‘lgan atamalarni aniqlab, yozing. Ularni o‘z bilimlaringiz asosida davom ettiring.

Nutqiy mavzu doirasidagi atamalar, ularning talaffuzi va imlosi ustida ishlanadi.

“Fizika hayotni yengillashtiradi” matni tarkibidan fizik atamalarni yozib olish so‘raladi. Ushbu fan bilan bog‘liq boshqa atamalarni yozib, ularni davom ettirish kerakligi tushuntiriladi. O‘qituvchi aynan 7-sinf darsligida berilgan fizikaga oid atamalarni to‘plab, ularni diktant shaklida yozdirishi ham mumkin.

Yozma nutq

Uyga vazifa

Fizik qonuniyatlar bilan bog‘liq va barcha bilishi zarur bo‘lgan 5 ta qoida yozing. Bunda uyushiq bo‘laklar, izohlash ma’nosidagi bo‘laklardan, tire va vergulning qo‘llanish qoidalaridan foydalaning.

Tinish belgilarining qo‘llanishi hamda nutqiy mavzu doirasidagi bilimlarni qoida shaklida yozishga oid nutqiy ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

Ushbu qoidalar barcha uchun ahamiyatli ekaniga e’tiborni qaratish hamda ularda qo‘llanishi kerak bo‘lgan tinish belgilari haqida ko‘rsatma beriladi, misollar keltirish tavsiya etiladi.

4-soat

Dars jarayoni

Kirish

Bugungi darsda “Fizika hayotni yengillashtiradi” matni ustida ishlash aytiladi. Uning mazmunini yodga solish bilan bog‘liq bir nechta savollar bilan murojaat etish mumkin.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Savol-javoblarni o‘qing. Issiq havo uchun kiyim tanlashda fizikaga doir bilimlarning naqadar muhim ekanini mulohaza qiling.

O‘quvchilar berilgan savol-javob mazmuni bilan tanishadilar. Uning mazmuni yuzasidan suhbat olib boriladi. Fizikaga doir bilimlardan yana qanday hayotiy vaziyatlarda foydalanish mumkinligi haqida qo‘shimcha savollar bilan murojaat etiladi.

Og‘zaki nutq

Tasavvur qiling, siz Everest cho‘qqisini zabt etishga otlandingiz. Sizga nimalar kerak bo‘ladi?

Sinfda muhokama uyushtiriladi. O‘quvchilardan rasmda berilgan narsalardan mosini tanlash so‘raladi. Har bir tanlov uchun izoh berish kerakligi, tanlovga mos kelmaydigan narsalar uchun ham izoh berish aytiladi. Izohlar fizik jihatdan asoslanishi kerakligiga e’tibor qaratiladi.

Yozma nutq

Rasmdagi narsalarning qaysilarini tog‘ safari uchun olasiz? O‘z tanlovingizni fizikaga doir bilimlar bilan asoslab, matn yozing.

Nutqiy mavzu doirasida muayyan mavzu yuzasidan matn yozish, o‘z matnida ushbu mavzu bilan bog‘liq atamalardan foydalanish, fikrlarini dalillar bilan asoslab yoza olish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Berilgan ko‘rsatmalar asosida matn yaratish topshirig‘i bajariladi.

Tuzgan matningizni partadoshingizga bering, partadoshingiz uni o‘qisin. Ustozingiz bilan birgalikda xatolar ustida ishlang.

O‘quvchilar o‘zlari tuzgan matnni partadoshlari bilan almashadilar, har bir matn o‘qiladi va uning mazmuniga nisbatan munosabat bildiriladi. Munosabat bildirish jarayonida fikr bildirishning o‘ziga xos qoidalari (hurmat bilan murojaat etish, tanqidiy fikrlarni asoslab bera olish, ishning yutuqli tomonlarini ham e’tirof etish)dan foydalanishga e’tibor qaratiladi. Xatolar ustida ish olib boriladi.

Yozma nutq

Uyga vazifa

Berilgan fizik qoida bilan bog‘liq hayotiy misollar qidiring. Topgan misollaringiz asosida hayotiy qoidalar yozing.


Darslikda deformatsiya hodisasiga mos rasmlar berilgan. O‘quvchi ana shunday hayotiy misollardan ko‘proq topishi kerak. Masalan, oddiy qog‘ozni buklash, g‘ijimlash yoki kesish ham deformatsiyadir.

O‘quvchi shu hodisalarning fizik asoslarini o‘z tilida yozib berishi kerak. Masalan, “Avtomobil boshqa bir avtomobil bilan to‘qnashishi oqibatida uning kuzovi majaqlanadi. Sababi qarama-qarshi tarafdan kelgan avtomobil ma’lum darajada kuzovga zarba beradi”.

ELEKTROMOBIL

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilarda kamxarj, ekologik bezarar avtomobillar haqida tasavvur hosil qilish va nutqida unga oid til birliklarini faollashtirish; avtomobil rusumlarini ifodalovchi nomlar, ularning talaffuzi va imlosi, qisqartma so‘zlarni hosil qilish; belgili va belgisiz qo‘llanadigan kelishik shakllari, kelishik shaklidagi so‘zlarga to‘g‘ri so‘roq berish kabi lingvistik bilim berish; infografika asosida keltirilgan ma’lumotlarni og‘zaki ifodalash ko‘nikmasini shakllantirish.

1-soat


ELEKTROMOBIL

Bu mavzuda o'rganamiz

• kamxarj, ekologik bezarar avtomobillar • qisqartma so'zlar imlosi • qisqartma so'zlarni hosil qilish • kelishik shakllari • belgili va belgisiz qo'llanadigan kelishik shakllari.

1. Sizningcha, "elektromobil" so'zining ma'nosi nima?
2. Avtomobil va elektromobil o'rtasida qanday farq bo'lishi mumkin?

Ushbu chizmani xattaxtada to'ldiring.

avtomobil

elektromobil

Avtomobil qismlari qanday atalishini bilasizmi? Quyidagi so'zlarni kerakli o'rinlarga qo'yib o'qing.

114

Dars jarayoni

Kirish

1. Sizningcha, “elektromobil” so‘zining ma’nosi qanday?

2. Avtomobil va elektromobil o‘rtasida qanday farq bo‘lishi mumkin?

Asosiy qism

Yozma nutq. Tahlil

Ushbu chizmani xattaxtada to‘ldiring.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarda ikki narsani o‘zaro taqqoslash, fikrlarini tartiblab ifodalash ko‘nikmasini shakllantiradi. O‘quvchilar o‘z shaxsiy kuzatishlari hamda ushbu birliklarga oid tushunchalari asosida chizmani to‘ldirishlari lozim.

Bunda avval o‘qituvchi tomonidan “Venn diagrammasi” va unda ma’lumotlar qanday joylashtirilishi haqida ma’lumot beriladi. So‘ngra o‘quvchilar tartib bilan chiqib, ushbu birliklar haqidagi fikrlarini jadvalning kerakli o‘rniga yozishlari aytiladi.

Morfologiya

Avtomobil qismlari qanday atalishini bilasizmi? Quyidagi so‘zlarni kerakli o‘rinlarga qo‘ying.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan so‘zlarni o‘qib, uni rasm bilan moslashtirib aytishlari kerak.

Bunda o‘quvchilar lug‘atdan foydalanishlari mumkin. Asosiy e’tibor rasmni ko‘rsatgan holda so‘zlarni izohlab, aytishlariga qaratiladi.

Tinglab tushunish

Audiomatnni tinglang. Savollarga javob bering.

Audiomatn: “Syurpriz”.

Toshkentning sershovqin ko‘chalaridan birida joylashgan ustaxona. Ustaxona kiraverishida mexanik Akbar aka

mijoz tashlab ketgan “Malibu” rusumli mashinani ko‘zdan kechirmoqda. Akbar aka juda chanqab ketdi, bir piyola choy ho‘plab olish uchun ustaxona ichkarisiga kirdi. Tez qaytib chiqaman deb o‘ylagan usta “Malibu”ning eshiklarini qulflamadi. Kalitni ham mashinaning ichida qoldirdi.

O‘g‘rilik qilib kun kechiradigan Salim ismli yigit balkonida o‘tirib telefonda suhbatlasharkan, bu voqeani beixtiyor ko‘rib qoldi. Telefonda suhbatlashayotgan Salim go‘shakning narigi tomonidagi odamga: “Hozirgina bir ahmoq mashinani ochiq qoldirdi. Bugun omadim kulganga o‘xshaydi”, dedi-yu go‘shakni qo‘yib, pastga yugurdi. Akbar usta esa ichkaridagi shogirdiga maslahat beraman deb ushlanib qoldi.

Salim yugurib kelib mashinaga o‘tirdi-yu, kalitni buradi. Mashina bir urinishdayoq o‘t oldi. Atrofga, yonoynalar orqali orqa tomonlarga alanglab, hech kim yo‘qligiga ishonch hosil qilgan Salim qo‘ltormozni tushirdi-yu gazni bosdi. Rulni bir qo‘li bilan ushlab, ikkinchi qo‘li bilan tanishiga SMS yozdi: “Mashinani qo‘lga kiritdim!”

Mashina olib qochayotgan Salim birinchi chorrahadayoq yo‘lchiroqning qiziliga tutildi, lekin u qancha urinmasin, mashina sekinlay demasdi. Tormozni bor kuchi bilan bosishiga qaramay, mashina to‘xtamadi. Tormoz pedali shunchalik yumshoq ediki, Salim qandaydir muammo borligini sezsa-da, tormozga nima bo‘lganini tushuna olmasdi. Akbar usta tormozni sozlash uchun yechib olganidan esa uning umuman xabari yo‘q.

Shunday qilib, Salim “Malibu”ni to‘xtata olmadi, chorrahani qizilda kesib o‘ta boshladi, shu payt yon tomondan militsiya mashinasi katta tezlikda chiqib keldi. Salim o‘zi o‘tirgan mashinani olib qocha olmasdi, juda kech bo‘lgan edi. Militsiya ham yo‘lchiroqning yashilida o‘tayotgani uchun ancha xotirjam gazni bosayotgan edi. Hammasi bir onda sodir bo‘ldi. Militsiya mashinasi “Malibu”ning “qorniga kalla qo‘ydi”.

Militsiya xodimlari mashinadan tushib “Malibu” tomon yura boshladilar. Qo‘rqib ketgan Salim har qancha urinmasin, himoya yostiqchalarining changalidan qutula olmadi. Qo‘lidagi telefon ham asfaltga uchib tushgan edi.

Militsiya xodimi mashinaga yaqinlashdi-yu: “Ko‘zingiz qayoqda, qizil chiroq yonganini ko‘rmayapsizmi?” deya so‘radi. Salim esa nima deyishini bilmay o‘tirgandi.

Militsiya xodimi yerga uchib tushgan telefonni qo‘lga olishi bilan SMS keldi. Unda “Salim, omading kulgan kun ekanda”, deb yozilgan edi.

Umuman olganda, bugun Salimning kuni emas ekan, u kunning qolgan qismini militsiya idorasidagi kamerada o‘tkazdi.

Muhokama

1. Nega ushbu hikoya “Syurpriz” deb nomlangan?

Bu savol matn mazmunini tushunish hamda “syurpriz” birligining ma’nosini anglashga qaratilgan. O‘quvchilar ushbu birlikning ma’nosini tushunib, nima uchun matnga bunday sarlavha tanlanganini aytib berishlari lozim.

Syurpriz – kutilmagan hadya, voqea, hodisa.

2. “Bugun Salimning kuni emas edi”, deganda nima nazarda tutilmoqda?

Bu savolning javobi Salimga kelgan xabardagi birlik orqali anglashiladi. O‘quvchilar *Salim doim o‘g‘rilik bilan*

shug‘ullangani, omadim yurishdi deb mashina olib qochganda to‘satdan militsiya xodimining qo‘liga tushgani, ya’ni o‘g‘irlik qila olmaganiga nisbatan bugun uning kuni emas deyilganini tushunib, aytishi lozim.

3. Sizningcha, baxtsiz hodisaning sababchisi kim?

Bu o‘quvchilar matndan olgan xulosasini aytib berishiga qaratilgan. Ular baxtsiz hodisa sababchisini kim deb bilishlari hamda nima uchun shunday xulosaga kelganlarini asoslab aytib bera olishlari kerak.

4. Hikoya kimning tilidan so‘zlangan?

Bu savol muallif nutqini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar matn boshqaning tilidan hikoya qilinganligini anglab yetishlari lozim.

Test

Hukmlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang. To‘g‘ri hukmlarni ko‘chiring.

Bu testdan o‘quvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirish hamda ma’lumotlarni saralashni o‘rgatish maqsad qilingan.

O‘quvchilarga berilgan ma’lumotlarni o‘qib chiqish aytiladi, so‘ngra ularga audiomatn qayta eshittiriladi. O‘quvchilar bu jarayonda ma’lumotlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlab olishlari hamda to‘g‘ri ma’lumotlarni ko‘chirib yozishlari lozim.

Bajarib bo‘lishgach, test tahlil qilinadi. O‘quvchilar to‘g‘ri javoblar nima uchun to‘g‘riligini, noto‘g‘ri javoblar nima uchun xatoligini izohlab aytib berishlari lozim.

Javob: *Mashinani olib qochish juda oson kechdi.*

Sintaksis

Hikoya voqealari davomida qanday qoidalar buzildi? Daftaringizga yozing.

Mazkur topshiriq audiomatnni tushunish hamda so‘ralgan ma’lumotlarni aniqlash, matnni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar audiomatn tarkibidan qanday qoidalar buzilganini aniqlab yozishlari zarur.


Uyga vazifa

Yozma nutq. Matn yaratish

“Kelajakdagi avtomobilim” mavzusida matn yozing.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning yozma matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirish bilan birgalikda mashinaga, tadbirkorlikka qiziqadigan bolaning qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan. O‘quvchilar yo‘riqnoma bilan tanishib, berilgan sarlavha ostida matn yozib kelishlari lozim.

2-soat



Dars jarayoni

Kirish

1. Avtomobilning yana qanday qismlarini bilasiz?

2. Elektromobil va avtomobilning qaysi jihozlarida farq bo‘lishi mumkin?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Matnni o‘qing. Savollarga javob bering.

Matn: “Elektromobil o‘zi nima?”

Muallif: Muqaddas Musayeva.

O‘quvchilarga matnni o‘qib chiqish aytiladi. O‘qib bo‘lganlaridan so‘ng, matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Muhokama

1. O‘zbekistonga import qilingan elektromobillar sonini yillar kesimida aytib bering.

Bu savol matndagi infografik ma’lumotni tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan infografika asosida javob topishlari lozim. Bunda infografik ma’lumotlarni aniq va to‘g‘ri ketma-ketlikda ayta olishlariga e’tibor qaratiladi.

2. O‘zini o‘zi quvvatlash jarayonini qanday tushundingiz? Aytib bering.

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotlarni topishga qaratilgan. O‘quvchilar matnning 4-xatboshisidagi ma’lumotlar asosida ushbu jarayonni aytib berishlari lozim. Bunda o‘quvchilardan ma’lumotlarni so‘zma-so‘z aytib berish talab etilmaydi. Asosiy e’tibor ma’lumotni tushunish hamda uni mazmunli ifodalab berishga qaratiladi.

3. Elektromobilning qulaylik tomonlarini sanang.

Bu topshiriq matn mazmunini tushunish, ma’lumotlarni saralab olishga qaratilgan. Bu savolning javobi matnning biror qismida aynan keltirilmagan. O‘quvchilar matnni to‘liq o‘qib, xulosalari asosida javob berishlari kerak.

4. Elektromobilning ekologiyaga qanday foydasi bor? Zarari ham bor deb o‘ylaysizmi?

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotlarni topishga qaratilgan. Matnning “Elektromobilning kamxarjligi nimada?” bo‘limida bu haqida ma’lumotlar berilgan. O‘quvchi ushbu o‘rinlarni topib, shaxsiy kuzatishlari asosida izohlab berishi lozim.

5. Elektromobillar bilan bog‘liq ikkita muammoni tushuntirib bering.

Bu matn mazmunidagi muammoni tushunishga qaratilgan. “Muammolar nimada?” deb nomlangan bo‘limda ular sanab o‘tilgan. O‘quvchilar ushbu o‘rinni topib, fikrlarini aytishlari kerak. Bu jarayonda o‘quvchilardan ushbu muammoga qanday yechim taklif qila olishlarini ham so‘rash o‘rinli.

Morfologiya

Matndagi ostiga chizilgan so‘zlarga diqqat qiling. Tushib qolgan kelishik qo‘shimchasini o‘z joyiga tiklab, birikmalarni yozing.

Bu topshiriq matnni lingvistik tahlil qila olishga qaratilgan. O‘quvchilar matndan ostiga chizilgan so‘zlarni aniqlab, ularda qanday kelishik qo‘shimchasi tushib qolganini aytishlari lozim. Dastlab o‘quvchilar bilan qanday kelishiklar borligi, ulardagi qo‘shimchalar haqida savol-

javob qilib olinishi maqsadga muvofiq.

Qoida. Morfologiya

O‘quvchilar kelishiklarning belgisiz qo‘llanishi haqida amaliy topshiriq orqali tushuncha hosil qilganlaridan so‘ng, ularga belgisiz qo‘llanishi mumkin bo‘lgan kelishiklar haqida nazariy ma’lumot beriladi.

Morfologiya. Sintaksis

Qaratqich va tushum kelishigining belgili va belgisiz qo‘llanishiga 4 tadan misol yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilar kelishiklarning belgili va belgisiz qo‘llanishini tushunishlari hamda uni munosib kontekstda ishlata olishlariga qaratilgan. O‘quvchilar ushbu holatga mos 4 ta gap tuzib, yozishlari lozim.


Uyga vazifa

Yozma nutq. Matn yaratish

Quyidagi gaplarni o‘qing. Mazmunini tahlil qiling. Qaratqich va tushum kelishiklarini belgili qo‘llash shart bo‘lgan o‘rinlar haqida qoida yozing.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarda gaplarni tahlil qilish orqali qoida yoza olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan ustunlardagi gaplarni taqqoslab o‘qib, undagi muhim o‘rinlarni aniqlab, kelishiklarning qay holatda belgili qo‘llanishi haqida qoida yozib kelishlari lozim.

3-soat



Dars jarayoni

Kirish

1. Grafik chizmalar deganda nimani tushunasiz?

2. Grafik chizmalar bizga nima uchun kerak?

Asosiy qism

Leksikografiya

Berilgan grafikka qarang. Ko‘rsatilgan qismlarning nomini toping.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarga grafik chizma, uning qismlari va qismlarda nimalar ifodalanishini tushuntirishga hamda nutqida unga oid til birliklarini faollashtirishga qaratilgan.

O‘quvchilar grafik bilan tanishib, uning qismlari nomini moslashtirib yozishlari kerak.

Grafik xattaxtada chizilib, to‘g‘ri javoblari bilan izohlab berilishi maqsadga muvofiq.

Javob: 1 – B, 2 – F, 3 – A, 4 – D, 5 – G, 6 – E.

Test

Grafik asosida quyidagi hukmlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

Mazkur topshiriq o‘quvchilar grafik chizma asosida egallagan ma’lumotlarini saralashiga, fikrlarining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlashiga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan ma’lumotlar bilan tanishib, munosabatlarini bildirishlari lozim. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning to‘g‘ri fikrlar nima uchun to‘g‘riligi hamda noto‘g‘ri fikrlar nima uchun xatoligini izohlab aytib berishlariga qaratiladi.

Javob: *To‘g‘ri hukmlar: grafik 4 yil davomida sotilgan elektromobillarning xaridorlari orasida erkaklar va ayollarning ulushi qanchaligini ko‘rsatadi; vertikal o‘q foizlarni ko‘rsatadi va har darajada 10% ga o‘sgan raqamlar bilan o‘lchanadi; sariq o‘q ayollar ulushini ifoda etadi; oxirgi 2 yilning xulosasi bir-biriga yaqin.*

Noto‘g‘ri hukmlar: gorizontal o‘q sotilgan avtomobillar sonini ko‘rsatadi; grafikda faqat o‘sish haqida ma’lumotlar bor; tanlangan davr mobaynidagi savdolarda erkaklarning ulushi doim ko‘p; ayollar ulushida keskin o‘sish kuzatilmaydi.

O‘qib tushunish. Sintaksis

Bo‘sh o‘rinlarga muqobil so‘zlardan birini qo‘yib, matnni o‘qing.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning grafik ma’lumotlarni tushunish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar chizmada berilgan ma’lumotlarni tushungan holda bo‘sh o‘rinlarni kerakli so‘zlar bilan to‘ldirib o‘qishlari lozim. Bunda jadvaldagi birliklardan foydalanishlari kerakligi aytiladi.

*Grafik 2018-yildan 2021-yilgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida sotilgan elektromobillarning xaridorlari orasida qaysi jins vakillari qanday ulushda ekanini **ko‘rsatadi.** **Gorizontal** o‘q yillarni, **vertikal** o‘q esa foizlarni ifodalaydi. Grafikda bir qarashda erkaklar ulushi **kamayib** borayotgandek ko‘rinadi, ammo bu erkaklar kamroq elektromobil sotib olayotganini anglatmaydi. Aksincha, elektromobillar sotuvi yil sayin o‘sib bormoqda. Grafik esa elektromobillarning necha foizini ayollar, necha foizini erkaklar sotib olganini ko‘rsatadi. **Boshidagi** ikki yil orasidagi farq unchalik katta emas – 10% ni tashkil etadi, lekin **2021-yilda** ayollarning ulushi keskin oshganini ko‘rishimiz mumkin. Keyingi yilda esa o‘tgan 2020-yilgi natija deyarli takrorlangan. Ushbu yilda ayollar ulushining o‘sishini 3% deb ko‘rsatish mumkin.*

Yozma nutq. Matn yaratish

Ushbu grafikni tavsiflab matn yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning berilgan grafikdagi ma’lumotlarni tushunib, matn ko‘rinishida yozish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilar berilgan chizmadagi belgilarni tushunib, mazmunini ifodalab yozishi kerak. Bunda yuqoridagi matn namunasidan foydalanish mumkinligi aytiladi.


Uyga vazifa

O‘zingiz istagan mavzuda grafik tayyorlang. Quyidagi shakllardan birini tanlashingiz mumkin. Grafikni og‘zaki tushuntirib berishga tayyorlaning.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning ma’lumot to‘plash, ma’lumotlarni saralash hamda ularni grafik ko‘rinishida ifodalash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Bunda o‘quvchilar berilgan chizmalardan istalgan birini tanlab, unga mos ma’lumotlarni joylab, tushuntirib berishlari lozim.

Bu jarayonda o‘qituvchi sinfdagi o‘quvchilar soni, xarid qilingan kitoblar, o‘qilgan asarlar miqdorini grafikda ifodalash mumkinligi haqida ko‘rsatma berib o‘tishi maqsadga muvofiq.

4-soat



Dars jarayoni

Kirish

Grafik qanday qismlardan iborat? Ularda nimalar yoritiladi?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq. Tahlil

Tayyorlab kelgan grafigingizni og‘zaki tushuntirib bering. Xato va kamchiliklaringizni to‘g‘rilang. Boshqalarning nutqiga diqqat qiling. Tushunmagan o‘rinlaringizda savol bering.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish hamda jamoat oldida nutq so‘zlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar uyda tayyorlab kelgan grafik chizmalarini taqdimot qilib berishlari kerak.

Bu jarayonda bir o‘quvchi gapirganda qolgan o‘quvchilar tinglab, sinfdoshlarining nutqiga munosabat bildirishlari lozim. Bunda quyidagilarga amal qilish talab etiladi:

- *o‘zini tutish;*
- *mavzuga mos ohang, emotsiyadan foydalanish;*
- *grafikni tushuntirishga oid til birliklarini to‘g‘ri qo‘llash;*
- *mazmunni yetkazib bera olish;*
- *so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, urg‘uni kerakli o‘rinlarga qo‘ya olish;*
- *grafikka mos ma’lumot yoki ma’lumotga mos grafikni tanlash;*
- *grafikda ma’lumotlarni to‘g‘ri joylashtirish;*
- *kirish, fikrni xulosalashga oid til birliklaridan foydalanish.*

MUSTAHKAMLASH

Dars jarayoni

Kirish

1. Oxirgi ikkita mavzuda nimalarni o‘rgandingiz? Nimalar yodingizda qoldi?

2. Qaysi holatlarda vergul qo‘yilishi shartligi yodingizdami?

Asosiy qism

Morfologiya

Qaratqich kelishigining belgili va belgisiz qo‘llanishi haqida savol tuzib, sinfdoshlaringizga bering. Javoblarni izohlang.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning savol tuzish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar qaratqich kelishigi haqida egallagan bilimlari asosida savol tuzib, yozishlari lozim. Bunda o‘quvchilarga qaratqich kelishigi qachon belgili, qachon belgisiz qo‘llanishi bo‘yicha umumiy savol tuzishlari emas, balki bir gapdan misol keltirish orqali savol shakllantirishlari aytiladi.

O‘quvchilar savol tuzib bo‘lgach, bir-birlari bilan almashib, munosabat bildirishlari hamda javobni izohlashlari zarur.

Morfologiya

Quyidagi gaplardan qaysi birida tushum kelishigini belgisiz qo‘llash mumkin? Nega? Qaysi gaplarda tushum kelishigini belgili qo‘llash shart? Nega? Gaplarni yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarga tushum kelishigi birligining mazmuni hamda qo‘llanish holatini tushuntirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan gaplarni o‘qib, tushum kelishigi belgili qo‘llanishi zarur bo‘lgan gaplarni ko‘chirib yozishlari hamda belgisiz qo‘llanadigan o‘rinlarini izohlab berishlari lozim.

Punktuatsiya

Quyidagi gaplarda vergulning ishlatilishiga diqqat qiling. Vergul uyushiq bo‘laklar orasida qo‘llangan gaplarni ko‘chiring.

Ushbu topshiriq vergulning qo‘llanishini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan gaplarni o‘qib, nima sababdan vergul qo‘llanganini aniqlab, aytishlari hamda uyushiq bo‘laklar qo‘llangan gaplarni topib, ko‘chirishlari lozim.

Javob:

Kitob, qalam, ruchka, daftar – menimcha, hammasini oldim.

Mehmonlar oldiga ikkita non, bir choynak choy, ikkita piyoladan boshqa hech narsa qo‘ya olmadim.

Fizika, kimyo, biologiya, astronomiya kabi fanlar menga umuman qiziq emas edi.

Yozma nutq. Matn yaratish


“Karim maktabga otlandi” mavzusida kichik matn tuzing. Uyushiq bo‘laklardan foydalaning.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarga berilgan sarlavha asosida uyushiq bo‘laklardan foydalanib matn yozishlari aytiladi.

TUTILMAY GAPIRAMAN

Nutqiy mavzuning maqsadi: omma oldida nutq so‘zlash, ushbu jarayon bilan bog‘liq qoidalarga amal qilish, matnni o‘qib tushunish, o‘zbek tilining adabiy talaffuz me’yorlariga amal qilgan holda rasmiy va norasmiy vaziyatlarda ta’sirchan va ravon so‘zlay olish, nutq jarayonida ohang, to‘xtam (pauza)dan o‘rinli foydalana olish, boshqalarning nutqini kuzatish, ularga nisbatan munosabat bildirish hamda ushbu jarayon bilan bog‘liq tavsiya bera olish ko‘nikmasini shakllantirish. Atoqli otlar va ularning imlosi, so‘z birikmalari, egalik qo‘shimchalari va ularning qo‘llanishiga oid lingvistik bilim berish.

1-soat


TUTILMAY GAPIRAMAN

Bu mavzuda o'rganamiz

• chiroyli va mazmunli nutq so'zlash • ravon so'zlash • taqdimot tayyorlash • talaffuz qoidalari • gap urg'usi • egalik shakllari.

1. Odatda og'zaki fikr ifodalashda qanday qiyinchiliklarga duch kelasiz?
2. Ravon nutq qanday bo'ladi?

Rasmlar asosida savollarga javob bering.

1 2 3 4

125

Dars jarayoni

Kirish

1. Odatda og‘zaki fikr ifodalashda qanday qiyinchiliklarga duch kelasiz?

2. Ravon nutq qanday bo‘ladi?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Rasmlar asosida savollarga javob bering.

Darslikda odamlar nutq so‘zlaganda har xil vaziyatga tushish holatlari ifodalangan suratlar berilgan. O‘quvchilar ular bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Muhokama

1. Nima deb o‘ylaysiz, siz kamera oldida so‘zlashga tayyormisiz? Hayotingiz davomida bunday holatni boshingizdan o‘tkazganmisiz yoki bu jarayonni kuzatganmisiz?

Bu savol o‘quvchilar shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishiga qaratilgan. Bunda muayyan nutqiy vaziyatda o‘quvchi o‘zini qanday tutishi, bunday jarayonda inson o‘zini qanday tutishi bilan bog‘liq qoidalar haqida suhbat olib boriladi.

2. 2-rasmni izohlang. Hammaning e’tiborini o‘ziga jalb etish va ta’sirli nutq so‘zlash uchun nima qilish kerak?

2-rasmda berilgan shaxsning holati, uning his-tuyg‘ulari haqida fikr bildiriladi. Ta’sirli va hammaning e’tiborini jalb qiladigan nutq so‘zlashda tinglovchilar e’tiborini *tortuvchi murojaat birliklariga rioya qilish, mavzuga mos turli ohangda gapirish, vaziyatga moslashish, kayfiyatini tushirmaslik, o‘zini tutish* kabi holatlarga e’tibor qaratish haqida tushuncha berib o‘tilishi lozim.

3. 3-rasmda qanday holat tasvirlangan? Birinchi va ikkinchi so‘zlovchining holatini tushuntiring.

3-rasmda nutq so‘zlaydigan kishiga xos bo‘lgan hayajon ifodalangan. Ushbu rasmdagi birinchi so‘zlovchi o‘zini erkin tutib, hayajonlarsiz nutq so‘zlayotgan bo‘lsa, ikkinchi so‘zlovchi hayajonlanib, terga botib ketgani tasvirlangan. Bu orqali o‘quvchilarga *nutq so‘zlash jarayonida ortiqcha hayajonlanish gapirayotgan gaplarini yo‘qotib qo‘yish, ovozda titroq, yuzda qizarish, fikrlarni tartibsiz bayon etish kabi holatlarga sabab bo‘lishi* mumkinligi tushuntirib o‘tiladi.

4. 4-rasmdagi holatni izohlang. Shu holatning aksi qanday bo‘lishi mumkin?

Rasmda berilgan holat izohlanadi, ushbu holatning aksi qanday bo‘lishi yuzasidan fikrlar bildiriladi. Insonlar o‘rtasida ijobiy munosabatlarni shakllantirish uchun qanday qoidalarga rioya qilish kerakligi haqida suhbat olib borilishi lozim.

5. Jamoat joylarida va omma oldida so‘zlashning o‘zaro yaqinlar va oila a’zolari bilan suhbatlashishdan qanday farqi bor? Bunda nimalarga e’tibor berish kerak?

Ushbu holatlar o‘rtasidagi farqlar haqida suhbat olib boriladi. Bunda qanday *til birliklaridan foydalanish kerakligi, o‘zini qanday tutish, kiyinish odobi va boshqa shunday muhim jihatlar* haqida fikrlar almashish lozim.

Yozma nutq

Sinfdoshlaringiz og‘zaki nutqda qanday kamchiliklarga yo‘l qo‘yishadi? Yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning og‘zaki nutqni tahlil qilish, xato va kamchiliklarni aniqlab tavsiya yoza olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Bunda o‘quvchilar sinfdoshlarining og‘zaki nutqini kuzatib, tahlil qilib yozishlari lozim. Tahlil qilish jarayonida quyidagilarga e’tibor qaratishlari aytiladi:

- *sheva elementlari;*
- *nutq tezligi;*
- *tovushlar talaffuzi (aniqlik);*
- *urg‘u...*



1. Nima deb o'ylaysiz, siz kamera oldida so'zlashga tayyormisiz? Hayotingiz davomida bunday holatni boshingizdan o'tkazganmisiz yoki bu jarayonni kuzatganmisiz?
2. 2-rasmni izohlang. Hammaning e'tiborini o'ziga jalb etish va ta'sirli nutq so'zlash uchun nima qilish kerak?
3. 3-rasmda qanday holat tasvirlangan? Birinchi va ikkinchi so'zlovchining holatini tushuntiring.
4. 4-rasmdagi holatni izohlang. Shu holatning aksi qanday bo'lishi mumkin?
5. Jamoat joylarida va omma oldida so'zlashning o'zaro yaqinlar va oila a'zolari bilan suhbatlashishdan qanday farqi bor? Bunda nimalarga e'tibor berish kerak?

Sinfdoshlaringiz og'zaki nutqda qanday kamchiliklarga yo'l qo'yishadi? Yozing.

- *juda tez gapirishadi;*
- ...

Matnni o'qing va savollarga javob bering.

Ayrim bolalar o'ta tortinchoq bo'lib, ko'pchilik orasida so'zlashdan, fikrlari atrofdagilar tomonidan qabul qilinmay, izza bo'lishdan cho'chishadi. Ular **doska**ga chiqarilganda yoki tug'ilgan kunda tabrik uchun so'z berilganda terlab ketishadi. Lom-mim deyolmay, hatto yig'lab yuboradigan tengdoshlarimiz ham bor. Bu holat ilmiy tilda *peyrofobiya* deb ataladi. Xatolarimiz uchun koyishlaridan, do'stlarimiz oldida kamchiliklarimizni aytib tanqid qilishlaridan, keyin ustimizdan kulib yurishlaridan hadiksirash esa *atixifobiya* deyiladi. O'z xohish-istaklarini, fikrini boshqalarga ayta olmaydigan bolalarda aybdorlik va nuqsonlilik **kompleks**lari kuchli rivojlangan bo'ladi. Agar siz o'zingizda shunday qo'rquv alomatlarini payqagan bo'lsangiz, darhol kundalik tuting. Unga fikrlaringizni yozib, eng yaqin do'stingizga bering va mulohazalarini sizga aytib borishini iltimos qiling. Unutmang, o'z fikringizni ochiq bayon etish huquqingiz bor. Garchi uni qabul qilmasalar ham, o'z ovozingiz, o'rningiz borligini bildirib qo'ying.

Umida Sadatova

126

O‘qib tushunish

Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

Matn muallifi: Umida Sadatova.

O‘quvchilar matnni o‘qib chiqqanlaridan so‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Muhokama

1. Peyrofobiya yoki atixifobiya kasalliklari haqida nimalarni bilib oldingiz?

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotlarni topishga qaratilgan. O‘quvchilar matndan ushbu atamalarga berilgan ta’rifni topib, tushun-

ganlarini bayon etishlari lozim.

Peyrofobiya – tortinchoqlik; ko‘pchilik orasida so‘zlashdan, fikrlari qabul qilinmay, izza bo‘lib qolishdan qo‘rqish.

Atixifobiya – xatolari uchun hammaning oldida tanqid qilinishdan, ustidan kulib yurilishdan hadiksirash.

2. O‘zingizda ushbu kasallikning alomatlari bor deb hisoblaysizmi? Qachon, qanday vaziyatlarda shunday hissiyotlarni boshingizdan o‘tkazganingiz haqida gapirib bering.

Bu savol matndagi holatni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash orqali xulosa chiqarishga qaratilgan. O‘quvchilar o‘zlaridan kelib chiqib, nutq so‘zlaganda qanday holatlarni his qilishlarini bayon etishlari kerak.

3. Ushbu kasalliklarning oldini olishda muallif tavsiyasi qay darajada yordam berishi mumkin? Sizda ham bu borada takliflar bormi?

Bu savol matndan muallif maqsadini aniqlash hamda unga munosabat bildirishga qaratilgan. O‘quvchilar matndagi maslahatga munosabat bildirishlari hamda o‘zlari yangi tavsiya yaratishlari lozim.

4. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning tilimizda muqobili bormi? Javobingizni izohlang.

Bu topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga, atamalar bilan ishlash, ularni o‘zbek tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri olib kirish emas, balki o‘zbek tilidagi muqobili bilan nomlash mumkinligi haqida tushuncha hosil qilishlariga qaratilgan. O‘quvchilar fikri tinglangach, ushbu birliklar misollar bilan tushuntirib berilishi zarur.

- *xattaxta – xattaxta;*
- *kompleks – umumiy.*



1. Peyrofobiya yoki atixifobiya kasalliklari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. O‘zingizda ushbu kasallikning alomatlari bor deb hisoblaysizmi? Qachon, qanday vaziyatlarda shunday hissiyotlarni boshingizdan o‘tkazganingiz haqida gapirib bering.
3. Ushbu kasalliklarning oldini olishda muallif tavsiyasi qay darajada yordam berishi mumkin? Sizda ham bu borada takliflar bormi?
4. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning tilimizda muqobili bormi? Javobingizni izohlang.

Matn asosida gaplarning kesimini aniqlab, yozing. Undan oldin kelgan so‘zlarni alohida ohang bilan qayta o‘qib ko‘ring.

Ular doskaga chiqarilganda yoki tug‘ilgan kunda tabrik uchun so‘z berilganda ***terlab ketishadi.***

Gap tarkibidagi bo‘laklardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq, ta’kidlab talaffuz qilinishiga **gap urg‘usi** yoki **mantiqiy urg‘u** deyiladi. Gap urg‘usi gapda e’tibor qaratilayotgan asosiy jihatni aniqlab beradi.

Sojida birinchi o‘rinni oldi. (*“boshqa kishi emas, aynan Sojida”*)
Sojida **birinchi** o‘rinni oldi. (*“boshqa o‘rinni emas, aynan birinchi o‘rinni”*)

Og‘zaki nutqda gap urg‘usining o‘rni erkin. Biroq yozuvda o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi uchun gap urg‘usini olgan bo‘lak kesimdan bitta oldin joylashgani ma’qul.

Sojida teatrga **kecha** borgan edi. (*qachon borgani*)
Sojida kecha **teatrga** borgan edi. (*qayerga borgani*)

Notiqlik (ritorika)da gap urg‘usi muhim vosita sanaladi. Notiqning eng katta quroli bu – so‘z va ohang.

Muhokama uchun savol. Yod olgan she’ringizdan to‘rt-sakkiz qatorini o‘qing. Qaysi bo‘lak ta’kidlab o‘qilishiga e’tibor qarating. Ayting-chi, she’rlarda oddiy gaplardan farqli ravishda gap urg‘usi qanday bo‘laklarga tushadi?

Omma oldida nutq so‘zlashga tayyorgarlik ko‘rish bilan bog‘liq 5 ta tavsiya yozing.

Namuna *Nutqingizni qat’iy ohangda va o‘zingizga ishonch bilan boshlang.*

Gap urg‘usi haqidagi qoidaga amal qilgan holda quyida berilgan matnni audio shaklida yozing. Nutqingizni qayta-qayta eshitib ko‘ring. Eshitish jarayonida yondaftarchangizga qanday kamchiliklarga yo‘l qo‘yganingizni belgilab boring.

127

Sintaksis

Matn asosida gaplarning kesimini aniqlab, yozing. Undan oldin kelgan so‘zlarni alohida ohang bilan qayta o‘qib ko‘ring.

Ushbu topshiriq gapda kesim va uning ifodalanishi, urg‘uning og‘zaki nutqdagi ahamiyati bilan bog‘liq lingvistik bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan.

O‘quvchilar berilgan matn tarkibidagi gaplarning kesimini aniqlab, gap urg‘usini kerakli o‘ringa qo‘yib o‘qishlari lozim. Bunda o‘quvchilardan matn tarkibidan hamma gapni ko‘chirib yozish talab etilmaydi. Asosiy e’tibor kesimning ifodalanishi hamda urg‘uni tushunishga qaratiladi.

Qoida. Fonetika

O‘quvchilar amaliy topshiriq orqali urg‘u haqida tushuncha hosil qilganlaridan so‘ng, urg‘u haqidagi nazariy bilim misollar bilan tushuntirib berilishi lozim.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Og‘zaki nutq

Muhokama uchun savol. Yod olgan she’ringizdan to‘rt-sakkiz qatorini o‘qing. Qaysi bo‘lak ta’kidlab o‘qilishiga e’tibor qarating. Ayting-chi, she’rlarda oddiy gaplardan farqli ravishda gap urg‘usi qanday bo‘laklarga tushadi?

Mazkur topshiriq gap urg‘usi, uning she’riy misralarda ifodalanishini tushunishga qaratilgan.

Bunda o‘quvchilar yodlagan she’rlarini ifodali qilib o‘qishlari, tinglovchilar nutqni kuzatgan holda urg‘uli gaplarni aniqlab, qayd etib borishlari lozim.

Yozma nutq

Omma oldida nutq so‘zlashga tayyorgarlik ko‘rish bilan bog‘liq 5 ta tavsiya yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning ma’lumotlarni umumlashtirish, undan xulosa chiqarib, tartiblab yoza olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarga dars davomida egallagan bilimlari asosida nutq so‘zlashga oid namunadagidek tavsiya yozib chiqishlari aytiladi.

Uyga vazifa

Og‘zaki nutq

Gap urg‘usi haqidagi qoidaga amal qilgan holda quyida berilgan matnni audio shaklida yozing. Nutqingizni qayta-qayta eshitib ko‘ring. Eshitish jarayonida yondaftarchangizga qanday kamchiliklarga yo‘l qo‘yganingizni belgilab boring.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning og‘zaki nutqini shakllantirish, omma oldida nutq so‘zlash jarayoniga tayyorlanish hamda o‘z nutqi ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilar berilgan matnni o‘qib, audio shaklida yozib olishlari hamda uni qayta tinglash davomida kamchiliklarini aniqlab, tuzatib borishlari kerak.

2-soat

Dars jarayoni

Kirish

Ayting-chi, qayerlarda nutq so‘zlagansiz? Bunda qanday kechinmalarni his qilgansiz?


Asosiy qism

O‘qib tushunish

Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

Matn muallifi: Muhabbat Hamidova.

O‘quvchilarga berilgan matnni o‘qib chiqish aytiladi. So‘ngra matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.



Do'stim Ahmad!

"Bir-birimiz bilan tez-tez xat yozishib turamiz", – deb va'dalashgan edik. Negadir o'shanda menga unchalik ishonqiramovding... Zaynab, sen: "Anqarada o'zingga yangi o'rtoqlar topgach, bizlarni esdan chiqarib yuborasan", – degan eding.

Mana, so'zimning ustidan chiqyapman. Demak, sizlarni unutmabman.

Anqaraga ko'chib kelganimizga bir hafta bo'ldi. Yangi uyga joylashib ham oldik. Senga ilgariroq xat yozishning iloji bo'lmadi.

Chunki yangi maktabga endi qatnay boshladim. Yangi manzilimizni ham kuni kecha dadamdan bilib oldim. Xat yozishni sendan boshlayapman.

To'g'risini aytganda, o'qishlar avji qizib turganida maktabni tashlab, Istanbuldan chiqib ketishga hecham ko'nglim bo'lmovdi, ham sinfdosh o'rtoqlarimga o'rganib qolgan edim. Axir to'rt yildan ko'p birga o'qidik-da. Ammo ilojim qancha, dadam Anqaraga yangi ishga o'tdi. Uy ichi bilan ko'chib keldik. Yaqin og'aynilari dadamga Anqaradan yaxshiroq ish topib berishdi, bu haqda senga Istanbulda ham aytgan edim. Dadam uchta sinfdosh o'rtog'i bilan hozir bir firmada ishlayapti. Uchovi ham oilasi bilan bir binoda turisharkan. Ular dadamga ham ish, ham shu binodan bo'sh uy topib qo'yishibdi. Dadamning o'rtoqlari ham bola-chaqali ekan. Bir binoda to'qqiz bola bo'lib qoldik. Yoshlarimiz har xil. Beshtamiz bitta maktabga qatnaymiz. O'zim tengi bir bola bilan bir sinfda o'qiyapman. Ukam Metin yangi maktabdan, yangi o'rtoqlaridan yotsirab yuribdi. Men bo'lsam hammasiga darrov ko'nikib ketdim.

Hayotda ro'y beradigan muhim voqealar haqida yozib turishga kelishib olgan edik. Yangi uy, yangi maktab, yangi o'rtoqlar – bular mening hayotimda muhim gap bo'ldi. Hammasi shu, boshqa yangiliklar yo'q.

Istanbuldagi sinfdosh o'rtoqlarimni juda tez sog'inib qoldim. Sizlar bilan qachon va qayerda ko'rishamiz endi?

Menga o'xshab sen ham bergan so'zingning ustidan chiqasan deb ishonaman. O'rtoqlarning hammasiga mendan salom aytib qo'y. Hammangizga muvaffaqiyat tilayman.

Sinfdoshing Zaynab Yolqir

Aziz Nesin, "G'aroyib bolalar" asaridan

128

1. Hasanning ustozi – Dildora opaning harakatlarini tushuntirishga harakat qiling. Uning maqsadi nima edi?

Bu savol o‘quvchilarning hikoya qahramonlari xatti-harakatlari orqali ularga baho berish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. *Dildora opa tutgan yo‘l Hasanning boshqalar oldida nutq so‘zlash imkoniyatini o‘ziga namoyish etib berish va bu orqali unga omma oldida nutq so‘zlashni o‘rgatishga* qaratilgan.

2. Hasanning xattaxtadagi holati tasviri berilgan jumlalarni qayta o‘qing. Hikoya muallifi bu tasvir orqali nima demoqchi?

Bu savol matndan muallif maqsadini aniqlay olish, Hasanning holatini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilardan shunday holatda o‘zlarida qanday his-tuyg‘ularni sezishlari haqida so‘raladi.

3. Hikoya qahramoni Hasan qanday bola? Uning bunday fe’l-atvori yaxshimi yoki yomon? Javobingizni izohlang.

Bunda o‘quvchilar Hasanning tortinchoq bola ekani, undagi bu xislat o‘zi uchun to‘siq va cheklovlarni hosil qilishini tushunib, aytib bera olishlari lozim.

4. Siz-chi, siz ham xattaxtada javob berayotganingizda o‘zingizni shunday his qilasizmi? Bu jarayonda o‘zingizni qanday his qilishingiz haqida gapirib bering.

Bu savol o‘quvchilarning shaxsiy kuzatishlari asosida javob berish hamda bunday vaziyatda o‘zlarini tuta olish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

5. Matnga qanday sarlavha qo‘yish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring. O‘z taklifingizni bering.

Bu savol matn mazmunini tushunish hamda unga mos sarlavha tanlay olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar o‘z tanlovlarini aytishlari hamda uni matnga tayanib asoslab berishlari kerak.

Orfografiya

Hasan ko‘zlarini chirt yumib, Tolib Yo‘ldoshning “Mohir qo‘llar qo‘shig‘i” she’rini to‘xtamasdan aytganida uning atrofida kimlar borligini yozing. Bosh harflar imlosiga rioya qiling.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning vaziyatni tushunib qayta hikoya qilish hamda atoqli otlar imlosini tushunishlariga qaratilgan.

O‘quvchilar ushbu vaziyat aks etgan o‘rinni hikoya qilib yozishlari hamda Hasan va uning oldida turgan o‘rtoqlari ismini bosh harflar imlosiga rioya qilgan holda yozishlari lozim.

Sintaksis

Matnda ajratilgan so‘zlar qaysi so‘zga tobelanib kelganini aniqlang va namunadagidek yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning matnni lingvistik tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar matn tarkibidan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni aniqlab, ularni namunadagi singari o‘zi bog‘langan so‘z bilan birgalikda ko‘chirib yozishlari lozim.

Og‘zaki nutq

“Kim ifodali o‘qiy oladi?” musobaqasi.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning og‘zaki nutqini shakllantirish, jamoa bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan.

O‘quvchilarga shart tushuntiriladi. Bunda ular bir nechta guruhlarga bo‘linib, har bir guruhga matndagi holatni rolga

kirib o‘qib berish aytiladi. Tinglovchilar o‘qib bergan guruh nutqiga munosabat bildirib borishlari zarur.

Uyga vazifa


Og‘zaki nutq

Tanishgan matningiz asosida audiomatn tayyorlang. E’tibor bering, hikoyadagi muallif hamda boshqa qahramonlar rolini o‘zingiz ijro etishingiz lozim.

Bu topshiriq o‘quvchilarning monologik nutq tayyorlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilarga berilgan matnni ovozlashtirish, bunda vaziyatga mos qahramonlar holatiga kirib nutq so‘zlash hamda nutq jarayonida ohang, to‘xtam (pauza)dan o‘rinli foydalanish aytiladi.

3-soat



Egalik shakli shaxs, narsa, voqea-hodisa, o‘rin-joyning qaysi shaxs va songa tegishli ekanini bildiradi. Masalan, *mening nutq**im**, sening ovoz**ing**, sizning muvaffaqiyatlar**ingiz***.

Fe’l shakllariga qo‘shilgan egalik qo‘shimchalari bajaruvchining shaxsi va soni haqida ma’lumot beradi. Masalan: *o‘qigan**im** o‘zimga foyda.*

Berilgan so‘zlarga egalik qo‘shimchasini qo‘shib, o‘zi bog‘lanib kelishi mumkin bo‘lgan so‘zlar bilan birgalikda yozing.

Namuna *so‘z+i: otamning so‘zi; yutuq+i: do‘stimning yutug‘i (yutuqi emas!).*

gap	og‘iz	xato
ovoz	hayajon	yutuq

Tilak, so‘roq, yoshlik singari so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda ko‘p hollarda asosning oxirgi *k, q* tovushi *g* va *g‘* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: *tilagi, so‘rog‘i, yoshligi* kabi.

Bo‘g‘iz, o‘g‘il kabi ikkinchi bo‘g‘inida *i* unlisi ishtirok etgan aksariyat so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda o‘sha *i* unlisi tushib qoladi va shunday yoziladi: *bo‘g‘zi, o‘g‘li* kabi.

***Nutq, erk,** axloq, huquq, idrok, ishtirok* singari ayrim so‘zlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda asosda hech qanday o‘zgarish bo‘lmaydi. Buni tallafuzdan ham bilib olish mumkin.

Partadoshingiz bilan viloyat, shahar, tuman, korxona, muassasa, istirohat bog‘larining nomini yozib chiqing.

Toshkent shahri, “Ashxobod” bog‘i.

Ayting-chi, ulardagi *-i* egalik qo‘shimchasi qarashlilikni bildiryaptimi?

Ba’zan III shaxs egalik qo‘shimchasi qarashlilikni emas, ***xoslik*** ma’nosini ifodalab keladi. Bunda oldingi so‘z bosh kelishikda qo‘llanadi, *-ning* qo‘yib bo‘lmaydi.

Navoiy viloyati (Navoiyning viloyati emas, Navoiy nomli viloyat), futbol o‘yini (futbolning o‘yini emas, futbol nomli o‘yin), “KIA” kompaniyasi (“KIA”ning kompaniyasi emas, “KIA” nomli kompaniya)

131

Dars jarayoni

Kirish

1. Audiomatn tayyorlash jarayonining sizga yoqqan va yoqmagan jihatlari haqida gapiring.

2. Bu mashg‘ulot og‘zaki nutqingizni rivojlantirishga xizmat qila oladimi? Javobingizni izohlang.

3. Nutqni ravon qilish uchun yana qanday mashqlar zarur deb o‘ylaysiz?

Asosiy qism

O‘qib tushunish. Morfologiya

Quyidagi qo‘shimchalar bilan tanishing, ular egalik shakllari hisoblanadi. Oldingi darsda tanishilgan matndan aynan shu qo‘shimchalar mavjud bo‘lgan so‘zlarni aniqlang va ko‘chiring.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning jadvalda berilgan ma’lumotlarni tushunib, matnni ular asosida tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Bunda o‘quvchilardan M. Hamidova qalamiga mansub matndan egalik qo‘shimchalari ishtirok etgan so‘zlarni aniqlashlari hamda ularni jadval asosida tahlil qilib berishlari so‘raladi.

Morfemika. Sintaksis

Berilgan so‘zlarga egalik qo‘shimchasini qo‘shib, o‘zi bog‘lanib kelishi mumkin bo‘lgan so‘zlar bilan birgalikda yozing.

Ushbu topshiriq egalik qo‘shimchasini qo‘llash, hosil bo‘lgan so‘zdan birikma yasashni o‘rgatishga qaratilgan. O‘quvchilarga berilgan so‘zlarga egalik qo‘shimchasini qo‘shib, mazmunga mos birlik bilan so‘z birikmasi hosil qilishlari aytiladi. Bu jarayonda egalik qo‘shim-

chasining qo‘shilishida bo‘ladigan tovush o‘zgarishiga e’tibor qaratish ta’kidlanadi.

Qoida. Morfemika

O‘quvchilarga egalik qo‘shimchasini qo‘shish jarayonida kuzatiladigan tovush o‘zgarishlari haqida ma’lumot beriladi.

Orfografiya

Partadoshingiz bilan viloyat, shahar, tuman, korxona, muassasa, istirohat bog‘larining nomini yozib chiqing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning ma’lumot to‘plash, imlo qoidalariga rioya qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar so‘ralgan misollarni topib yozishlari lozim. Bunda darslikda berilgan matnlardan ham foydalanish mumkin.

Muhokama

Ayting-chi, ulardagi egalik qo‘shimchasi qarashlilikni bildiryaptimi?

Bu savol o‘quvchilarning egalik qo‘shimchasining vazifasini tushunishiga qaratilgan. O‘quvchilar javobi tinglangach, viloyat, shahar, tuman, korxona, muassasa nomlarida qo‘llangan III shaxs egalik qo‘shimchasi shaxsga qarashlilik ma’nosini emas, xoslik, umumdan ajratilganlik ma’nosini ifodalab kelishini tushuntirib o‘tish lozim.

Orfografiya. Orfoepiya

Berilgan so‘zlarning talaffuzi hamda imlosiga e’tibor qarating. To‘g‘ri deb hisoblaganlaringizni ko‘chirib oling.

Ushbu topshiriq egalik qo‘shimchasining so‘zga qo‘shilish tartibi, talaffuzi va imlosini o‘zlashtirishga qaratilgan.

O‘quvchilarga berilgan so‘zlarni o‘qib ko‘rish, ularning talaffuzida qanday o‘zgarish ro‘y berayotgani, imlo jihatidan qaysi biri to‘g‘ri yozilganini aniqlash aytiladi.

Javob: o‘rtog‘im, og‘zim, ko‘nglim, shahrim, o‘rnim, yuragim, istagim, idrokim.

Tinglab tushunish. Og‘zaki nutq

Sinfdoshlaringiz tayyorlab kelgan audiomatnlarni tinglang. Ularni tahlil qilishda faol ishtirok eting.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning tinglab tushunish, munosabat bildira olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Bunda o‘quvchilar uyda tayyorlab kelgan audiomatnlar tinglanadi va tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida qanday jihatlarga e’tibor qaratish kerakligi so‘ralib, xattaxtada o‘quvchilar uchun qayd etib qo‘yilishi zarur.


Uyga vazifa

Yozma nutq

Havola orqali “Yosh kitobxon” tanlovi ishtirokchilarining televideniyedagi chiqishlarini kuzating. Ularning nutqiga munosabatingizni yozing. Matningizda kimning nutqini kuzatganingiz, bu so‘zlangan nutqning sizga yoqqan tomonlari hamda kamchiliklari haqida dalillar to‘plang. Munosabatingizni gapirib berishga tayyorlaning.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning tinglab tushunish, tahlil qilish hamda munosabat bildira olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan havola orqali chiqishlarni ko‘rib, o‘zlari uchun bir ishtirokchini tanlab, nutqini tahlil qilib matn yozishlari lozim. Nutqni tahlil qilish jarayonida nimalarga e’tibor qaratish kerakligini o‘zlari uchun qayd etib olishlari zarur. So‘ngra yozgan matnlarini og‘zaki gapirishlari uchun nutq tayyorlab kelishlari aytiladi.

4-soat



Berilgan so'zlarning talaffuzi hamda imlosiga e'tibor bering. To'g'ri deb hisoblaganlaringizni ko'chirib oling.

o'rtoqim	o'rtog'im	shaharim	shahrim	istakim	istagim
og'zim	og'izim	o'rnim	o'rinim	idrogim	idrokim
ko'nglim	ko'ngilim	yurakim	yuragim		

Sinfdoshlaringiz tayyorlab kelgan audiomatnlarni tinglang. Ularni tahlil qilishda faol ishtirok eting.

Havola orqali "Yosh kitobxon" tanlovi ishtirokchilarining televideniyedagi chiqishlarini kuzating. Ularning nutqiga munosabatingizni yozing. Matningizda kimning nutqini kuzatganingiz, u so'zlagan nutqning sizga yoqqan tomonlari hamda kamchiliklari haqida dalillar to'plang. Munosabatingizni gapirib berishga tayyorlaning.

Uyda tahlil qilgan nutqingiz yuzasidan o'z munosabatingizni bildiring. Quyidagilarga rioya qiling:

- Kimning nutqini tahlil qilganingiz (ishtirokchi haqidagi ma'lumotlar).
- Ishtirokchining nutqidagi kamchiliklar.
- Ishtirokchining nutqidagi yutuqlar.
- Taklif va tavsiyalaringiz hamda yakuniy xulosangiz.

"Yosh kitobxon" – 2022-yilgi mavsum | 10–14 yosh toifasi | 1-shart

YOSH KITOBXON

RESPUBLIKA BOSQICHI 10–14 YOSH

1. Ayting-chi, sizga ko'proq qaysi ishtirokchining nutqi yoqdi? Aynan qaysi jihatlari?
2. Ko'p kitob o'qish og'zaki nutqimizning ravon bo'lishiga yordam beradimi? Javobingizni izohlang.

Nutqingizdagi kamchiliklar ustida ishlang. O'zingiz yoqtirgan suxandon, radioboshlovchi yoki jurnalistning nutqini kuzating. Unutmang, nutqiy ravonlikka tinimsiz mashqlar orqali erishiladi.

132

Dars jarayoni

Kirish

Nutq tinglash davomida qanday jihatlarga e'tibor qaratdingiz? Nima uchun?

Asosiy qism

Og'zaki nutq

Uyda tahlil qilgan nutqingiz yuzasidan o'z munosabatingizni bildiring. Quyidagilarga rioya qiling.

Kimning nutqini tahlil qilganingiz (ishtirokchi haqidagi ma'lumotlar).

Ishtirokchining nutqidagi yutuqlar.

Ishtirokchining nutqidagi kamchiliklar.

Taklif, tavsiya hamda yakuniy xulosangiz.

Berilgan ko'rsatmalar asosida har bir o'quvchi tayyorlab kelgan tahliliy xulosalar muhokama qilinadi, tahlil jarayonida o'quvchilar o'zaro fikr almashishda, munosabat bildirishda o'z fikrlarini hurmat bilan ifodalashi kerakligi, tanqidiy fikrlar asosli bo'lishi muhimligi tushuntiriladi.

Muhokama

1. Ayting-chi, sizga ko'proq qaysi ishtirokchining nutqi yoqdi? Aynan qaysi jihatlari?

2. Ko'p kitob o'qish og'zaki nutqimizning ravon bo'lishiga yordam beradimi? Javobingizni izohlang.

Berilgan savollarga javob berish orqali og'zaki nutq va uning jozibadorligini oshirishda qanday qoidalarga rioya qilish kerakligi haqida xulosalar chiqariladi, kitob o'qishning ahamiyati bilan bog'liq fikrlar tinglanadi. O'qituvchi darsga mashhur notiqlar tomonidan berilgan tavsiyalarni tayyorlab kelishi hamda ular bilan o'quvchilarni tanishtirishi mumkin.

Uyga vazifa

Og'zaki nutq

Nutqingizdagi kamchiliklar ustida ishlang. O'zingiz yoqtirgan suxandon, radioboshlovchi yoki jurnalistning nutqini kuzating. Unutmang, nutqiy ravonlikka tinimsiz mashqlar orqali erishiladi.

O'quvchilarga darsdan olingan xulosalar yordamida suxandon, radioboshlovchi yoki jurnalistlarning nutqini kuzatish aytiladi. Bunda tegishli xulosalarni chiqarish, nutqiy ravonlikni shakllantirish ustida mashq qilish tavsiya etiladi.

YOZUVCHI BO‘LISH OSONMI?

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilarda yozuvchilik haqida tasavvur hosil qilish, matn tuzish, badiiy so‘zni tushunish va qo‘llashga doir ko‘nikmalarni shakllantirish; ko‘chma ma’noli so‘zlar; so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlariga oid lingvistik bilim berish.

1-soat


YOZUVCHI BO‘LISH OSONMI?

Bu mavzuda o‘rganamiz

• badiiy ijod, badiiy uslub • yozuvchilik sirlari • matn tuzish • ko‘chma ma’noli so‘zlar • iboralar • tasviriy ifoda • omonimlar • hikoya yozish.

Adiblarning adabiyot va yozuvchilik haqidagi fikrlarini muhokama qiling.

Adabiyoti bo‘lmagan, adabiyotining taraqqiysiga intilmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolib, sekin-sekin inqirozga yuz tutadi.

Abdulhamid Cho‘lpon

Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o‘tin yorishga sarf qilish kerak emas.

Abdulla Qahhor

Yozuvchi sayoz joyda cho‘kadi.

Asqad Muxtor

Odamlarni, umuman, o‘quvchini halollikka, imonga, diyonatga chorlagan ijodkorning o‘zi halol, imonli bo‘lishi kerak. Aks holda, uning yozganlari yolg‘on bo‘ladi. Hech kim ishonmaydi.

Odil Yoqubov

Yozuvchi kichik hikoya yozadimi, kattaroq qissa-romanmi, albatta, yangi gap aytishi kerak. Aslida, yozish – ko‘ngil mayli. Yozuvchi-shoirdan uni yoz, buni yoz deb talab qilish – ijod erkinligining muqaddas tamoyiliga zid. Ijod ahliga faqat bitta talab qo‘yilishi mumkin: nimani yozsang yoz, ammo toza va haqqoniy yoz!

Erkin A’zam

133

Dars jarayoni

Kirish

She’r, hikoya, asar yozganmisiz? Yozish jarayonida nimalarni his qilgansiz?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Adiblarning adabiyot va yozuvchilik haqidagi fikrlarini muhokama qiling.

Mazkur topshiriqda yozuvchi va adiblarimizga tegishli qimmatli fikrlar keltirilgan. O‘quvchilar ushbu fikrlarni o‘qib, munosabat bildirishlari lozim.

Muhokama

Adiblarimizning adabiyot, yozuvchilik haqida bildirgan fikrlari yuzasidan savol-javob asosida suhbat tashkil qilinadi. Ushbu savollarga o‘quvchilar o‘z shaxsiy kuzatishlari asosida mustaqil fikrlab, erkin javob berishlari mumkin.

Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarning fikrini to‘ldirib, adabiyot fani bilan bog‘liq misollar orqali tushuntirib berishi maqsadga muvofiq.

Leksikologiya

Birinchi va ikkinchi fikrlar tarkibida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini aniqlab, ma’nodosh so‘zlar qatorini hosil qiling. Fikrda nima uchun aynan shu so‘zdan foydalanilganini tushuntiring.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarga bir so‘zning turli ma’nolari bo‘lishi hamda ular kontekstda kelishiga qarab farqlanishini tushuntirishga qaratilgan.

O‘quvchilar yuqorida keltirilgan yozuvchilarimizning fiklarida ajratib ko‘rsatilgan birliklarni aniqlab, ularning ma’nosiga mos so‘zlarni tanlab, ma’nodosh so‘zlar qatorini yozishlari kerak. So‘ngra yozuvchi nima maqsadda o‘sha birlikdan foydalanganini tushuntirib berishlari so‘raladi.

Javob: taraqqiy – rivoj, ravnaq; adib – yozuvchi; oxiri – adoq, nihoya, pirovard, intiho; lekin – ammo, biroq; kuch – quvvat, darmon, mador, majol; sarf qilmoq – xarajat qilmoq, chiqim qilmoq, ishlatmoq.

Sintaksis

Har bir ma’nodosh so‘zlar qatoridan bittadan so‘z tanlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Bu topshiriq o‘quvchilarda so‘zning ma’nosiga mos kontekst tuza olish ko‘nikmasini shakllantiradi. O‘quvchilar yuqorida guruhlab yozgan ma’nodosh so‘zlaridan ixtiyoriy bittasini tanlab, u qatnashgan gap yozishlari lozim.

Leksikologiya

Odil Yoqubovning fikridan o‘z ma’nodoshiga ega bo‘lgan so‘zlarni aniqlang, ularning ma’nodoshlarini yozing.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning so‘z boyligini tekshirish hamda ma’nodosh so‘zlar qatorini hosil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarga yozuvchining fikrini qayta o‘qib, uning tarkibidan ma’nodosh so‘zni aniqlab, ma’nodoshlarini yozishlari aytiladi.

Buni o‘qituvchi bir so‘z misolida tushuntirib berishi maqsadga muvofiq. *Masalan, yozuvchining gapi “odamlarni” deb boshlangan, mana shu birgina so‘zning qancha ma’nosi bor? Odam – kishi, inson, shaxs… bir qancha ma’nodoshlarini* keltirishimiz mumkin.

Qoida. Uslub. Badiiy uslub

Badiiy uslub va uning o‘ziga xos til birliklari haqida nazariy ma’lumot beriladi.

Uslub. Badiiy uslub

Quyidagi parchada ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’no nozikliklariga diqqat qiling. Ushbu so‘z va birikmalarning qaysilari o‘z ma’nosida, qaysilari ko‘chma ma’noda qo‘llanayotganini aniqlang va yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirish bilan birga badiiy uslubga xos bo‘lgan til birliklari haqida tushuncha hosil qilishiga qaratilgan.

O‘quvchilarga matnni o‘qib chiqib, ajratib ko‘rsatilgan birliklar haqida munosabat bildirishlari aytiladi. Ularning fikri tinglangach, ushbu matnda badiiylikni yuzaga chiqargan til birliklariga o‘qituvchi tomonidan umumiy izoh berilib, tushuntirilishi maqsadga muvofiq.

Uyga vazifa

Uslub. Badiiy uslub

Quyidagi parchani ko‘chiring. Undagi badiiy tasvirni ifodalashga xizmat qilayotgan birliklarni aniqlang, shunday so‘z va birikmalarning tagiga chizing.

Ushbu topshiriq matnni lingvistik tahlil qilish, badiiy uslubga xos bo‘lgan til birliklarini aniqlashga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan parchani o‘qib, undagi badiiy tasvirni ifodalashga xizmat qilayotgan birliklarni aniqlab olishlari lozim.

Bunda o‘quvchilarga parchadagi *yuz, ko‘z, so‘z tasvirlangan* o‘rinlarga alohida e’tibor qaratishlari aytiladi.

2-soat

Quyidagi parchani ko'chiring. Undagi badiiy tasvirni ifodalashga xizmat qilayotgan birliklarni aniqlang, shunday so'z va birikmalarning tagiga chizing.



Zebining yuzini shu tobda butun qish ichi to'planib qolgan horg'inlikning asarlari egallagan edi. Uning ikkala yuzi, ayniqsa, ko'rpaning katta-katta qavig'iga tikilgan andishalik ko'zlari hovur bosgan oynakning betiga o'xshardi. Aksincha, Saltining yuzlari charaqlagan yulduzday, sernash'a, quvnoq va har qanday andishadan yiroq bo'lib, ko'nglining chuqur burchaklaridan chiqib kelgan sevinch to'lqinlarini aks ettirardi. Shu uchun u Zebining so'ng so'zlaridagi og'ir ma'yuslikni payqay olmadi. Uning ko'zlari Zebida bo'lsa ham, nazarlari boshqa yoqlarda edi.

Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidan

"O'TKAN KUNLAR" YOZILGAN XONA...

Dadamning ijodxonalari o'n ikki yog'ochli, oqlangan, kungay, alohida tinch **uy** bo'lib, eshik, deraza, shift (toqi)lari och havorangga bo'yalgan, tokchalariga xitoyi ko'ra, lagan, samovar, choynak, guldor patnislar qator-qator **qo'yi**lgan; kosa, piyola, taqsimchalar qavat-qavat terilgan; taxmonlarga xonatlas ko'rpa, ko'rpacha, paryostiqlar taxlangan; uzun devorga gilam qoqilgan; yerga to'shalgan bo'yra ustidan katta guldor gilam **yoz**ilgan uy edi.



Dars jarayoni

Kirish

Yozuvchi Abdulla Qodiriy haqida nimalarni bilasiz? Uning qaysi asarlarini o'qigansiz?

Asosiy qism

O'qib tushunish

Matn: "O'tkan kunlar" yozilgan xona".
Muallif: Habibulla Qodiriy

Muhokama

Asar matni yuzasidan berilgan savollar o'quvchilarning shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishiga qaratilgan bo'lib, ulardan erkin fikrlab javob berish talab qilinadi.

O'quvchilar adabiyot darslarida yozuvchi, uning millatimiz hayotida tutgan o'rni, asarlari haqidagi tasavvurlarini farzandi yozib qoldirgan xotiralari bilan taqqoslab, o'z qarashlarini aytib bera olishlari kerak.

Sintaksis

Matndan ajratib olingan quyidagi qismlarga e'tibor bering. Bu so'z va jumlalar Abdulla Qodiriy haqida nimalarni "aytyapti". Izohlashga harakat qiling.

Mazkur topshiriq berilgan ma'lumotlarni tushunish, u orqali muallif nima demoqchi ekanini izohlab yozishga qaratilgan. O'quvchilar berilgan jumlalarni o'qib, har bir jumlani matn mazmuni hamda yozuvchi haqidagi bilimlari asosida izohlab yozishlari lozim.

Bu jarayonda matndan foydalanish mumkin. Asosiy e'tibor berilgan jumlani tushunishga qaratiladi.

O'quvchilar topshiriqni qanday bajarish haqida tasavvur paydo qilishlari uchun o'qituvchi bir jumlani izohlab ko'rsatishi maqsadga muvofiq. *Masalan, "ijodxonalari... alohida tinch uy bo'lib..." jumlasi orqali yozuvchi ijod uchun maxsus xona, alohida vaqt ajratib, mehr bilan yozganini, bundan tashqari, tinchlikni istaganini* anglashimiz mumkin.

Leksikologiya

So'zlarni izohi bilan moslashtirib ko'chiring.

Ushbu topshiriq o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga qaratilgan. O'quvchilar birinchi ustundagi so'zlarga ikkinchi ustundan mos keluvchi

izohlarni aniqlab, yozishlari lozim. Bu jarayonda matn va lug‘atdan foydalanishlari mumkin. Asosiy e’tibor so‘z haqida tushuncha hosil qilishlariga qaratiladi.

Javob:

kungay	*quyoshga qaragan, quyosh tik tushadigan*
taqsimcha	*yassi, yuza idish; likop*
taxmon	*uy yoki ayvon devorida: sandiq o‘rnatib, ustiga o‘rin-ko‘rpa yig‘ib qo‘yiladigan tokchasimon maxsus joy*
bo‘yra	*tozalangan qamish cho‘pidan to‘qilgan to‘shama*

Uslub. Badiiy uslub

Muallif matnda Abdulla Qodiriyning ijod jarayoni bilan bog‘liq holatlarni boshqa bir holatga qiyoslab tushuntirishga harakat qilgan. Ana shunday mazmundagi jumlalarni aniqlab, yozing.

Mazkur topshiriq badiiy asarning o‘ziga xos kuchini his qilishga qaratilgan. Bunda o‘quvchilarga yozuvchining ijod jarayonidagi holati qiyoslash orqali keltirilgan parcha berilgan bo‘lib, ular ushbu parchadagi qiyoslashning ahamiyatini tushunib, munosabat bildirishlari kerak.

So‘ngra ularga matn tarkibidan qiyoslash, o‘xshatish qo‘llangan o‘rinlarni topib, ko‘chirishlari aytiladi.

Uslub. Badiiy uslub

Ushbu jumlalarda o‘xshatish-qiyoslash bilan bog‘liq qanday vositalardan foydalanilganiga e’tibor bering. Yozuvchi nima uchun bunday jumlalardan foydalanganini tushuntirishga harakat qiling.

Bu yuqoridagi topshiriqning mantiqiy davomi bo‘lib, o‘quvchilar o‘zlari aniqlab yozgan parchalarni lingvistik tahlil qilishlari lozim. Bunda o‘xshatish, qiyoslashga xizmat qilayotgan til birliklarini tushunishga alohida e’tibor qaratiladi.

O‘qituvchining o‘quvchilarga yo‘nalish berish maqsadida bir gap misolida tushuntirib berishi maqsadga muvofiq.

Leksikologiya

Matnda tagiga chizilgan so‘zlarning o‘zaklari shakldosh so‘zlar hisoblanadi. Ma’nosi matndagi so‘zning ma’nosi bilan bir xil so‘z qatnashgan gaplarni ko‘chirib yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning shakldosh so‘zlar haqida tushuncha hosil qilishlariga qaratilgan. O‘quvchilar dastlab matn tarkibidan ajratib ko‘rsatilgan birliklarni aniqlab oladilar. So‘ngra bir so‘zning ikki xil ma’nosi berilgan gaplarni o‘qib, ushbu gaplar orasidan qay biri matnda qo‘llangan mazmunga tengligini tushunib yozishlari lozim.

Masalan, matnda “yoz” so‘zi ajratilgan, quyida uning ikki ma’nosiga misol berilgan. Birinchi misolda yozmoq (harakat, fe’l), ikkinchi misolda yoz (fasl, ot)ni ifodalab kelgan. Bunda matndagi mazmuniga ko‘ra, A variantda berilgan misol olinadi, chunki matnda ham bu so‘z yozmoq – harakatni ifodalab kelgan.

Leksikologiya. Sintaksis

Matndagi tagiga chizilgan yana shunday shakldosh so‘zlar ishtirokida yuqoridagidek gaplar tuzib yozing.

Bu yuqoridagi topshiriqning mantiqiy davomi bo‘lib, o‘quvchilar *qo‘y, uch, o‘y, kun* so‘zlarining matndagi ma’nosini aniqlashi, so‘ngra ularning boshqa ma’nolarini topishi lozim. Bu jarayonda o‘quvchilarga lug‘atdan foydalanish mumkinligi aytiladi.

O‘quvchilar so‘zlarning ma’nolari haqida tushunchaga ega bo‘lganlaridan so‘ng, ularni qatnashtirib gap tuzishlari kerak. Bunda o‘quvchilardan so‘zlarning barchasiga gap tuzib yozish talab etilmaydi. Bitta so‘zni olib, uning bir nechta ma’nosiga gap tuzish mumkin. Asosiy e’tibor so‘zning ma’nosini tushunish hamda unga mos kontekst tuza olishga qaratiladi.

Uyga vazifa


Leksikologiya

Berilgan parcha bilan tanishing, unda qo‘llangan iboralar mazmunini sharhlang. O‘zingiz o‘qiyotgan badiiy asar yoki adabiyot darsligingizdan shunday iboralar ishtirok etgan gaplarni topib, yozing.

Bu topshiriq iboralarning ma’nosini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan matnni o‘qib, uning tarkibida ajratib ko‘rsatilgan iboralar ma’nosini sharhlab yozishlari, so‘ngra o‘zlariga tanish bo‘lgan badiiy asardan ibora qo‘llangan gapga misol yozib kelishlari aytiladi.

Bunda o‘quvchilar iboralar ham badiiy asar ta’sirini oshirishga xizmat qiluvchi vosita ekanini tushunishi lozim.

3-soat



Quyida berilgan izohlar “O'tkan kunlar” yozilgan xona” matnidagi qaysi so'zlarga tegishli ekanini aniqlab, yozing.

1	Og'zaki nutqni qog'ozga so'zma-so'z yozib oluvchi mutaxassis.
2	Xonaning o'rtasiga yoki chekkaroq yeriga chuqurchaga o'rnatilgan, ustiga ko'rpa yopilgan, atrofiga ko'rpachalar to'shalgan xontaxtadan iborat isinish uchun maxsus joy.
3	Bir kishi o'tirishi uchun mo'ljallangan, odatda, to'rt oyoqli oddiy moslama, o'rindiq.
4	Tasvirlanayotgan yoki ta'riflanayotgan kimsa, narsa, hodisalarni o'quvchiga yaqqol, ta'sirli qilib yetkazish uchun ularning sifatlarini orttirib, bo'rttirib ko'rsatish.

Matndan vergulning qo'llanishi bilan bog'liq quyidagi qoidalarga mos keladigan misollarni topib, yozing.

- Sanash ohangida aytiladigan bo'laklar – uyushiq bo'laklar orasida
- So'zlovchining o'z fikriga qo'shimcha munosabatini bildiradigan so'zlarni ajratish uchun
- Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar orasida

Egalik qo'shimchalari qatnashgan birikmalar bilan tanishing. Ularning qaysilari narsalarning uch shaxsdan biriga tegishliligini ifodalagan, qaysilarida esa bunday ma'no sezilmaydi? Ularni ikki ustunga ajratib yozing.

Dadamning ijodxonalari, yozuv qog'ozlari, uyning tokchalari, dadamning ijodiy ishlari, yozish sur'ati, dadamning ko'zlari, fikr to'lqinlari, dadamning kuchi, qalamning yurishi, kursi usti.

Abdulla Qahhor qalamiga mansub “Anor” hikoyasining birinchi xatboshisini o'qing.

“Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan, qalami yaktagining yengi zulfinga ilinib tirsakkacha yirtildi. Uning shashti qaytdi. Jo'xori tuyayotgan xotini uning qo'lidagi tugunchani ko'rib, kelisopni kelining ustiga qo'ya chopdi. Keli lapanglab ag'anadi, chala tuyilgan jo'xori yerga to'kildi”.

140

Dars jarayoni

Kirish

Qanday vositalar orqali badiiy asarning ta’sirchanligini oshirish mumkin? Misollar bilan tushuntiring.

Asosiy qism

Leksikologiya

Quyida berilgan izohlar “O‘tkan kunlar” yozilgan xona” matnidagi qaysi so‘zlarga tegishli ekanini aniqlab, yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish hamda matn bilan qayta ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar jadvalda berilgan izohlarni o‘qib, ushbu izohlarga mos birliklarni matndan topib yozishlari kerak.

Javob: 1. Stenograf. 2. Sandal. 3. Kursi. 4. Mubolag'a.

Punktuatsiya

Matn tarkibidan vergulning qo'llanishi bilan bog'liq quyidagi qoidalarga mos keladigan misollarni topib, yozing.

Mazkur topshiriq vergulning qanday holatlarda qo'llanishini amaliy topshiriq orqali tushunishga qaratilgan. O'quvchilar vergulning qanday holatlarda ishlatilishiga doir ma'lumot bilan tanishib, ushbu qoidaga mos tushadigan gapga bitta misol yozishlari lozim. Bunda yuqorida tanishgan matnlaridan foydalanishlari mumkin.

Morfemika

Egalik qo'shimchalari ishtirok etgan birikmalar bilan tanishing. Ularning qaysilari narsalarning uch shaxsdan biriga tegishliligini ifodalash uchun qo'llangan, qaysilarida esa bunday ma'no sezilmaydi. Ularni ikki ustunga ajratib yozing.

Ushbu topshiriq o'quvchilarning egalik qo'shimchasining qanday ma'nolarda qo'llanishini tushunishlariga qaratilgan. O'quvchilar berilgan birliklarni ma'nosiga ko'ra ikki ustunga ajratib yozishlari kerak. Buni so'zlarga so'roq berish orqali bajarishlari aytilishi va bir so'z misolida tushuntirib berilishi maqsadga muvofiq.

Javob:

Dadamning ijodxonalari, yozuv qog'ozlari, uyning tokchalari, dadamning ijodiy ishlari, dadamning ko'zlari, dadamning kuchi, qalamning yurishi, kursi usti	*Yozish sur'ati*

O'qib tushunish

Abdulla Qahhor qalamiga mansub "Anor" hikoyasining birinchi xatboshisini o'qing.

O'quvchilarga berilgan parchani o'qish aytiladi.

Muhokama

Bunda o'quvchilar asardagi parchaning mazmunini tushungan holda munosabat bildirishlari lozim. Asosiy e'tibor yozuvchi qahramonlarning holatini tasvirlash uchun qanday til birliklaridan foydalanganini tushunishga qaratiladi.


Uyga vazifa

Alohida so'zlar

G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasini o'qing. Hikoyadan undalmalar ishtirok etgan gaplarni aniqlab, ularni daftaringizga ko'chiring.

Bu topshiriq o'quvchilarning mustaqil izlanishlariga qaratilgan. O'quvchilar darslikda berilgan havola orqali yoki kitobdan hikoyani o'qishlari lozim. Asarni o'qib bo'lganlaridan so'ng, matnni lingvistik tahlil qilishlari, ya'ni undalmali gaplarni aniqlab, ko'chirishlari aytiladi. Dastlab o'quvchilar bilan undalma nima ekani haqida savol-javob tashkil qilib olish maqsadga muvofiq.

4-soat



Mazkur xatboshi qahramonlar hayotida juda ham muhim voqea sodir bo'lganidan darak berib turibdi. Yozuvchi qaysi holatlar tasviri bilan buni ifodalamoqda? Parchadagi har bir so'z va gapning ma'nosini, muhim voqeani tasvirlashdagi vazifasini izohlab bering.

G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasini o'qing. Hikoyadan undalmalar ishtirok etgan gaplarni aniqlab, ularni daftaringizga ko'chiring.

Manba uchun havola

HIKOYANING QURILISHI

Odatda kichik hikoyalar quyidagi ketma-ketlikda yoziladi.

1. Kirish: bosh qahramonlar bilan tanishuv, voqea sodir bo'layotgan joy, ob-havo va h.k.
2. Muammoning tug'ilishi: asardagi voqealarni harakatga keltirgan narsa va hodisa.
3. Voqealarning rivoji: muammo atrofida bo'lib o'tgan voqealar ketma-ketligi.
4. Kulminatsiya: hikoyaning eng ta'sirli, eng muhim qismi.
5. Yechim: hikoyaning xulosasi, voqealarning yakuni.

Yuqorida berilgan qolip asosida "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasining qurilishi haqida kichik matn yozing. O'z fikringizni misollar bilan asoslang.

Hikoya yozishga kirishing.

Hikoyaning mavzusi, g'oyasi nima?

Uning qahramonlari qanday odamlar bo'ladi?

Voqealar qanday muammo atrofida rivojlanadi?

Asarning xulosasi qanday bo'ladi?

Dars davomida hikoyaning rejasi va qoralamasini yozing.

Hikoya yozing. Uni yaqinlaringiz va sinfdoshlaringizga ko'rsating.

141

Dars jarayoni

Kirish

Hikoya yozganmisiz? U qanday qismlardan tashkil topadi?

Asosiy qism

O'qib tushunish

Mazkur topshiriqda o'quvchilarga kichik hikoyalar qanday ketma-ketlikda yozilishi haqida ma'lumot beriladi. Dastlab o'quvchilar ma'lumotlar bilan tanishib chiqib, munosabat bildirishlari kerak.

O'quvchilarning fikri tinglangach, o'qituvchi tomonidan hikoyaning qurilishi: har bir bandi bir kichik hikoya tarzida tushuntirib berilishi lozim.

Yozma nutq. Matn yaratish

Yuqorida berilgan qolip asosida "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasining qurilishi haqida kichik matn yozing. O'z fikringizni misollar bilan asoslang.

Bu topshiriq o'quvchilarning matn tuzilishini tahlil qilish hamda matn mazmuni yuzasidan munosabat bildirib, matn yaratish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

O'quvchilarga bu hikoya tanish, oldingi darsda uyga vazifa sifatida o'qib kelish berilgan edi. Bunda ular hikoya tuzilishiga ko'proq e'tibor qaratishlari kerak. O'quvchilarga berilgan yo'riqnoma bilan tanishib, matn yozishlari aytiladi.

Yozma nutq. Matn yaratish

Dars davomida hikoyaning rejasi va qoralamasini yozing.

Mazkur topshiriq o'quvchilarni egallagan bilimlari bilan hikoya yozish jarayoniga amaliy olib kirishga qaratilgan. Bunda o'quvchilar istagan mavzusini tanlab, hikoya yozishlari lozim. Dastlab ularga hikoyalar uchun reja tuzib olish aytiladi.

Uyga vazifa

Yozma nutq. Matn yaratish


Hikoya yozing. Uni yaqinlaringiz va sinfdoshlaringizga ko'rsating.

Ushbu topshiriq o'quvchilar orasidan ijodkorlarining qobiliyatini yuzaga chiqarishga qaratilgan. O'quvchilar yozgan hikoyalarining qoralamasini qayta ko'rib, kerakli o'rinlarni tuzatib, tayyor hikoya shakliga keltirishlari lozim. Bu jarayonda hikoyaning hajmi muhim emas, asosiy e'tibor mazmuniga hamda hikoyaning qurilish qoidasiga rioya qilishga qaratiladi.

OCHIQ OSMON OSTIDAGI MUZEY

Nutqiy mavzuning maqsadi: nutqiy mavzu doirasida berilgan shartli belgilarni o‘qiy olish, ularga tegishli ma’lumotni yozma ifodalash, tinglab tushunish, bir mavzu doirasidagi bir nechta ma’lumotlar manbaidan foydalanish, ularga nisbatan munosabatni ifodalash hamda tegishli xulosalar chiqara olish. *-lar* qo‘shimchasi hamda u ifodalaydigan ma’no bilan bog‘liq lingvistik bilimlarni rivojlantirish. So‘rovnoma o‘tkazish bilan bog‘liq jarayonga tayyorlanish, uni o‘tkazishga oid ko‘nikmalarni egallash.

1-soat


OCHIQ OSMON OSTIDAGI MUZEY

Bu mavzuda o‘rganamiz

• Xiva shahri va madaniy yodgorliklar • muzeylar • nomshunoslik • gap urg‘usi • omonim iboralar • tavsifiy matn yozish.

Quyidagi rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.

1. Bu muzeylardan birortasiga borganmisiz?
2. Ular haqida eshitganmisiz?
3. Nima deb o‘ylaysiz, nega bu muzeylar shunday nomlangan?
4. Nomiga qarab ularda nimalar namoyish qilinishini taxmin qila olasizmi?
5. Hududingizda qanday muzeylar bor? Ularda nimalar namoyish qilinadi?
6. Muzeylar nima uchun kerak?

Temuriylar tarixi davlat muzeyi

O‘zbekiston davlat tabiat muzeyi

143

Dars jarayoni

Kirish

Yangi nutqiy mavzu e’lon qilinadi. Ushbu mavzu doirasida nimalar haqida suhbatlashish mumkinligi haqida so‘raladi.

1. Ochiq osmon ostidagi muzey qanday bo‘ladi deb o‘ylaysiz?

2. Siz ham ochiq osmon ostidagi muzeylarda bo‘lganmisiz?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Quyidagi rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.

O‘quvchilarga rasmlarni kuzatish uchun vaqt beriladi.

Rasmlarni kuzatish, ularga xos bo‘lgan ma’lumotlar haqida gapirish, ularni tasvirlab ifodalash bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

1. Bu muzeylardan birortasiga borganmisiz?

O‘quvchilardan dastlab rasmlarda berilgan joylarning nomi, ular qayerda joylashgani so‘raladi. Shundan so‘ng bu joylarga borgan o‘quvchilar o‘z taassurotlari haqida so‘zlab berishlari mumkin.

2. Ular haqida eshitganmisiz?

So‘z navbati bu joylarga bormagan, ammo ular haqidagi ma’lumotga ega o‘quvchilarga beriladi. O‘quvchilar ushbu joylar haqida bilganlarini gapirib berishadi. So‘rash jarayonida nafaqat bu joylarning tashqi ko‘rinishiga, balki ular haqidagi tarixiy, faktik ma’lumotlarga ham tayanish kerakligi eslatiladi.

3. Nima deb o‘ylaysiz, nega bu muzeylar shunday nomlangan?

Har bir muzeyning nomiga alohida e’tibor qaratiladi, ularga nega bunday nom berilgani haqida so‘raladi.

4. Nomiga qarab ularda nimalar namoyish qilinishini taxmin qila olasizmi?


Muzey nomlariga ko‘ra ulardan qanday eksponatlar bo‘lishi mumkinligi taxmin qilinadi, ushbu muzeylarda bo‘lgan o‘quvchilar esa sayohat davomida qanday eksponatlar bilan tanishgani haqida so‘zlab beradilar.

5. Hududingizda qanday muzeylar bor? Ularda nimalar namoyish qilinadi?

O‘quvchilar o‘z hududlaridagi muzeylar haqida so‘zlab beradilar. Muzey qanday maqsadda tashkil qilingani, oxirgi marta u yerga qachon borilgani, olgan taassurotlari haqida so‘zlab berish so‘raladi.

6. Muzeylar nima uchun kerak?

Xulosaviy fikrlar aytiladi, muzey va uning ahamiyati haqida o‘quvchilardan so‘raladi.



O‘qib tushunish va yozma nutq

Quyidagi belgilarga mos keluvchi ko‘rsatmalarni yozing.

Nutqiy mavzu doirasida berilgan shartli belgilarni o‘qiy olish, ularga tegishli ma’lumotni yozma ifodalash bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

Berilgan namuna asosida belgilarga mos keluvchi ko‘rsatmalar yoziladi, ko‘rsatmalar turli shaklda ifodalanishi, ammo mazmun jihatidan bir xil, qisqa va tushunarli bo‘lishiga e’tibor berish kerakligi aytiladi.

Og‘zaki nutq

Muhokama uchun savol. Nomlash bizga nima uchun kerak? Nega narsalarga nom beramiz?

Quyidagi qo‘shimcha savollar asosida nomlash bilan bog‘liq xulosalar chiqariladi.

1. Nima uchun biz har bir narsa, shaxs yoki voqea-hodisani, joyni alohida nom bilan ataymiz?

2. Tasavvur qiling, barcha o‘quv qurollaringiz bir xil nom bilan, ya’ni “o‘quv qurollari” nomi bilan atalsa, qanday holat yuzaga keladi?

3. Oiladagi 4 nafar farzandning alohida-alohida ismi bo‘lmasa, bunda qanday qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin deb o‘ylaysiz?

4. Joylarning boshqalardan farqli nomi bo‘lmasa-chi?

Tinglab tushunish

“Dron nega “dron” deyilgan?” audiomatnini tinglang. Savollarga javob bering.

DRON NEGA “DRON” DEYILGAN?

G‘izillagan ovoz chiqaruvchi, to‘rt yoki ikkita parragi bor uchuvchi qurilmani ko‘rgan bo‘lsangiz kerak. O‘zbekistonda undan video olishda foydalanishadi. Aslida bunday qurilmalar qachon paydo bo‘lgan? Ular qachondan boshlab dron deb atala boshlagan? Hozir shu savollarga javob izlaymiz.

Ikkinchi jahon urushi paytida qiruvchi samolyotlar va zenit raketa tizimlarini boshqaruvchilar mashq qilishlari uchun maxsus uchuvchisi bo'lmagan samolyotga o'xshash qurilma o'ylab topishgan. Chunki mashq paytida ular urib tushirilar, qurilma butkul parchalanib ketar edi, bunday mashqlarda uchuvchisi bor qurilmadan foydalanish to'g'ri bo'lmadi. Uni dastlab "radio orqali boshqariladigan samolyot", "masofadan boshqariladigan samolyot" deb nomlashgan. Bu nomlar juda uzun bo'lib, aytishga qiyin edi. Inglizlar qisqartirib RPV deb atashardi, lekin ushbu qurilmani yaratgan harbiylar boshqacharoq nom berishni, bu nom jarangdor hamda esda qolarli bo'lishini xohlashdi. Ixtirochilar dron degan nomda to'xtashdi. O'sha paytlarda dronning ikkita ma'nosi bor edi – "erkak ari" hamda "barqaror ovoz".

Bilamizki, arilar oilasida uch xil arilar bo'ladi – qirolicha, ishchi arilar va ishlamaydigan arilar. Dronlar, ya'ni erkak arilar ishchi arilardan ko'ra kattaroq bo'lishgan. Ular na asal yig'ishgan, na uyani qo'riqlashgan. Dron arilar shunchaki, qirolicha arini urug'lantirishga xizmat qilgan xolos. Ularning yana bir o'ziga xos jihati shunda ediki, uyadan tashqariga uchib chiqqanlarida bir boshqaruvchiga bo'ysunishgan, o'zlarining aqliga tayanib emas, yo'lboshchining ortidan uchishgan.

Qurilmaning "dron" deb atalishiga u chiqaradigan ovoz ham sabab bo'lgan. Dron arilarning ovozi boshqalarnikidan biroz farq qilgan. Qurilmaning g'izillagan ovozi dron arilar chiqaradigan tovushni eslatib yuborgan.

Dron arilar va uchuvchisiz qurilmalarning mana shu o'xshash xususiyatlari shunday nomlanishga asos bo'lgan. Ya'ni uchuvchisiz qurilmaning o'z aqli yo'q, u radioto'lqinlarga ergashadi, hamda ovozi arining ovoziga o'xshaydi.

Shunday qilib, 1946-yilda "radio orqali boshqariladigan samolyot", "masofadan boshqariladigan samolyot" degan nomlar o'rniga "dron" nomi paydo bo'ldi, lekin bu nom o'sha paytlarda unchalik mashhur bo'lmadi. Oxirgi 15 yilda dronlardan turli sohalarda foydalanila boshlangach, bu nom juda mashhur bo'lib ketdi va uchuvchisi bo'lmagan har qanday qurilma "dron" deb atala boshladi.

1. Dronlar dastlab qanday nomlangan?

2. "Dron" nomi qanday xususiyatga asosan tanlangan?

3. Arilar va dronlar o'rtasida qanday o'xshashlik bor?

4. Nom tanlashda nimalarga e'tibor qaratilar ekan?

Matnda ochiq holatda berilgan ma'lumotlar asosida savollarga javob beriladi, o'quvchilarning nom tanlash bilan bog'liq xulosaviy fikrlari tinglanadi. Yana shunday nom tanlash bilan bog'liq ma'lumotlar bo'lsa, ular haqida qisqa suhbat uyushtirish mumkin.

Yozma nutq


Uyga vazifa

O'zingiz bilgan daryo, ko'l, qishloq, tuman yoki boshqa narsaning nomlanishi haqida kichik izlanish olib boring. Xulosalar asosida kichik matn yozing.

Bir mavzu doirasidagi bir nechta ma'lumotlar manbaidan foydalanish, ularga nisbatan munosabatni ifodalash hamda tegishli xulosalarni chiqara olish ko'nikmalari o'rgatiladi.

O'quvchilarga internet ma'lumotlari yoki qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib berilgan topshiriqni bajarish kerakligi aytiladi. Bunda bir nechta ma'lumotlar manbaidan foydalanish, ularni o'zaro qiyoslash va tegishli xulosalarni chiqarish muhimligi tushuntiriladi.

2-soat



Quyidagi belgilarga mos keluvchi ko'rsatmalarni yozing.
Masalan: "Suratga olish taqiqlanadi!" yoki "Suratga olmang!"

Muhokama uchun savol. Nomlash bizga nima uchun kerak? Nega narsalarga nom beramiz?

"Dron nega "dron" deyilgan?" audiomatnini tinglang. Savollarga javob bering.

1. Dronlar dastlab qanday nomlangan?
2. Dron degan nom qanday xususiyatga asoslanib tanlangan?
3. Arilar va dronlar o'rtasida qanday o'xshashlik bor?
4. Nom tanlashda nimalarga e'tibor qaratilar ekan?

O'zingiz bilgan daryo, ko'l, qishloq, tuman yoki boshqa narsaning nomlanishi haqida kichik izlanish olib boring. Xulosalar asosida kichik matn yozing.

1. Sizningcha, muzey deb atalishi uchun bino yopiq bo'lishi shartmi?
2. Muzey shahar deganda nimalar ko'z oldingizga keladi?

Matnni o'qing. Savollarga javob bering.

INSON HAYOTI DAVOMIDA KO'RISHI KERAK BO'LGAN SHAHAR

Xorazm — qadimgi Buyuk ipak yo'lining markazida joylashgan bo'lib, O'zbekistonning yuqori **sayyohlik salohiyati**ga ega mintaqalaridan biri hisoblanadi. Xivaning xalqaro miqyosda "Ochiq osmon ostidagi muzey shahar" deya e'tirof etilishi va YUNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilishi nafaqat Xorazm viloyati, balki mamlakatimizning jahon turizm bozoridan munosib o'rin egallashiga mustahkam zamin yaratadi.

145

Dars jarayoni

Kirish

Darsning tashkiliy qismi o'tkaziladi. Ushbu darsning umumiy mazmuni haqida ma'lumot beriladi.

1. Sizningcha, muzey deb atalishi uchun bino yopiq bo'lishi shartmi?

2. Muzey shahar deganda nimalar ko'z oldingizga keladi?

Asosiy qism

O'qib tushunish

Matnni o'qing. Savollarga javob bering.

O'quvchilar matnni o'qish jarayoniga tayyorlanadilar.

Matnni o'qib tushunish, uning mazmuniga oid savollarga javob bera olish, matn tafsilotlari haqida gapirish, unga nisbatan munosabatni ifodalay olish bilan bog'liq nutqiy ko'nikmalar rivojlantiriladi.



"Sharq gavhari" deya ta'rif beriladigan qadimiy hamda navqiron Xivani tomosha qilish uchun Xorazmga borsangiz, sayohatingizni albatta Ichan qal'adan boshlaysiz. Bu ko'hna shaharning sharqona ruhini his etish uchun uning bozorlarini, milliy hunarmandchilik saboqlari o'tkaziladigan maxsus maktablari-yu tor ko'chalarini sayr qilishingiz mumkin. Ayniqsa, noyob osoriatiqalarga boy Xiva muzeylari jahon sayyohlarini hayratga solayotgani ham haqiqat.

Xiva **muzeyi fond**ida 39 mingga yaqin eksponatlar saqlanmoqda. Ularni bir bor ko'rish uchun dunyoning turli burchaklaridan kelayotgan sayyohlar oqimi yilning to'rt faslida ham to'xtamaydi. Joriy yilning o'tgan 5 oyi davomida bu shaharga 515 ming 800 nafar, jumladan, 32 ming nafar chetellik sayyoh tashrif buyurgani fikrimiz tasdig'idir. Xizmat ko'rsatish sifatining yaxshilanishi, turli madaniy tomoshalarning uyushtirilishi natijasida xorijiy sayyohlarning viloyatda qolish davomiyligi 2012-yilda o'rtacha 1,1 sutkani tashkil etgan bo'lsa, joriy yilda 2 sutkaga yetdi. Bu esa yangi ish o'rinlari yaratilib, qo'shimcha valyuta tushumi paydo bo'ldi, savdo va xizmatlar hajmi ham ortdi deganidir.

Mutaxassislarning tahlillariga ko'ra, Xorazm viloyati turistik **ekskursiya** resurslarining zichligi hamda ular tarkibidagi **tarixiy-me'moriy obyektlar** ko'rsatkichi bo'yicha mamlakatimizda birinchi o'rinda turadi. Xorazmda neolit davridan to XIX asrgacha bo'lgan davrni qamrab olgan 254 ta madaniy meros **yodgorligi** bo'lib, ularning 18 tasi **arxeologiya**, 132 tasi **me'morchilik**, 66 tasi **haykaltaroshlik**, 6 tasi diqqatga sazovor joylar va 32 tasi **muqaddas** qadamjolardir. Ularda mamlakatimizning turli hududlaridan kelgan mohir ustalar **restavratsiya** hamda ta'mirlash ishlarini olib boryapti.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-mayda qabul qilingan "Xorazm viloyatidagi "Nurillaboy" tarixiy majmuasini **rekonstruksiya** va restavratsiya qilish to'g'risida"gi qarori asosida ushbu maskanda ham keng ko'lamli ta'mirlash ishlari olib borildi. Natijada **badiiy galereya, amfiteatr, qabullar uyi, hunarmandlar markazi**, milliy uslubdagi ovqatlanish shoxobchalarini o'z ichiga olgan ajoyib sayyohlik majmuasi bunyod etildi.

Darhaqiqat, inson hayotida sayohat qilish alohida o'ringa ega. Negaki sayohatda, birinchi navbatda, siz uchun yangilik bo'lgan o'zgacha muhitni, tabiat mo'jizalari, inson aql-u zakovati bilan bunyod etilgan qadimiy hamda zamonaviy inshootlarni ko'rasiz. Xorijliklar mehnat ta'tiliga chiqqach, albatta, biror manzilga sayohatga otlanadi. Biz esa bunga ko'p ham hafsala qilavermaymiz. Xorijiy davlatlarga borishni qo'ya turing, Xorazmda yashab, hatto, umrida bir bor Xivani borib ko'rmagan yurtdoshlarimiz bor.

Buyuk Britaniyaning yetakchi nashrlaridan biri "The Telegraph" o'zining saytida chop etgan "Har bir inson hayoti davomida ko'rishi kerak bo'lgan 35 shahar" nomli maqolada Buyuk ipak yo'li bo'ylab joylashgan jahonning qadimiy va eng go'zal shaharlari saralab olingan. Ushbu ro'yxatdan Parij, Sankt-Peterburg, Rio de Janeyro kabi shaharlar qatoridan Sharq gavhari — Xiva ham o'rin olgan. Jahon talpinayotgan bu qadim kentni O'zbekistonda yashab turib, aqalli bir bor borib ko'rmaslik mumkinmi?

Odilbek Odamboyev,
"Xalq so'zi" gazetasining 2018-yil 20-iyul sonidan

1. Jahon turizm bozori deganda nimani tushundingiz? Sayyohlik salohiyati deganda-chi?

Matnda berilgan atamalarga o'quvchilarning e'tiborini qaratish, ma'nolarini matn mazmuni hamda mavjud bilimlardan foydalagan holda izohlashga e'tibor qaratiladi.

2. Xivaning jahon turizm bozoridan mustahkam o'rin egallashiga nima sabab qilib ko'rsatilmoqda?

Matndan so'ralgan ma'lumot joylashgan qism aniqlanadi va savolga javob beriladi.

3. "Turistik ekskursiya resurslarining zichligi" deganda nima nazarda tutilmoqda?

O'quvchilar ushbu o'rinda ham matnda berilgan atamaning ma'nosini aniqlab, uni izohlashga harakat qiladilar.

4. Eng ko‘p madaniy meros obyektlari qaysi turga tegishli?


Matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida javob beriladi, o‘quvchilarning ushbu fikrga nisbatan munosabati aniqlanadi.

5. Nima deb o‘ylaysiz, nega O‘zbekistonda bo‘lsa ham, Ichan qal’ani borib ko‘rmaganlar ko‘p? Bunga qanday sabablar bo‘lishi mumkin?

O‘quvchilardan madaniy merosga nisbatan munosabat so‘raladi, insonlarning bunday joylarga sayohatga bormasliklariga nimalar sabab bo‘lishi mumkinligi haqida suhbat olib boriladi.

6. O‘zbekistonliklarning Ichan qal’aga ko‘proq borishlarini ta’minlash uchun nimalar qilish kerak deb o‘ylaysiz?

Insonlarning hayot tarzini yaxshilash, Ichan qal’a singari joylarni borib ko‘rish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bilan bog‘liq takliflar berish so‘raladi.



1. Jahon turizm bozori deganda nimani tushundingiz? Sayyohlik salohiyati deganda-chi?
2. Xivaning jahon turizm bozoridan mustahkam o‘rin egallashiga nima sabab qilib ko‘rsatilmoqda?
3. “Turistik eksursiya resurslarining zichligi” deganda nima nazarda tutilmoqda?
4. Eng ko‘p madaniy meros obyektlari qaysi turga tegishli?
5. Nima deb o‘ylaysiz, nega O‘zbekistonda bo‘lsa ham, Ichan qal’ani borib ko‘rmaganlar ko‘p? Bunga qanday sabablar bo‘lishi mumkin?
6. O‘zbekistonliklarning Ichan qal’aga ko‘proq borishlarini ta’minlash uchun nimalar qilish kerak deb o‘ylaysiz?

Muzeyga oid quyidagi so‘zlarning ma’nosini lug‘atdan toping. O‘zingiz uchun muhim deb hisoblagan so‘zlarni yozib oling.

muzey fondi	eskponat	restavratsiya	rekonstruksiya
yodgorlik	me’morchilik	muqaddas qadamjo	haykaltaroshlik
arxeologiya	galereya	amfiteatr	qabullar uyi

Bo‘sh o‘rinlarga yuqoridagi so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Yaponiyalik olim sovg‘a qilgan buyumlar evaziga ... yanada boyidi.
2. Shunday ...dan bor, ularni biror bino ichiga sig‘dirib bo‘lmaydi, shuning uchun ular ochiq osmon ostidagi eksponat bo‘lib qoladi.
3. Inson qo‘li bilan yaratilgan ... eksponatlari bilan tanishish uchun o‘ng tomonga yurishingiz kerak.
4. Tuproq ostidan topilgan buyumlarni avaylab-asrab ... muzeyiga topshirdik.
5. Ikki yuz yillik tarixga ega bo‘lgan buyumlar ... qilinishi va mutaxassislar nazorati ostida bo‘lishi zarur edi.
6. Majmuaning ... qilinishi oxirgi yillarda amalga oshirilgan eng quvonarli ishlardan biri bo‘ldi.

Matn asosida 3 ta savol tuzing. Partadoshingiz bu savollarga og‘zaki javob berishi lozim.

Uyga borib, kattalardan quyidagi savollarga javob olib, yozib keling.

147

Lug‘at bilan ishlash

Muzeyga oid quyidagi so‘zlarning ma’nosini lug‘atdan toping. O‘zingiz uchun muhim deb hisoblagan so‘zlarni yozib oling.

Lug‘at bilan ishlash ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Berilgan so‘zlarning izohini aniqlash so‘raladi, lug‘at bilan ishlashda qanday qoidalarga rioya qilish kerakligi yodga olinadi.

Bo‘sh o‘rinlarga yuqoridagi so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Izohlari aniqlangan so‘zlarni gap tarkibida qo‘llash bilan bog‘liq ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

O‘quvchilar o‘zlari aniqlagan izohlar asosida gaplarning bo‘sh o‘rinlarini to‘ldiradilar. Bunda so‘zning izohi gap ma’nosiga mos kelishiga e’tibor qaratiladi.

Og‘zaki nutq

Matn asosida 3 ta savol tuzing. Partadoshingiz bu savollarga og‘zaki javob berishi lozim.

Matn mazmunini tushunish, undagi muhim ma’lumotlarni ajrata olish va shu asosda matn uchun savollar tuzib yoza olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

O‘quvchilardan matndagi muhim ma’lumotlarni ajratib olish, ushbu ma’lumotlarni aniqlashtirishga qaratilgan savollarni tuzib, yozish so‘raladi. Boshqa o‘quvchilar esa ushbu savollarga javob berishlari kerak. Imkon qadar matnning boshqa-boshqa qismlariga e’tiborni qaratish kerakligi so‘raladi. Savollarning bir xil bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik zarur.

Yozma nutq

Uyga vazifa

Uyga borib, kattalardan quyidagi savollarga javob olib, yozib keling.

O‘quvchilarning mavzu bilan bog‘liq tasavvurlarini aniqlashtirish, nutqiy mavzu doirasida suhbat tashkillashtira olishga oid nutqiy ko‘nikmalari rivojlantiriladi.


1. Xiva shahriga, Ichan qal’aga borganmisiz? Nega?

2. Qaysi muzeyga borgansiz? Nega?

3. Tarixiy buyumlarni ko‘rganingizda qanday hislarni tuyasiz? Nimalarni o‘ylaysiz?

4. Muzeylarning bitta yaxshi va bitta yomon tomonini ayting.

3-soat



1. Xiva shahriga, Ichan qal’aga borganmisiz? Nega?
2. Qaysi muzeyga borgansiz? Nega?
3. Tarixiy buyumlarni ko‘rganingizda qanday hislarni tuyasiz? Nimalarni o‘ylaysiz?
4. Muzeylarning bitta yaxshi va bitta yomon tomonini ayting.

1. So‘rovnomaga ko‘ra, kimning oilasidagilar muzeylarga ko‘proq borishgan ekan?
2. Savolga javob so‘raganingizda kattalarda qanday munosabat bo‘ldi?

Quyidagi gaplarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni jadvalning kerakli ustuniga joylashtiring.

1. O‘zbekistonda **muzeylar** juda ham ko‘p.
2. **Dadamlar** bilan muzeyga borganimiz esimda, eksponatlarni birma-bir tanishtirgan **edilar**.
3. **Akalarim** bilan birga Ichan qal’ani aylandik. Adashib qolishimizdan juda ham qo‘rqqan edim, lekin unday bo‘lmadi.
4. Ichan qal’ani aylanar ekanman, baland **minoralar, gumbazlar,** turli xil **naqshlar**ni ko‘rib, **ko‘zlarim** qamashib ketdi. O‘zimni boshqa davrga tushib qolgandek his qildim.
5. Yozda **Xorazmlarni** aylanib kelaman, **olimlar** bilan aylanishni reja qilganman, **Karimalar** ham men bilan boradi.
6. Ichan qal’a **martlarda** yanada go‘zal bo‘lib ketadi deb eshitganman.
7. O‘tgan safar mahallamiz raisi ko‘nmagandi. Bu safar **o‘zlari** bosh bo‘lib borarmishlar.
8. Shaharga kiraverishda ajoyib do‘kon bor ekan, **do‘ppilar** sotilarkan.

Ko‘plik	Hurmat	Kesatish	Birgalik	Taxmin	Ma’no kuchaytirish	Umumlashtirish, jamlash

148

Dars jarayoni

Kirish

Darsning tashkiliy qismi o‘tkaziladi. Shundan so‘ng quyidagi savollar asosida kirish suhbati tashkillashtiriladi:

1. So‘rovnomaga ko‘ra, kimning oilasidagilar muzeylarga ko‘proq borishgan ekan?

2. Savolga javob so‘raganingizda kattalarda qanday munosabat bo‘ldi?

Asosiy qism

Morfologiya

Quyidagi gaplarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni jadvalning kerakli ustuniga joylashtiring.

-lar qo‘shimchasi hamda u ifodalaydigan ma’no bilan bog‘liq lingvistik bilimlarni rivojlantirish ustida ish olib boriladi.


Nutqiy mavzu doirasidagi gaplar o‘qib eshittiriladi, gap tarkibida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardagi ko‘plik qo‘shimchasi *-lar* ifodalayotgan ma’noni aniqlash so‘raladi. Ushbu ma’no asosida so‘zlar jadvalning kerakli ustuniga joylashtiriladi. *-lar* qo‘shimchasining vazifasi va u ifodalaydigan ma’nolar bilan bog‘liq kerakli xulosalar chiqariladi. Darslikda berilgan qoida asosida ushbu bilimlar mustahkamlanadi.

Chap va o‘ng ustunni o‘zaro qiyoslang. *-lar* qo‘shimchasi qanday vazifa bajarayotganini aniqlang.

-lar qo‘shimchasi hamda u ifodalaydigan ma’no bilan bog‘liq lingvistik bilimlarni rivojlantirish ustida ish olib boriladi.

Ikkala ustunda berilgan so‘zlar ifodalayotgan ma’no o‘zaro qiyoslanadi, ularning qaysi birida ko‘plik, qaysi birida umumlashtirish, kesatish, jamlash, taxmin, hurmat singari ma’nolar ifodalangani aniqlanadi. *Olimlar* so‘zida urg‘u va uning ahamiyati haqida so‘z boradi. Urg‘u ko‘plik qo‘shimchasi *-lar*ga tushsa, bir necha nafar olim haqida gap ketayot-

gan bo‘lishi mumkinligi, aksincha bo‘lsa, hurmat ma’nosi ifodalanayotgani haqida ma’lumot beriladi.



-lar qo‘shimchasi ko‘plikni anglatishini bilamiz: olma (bitta olma), **olmalar** (bir nechta olma). Bu **-lar** qo‘shimchasining birlamchi vazifasi bo‘lib, uning quyidagi boshqa vazifalari ham bor:

1. Hurmat. Qarindoshlik munosabatini bildiruvchi so‘zlarga qo‘shilib, hurmat ma’nosini ifodalaydi: akalarim – bir nechta aka; **akamlar** – hurmat.

2. Ma’no kuchaytirish. Faqat birlik sonda qo‘llanadigan so‘zlarga qo‘shilib, ma’noni kuchaytirishga xizmat qiladi: boshim og‘rib ketdi – bitta bosh; **boshlarim** og‘rib ketdi – bitta bosh, lekin bosh og‘rig‘ining kuchli ekani anglashilmoqda.

3. Kesatish. O‘zlik olmoshiga qo‘shilganda kesatish, mazax qilish ma’nolarini yuklaydi: o‘zi kelibdi – oddiy ma’no; **o‘zlari** kelibdilar-da – kesatish ma’nosi.

4. Birgalik. Atoqli otlarga qo‘shilib, birgalikda ekanlikni anglatadi. Sobir bilan – Sobir ismli bola bilan; Sobirlar bilan – Sobir ismli bir nechta bola emas, Sobir va uning sheriklari bilan.

5. Taxmin. Payt va masofani bildiruvchi so‘zlarga qo‘shilib, taxminni anglatadi: soat beshda – aniq besh; soat **beshlarda** – taxmin, roppa-rosa besh emas, undan sal oldin yoki sal keyin.

6. Umumlashtirish, jamlash. Atoqli otlarga qo‘shilib “unga o‘xshash kishilar” ma’nosida qo‘llanadi: Shirinning fojiasi (“Farhod va Shirin” asaridagi Shirin obrazi); **Shirinlarning** fojiasi (Shirin obrazi va unga o‘xshash boshqa ko‘plab obrazlar, odamlar).

Mahsulot nomiga qo‘shilganda **-lar** har xil turdagi narsalarni jamlab ifodalaydi: suv sotilmoqda – aynan bir turdagi suv; **suvlar** sotilmoqda – turli xil suvlar (gazli, gazsiz, shirin, rangli).

Chap va o‘ng ustunni o‘zaro qiyoslang. *-lar* **qo‘shimchasi qanday vazifa bajarayotganini aniqlang.**

akanglar	akalaring
zavqim	zavqlarim
un	unlar
Xivani	Xivalarni
olimlar	olimlar
yozning oxirida	yozning oxirlarida

Yuqoridagi qoidaning har bir bandiga mos keladigan bittadan gap tuzib, yozing. Partadoshingiz *-lar* qo‘shimchasi qaysi gapda qanday vazifa bajarayotganini topishi kerak. Qoidadagi so‘zlardan foydalanmang. Tuzilgan gaplar muzey mavzusiga aloqador bo‘lishiga diqqat qiling.

149

Yozma nutq

Yuqoridagi qoidaning har bir bandiga mos keladigan bittadan gap tuzib, yozing. Partadoshingiz *-lar* qo‘shimchasi qaysi gapda qanday vazifa bajarayotganini topishi kerak. Qoidadagi so‘zlardan foydalanmang. Tuzilgan gaplar muzey mavzusiga aloqador bo‘lishiga diqqat qiling.

-lar qo‘shimchasi va u ifodalaydigan ma’nolarni anglagan holda ushbu bilimlardan foydalana olish bilan bog‘liq ko‘nikmani rivojlantirish ustida ish olib boriladi.

O‘quvchilar yuqoridagi mashqlardan olingan bilimlar yordamida mustaqil ravishda shunday misollar topib, ushbu misollar asosida gaplar tuzib yozadilar. O‘zlari yozgan gaplarni o‘qib, izohlaydilar.

Tinglab tushunish

Audiomatnni tinglang. So‘rovnoma natijasini taqdim qilish haqida o‘z xulosalaringizni ayting.

Tinglab tushunish, tinglangan matn yuzasidan o‘z xulosalarini chiqara olish va ularni yetkaza olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

Audiomatn tinglanadi, bu jarayonga kirishishdan oldin o‘quvchilarga audiomatnni tinglab bo‘lgach, qanday topshiriqni bajarish kerakligi oldindan to‘liq tushuntirilishi kerak. O‘quvchilarga audiomatnni tinglash jarayonida topshiriq shartiga mos ravishda kerakli o‘rinlarni qayd etib borishlari tavsiya etiladi.

SO‘ROVNOMA NATIJASINI YOZISH

So‘rovnoma natijasi rasmiy uslubda yoziladigan matnlar sirasiga kiradi. Masalan, “O‘quvchilar qaysi kitobni ko‘proq o‘qishyapti?”, “O‘quvchilar nazdida eng yaxshi o‘qituvchi xislatlari” kabi mavzu tanlanadi va savollar ishlab chiqiladi. Berilgan javoblar yig‘iladi hamda tahlil qilinib, xulosaviy matn – hisobot yoziladi.

So‘rovnoma natijasi rasmiy matn bo‘lgani uchun uni yozishning o‘z qonun-qoidalari mavjud. So‘rovnoma hisoboti ham boshqa matnlar kabi uch qism – kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo‘ladi.

Kirish qismida

So‘rovnoma o‘tkazishdan maqsad, so‘rovnomaning mazmuni yoziladi. Masalan, “O‘quvchilar nazdida eng yaxshi o‘qituvchining xislatlari” so‘rovnomasining maqsadi va mazmuni quyidagicha bo‘lishi mumkin.

Ushbu so‘rovnomadan maqsad o‘quvchilar qanday xislatlari bor o‘qituvchini eng yaxshi deb o‘ylashlarini aniqlash

hamda tegishli xodimlarga bu natijani yetkazishdan iborat. So‘rovnoma uchta savoldan tashkil topgan.

1. Qaysi o‘qituvchini eng yaxshi deb bilasiz?

2. Shu o‘qituvchining qanday xislatlari sizga yoqadi?

3. Bundan ham yaxshi o‘qituvchi, sizningcha, qanday bo‘lishi kerak?

So‘rovnomada jami 60 ta o‘quvchi qatnashdi. So‘rovnomada qatnashgan o‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlari sir saqlanishi uchun ular raqam bilan ko‘rsatildi.

Asosiy qismda

To‘plangan barcha ma’lumotlarning bayoni keltiriladi. So‘rovnoma bir necha savoldan iborat bo‘lganda har bir savolning bayoni alohida xatboshidan yoziladi.

Yuqoridagi so‘rovnomaning asosiy qismi taxminan mana bunday bo‘lishi mumkin.

So‘rovnomada qatnashganlarning 20 tasi Mengliboy Ahmedovni, 32 tasi Zamira Otabekovani, 8 tasi Maftuna Ergashevani eng yaxshi o‘qituvchi deya e’tirof etdi.

Shu o‘qituvchining qanday xislatlari sizga yoqadi, deya berilgan ikkinchi savolga quyidagi javoblar olindi:

- *mehribonligi (48 ta);*
- *ko‘p narsani bilishi (51 ta);*
- *har bir savolimga erinmay javob berishi (35 ta);*
- *darsdan keyin ham biror nima so‘raganimda tushuntirib berishi (29 ta);*
- *kam yozdirishi (45 ta);*
- *beradigan savollari qiziqarli ekani (39 ta);*
- *darslikda yo‘q ma’lumotlarni ham aytib berishi (58 ta).*

Qatnashuvchilardan yana ko‘plab javoblar qabul qilingan bo‘lib, ularning soni 1–2 tadan oshmagani bois alohida ko‘rsatishni joiz topmadik.

Uchinchi savolga o‘quvchilar ko‘p o‘ylanib qolishdi hamda quyidagicha umumiy javoblarni berishdi:

- menimcha, shuning o‘zi yetarli (15 ta);
- chet tillarini bilishi (42 ta);
- yomon bahoni jurnalga qo‘ymay, to‘g‘rilashimga imkon berishi (21 ta);
- darsda mavzudan tashqariga chiqib ketmasligi (11 ta).

Xulosa qismida

So‘rovnoma o‘tkazgan odamning yig‘ilgan javoblarni umumlashtirganda qanday xulosa olgani yoziladi. Bundan tashqari, muallif o‘z xohishiga ko‘ra tavsiyalar ham berishi mumkin. Masalan, yuqoridagi so‘rovnoma natijasining xulosa qismi quyidagicha bo‘lishi mumkin.

So‘rovnoma natijasida quyidagi ma’lumotlar aniqlandi.

Maktabimizdagi Mengliboy Ahmedov, Zamira Otabekova hamda Maftuna Ergashevalar o‘quvchilar mehrini qozona olgan. Mehribonlik, o‘quvchilarning savollariga batafsil javob berish, darslikda bo‘lmagan ma’lumotlarni ham o‘quvchilarga aytib berish kabi xislatlar ularning eng yaxshi o‘qituvchi sifatida e’tirof etilishiga sabab bo‘lmoqda. Chet tillarini ham bilish, darsda mavzudan tashqariga chiqmaslik va yomon baho bilan qo‘rqitmaslik xislatlarining ham qo‘shilishi ularning o‘quvchilar nazdida yanada yaxshi o‘qituvchiga aylanishiga sabab bo‘lar ekan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, maktabning qolgan o‘qituvchilari ham Mengliboy Ahmedov, Zamira Otabekova hamda Maftuna Ergashevalarning ish tajribalarini o‘rganishini, o‘qituvchilarning chet tillarini o‘rganishi uchun sharoit yaratib berishni tavsiya qilaman.

Chiqarilgan xulosalar tinglanadi, ularga munosabat bildiriladi.

Yozma nutq

Uyga vazifa

Qo‘shnilar, boshqa bolalar, ko‘chadagi odamlar orasida quyidagi ikki savol asosida so‘rovnoma o‘tkazing. Natijalarni yozib keling.

So‘rovnoma o‘tkazish bilan bog‘liq jarayonga tayyorlanish, uni o‘tkazishga oid ko‘nikmalar egallanadi.

O‘qituvchi yana bir bor so‘rovnoma o‘tkazish tartibini o‘quvchilarga tushuntiradi, shundan so‘ng berilgan savollarning mohiyati haqida gapirib, ushbu jarayonni qanday o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Agar zarurat sezilsa, audiomatnning bosma shaklini o‘quvchilarga taqdim etish mumkin.

4-soat

Dars jarayoni

Kirish

Quyidagi savollar asosida kirish suhbati o‘tkaziladi:

1. So‘rovnoma o‘tkazishda qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?

2. Savollaringizga javob berishni istamaganlar ham bo‘ldimi? Nega bunday qilishdi deb o‘ylaysiz?

Ushbu savollarga berilgan javoblar tinglanar ekan, unda o‘quvchilar so‘rovnoma o‘tkazish jarayoni bilan endi tanishayotgani uchun qanday muammolarga duch kelganlari, o‘zlarini va so‘rovnomada ishtirok etuvchilar o‘zini qanday tutgani haqida suhbat olib boriladi. Jarayon bilan bog‘liq xulosalar chiqariladi.

Asosiy qism

Yozma nutq

O‘qituvchi avval darslikda berilgan eslatma bilan o‘quvchilarni tanishtiradi, ushbu eslatma asosida so‘rovnoma natijalarini yozish bilan bog‘liq jarayonga o‘quvchilarni tayyorlaydi.

O‘tgan darsdagi audiomatn, yuqoridagi qoidalar hamda o‘qituvchingiz tavsiyalari asosida uyda to‘plab kelgan ma’lumotlaringizni yozib bering.

So‘rovnoma o‘tkazish, uning natijalarini taqdim etish bilan bog‘liq ko‘nikmalar shakllantiriladi.

O‘quvchilar uyda to‘plab kelgan ma’lumotlari asosida so‘rovnoma natijalarini yozadilar. Darslikda berilgan eslatma hamda oldingi darsda berilgan namunadan foydalanish tavsiya etiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga til birliklarini tanlash, natijalarni turli shaklda (jadval, diagramma, chizma) ifodalash bilan bog‘liq tavsiyalarni berib turishi maqsadga muvofiq.

Leksikologiya

Uyga vazifa

Quyidagi ma’lumotni o‘qing. Undan so‘ng pastdagi iboralarning turli ma’nolarini topishga harakat qiling.

Iboralar o‘rtasidagi ma’nodoshlik haqida ma’lumot berish, ulardan foydalanishga oid nutqiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

Darslikda berilgan eslatma asosida yana bir nechta shunday misollar aniqlanadi, ular izohlanadi. Berilgan iboralarning turli ma’nolari aniqlanadi.

TEMIRYO‘LLAR

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilarda temiryo‘llar tarixi, poyezdlarning taraqqiyotdagi o‘rni haqida tasavvur hosil qilish va nutqida unga oid til birliklarini faollashtirish; yonma-yon kelgan unli va undoshlar ishtirok etgan so‘zlar; qo‘shaloq tinish belgilarining qo‘llanishi, yozma nutqda ulardan foydalanish; matnni tashkil qilgan grammatik vositalar, matn tuzilishi, uning tarkibiy qismlarini bog‘lovchi vositalarning vazifasini anglash, matn qaysi toifadagi o‘quvchiga mo‘ljallanganini, u qanday kontekstda yozilganini aniqlash, transportdan foydalanish odobi, unda qo‘llanadigan til birliklari (murojaat, iltifot)dan foydalanib dialog ko‘rinishidagi yozma yoki og‘zaki nutq tayyorlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

1-soat


TEMIRYO‘LLAR

Bu mavzuda o‘rganamiz

• temiryo‘llar tarixi, uning taraqqiyotdagi o‘rni • jamoat transportidan foydalanish odobi • qo‘shaloq tinish belgilarining qo‘llanishi • matn tuzilishi, tarkibiy qismlari • matndan ko‘zlangan maqsadni anglay olish.

VOKZAL TOSHKENT

1. Temiryo‘llardan nima maqsadda foydalanamiz?
2. “Toshkent — Samarqand yo‘nalishi”. Nima uchun so‘zlar orasiga tire (katta chiziq) qo‘yilgan?

Rasmlarga qarang va savollarga javob bering.

1

2

151

Dars jarayoni

Kirish

1. Temiryo‘llardan nima maqsadda foydalanamiz?

2. Toshkent — Samarqand yo‘nalishi. Nima uchun so‘zlar orasiga tire (katta chiziq) qo‘yilgan?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Rasmlarga qarang va savollarga javob bering.

O‘quvchilar berilgan rasmlar bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng, rasm ostidagi savollar asosida suhbat boshlanadi.

Muhokama

1. 1-rasmda “O‘zbekiston temiryo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining maxsus logotipi aks etgan. Undagi belgilar nimani anglatishi haqida o‘ylab ko‘ring.

Bu savol o‘quvchilarning berilgan tasvirni tushuna olishlariga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan logotipni tasvirlab aytib berishlari lozim. Bunda tasvirni, undagi chizmalarni o‘z tushunchalari asosida sharhlashlari mumkin. Asosiy e’tibor logotip chizmalarini tushunish hamda tasvirlashga oid til birliklaridan o‘rinli foydalana olishlariga qaratiladi.

2. 2-rasmdagi belgi nimani anglatadi? Temiryo‘llar bilan bog‘liq yana qanday belgilarni bilasiz?

Bu savol belgini tushunish, uni izohlash bilan birgalikda ushbu belgi haqida ma’lumotga ega bo‘lishga qaratilgan. O‘quvchilar mantiqan o‘ylab javob berishlari zarur. Ularning fikri tinglan-

gach, ushbu belgi haqida ma’lumot berib o‘tiladi.

Belgi – poyezd yo‘lini kesib o‘tish taqiqlanadi.

3. Siz yashaydigan hududda temiryo‘llar bormi? Ular atrofida harakatlanishda qanday qoidalarga rioya qilish kerakligi haqida bilasizmi?

Bu savol o‘quvchilarning shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishlariga qaratilgan. O‘quvchilar o‘z tushunchalari asosida fikr bildirishlari mumkin. Bunda *o‘quvchilarni ogohlikka chorlash, yo‘l qoidalariga e’tiborli bo‘lishga undash hamda nutqlarida temiryo‘llarga oid til birliklaridan foydalana olishlariga* e’tibor qaratiladi.

4. 3- va 4-rasmlarga izoh bering.


Bu savol rasmdagi holatlarni tushunib, munosabat bildirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan tasvir asosida undagi holatni izohlab berishlari lozim. O‘quvchilarga yo‘naltiruvchi savollar berib turish maqsadga muvofiq. *Masalan, “Nega bu yo‘lda mashinaning to‘xtashi mumkin emas?”, “Qarama-qarshi” yo‘nalishdagi mashinalar yo‘li nega berkitilgan?” kabi.*

5. 5-rasmdagi mashina kutilmaganda temiryo‘lda to‘xtab qolgan. Vaziyatning yechimini ayting.

Bu savol vaziyatga munosabat bildira olish hamda berilgan muammoga yechim topishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan holatni kuzatib, o‘z yechimlarini aytishlari kerak.

7. 6-rasmda qanday vaziyat tasvirlangan? Izohlang.

Bu savol berilgan holatni tushunish va unga munosabat bildira olishga qaratilgan. O‘quvchilar ushbu holatni 3-rasm bilan taqqoslab izohlashlari maqsadga muvofiq.



Yozma nutq. Matn yaratish

Rasmda berilgan vaziyatlar asosida temiryo‘l kesishmalarida harakatlanishga oid qoidalarni yozing.

Mazkur topshiriq ma’lumotlarni jamlab, hukm chiqarishga qaratilgan. O‘quvchilar yuqorida savol-javob qilgan muhokamalari asosida temiryo‘l kesishmalarida harakatlanishga oid qoida yozishlari lozim.

Masalan, poyezd harakatlanayotganda temiryo‘lni kesib o‘tish mumkin emas.

O‘qib tushunish. Orfografiya

Matnni o‘qing, matn tarkibida qo‘llangan ushbu so‘zlarning imlosiga diqqat qiling. So‘zlarni to‘g‘ri yozib, matnning muayyan qismini daftaringizga ko‘chirib oling.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning o‘qib

tushunish malakasini shakllantirish, yozma savodxonligini oshirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan matnni o‘qib, ajratib ko‘rsatilgan birliklarning qay bir to‘g‘ri yozilganini aniqlashlari lozim.

Matnda aynan bir xil so‘zlar ajratib ko‘rsatilgan. O‘quvchilar ularning imlosini o‘zlashtirgandan so‘ng, muayyan qismini ko‘chirib yozishlari kerak.

Javob: *xarid, kupe, poyezd, vagon, platskart, tatbiq.*

Muhokama

Yuqorida berilgan matn mazmuni asosida chegirmalar bilan bog‘liq ma’lumotlar quyidagi vaziyatlarning qaysilarida to‘g‘ri, qaysilarida noto‘g‘ri talqin etilganini baholang. Har bir javobingizni izohlang.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning ikkita matnni taqqoslab, munosabat bildira olish hamda vaziyatlarga baho bera olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilar berilgan vaziyatlarni o‘qib, yuqoridagi ma’lumotlarga mos kelish-kelmasligini aniqlashlari lozim. To‘g‘ri deb hisoblasalar, nima uchun to‘g‘riligini, noto‘g‘ri deb hisoblasalar, nima uchun xato ekanini izohlab aytishlari kerak.

Javob: *1-to‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri, 4-to‘g‘ri, 5-to‘g‘ri.*

Uyga vazifa

Yozma nutq. Orfografiya

Berilgan matnni o‘qing. Poyezd va uning harakatini yana nimalarga o‘xshatish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring. Yonma-yon kelgan unli va undoshlarni aniqlab yozing. Ularni talaffuz qiling. Talaffuz va imlodagi nomuvofiqlikni namunadagi kabi izohlang.

Bu topshiriq o‘quvchilarning o‘qib tushunish, matndan xulosa chiqarish, o‘xshatish, tasvirlay olish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilar berilgan matnni o‘qib, undan xulosa chiqarishlari, nima uchun poyezdga qiyoslanganini tushunishlari hamda o‘zlari poyezd va uning harakatiga mos o‘xshatish topib, uni izohlashlari lozim. *Masalan, to‘xtamay o‘tib ketgan poyezd – vaqtga, sekin harakatlangan poyezd – og‘ir-vazmin odamlarga, poyezdning bir-birga ulangan vagonlari – do‘stlik rishtalariga... o‘xshashi kabi qiyoslar topib, izohlashlari aytiladi.*

So‘ngra berilgan matndan yonma-yon kelgan unli va undosh tovushlarni aniqlab, ularni talaffuzi va imlodagi nomuvofiqligini namunadagi kabi izohlashlari lozim.

Javob: *vaqt – vaxt, soat – soot, band – bant.*

2-soat


Temiryo‘l kesishmalarida harakatlanishga oid qoidalar bilan tanishing. Berilgan rasmlar qaysi izoh bilan mos kelishini aniqlang va yozing.

1. Kesishmadan keyin hosil bo‘lgan **tirbandlik** tufayli haydovchi kesishmada to‘xtashga majbur bo‘ladigan hollarda kesishmaga kirish taqiqlanadi.

2. **Shlagbaum** holatidan qat’i nazar, **svetofor**ning taqiqlovchi ishorasida kesishmaga kirish taqiqlanadi.

3. Kesishma navbatchisining taqiqlovchi ishorasida (navbatchi haydovchilarga oldi yoki orqasi bilan turgan holda tayoqchani, qizil chiroq yoki bayroqchani yuqoriga ko‘tarsa yoki qo‘llarini yonga uzatsa) kesishmaga kirish taqiqlanadi.

4. Kesishma oldida turgan **transport** vositalarini qarama-qarshi harakatlanish bo‘lagiga chiqib, aylanib o‘tish taqiqlanadi.

5. Kesishma orqali harakatlanish taqiqlangan hollarda haydovchi to‘xtash chizig‘i hamda svetofor bo‘lmagan paytda shlagbaumga kamida 5 **metr** qolganda to‘xtashi kerak.

6. Svetofor ishorasidan qat’i nazar, shlagbaum yopiq turgan yoki yopila boshlagan holatda, kesishmani to‘suvchi qurilma ko‘tarilib turgan yoki ko‘tarila boshlagan holatda temiryo‘l kesishmasiga kirish taqiqlanadi.

Berilgan izohlar va belgilar qaysi atamalar bilan bog‘liq ekanini aniqlang va yozing.

Poyezd qatnovi uchun o‘rnatilgan bitta izga ega bo‘lgan temiryo‘l.

Yo‘lning poyezd, mashina o‘tadigan joylarida qatnovni to‘xtatib qo‘yish uchun xizmat qiladigan, qo‘lda yoki avtomatik boshqariladigan ko‘tarma g‘ov yoki to‘siq.

155

Dars jarayoni

Kirish

Qanday yo‘l qoidalarini bilasiz? Ularga amal qilasizmi?

Asosiy qism

Yozma nutq. Matn yaratish

Temiryo‘l kesishmalarida harakatlanishga oid qoidalar bilan tanishing. Berilgan rasmlar qaysi izoh bilan mos kelishini aniqlang va yozing.

Mazkur topshiriq berilgan izohlarni o‘qib tushungan holda tasvirdagi holat bilan moslashtira olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan izohlarni o‘qib, qaysi holat bilan mos kelishini aytib bera olishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor chizma bilan ma’lumotni to‘g‘ri bog‘lay olishlari hamda u haqida ma’lumotga ega bo‘lishlariga qaratiladi.

Javob:

*1 – kesishmadan keyin hosil bo‘lgan **tirband**lik tufayli haydovchi kesishmada to‘xtashga majbur bo‘ladigan hollarda kesishmaga kirish taqiqlanadi.*


2 – kesishma navbatchisining taqiqlovchi ishorasida (navbatchi haydovchilarga oldi yoki orqasi bilan turgan tayoqchani, qizil chiroq yoki bayroqchani yuqoriga ko‘tarib tursa yoki qo‘llarini yonga uzatsa) kesishmaga kirish taqiqlanadi.

*3 – **shlagbaum** holatidan qat’i nazar, **svetofor**ning taqiqlovchi ishorasida kesishmaga kirish taqiqlanadi.*

*4 – kesishma orqali harakatlanish taqiqlangan hollarda haydovchi to‘xtash chizig‘i hamda svetofor bo‘lmagan paytda shlagbaumga kamida 5 **metr** qolganda to‘xtashi kerak.*

5 – svetofor ishorasidan qat’i nazar, shlagbaum yopiq turgan yoki yopila boshlagan holatda, kesishmani to‘suvchi qurilma ko‘tarilib turgan yoki ko‘tarila boshlagan holatda temiryo‘l kesishmasiga kirish taqiqlanadi.

*6 – kesishma oldida turgan **transport** vositalarini qarama-qarshi harakatlanish bo‘lagiga chiqib aylanib o‘tish taqiqlanadi.*


Avtomobil va temiryo'lning bir tekislikdagi kesishishi.

Poyezd qatnovi uchun o'rnatilgan ko'p izga ega bo'lgan temiryo'l.

1 2 3 4

Quyidagi so'zlarni talaffuz qiling. Berilgan variantlardan qaysisi to'g'riligini aniqlang va yozing. So'zlarning ma'nosini og'zaki izohlang. Qaysi so'zlarning o'zbek tilida muqobili bor?

avtomagistral	avto'magistral	relis	rels
shlagbaun	shlagbaum	platforma	platfo'rma
svetafo'r	svetofor	inspektor	inspektr
metr	metir	avtobus	aftobus
trotuar	trotuvar	transport	transpo'rt

Yuqoridagi so'zlar qaysi tillardan o'zlashganini lug'at yordamida aniqlang va yozing. Boshqa tildan o'zlashgan yana qanday so'zlarni bilasiz?

Temiryo'lda harakatlanishga oid belgilar bilan tanishing. Ular yordamida tengdoshlaringiz uchun qoidalar yozing.

1. Olim nima bilan shug'ullanadi?
2. Olimning katta yoki kichigi bo'ladimi? Javobingizni izohlang.

156

Leksikologiya

Berilgan izohlar va belgilar qaysi atamalar bilan bog‘liq ekanini aniqlang va yozing.

Bu topshiriq tasvir va izohni moslashtira olish, belgilar haqida tushuncha hosil qilishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan izohlarni o‘qib, qaysi belgiga tegishli ekanini aniqlab, ko‘chirib yozishlari lozim.

Javob:

1 – poyezd qatnovi uchun o‘rnatilgan

ko‘p izga ega bo‘lgan temiryo‘l.

2 – poyezd qatnovi uchun o‘rnatilgan bitta izga ega bo‘lgan temiryo‘l.

3 – avtomobil va temiryo‘lning bir tekislikdagi kesishishi.

4 – yo‘lning poyezd, mashina o‘tadigan joylarida qatnovni to‘xtatib qo‘yish uchun xizmat qiladigan, qo‘lda yoki avtomatik boshqariladigan ko‘tarma g‘ov yoki to‘siq.

Orfoepiya. Leksikografiya

Quyidagi so‘zlarni talaffuz qiling. Berilgan variantlardan qaysisi to‘g‘riligini aniqlang va yozing. So‘zlarning ma’nosini og‘zaki izohlang. Qaysi so‘zlarning o‘zbek tilida muqobili bor?

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, olinma so‘zlar imlosi va talaffuzini o‘zlashtirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan so‘zlarni o‘qib, to‘g‘ri yozilgan so‘zlarni aniqlashi lozim.

O‘quvchilar yozib bo‘lgach, so‘zlarning to‘g‘ri varianti xattaxtaga yoziladi hamda har bir o‘quvchiga talaffuz qildirib, izohi so‘raladi. So‘ngra har bir o‘quvchi ushbu o‘zlashgan so‘zlar o‘rniga o‘zbek tilida muqobil variant taklif qilishlari kerak.

Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilar talaffuzini tuzatib, fikrlarini to‘ldirib, so‘z ma’nolarini to‘g‘ri izohlab ketishi maqsadga muvofiq.

Javob:

avtomagistral – tez harakatlanadigan ko‘p sonli avtotransportga mo‘ljallangan, qarama-qarshi harakat qatorlari o‘rtasiga chegara qo‘yilgan, boshqa yo‘llar bilan bevosita kesishmaydigan uzun va keng yo‘l;

shlagbaum – yo‘lning poyezd, mashina o‘tadigan joylarida qatnovni to‘xtatib qo‘yish uchun xizmat qiladigan, qo‘lda yoki avtomatik boshqariladigan ko‘tarma g‘ov, to‘siq;

rels – temiryo‘l transporti, tramvay, ko‘tarma kran yuradigan po‘lat iz;

platforma – temiryo‘l stansiyalarida passajirlarning poyezdga chiqish yoki tushishi, yuk tushirish yoki ortish uchun temiryo‘lga nisbatan balandroq qilib ishlangan uzun sahn, maydoncha;

svetofor – piyodalar va transport vositalarining ko‘chada, yo‘lda va temiryo‘ldan o‘tish joylaridagi harakatini hamda temiryo‘l transporti qatnovini tartibga solishda ishlatiladigan va yorug‘lik signali (asosan 3 rangda) beradigan elektr qurilma;

inspektor – muayyan sohaga qarashli organ va shaxslar faoliyatining to‘g‘riligini yoki mavjud qonunlarning amalga oshirilishini nazorat qiluvchi mansabdor shaxs;

metr – metrik o‘lchovlar sistemasida: 100 santimetrga teng uzunlik o‘lchov birligi;

avtobus – yo‘lovchi tashiydigan ko‘p o‘rinli katta avtomobil;

trotuar – ko‘chaning chekkasida, qatnov yo‘li bilan uylar o‘rtasida piyodalar uchun qurilgan yo‘lka;

transport – xalq xo‘jaligining yuk va passajirlar tashish bilan shug‘ullanuvchi tarmog‘i va uning vositalari.

Leksikografiya.

Yuqoridagi so‘zlar qaysi tillardan o‘zlashganini lug‘at yordamida aniqlang va yozing. Boshqa tildan o‘zlashgan yana qanday so‘zlarni bilasiz?

Ushbu topshiriq yuqorida berilgan so‘zlarning ma’nosi bilan tanishish, tushuncha hosil qilish hamda lug‘at bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan so‘zlarni lug‘atdan aniqlab, qaysi tildan o‘zlashganini yozishlari hamda nutqimizdagi

yana boshqa o‘zlashgan so‘zlarga misollar topishlari lozim.

Uyga vazifa

Yozma nutq. Matn yaratish

Temiryo‘lda harakatlanishga oid belgilar bilan tanishing. Ular yordamida tengdoshlaringiz uchun qoidalar yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning mustaqil izlanib, ijodiy yondashishlarini talab qiladi. O‘quvchilar kitob, gazeta, jurnal, ijtimoiy tarmoqlardan temiryo‘llarga oid belgilarni topib, ma’nosini tushungan holda tengdoshlari uchun qoida yozishlari kerak. Bunda dars davomida o‘tilgan belgilardan foydalanishlari ham mumkin. Asosiy e’tibor belgilarni tushunish, u orqali axborot yetkaza olishga qaratiladi.

3-soat



Matnni o‘qing, savollarga javob bering.

MENI KICHIK OLIM DEYISHADI

Assalomu alaykum, do‘stim! Ahvollaringiz qalay?! Yaxshi yuribsizmi?! Keling, tanishib olaylik. Ismim – Olimjon, 6-sinfda o‘qiyman. Men olamga mashhur, buyuklar yurti Buxoro tomondanman. Biz tomonlarni Qiziltepa deyishadi. Bu yerdan qadimda Buyuk ipak yo‘li va ko‘plab karvonlar o‘tgan. Ha, biz tomondan-chi, Zarafshon daryosi oqib o‘tadi. Aytishlaricha, ana shu daryoning ostida oltin darvoza bor emish. Undan qadimiy afsonaviy shaharga kirilarmish. Lekin bu shahar haqida hech kim aniq bir narsa deya olmaydi. Biznikiga mehmonga kelmoqchi bo‘lsangiz, Buyuk ipak yo‘lidan, katta-katta karvonlar qatnagan yo‘ldan o‘tasiz. Jizzax tog‘laridagi dovondan shundoq tushganingizdan so‘ng, mashinada bir soat yursangiz, go‘zal Samarqandga yetasiz, yo‘l ikkiga bo‘linadi, bir tomoni Samarqandga kiradi, bir tomoni esa Buxoroga. Esingizdami, haligi, sehrli qalpoqchasi bilan sarguzashtlar ko‘rsatgan Hoshimjon bor-ku, shu bolaga juda havasim keladi-da, dunyoga nomi ketgan bola. Ha, nima deyayotgan edim, Buxoro yo‘lidan to‘g‘ri yurib kelsangiz, Navoiy shahriga duch kelasiz, undan o‘tib, Qiziltepaga, o‘ngga burilib, yigirma daqiqa yursangiz, Zarafshon daryosiga yetasiz. Ko‘prikdan o‘tsangiz bas, bizning qishloq ko‘rinadi. Hoshimjon bilan men, ya’ni Olimjon boshqa-boshqa viloyatdanmiz. Shunday bo‘lsa ham, ismlarimiz bir-biriga yaqin, o‘xshab ketadi. U Hoshimjon, men esa Olimjon. Bobom meni kelajakda katta olim bo‘lsin deb ismimni Olimjon qo‘yganlar...

Nima deyatuvdim? Ha, Buyuk ipak yo‘lidan yurganingizda Jizzaxning baland-baland dovonlaridan borib tog‘ning cho‘qqisiga yetsangiz, shundoqqina boshingiz tepasida oppoq bulutlarni ko‘rasiz. Hozir bu joylar obod bo‘lib, kengayib ketgan. Bobomning aytishlaricha, bir vaqtlar bu dovondan bittagina karvon zo‘rg‘a o‘ta olgan. Hatto buyuk bobokalonlarimiz Imom Buxoriy, Imom Termiziy ham ilm izlab shu yo‘llardan o‘tgan ekanlar. Dadamning aytishlaricha, yaqin-yaqingacha bu joylarda mashinalar bir-biriga yo‘l berib, asta-sekin harakatlanar ekan. Buni qayerdan bilasan, deysizmi?! Chunki dadam mana shu yo‘ldan katta yuk mashinasini bir necha bor minib o‘tganlar. Endi esa bu yerlardan mashina tugul, vagonlar ham bemalol o‘tadi.

157

Dars jarayoni

Kirish

1. Olim nima bilan shug‘ullanadi?

2. Olimning katta yoki kichigi bo‘ladimi? Javobingizni izohlang.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Matnni o‘qing, savollarga javob bering.

Matn: ”Meni kichik olim deyishadi”.

Muallif: Otabek Quvvatov.

O‘quvchilar matnni o‘qib chiqqanlaridan so‘ng, o‘qib tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan savollar asosida suhbat boshlanadi.

Muhokama

1. Muallifning matnni yaratishdan maqsadi nima edi?

Bu savol matndan muallif maqsadini aniqlashga qaratilgan. O‘quvchilar bu savolga matn mazmunidan kelib chiqib javob berishlari lozim. O‘quvchilarning javoblari turlicha bo‘lishi mumkin. Asosiy e’tibor fikrlarni asoslab bera olishga qaratiladi.

2. Matnda Buyuk ipak yo‘li hamda Zarafshon daryosi haqida qanday ma’lumotlarni uchratdingiz?

Bu savol matnda berilgan ma’lumotlarni saralash hamda joy tasvirini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar matndan ushbu o‘rinlarni aniqlab, aytib berishlari kerak.

3. Hikoya qahramoni nima uchun o‘z so‘zi davomida Hoshimjonni yodga oldi?

Bu matnda implitsit (yashirin) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. O‘quvchilar *Olimjonning 6-sinf o‘quvchisi ekani, ayni vaqtda shu darslikda berilgan Hoshimjon bilan tanish ekani, Hoshimjon bilan tengdoshligi, ismlaridagi hamohanglik, uning olimlikka intilishini o‘ziga qiyos*

qilib olganini tushunib, aytib bera olishlari lozim.

4. Hikoya qahramoniga nima maqsadda Olimjon deb ism qo‘yishgan? Sizchi, ismingizning ma’nosi va nima uchun sizga shunday ism tanlangani haqida hech o‘ylab ko‘rganmisiz?

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. O‘quvchilar ushbu o‘rinni topib, munosabat bildirishlari zarur.

Javob: *bobosi nabirasini katta olim bo‘lsin deya niyat qilib shu ismni qo‘ygan.*

5. Olimjonning dadasi qanday kasb egasi bo‘lgan, bu inson haqida sizda qanday tasavvur uyg‘ondi?

Bu savol matnda berilgan ma’lumot orqali mulohaza qilishga qaratilgan. O‘quvchilar matnda Olimjonning *dadasi yuk mashina haydab o‘tgani haqidagi* ma’lumot orqali uning yuk tashuvchi ekanini tushunib aytishlari lozim.


6. Olimjon qanday bola? Uni ta’riflang, bunday xulosaga kelganingiz sabablarini tushuntirishga harakat qiling.

Bu savol matnda berilgan ma’lumotlar asosida xulosa qilishga qaratilgan. O‘quvchilar matn mazmunidan, Olimjonning qanday bola ekanini aniqlab, aytishlari lozim. Bunda o‘quvchilarning javoblari turlicha bo‘lishi mumkin. Asosiy e’tibor fikrlarni matn asosida izohlab berishga qaratiladi.

7. “Afrosiyob” poyezdi haqida nimalarni bilasiz?

Bu savol o‘quvchilarning shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishlariga qaratilgan. O‘quvchilar bunda poyezd haqida bilgan ma’lumotlarini aytishlari mumkin. Ularning fikri tinglangach, bu haqida qisqa ma’lumot berib o‘tiladi.

Afrosiyob – tezyurar poyezd.



Ha, aytgancha, biz tomonlarni poytaxt bilan bog‘laydigan poyezd yo‘li qurildi. Qanaqa poyezd deysizmi? “Afrosiyob”. Ko‘z ochib yumguncha yetib kelasiz. Bir minib ko‘ring, so‘zimning rostligiga ishonasiz. Endi Toshkentga shu tezyurar poyezdda boramiz. Mashinalar baland tog‘larni chumolidek aylanib o‘tgunicha poyezd ana shu qoyalarning ostidan shuvillab o‘tadi-yu bizni poytaxtga eltadi. Qanday maza!..

Otabek Quvvatov

1. Muallifning matnni yaratishdan maqsadi qanday edi?
2. Matnda Buyuk ipak yo‘li hamda Zarafshon daryosi haqida qanday ma’lumotlarni uchratdingiz?
3. Hikoya qahramoni nima uchun o‘z so‘zi davomida Hoshimjonni yodga oldi?
4. Hikoya qahramoniga nima maqsadda Olimjon deb ism qo‘yishgan? Siz-chi, ismingizning ma’nosi va nima uchun sizga shunday ism tanlangani haqida hech o‘ylab ko‘rganmisiz?
5. Olimjonning dadasi qanday kasb egasi bo‘lgan, bu inson haqida sizda qanday tasavvur uyg‘ondi?
6. Olimjon qanday bola? Uni ta’riflang, bunday xulosaga kelganingiz sabablarini tushuntirishga harakat qiling.
7. “Afrosiyob” poyezdi haqida nimalarni bilasiz?

Olimjon o‘zi haqida gapirar ekan, kitobxon bilan aloqa o‘rnatish uchun bir necha o‘rinlarda unga murojaat qiladi. Shunday mazmundagi gaplarni ko‘chiring, qanday til birliklaridan foydalanilganiga e’tibor bering.

Hikoya qahramoni haqida to‘rtta dalil va to‘rtta fikr yozing.

Masalan: *Hikoya qahramoni Olimjon 6-sinfda o‘qiydi (dalil).*

Hikoya qahramoni Olimjon juda mehmondo‘st bola (fikr).

Olimjonning qishlog‘iga borish yo‘li tasvirlangan o‘rinlarni qayta o‘qing. Unga yetib borish uchun yo‘l xaritasini chizing.

Temiryo‘llarning qanday afzalliklari borligi haqida o‘ylab ko‘ring. Ular haqida yozing.

“Meni kichik olim deyishadi” matni tarkibida tinish belgilarining qo‘shaloq holatda ishlatilishiga doir misollarni aniqlang, ularni daftaringizga ko‘chirib oling. Buning sabablarini quyida berilgan eslatma yordamida tushuntirishga harakat qiling.

158

Leksikologiya

Olimjon o‘zi haqida gapirar ekan, kitobxon bilan aloqa o‘rnatish uchun bir necha o‘rinlarda unga murojaat qiladi. Shunday mazmundagi gaplarni ko‘chiring, qanday til birliklaridan foydalanilganiga e’tibor bering.

Mazkur topshiriq matndagi murojaat birliklarini aniqlash va uning qo‘llanish holatini tushunishga qaratilgan.

O‘quvchilar matn tarkibidan o‘zlariga tegishli bo‘lgan, ya’ni murojaatni his qilgan o‘rinlarni aniqlab yozishlari hamda uning matndagi vazifasini tushuntirishlari kerak.

Javob:

- *Assalomu alaykum,* ***do‘stim!***
- ***Keling,*** *tanishib olaylik.*
- ***Esingizdami,*** *haligi, sehrli qalpoqchasi bilan sarguzashtlar ko‘rsatgan* ***Hoshimjon bor-ku,*** *shu bolaga juda havasim keladi-da, dunyoga nomi ketgan bola.*
- ***Nima deyatuvdim?*** *Ha, Buyuk*

ipak yo‘lidan yurganingizda, Jizzaxning baland-baland dovonlaridan mashinada tog‘ning cho‘qqisiga yetsangiz, shundoqqina boshingiz tepasida oppoq bulutlarni ko‘rasiz.

- *Buni qayerdan bilasan,* ***deysizmi?!***
- *Qanaqa poyezd,* ***deysizmi,*** *“Afrosiyob”. Ko‘z ochib yumguncha yetib kelasiz.* ***Bir minib ko‘ring,*** *so‘zimning rostligiga ishonasiz.*

Sintaksis

Hikoya qahramoni haqida to‘rtta dalil va to‘rtta fikr yozing.

Ushbu topshiriq matndan dalil va fikrlarni aniqlay olishga qaratilgan. O‘quvchilar matnda keltirilgan ma’lumotlar orasidan 4 ta dalil va 4 fikrni ajratib yoza olishlari lozim. So‘ng, yozgan ma’lumotlarini nima uchun dalil va nima uchun fikr deb hisoblashlarini asoslab berishlari talab etiladi.

O‘qib tushunish

Olimjonning qishlog‘iga borish yo‘li tasvirlangan o‘rinlarni qayta o‘qing. Unga yetib borish uchun yo‘l xaritasini chizing.

Ushbu topshiriq joy tasvirini tushunish hamda ma’lumotlarni chizmada ifodalashga qaratilgan. O‘quvchilar joy tasvirlangan o‘rinlarni topib, xarita chizib, ifodalashlari kerak. Xarita turli ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Asosiy e’tibor xaritani tushunarli qilib izohlab berishga qaratiladi.

Uyga vazifa


Yozma nutq. Matn yaratish

Temiryo‘llarda harakatlanishning qanday afzalliklari borligi haqida o‘ylab ko‘ring. Ular haqida yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning mustaqil izlanib, mantiqiy o‘ylashiga yo‘naltirilgan. O‘quvchilar o‘z shaxsiy kuzatishlari hamda dars davomida egallagan bilimlari asosida erkin fikrlab yozishlari lozim.

Bu jarayonda o‘qituvchi qo‘shimcha ma’lumot to‘plash uchun kerakli manbalarni aytishi maqsadga muvofiq.

4-soat


1. His-hayajon bilan aytilgan so'roq gaplar oxirida so'roq va undov belgisi ketma-ket qo'yiladi.

Axir bu yerlar muqaddas ziyoratgoh hisoblanadi, nahot shunday joyda ham o'z yomonligingni qo'ymasang?!

2. So'roq va undov gaplar kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket ikkita bir xil yoki uchta bir xil belgi qo'yilishi mumkin.

Diqqat, diqqat!!! Poyezd harakatlanishga hozirlanmoqda. Barcha yo'lovchilardan o'z joylarini egallashlarini so'raymiz.

3. So'roq va undov mazmunini bildirgan gaplarda fikr tugallanmay qolsa, mazkur belgilardan so'ng ko'p nuqta qo'yiladi.

"Poyezd ertaga qoldirilgan bo'lsa, endi nima bo'ladi?.. Axir bugun qanday bo'lmasin yetib borishim kerak", – deya bo'shashib joyiga o'tirib qoldi Nozima.

4. Muallif gapi va ko'chirma gap o'rtasida tinish belgilari ketma-ket ishlatilishi mumkin.

"Bugungi reys bilan Toshkentga yetib boraman, bezovta bo'lmang", – dedi boshlig'imiz.

Qoidada berilgan har bir holat uchun mustaqil ravishda bittadan misol topib, yozing.

"Meni kichik olim deyishadi" matni tarkibidan quyidagi jadvalga mos keluvchi misollarni aniqlang va xattaxtaga yozing.

Atoqli otlar	Sifatlar

Boshqa viloyatlik do'stingizga siz yashayotgan shahar/qishloqqa qanday kelish mumkinligini tushuntirib, xat yozishga tayyorlaning. Buning uchun avval quyidagi ma'lumotlarni aniqlab oling.

- Qayerdan qayerga?
- Qanday transport vositalarida kelish mumkin?
- Shahar yoki tuman markazidan kelish usullari
- Buning uchun qancha vaqt sarflanishi va muhim qoidalar

159

Dars jarayoni

Kirish

Tinish belgilarining gapdagi vazifasi qanday? Fikringizni izohlang.

Asosiy qism

Punktuatsiya

“Meni kichik olim deyishadi” matni tarkibida tinish belgilarining qo‘shaloq holatda ishlatilishiga doir misollarni aniqlang, ularni daftaringizga ko‘chirib oling. Buning sabablarini quyida berilgan eslatma yordamida tushuntirishga harakat qiling.

Mazkur topshiriq qo‘shtirnoqning qay holatda qanday ishlatilishi haqida ama-

liy va nazariy bilimlar orqali ma'lumotga ega bo'lishga qaratilgan. O'quvchilar berilgan matn tarkibidan qo'shaloq qo'llangan tinish belgili gaplarni topib, berilgan qoida asosida tushunib, izohlashlari lozim.

Qoida. Punktuatsiya

O'qituvchi tomonidan qoida misollar bilan sharhlab berilishi maqsadga muvofiq.

Punktuatsiya

Qoidada berilgan har bir holat uchun mustaqil ravishda bittadan misol topib yozing.

Ushbu topshiriq qo'shaloq qo'llanadigan tinish belgilari haqida o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan. O'quvchilar berilgan qoidaga mos misol topib yozishlari lozim.

Morfologiya

"Meni kichik olim deyishadi" matni tarkibidan quyidagi jadvalda berilgan so'zlarga mos keluvchi misollarni aniqlang va xattaxtaga yozing.

Mazkur topshiriq matnda berilgan so'zlarga so'roq berish orqali turkumini aniqlash hamda atoqli otlar imlosini tushunishga qaratilgan.

O'quvchilar matndan atoqli otlar va sifatlarni aniqlab, xattaxtaga yozishlari lozim.

Bunda xattaxta atoqli ot va sifatni yozish uchun alohida ustunlarga ajratiladi. O'quvchilar navbat bilan chiqib, ushbu ustunlarga bittadan misol yozishlari zarur. Jarayon o'qituvchi tomonidan kuzatilib, baholab boriladi.

Yozma nutq. Matn yaratish

Boshqa viloyatlik do'stingizga siz yashayotgan shahar/qishloqqa qanday kelish mumkinligini tushuntirib, xat yozishga tayyorlaning. Buning uchun avval quyidagi ma'lumotlarni aniqlab oling.

Ushbu topshiriq o'quvchilarning yo'nalishni tushuntirish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Bunda kattalardan so'rashlari, "google xarita"dan foydalanishlari mumkinligi aytiladi.

Yozma nutq. Matn yaratish

Ma'lumotlaringiz asosida xat yozing. Xatingiz orqali do'stingizda qiziqish uyg'otish uchun uyingiz tomon keladigan yo'lni Olimjondek tasvirlashga harakat qiling. Yo'lning tabiati, unda uchraydigan qiziqarli hodisalar haqida tasavvur hosil qiling. Bunda yuqoridagi jadvalda berilgan ma'lumotlardan foydalaning.

Mazkur topshiriq o'quvchilarning tasviriy matn yaratish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O'quvchilar yuqorida to'plagan ma'lumotlari asosida tasviriy matn yozishlari lozim. Bunda topshiriq shartida berilgan ko'rsatmalarga amal qilishlari aytiladi.

Uyga vazifa

Yozma nutq. Tahlil

Yozgan xatingizni qayta o'qib chiqing hamda tahrirlang.

Ushbu topshiriq o'quvchilarning tahlil qilish ko'nikmasini shakllantiradi. O'quvchilar o'zlari yozgan matnni o'qib kerakli o'rinlarini to'ldirib, tahrir qilishlari lozim.

Bunda *joy tasvirining ketma-ketligi, joy nomlarining imlosi, gaplarning izchil bog'lanishi, murojaat birliklaridan o'rinli foydalana olishlariga* asosiy e'tibor qaratiladi.

MUSTAHKAMLASH

Dars jarayoni

Kirish

Kimgadir xat yozganmisiz? U qanday shaklda va qanday mazmunda bo‘lgan?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Yozgan xatingizni sinfda o‘qib bering. Partadoshingizning maktubiga munosabat bildiring.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish bilan birga munosabat bildira olish, tahlil qila olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Bunda tahlil jarayonini turlicha tashkil qilish mumkin:

1. Har bir o‘quvchi ketma-ketlikda “Hayvonot bog‘iga sayohat” nomli matnini o‘qib eshittiradi, o‘tirgan o‘quvchilar sinfdoshlarining nutqini tinglab, yozgan matniga og‘zaki munosabat bildirishadi.

2. Har bir o‘quvchi o‘z partadoshi bilan daftar almashadi hamda bir-birlarining ishlarini tekshirib, munosabatini yozma ifodalab beradi.

3. O‘qituvchi tomonidan daftarlar yig‘ib olinib, qator bo‘ylab, aralash holda o‘quvchilarga tarqatiladi. O‘quvchi o‘ziga tushgan sinfdoshining matnini tahlil qilib, munosabatini yozma ifodalaydi.

O‘quvchilar munosabat bildirishda quyidagilarga e’tibor qaratishlari lozimligi aytiladi.

- *Matnda manzil aniq ko‘rsatilganmi?*
- *Tasviriy uslubga oid til birliklari qo‘llanganmi?*
- *Joylar aniq ifodalanganmi?*
- *Gaplar bir-biriga mantiqan to‘g‘ri bog‘langanmi?*
- *Matnda qo‘llangan tasviriy ifodalar tilga olingan voqea-hodisani ochib berganmi?*
- *Matn kirish, asosiy qism va xulosadan iboratmi?*

Og‘zaki nutq

“O‘zbekiston temiryo‘llari” AJ xodimlari tomonidan e’lon qilinishi kerak bo‘lgan xabar matnini o‘qing. Bunda operatorlarga xos ohang va uslubdan foydalaning.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning og‘zaki nutqini shakllantirishga qaratilgan. Berilgan matn har bir o‘quvchiga o‘qitilishi lozim. O‘quvchilardan vaziyatga moslashib, o‘qib berishlari talab qilinadi.

Bunda o‘quvchilar orasida muxbirlikka qiziqishi borlarining qobiliyatini yuzaga chiqarish maqsad qilingan.

Punktuatsiya

Tinish belgilarining qo‘shaloq holda ishlatilishiga oid misollarga e’tibor bering va ularni izohlang.

Ushbu topshiriqda o‘quvchilar mustaqil ravishda darslikda berilgan matnlardan foydalanib, qo‘shaloq qo‘llangan tinish belgilarini aniqlab, izohlab yozishlari kerak.

Qoida. Punktuatsiya

O‘quvchilarga tirening qo‘llanish holatlariga oid nazariy ma’lumot misollar bilan tushuntirib beriladi.

Uyga vazifa

Yozma nutq. Matn yaratish


Quyida berilgan qoidalar yordamida temiryo‘llarda harakatlanishni o‘rgatish bilan bog‘liq eslatma tayyorlang. Uni turli belgilar yoki rasmlar bilan boyitishingiz mumkin. Eslatma tayyorlash jarayonida quyidagi so‘zlardan foydalaning.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan ma’lumotlarni o‘qib, ular asosida eslatma yozishlari lozim. Bu jarayonda turli shakl, chizma, rasmlardan foydalanish mumkinligi aytiladi.

“BOBURNOMA” – MEMUAR ASAR

Nutqiy mavzuning maqsadi: asl matn va matnning tabdili: qo‘shimchalar, so‘z qo‘llash, so‘z ma’nolarini o‘zaro qiyoslash, ular o‘rtasidagi farqli va o‘xshash jihatlarga o‘quvchilarning diqqatini qaratish, rasmiy va badiiy uslubdagi matnlarini o‘zaro farqlash, memuar asar yozish, badiiy uslubdagi tarjimayi holdan foydalanish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni mustahkamlash ko‘nikmasini shakllantirish; ko‘chirma gap, uning ifodalanishi va imlosi, shaxs otlari, ularning so‘rog‘i va imlosi bilan bog‘liq lingvistik bilimlarni berish.

1-soat



“BOBURNOMA” – MEMUAR ASAR

Bu mavzuda o‘rganamiz

• memuar asar haqida tushuncha • Bobur siymosining tarixiy ahamiyati • joy nomlari • ko‘chirma gaplar imlosi • eskirgan so‘zlar • tabdil • shevaga oid so‘zlar • so‘z yasalishi • tarjimayi hol.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridan olingan asl matn va shu matnning tabdilini diqqat bilan o‘qing. Topshiriqlarni bajarish orqali eski turkiy til va zamonaviy o‘zbek tilining o‘xshash hamda farqli jihatlari bilan tanishing.

1 “(Andijon) ... Farg‘ona **viloyatining poytaxtidur**. Oshlig‘i vofir, **mevasi** farovon, qovun va uzumi **yaxshi bo‘lur**. Qovun mahalida **poliz boshida** qovun sotmoq rasm emas. Andijonning noshpotisidan **yaxshiroq** noshpoti bo‘lmas.

“(Andijon) ...Farg‘ona viloyatining poytaxtidir. G‘allasi mo‘l, mevasi ko‘p, qovun va uzumi yaxshi bo‘ladi. Qovun pishig‘ida poliz boshida qovun sotish urf emas. Andijonning nokidan yaxshiroq nok bo‘lmas”.

Zahiriddin Muhammad Bobur surati. 1605–1615-yillarda chizilgan, Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadi

2 “Samarqandni Iskandar bino qilg‘ondur. Mo‘g‘ul va turk ulusi Semirkand derlar. Temurbek poytaxt qilib edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug‘ podshoh Samarqandni poytaxt qilg‘on emastur. Qo‘rg‘onini faslning ustidin buyurdumkim, qadam urdilar. O‘n ming olti yuz qadam chiqdi.

“Samarqandni Iskandar qurgan. Mo‘g‘ul va turk xalqi Semirkand deb ataydilar. Temurbek (Amir Temur) poytaxt qilgan edi. Temurbekdan ilgari Temurbekday ulug‘ podshoh Samarqandni poytaxt qilgan emas. Qal’asining devori ustidan qadamlab o‘lchab chiqishni buyurdim. O‘n ming olti yuz qadam chiqdi”.

3 “Alisherbek naziri yo‘q kishi erdi. Turkiy til bila to she’r aytibturlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqon emas”.

Alisherbek o‘xshashi yo‘q kishi edi. Turkiy tilda she’r yozganlar, hech kim unchalik ko‘p va yaxshi yozgan emas.

163

Dars jarayoni

Kirish

Yangi nutqiy mavzu e’lon qilinadi. Ushbu mavzu doirasida nimalarni bilishlari haqida o‘quvchilardan so‘raladi. Asar haqidagi mavjud tasavvurlarini aniqlashtirishga qaratilgan suhbat olib boriladi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

“Boburnoma” asari matni tahlili

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridan olingan asl matn va shu matnning tabdilini diqqat bilan o‘qing. Topshiriqlarni bajarish orqali eski turkiy til va zamonaviy o‘zbek tilining o‘xshash hamda farqli jihatlari bilan tanishing.

Asl matn va matnning tabdili: qo‘shimchalar, so‘z qo‘llash, so‘z ma’nolarini o‘zaro qiyoslash, ular o‘rtasidagi farqli va o‘xshash jihatlarga o‘quvchilarning diqqati qaratiladi.

O‘qituvchi asardan olingan uchta parcha bilan o‘quvchilarni tanishtiradi. Har bir parcha tabdili bilan taqqoslanadi. Qaysi so‘zlar o‘zgarayotganiga e’tibor qaratiladi va sinfda birgalikda muhokama qilinadi.

Birinchi parchada ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning tabdilini juftlashtirib, namunadagidek yozing. Ularning qaysilarida qo‘shimchalar bilan bog‘liq o‘zgarishlar borligini aniqlang.


Ushbu parcha bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning e’tibori asosan so‘zlardagi qo‘shimchalar bilan bog‘liq o‘zgarishlarga qaratiladi. Asar yozilgan davr tili bilan bugungi kundagi qo‘shimchalar va

ularning qo‘llanishi o‘zaro taqqoslanadi. Kerakli xulosalar chiqariladi.

Berilgan parchalar tarkibidan quyidagi birikmalarning “Boburnoma”dagi shaklini aniqlang va yozing. So‘zlardagi qo‘shimchalarning qo‘llanish shakliga e’tibor bering.

Ushbu topshiriq yordamida so‘z birikmalarining tabdili qanday berilganiga e’tibor qaratiladi. Bir nechta so‘zdan tashkil topgan so‘z birikmalari tabdil qilinganda qanday qoidalarga rioya qilish kerakligi haqida so‘z boradi.

Birinchi parchadagi ayrim so‘zlarning hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi tabdili bilan tanishing.



Tabdil (“o‘zgartirish”, “almashtirish”) – hozirgi odamlar tushunishi qiyin bo‘lgan tilda (masalan, eski turkiyda) yozilgan matnni zamonaviy tilga moslashtirish.

Birinchi parchada ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning tabdilini juftlashtirib, namunadagidek yozing. Ularning qaysilarida qo‘shimchalar bilan bog‘liq o‘zgarishlar borligini aniqlang.

Namuna *poytaxtidur – poytaxtidir, ...*

Berilgan parchalar tarkibidan quyidagi birikmalarning “Boburnoma”dagi shaklini aniqlang va yozing. So‘zlardagi qo‘shimchalarning qo‘llanish shakliga e’tibor bering.

Namuna *poytaxtidir – poytaxtidur, ...*

poytaxt qilgan emas – | olti yuz qadam chiqdi – | o‘xshashi yo‘q kishi edi –

Birinchi parchadagi ayrim so‘zlarning hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi tabdili bilan tanishing.

oshlig‘i	vofir	farovon	qovun mahalida	noshpoti
g‘allasi	mo‘l	ko‘p	qovun pishig‘ida	nok

Ikkinchi parchadagi shunday so‘zlarni aniqlang va yuqoridagi jadval shaklida yozing.

“Boburnoma”da Bobur o‘z otasi Umarshayx Mirzoga bergan ta’rifini o‘qing. Parchada ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardan qaysilarining ma’nolarini bilasiz?

“...past **bo‘yluq**, **tegirma** soqolliq, **qo‘ba** yuzluk, **tanbal** kishi edi. To‘nni **bisyor** tor kiyar edi, **andog‘kim**, **bog‘** bog‘laturda qornini ichiga tortib bog‘latur edi, bog‘ bog‘lag‘ondin so‘ng o‘zini qo‘ya bersa, bisyor bo‘lur edikim, bog‘lari uzulur edi.

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar uchun berilgan izohlar bilan tanishing. Ulardan foydalanib Umarshayx Mirzo haqidagi parchaning tabdilini mustaqil yozing.

bo‘yluq – bo‘yli | tanbal – semiz (dangasa) | qo‘ba – sarg‘ish | bisyor – rosa | tegirma – yumaloq | bog‘ – belbog‘ | andog‘kim – shunchalikki

“Boburnoma”ning zamonaviy tilga tabdil etilgan shaklini o‘qishga kirishing.

“Boburnoma” asarining elektron shaklini yuklab oling.

164

Buning uchun ikkala parchani o‘zaro qiyoslash so‘raladi, birinchi parchada berilgan so‘zlar ikkinchi parchada qanday ifodalanayotgani aniqlanadi, ushbu so‘zlar ishtirokida kichik lug‘at tuzish so‘raladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tili hamda asarda qo‘llangan so‘zlar ma’nolari o‘zaro taqqoslanadi, kerakli xulosalar chiqariladi.

Ikkinchi parchadagi shunday so‘zlarni aniqlang va yuqoridagi jadval shaklida yozing.

Ikkinchi parcha bilan ham birinchi parchadagi singari ishlar olib boriladi. Ushbu parcha uchun kichik lug‘at tuzish so‘raladi.

“Boburnoma”da Bobur o‘z otasi Umarshayx Mirzoga bergan ta’rifni o‘qing. Parchada ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardan qaysilarining ma’nolarini bilasiz?

Asarda qo‘llangan so‘zlarning qaysilari bugungi kunda o‘z ma’nosini saqlab qolgani, qaysilari esa boshqa ma’noni ifodalayotgani haqida so‘raladi. Shu asosda keyingi topshiriqni bajarishga o‘tiladi.

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar uchun berilgan izohlar bilan tanishing. Ulardan foydalanib Umarshayx Mirzo haqidagi parchaning tabdilini mustaqil yozing.

O‘quvchilar oldingi topshiriqda chiqargan xulosalarini ushbu topshiriqda berilgan so‘zlarning izohlari bilan taqqoslashadi. Bugungi unda ushbu so‘zlar qanday ma’noda qo‘llanishi haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar. Matnning tabdilini yaratishda qanday qoidalarga rioya qilish kerakligi haqidagi xulosa chiqaradilar.

O‘qib tushunish

Uyga vazifa

“Boburnoma”ning zamonaviy tilga tabdil etilgan shaklini o‘qishga kirishing.

Tabdil va uni shakllantirish bilan bog‘liq xulosalar asosida matn bilan tanishiladi, undagi so‘zlar ma’nolari ustida ishlanadi.

O‘qituvchi yana bir bor dars davomida chiqarilgan xulosalarni o‘quvchilarga

eslatadi. Shu asosda matnni o‘qishga kirishish so‘raladi.

2-soat


BOBURNING SHOH ASARI

1 “Boburnoma” – kitobxon uchun go‘yo ko‘p seriali film. Bu ulug‘ ko‘zguda deyarli 50 yillik Movarounnahr, Xuroson, Hindiston va ularga yondosh mamlakatlarda kechgan voqea-hodisalar tizilishadi va kitobxon ko‘z o‘ngida namoyish etiladi.

2 Bobur – buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunos, faqih, tilshunos, san’atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida ko‘pqirrali faoliyat va ijod sohibi edi. Birgina “Boburnoma” uning yigirmadan ortiq sohalarga qiziqqaniga yaqqol misoldir.

3 Asardagi voqea-hodisalar muayyan ma’noda uning qismat sarguzashtlariga chambarchas tutashib ketgan. Shuning uchun asarni boshdan oxirigacha o‘qigan kitobxon o‘smir Boburni, yigit shahzoda Boburni, oshiq Boburni, umrbod jangovar lashkarboshi Boburni, podshoh va mutafakkir, mehribon ota Boburni barcha zafar-u mag‘lubiyatlari, fazilatlari-yu nuqsonlari bilan ravshan tasavvur eta oladi. Muallif “Boburnoma”ni yozish uchun qo‘liga qalam olgan kunidan boshlab voqea-hodisalar talqini va kishilar shaxsiyatiga doir fikr-mulohaza, ma’lumotlarning faqat rostini yozishga ahd qilgan: “Bo‘lgan voqealarni rost yozganman. Chunki bu asarda shu narsa lozim topilganki, har so‘zning rosti bitiladi va har ish aynan qanday voqe bo‘lgan bo‘lsa, shunday aytiladi”, deb yozadi u.

4 Bobur mardlikda himmati yuksak davlat arbobi edi. Hirotdan Kobulga borishda qor otning qornidan keladigan yo‘llarda o‘zi oldinga tushib qor tepib, lashkarga yo‘l ochadi. Boshqalar g‘orda qor bo‘ronidan jon saqlasalar, Bobur qorda o‘ra qazib, o‘sha yerda tong ottiradi. Shuning uchun ham “Boburnoma”ni fransuz tiliga tarjima qilgan Pave de Kurteyl Boburga quyidagicha haqqoniy baho beradi: “Bobur – har qanday



Dars jarayoni

Kirish

O‘tilgan darsdagi bilimlar yodga olinadi. Bugungi darsning umumiy mazmuni haqida ma’lumot beriladi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Matnni o‘qing, savollarga javob bering.

Matnni o‘qib tushunish, unga oid tafsilotlarni belgilay olish, matndagi muhim jihatlarga o‘quvchilar e’tibori qaratiladi.

Matn nima haqida bo‘lishi mumkinligi, nima uchun ushbu asarga shunday ta’rif berilgani haqida so‘raladi. Matnni o‘qishga kirishiladi. Matn qismlarga bo‘lingan holda o‘qiladi.

1. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?

O‘quvchilar o‘zlarida oldindan mavjud bo‘lgan bilimlar, qolaversa, matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida savolga javob beradilar.

2. Sizningcha, Boburning tarixda qilgan eng muhim ishlari qaysilar?

Bunda ham matndan olingan ma’lumotlar, shuningdek, oldindan mavjud bilimlar asosida suhbat tashkillashtiriladi. O‘quvchilar Boburga ta’rif berishda uni asoslashi yoki aytilgan ma’lumotga mos ta’rif keltirishini so‘rash lozim.

3. Nima uchun “Boburnoma” memuar asar hisoblanadi?

Memuar asar haqida ma’lumot beriladi, “Boburnoma”ning ushbu nomga mos keladigan jihatlari haqida so‘z yuritiladi. Yana qaysi asarlarni shunday nomlash mumkinligi haqida so‘raladi.

sinovga bardosh bera oluvchi, o‘zida iroda va matonatni mujassamlashtirgan shaxs. U ishning ko‘zini biladigan, qo‘shinni mohirlik bilan boshqara oladigan, ularning ishonchini qozona olgan sarkarda edi”.

Vahob Rahmonov

1. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
2. Sizningcha, Boburning tarixda qilgan eng muhim ishlari qaysilar?
3. Nima uchun Boburnoma memuar asar hisoblanadi?

Memuar (fransuzcha *memories* – xotiralar, esdaliklar) – muallifning o‘tmishda o‘zi ishtirok etgan yoki guvohi bo‘lgan voqealar haqidagi xotiralari bayon qilingan adabiy asar, yodnoma. Memuar asarda muallif tarixni imkon qadar haqqoniy yoritishga urinadi. Ko‘p hollarda bunday asarlarga tarixiy manba sifatida qaraladi.

Pave de Kurteylning Bobur haqida aytganlarini ko‘chirma gapning turli xil shakllarida ko‘chiring. Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llang.

1 Muallif gapi: “Ko‘chirma gap”.

2 Muallif gapi: “Ko‘chirma gap”, – muallif gapi.

3 “Ko‘chirma gap, – muallif gapi, – ko‘chirma gap”.

Pave de Kurteyl – deb yozgan – Bobur – har qanday sinovga bardosh bera oluvchi, o‘zida iroda va matonatni mujassamlashtirgan shaxs


166

Punktuatsiya

Pave de Kurteylning Bobur haqida aytganlarini ko‘chirma gapning turli xil shakllarida ko‘chiring. Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llang.

Ko‘chirma gap, uning ifodalanishi va imlosi bilan bog‘liq lingvistik bilimlar mustahkamlanadi.

Matndagi ushbu parchaga e’tibor qaratiladi. Ushbu fikrni ko‘chirma gapli qo‘shma gapning turli shaklida yozish so‘raladi. Bunda berilgan qoliplardan foydalanish tavsiya etiladi.



Matn asosida berilgan testlarni yeching. Javoblarni daftaringizga belgilang va izohlang.

1. Muallif nima sababdan “Boburnoma”ni ko‘p seriali filmga qiyoslagan?
A) Kitobda Movarounnahr, Xuroson, Hindistonda kechgan 50 yillik voqea-hodisalar batafsil yozilgani va o‘quvchiga juda ko‘p ma’lumot berilgani uchun
B) Kitobda Movarounnahr, Xuroson, Hindistonda kechgan 50 yillik voqea-hodisalar tizimli yozilgani va o‘quvchi ma’lumotlar bilan tizimli tanisha olgani uchun
C) Kitobda Movarounnahr, Xuroson, Hindistonda kechgan 50 yillik voqea-hodisalar tizimli aks etgani va muallif bularni o‘quvchining ko‘z o‘ngida jonlantira olgani uchun
D) Kitobda Movarounnahr, Xuroson, Hindistonda kechgan 50 yillik voqea-hodisalar tizimli aks etgani va o‘quvchi buni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgani uchun

2. “Boburnoma”da Boburning butun umr yo‘li aks etgani haqidagi xulosa matnning qaysi qismida berilgan?
A) 1-qismda
B) 2-qismda
C) 3-qismda
D) 4-qismda

3. Muallif “Boburnoma”dan olingan quyidagi fikrlarni aynan keltirishdan nimani maqsad qilgan?
Bo‘lgan voqealarni rost yozganman. Chunki bu asarda shu narsa lozim topilganki, har so‘zning rosti bitiladi va har ish aynan qanday voqe bo‘lgan bo‘lsa, shunday aytiladi.
A) Muallif ushbu parchani keltirish orqali Boburning rostg‘oyligi haqida ma’lumot bermoqchi bo‘lgan.
B) Muallif ushbu parchani keltirish orqali o‘zining Bobur haqidagi fikrlarini dalillamoqchi bo‘lgan.
C) Muallif ushbu parchani keltirish orqali “Boburnoma”ning shakli va mazmunidan o‘quvchilarni xabardor etmoqchi bo‘lgan.
D) Muallif ushbu parchani keltirish orqali o‘quvchilarni asarni o‘qishga qiziqtirishni maqsad qilgan.

Boburning quyidagi sifatlarini dalillovchi gaplarni aniqlang va yozing.

Bobur – mard odam.
Bobur – sermahsul ijodkor.
Bobur – matonatli shaxs.

Matndan “kim?” so‘rog‘iga javob bo‘luvchi shaxs otlarini aniqlang va yozing.

Namuna *kitobxon, ...*

167

O‘qib tushunish

Matn asosida berilgan testlarni yeching. Javoblarni daftaringizga belgilang va izohlang.

Matnni o‘qib tushunish, muallifning maqsadini anglash, matn qismlarini ajrata olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

Har bir test alohida muhokama qilinadi. To‘g‘ri va noto‘g‘ri deb topilgan variantlarning har biri izohlanadi.

1. C (aynan ko‘z o‘ngida jonlantirish degan jumla muallif ushbu asarni serial bilan qiyoslashiga asos bo‘lgani aytiladi).

2. C (matnning uchinchi qismida umr yo‘li bilan bog‘liq xulosaviy fikrlar keltirilgani aytiladi).

3. B (muallif nafaqat Boburning rostgo‘yligi haqida ma’lumot bergan, balki ushbu fikrlarni Boburning o‘z so‘zlari bilan dalillashga uringan).

Boburning quyidagi sifatlarini dalillovchi gaplarni aniqlang va yozing.

Ushbu topshiriq orqali o‘quvchilarning o‘qib tushunish, matnda keltirilgan ma’lumotlardan kerakli xulosalarni chiqara olish bilan bog‘liq ko‘nikmalarini rivojlantirish ustida ish olib boriladi.

Boburga berilgan har bir ta’rifga mos keluvchi jumlani matndan topish va uni daftarga ko‘chirib yozish so‘raladi.

Morfologiya

Matndan “kim?” so‘rog‘iga javob bo‘luvchi shaxs otlarini aniqlang va yozing.

Shaxs otlari, ularning so‘rog‘i va imlosi bilan bog‘liq bilimlar mustahkamlanadi.

“Kim?” so‘rog‘iga javob bo‘luvchi shaxs otlari aniqlanadi, bunda shaxs nomi va shaxs oti haqidagi ma’lumotlar yodga olinadi. Kitobxon – shaxs oti, Bobur – shaxs nomi.

Lug‘at bilan ishlash


Uyga vazifa

“Boburnoma”dan olingan parchani o‘qing. Notanish so‘zlarning izohini quyida berilgan so‘zlar ichidan toping. Shu so‘zlar yordamida lug‘at tuzish qoidalariga rioya qilgan holda lug‘at yarating. Matnning tabdilini yozing.

Tabdil va uni shakllantirish bilan bog‘liq xulosalar asosida matn bilan tanishish, undagi so‘zlar ma’nolari ustida ishlash hamda matn tabdilini mustaqil yarata olish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Berilgan jadval asosida matndagi so‘z ma’nolari aniqlanadi, shu asosda matn tabdilini yaratish so‘raladi.

3-soat



"Boburnoma"dan olingan parchani o'qing. Notanish so'zlarning izohini quyida berilgan so'zlar ichidan toping. Shu so'zlar yordamida lug'at tuzish qoidalariga rioya qilgan holda lug'at yarating. Matnning tabdilini yozing.

Temurbekning va Ulug'bek mirzoning imoroti va **bog'oti** Samarqand **mahallot**ida ko'ptur. Samarqand arkida Temurbek bir **ulug' ko'shk** solibtur, to'rt **oshyon**liq, Ko'k saroyg'a **mavsum** va mashhur va **bisyor** oliy imorattur. Yana Ohanin darvozasig'a **yovuq** qal'aning ichida bir masjidi **jum'a** solibtur, **sangin, aksar,** Hindustondin eltgan sangtaroshlar anda ish qilibturlar.

bog'lari	yaqin	aksariyat	juda, ko'p	qavatli
jome'	tosh yo'nuvchi	katta, azim, buyuk, zo'r	yuksak	ma'lum

Abdulla Qodiriyning tarjimayi holi haqida ma'lumot beruvchi ikki xil uslubdagi matnni qiyoslab o'qing.

1

1894-yilning 10-aprel kuni toshkentlik Qodir ota oilasida ikkinchi o'g'il dunyoga keldi. Unga Abdulla deb ism qo'ydilar. **Abdulla juda zehnli bola bo'ldi. Uning otasi garchi madrasada o'qimagan bo'lsa-da, ilmli kishilarni juda hurmatlar, farzandlarining ham o'qimishli, ziyoli inson bo'lishini orzu qilardi.** Shu bois o'zlari yashaydigan Samarqand darboza mahallasida yangi ochilgan rus-tuzem maktabiga o'rtancha o'g'li Abdullani berishga qaror qiladi. Chunki yosh Abdulla bundan oldin Zangiota mahallasidagi eski usuldagi maktablardan birida mulla Olim ismli o'qituvchidan saboq olgan. U **ziyrakligi, qiziquvchanligi va ilmga chanqoqligi bilan boshqalardan ajralib turardi.**

Abdulla Qodiriy madrasa talabasi, 1912-yil

1. Ushbu tarjimayi hol kimga tegishli?
2. Ajratib ko'rsatilgan gaplarni qo'llashdan maqsad nima?
3. Matnda yozuvchi bilan bog'liq qanday sifatlar borligiga e'tibor bering, ularni yozing.

2

Abdulla Qodiriy 1894-yilning 10-aprelida Toshkent shahrida dunyoga keldi. Otasi Qodir ota bog'bon bo'lgan. Abdulla oilada ikkinchi o'g'il farzand edi. U 1904–906-yillarda musulmon maktabida ta'lim oladi. Birinchi ustozi mulla Olim bo'lgan. 1908–1912-yillarda rus-tuzem maktabida o'qiydi. So'ng ta'limni Abulqosim shayx madrasasida davom ettiradi. 1925–1926-yillarda esa Moskvadagi adabiyot kursida o'qidi.

Bu matn tarkibida Abdulla Qodiriy shaxsi bilan bog'liq sifatlarning berilgan yoki berilmaganini tahlil qiling. Buning sababini tushuntiring.

168

Dars jarayoni

Kirish

Darsning tashkiliy qismi o‘tkaziladi. Tarjimayi hol, uning yozilish tartibi, undan foydalanish bilan bog‘liq suhbat tashkillashtiriladi. Quyidagi savollar bilan murojaat etiladi:

1. Tarjimayi hol haqida nimalarni bilasiz?

2. Undan qanday maqsadda foydalanish mumkin?

3. Tarjimayi hol yozish qoidalari haqida gapiring.

Asosiy qism

Nutq uslublari

Abdulla Qodiriyning tarjimayi holi haqida ma’lumot beruvchi ikki xil uslubdagi matnni qiyoslab o‘qing.

Ikki xil uslubdagi matnlarni o‘zaro qiyoslash orqali matn va uning uslubiga oid xulosalar chiqariladi.

Berilgan matnlar o‘qiladi, ularning o‘xshash tomonlari haqida so‘z boradi. Shundan so‘ng ushbu matn qaysi jihatdan farqlanishi haqida so‘raladi. Bunda “Matn nima maqsadda yaratilgan, undan qanday o‘rinlarda foydalanish mumkin?” kabi qo‘shimcha savollarni berish tavsiya etiladi. Matnda qo‘llangan so‘z va so‘z birikmalari quyidagi savollar asosida tahlil qilinadi.

1-matn uchun:

1. Ushbu tarjimayi hol kimga tegishli?

2. Ajratib ko‘rsatilgan gaplarni qo‘llashdan maqsad nima?

3. Matnda yozuvchi bilan bog‘liq qanday sifatlar borligiga e’tibor bering, ularni yozing.

2-matn uchun:

Bu matn tarkibida Abdulla Qodiriy shaxsi bilan bog‘liq sifatlarning berilgan yoki berilmaganini tahlil qiling. Buning sababini tushuntiring.

Rasmiy matn tarkibida sifat so‘z turkumiga oid so‘zlardan qanday foydalanish bilan bog‘liq xulosalar chiqariladi.

O‘quvchilar matnda qo‘llangan so‘zlarni tahlil qilishadi, sifatlarning qo‘llanishiga munosabat bildirishadi.

Har ikkala matnda keltirilgan bir xil mazmundagi ma’lumotlarning ifoda shakliga e’tibor bering. Ularning o‘zaro farqini tushuntirishga harakat qiling.


Rasmiy va badiiy uslubdagi matnlarni o‘zaro farqlash, ularda so‘z qo‘llash bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

Matnlarda keltirilgan ma’lumotlar o‘zaro qiyoslanadi. Unda so‘z qo‘llash bilan bog‘liq jihatlarga e’tibor qaratiladi. Rasmiy va badiiy uslubdagi matnlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi.

Berilgan xususiyatlarning qaysilari badiiy uslub, qaysilari rasmiy uslubdagi tarjimayi holga tegishli ekanini aniqlang. Ularni ikki ustunga ajratib yozing. Badiiy uslubdagi va rasmiy uslubdagi tarjimayi holni yozish qoidalariga oid xulosalar chiqaring.

Rasmiy va badiiy uslubdagi tarjimayi holni yaratish qoidalari bilan bog‘liq nazariy bilimlar egallanadi va xulosalar chiqariladi.

Berilgan xususiyatlarning har biri alohida tahlil qilinadi, ularga misollar keltirish so‘raladi. Ushbu misollarning qaysilari badiiy uslubdagi tarjimayi holning, qaysilari esa rasmiy uslubdagi tarjimayi holning qismi bo‘lishi mumkinligi haqida so‘raladi. Shu asosda berilgan ma’lumotlar ikki ustunga ajratiladi. Har ikkala uslubga tegishli jihatlar qanday ifodalanishi haqida ma’lumotlar beriladi. Masalan, **shaxs haqidagi ma’lumotlar ketma-ketlik asosida yozilishi,** har ikkala uslubda ham bunday ma’lumotlar ketma-ketlik asosida yozilishi mumkin, ammo bunda so‘z qo‘llash bilan bog‘liq farqlar mavjud bo‘ladi. *Tug‘ilganman, tavallud topganman* kabi birikmalar rasmiy uslubda, *dunyoga kelganman, ko‘zni quvontirib tug‘ilganman* singari birikmalar badiiy uslubda ishlatilishi haqida ma’lumot beriladi.



Har ikkala matnda keltirilgan bir xil mazmundagi ma’lumotlarning ifoda shakliga e’tibor bering. Ularning o‘zaro farqini tushuntirishga harakat qiling.

Tug‘ilishi	1894-yilning 10-aprel kuni toshkentlik Qodir ota oilasida ikkinchi o‘g‘il dunyoga keldi. Unga Abdulla deb ism qo‘ydilar.	Abdulla Qodiriy 1894-yilning 10-aprelida Toshkent shahrida dunyoga keldi.
Ta’lim olishi	Yosh Abdulla rus-tuzem maktabida tahsil olishdan oldin Zangiota mahallasidagi eski usuldagi maktablardan birida mulla Olim ismli o‘qituvchidan saboq olgan. U ziyrakligi, qiziquvchanligi va ilmga chanqoqligi bilan boshqalardan ajralib turardi.	U 1904–1906-yillarda musulmon maktabida ta’lim oladi. Birinchi ustozi mulla Olim bo‘lgan. 1908–1912-yillarda rus-tuzem maktabida o‘qiydi.

Berilgan xususiyatlarning qaysilari badiiy uslub, qaysilari rasmiy uslubdagi tarjimayi holga tegishli ekanini aniqlang. Ularni ikki ustunga ajratib yozing. Badiiy uslubdagi va rasmiy uslubdagi tarjimayi holni yozish qoidalariga oid xulosalar chiqaring.

ko‘chma ma’nodagi so‘zlar | aniq sanalar, yil, oy, kunning ifodalanishi | shaxs haqidagi ma’lumotlar ketma-ketlik asosida yozilishi | tasviriy vositalar | birinchi shaxs tilidan yozilishi (tug‘ilganman, o‘qiganman, ...) | ma’lumotlarning aniqligi | iboralardan foydalanish | muayyan qolipning mavjudligi

Quyidagi shakldosh va ko‘p ma’noli iboralarning ikki xil ma’nosi bilan tanishing. Ularni qatnashtirib o‘zingiz yaxshi biladigan qahramon yoki ijodkorning tarjimayi holi bilan bog‘liq gaplar tuzing va yozing.

Balog‘atga yetmoq.
1. Yoshi oila qurish darajasiga bormoq.
2. Biror sohada yetuk, yuksak darajaga erishmoq.

Boshidan kechmoq.
1. O‘z hayotida ko‘rmoq, his qilmoq.
2. Ma’lum bir muddat fikrlamoq.

So‘z bermoq.
1. Ahd-u paymon qilmoq.
2. So‘zlash uchun navbatni bermoq.

Izga tushmoq.
1. Zimdan butun hatti-harakatini ta’qib qilmoq, kuzatib yurmoq.
2. Turmushdagi o‘zgarishlarning odatiy holatga kelishi.

O‘ng kelmoq.
1. Qulay bo‘lmoq.
2. Voqelikka, chinga aylanmoq.

169

Yozma nutq

Quyidagi shakldosh va ko‘p ma’noli iboralarning ikki xil ma’nosi bilan tanishing. Ularni qatnashtirib o‘zingiz yaxshi biladigan qahramon yoki ijodkorning tarjimayi holi bilan bog‘liq gaplar tuzing va yozing.

Iboralar, ularning ma’nolari va qo‘llanishi bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

Berilgan iboralarning har ikkala ma’nosi bilan tanishib chiqilgach, ulardan foydalangan holda tarjimayi hol yozish so‘raladi. Iboralardan foydalangan holda tarjimayi hol yaratish haqida, bunday uslubdagi tarjimayi hollar badiiy uslubdagi tarjimayi hol sanalishi haqida aytiladi.

Leksikologiya

Uyga vazifa

Berilgan iboralarning qaysilari ikki xil mazmunni ifodalashi mumkinligini

aniqlang, ularni ikki ustunga ajratib yozing.

Iboralar, ularning ma’nolari va qo‘llanishi bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

Bunda o‘qituvchi iboralarning aynan ko‘chma ma’noda qo‘llanganidagi ikki xil ma’nosi nazarda tutilayotganini aytadi. Ya’ni iboraning ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’noda kelishi nazarda tutilmaganini aytadi. Yuqorida berilgan namunalar asosida izoh yozish so‘raladi. Iboralarning izohli lug‘atidan foydalanish tavsiya etiladi.

4-soat



Berilgan iboralarning qaysilari ikki xil mazmunni ifodalashi mumkinligini aniqlang, ularni ikki ustunga ajratib yozing.

1. Yerga qaratmoq. 2. Qattiqqo‘l bo‘lmoq. 3. Quloq solmoq. 4. Qo‘l ko‘tarmoq. 5. Havasi kelmoq. 6. Bosh suqmoq. 7. Bosh ko‘tarmoq. 8. Bahridan o‘tmoq. 9. Gapida turmoq. 10. Diliga tugmoq.

Berilgan birliklarning qaysilari rasmiy tarjimayi holga, qaysilari badiiy uslubda yozilgan tarjimayi holga tegishli ekanini aniqlab, ularni ajratib yozing.

Tug‘ilganman, o‘qiyman, oilada 4 nafar farzandmiz, opam Abdullayeva Nargiza 9-sinfda o‘qiydi, matematika va ingliz tili fani mening jon-u dilim, oilada birin-ketin 4 nafar farzand tug‘ilgan, ko‘r-ko‘rona o‘rganganman, tahsil olganman, onam uy bekasi, dunyoga kelganman, havasim kelib yurdi, ma’lumotim oliy, kasbim injener, o‘zi asli buxorolikman, ziyoli oilada tavallud topganman, qiziqishim baland bo‘lgan, hozirda oyim uy ishlari bilan band, jon-jahdim bilan o‘qiganman, otam o‘z kasbining mohir ustasi, ona tili va adabiyot fanlariga qiziqaman, ota-onamning gaplariga quloq solib kam bo‘lmadim, akam 8-sinf o‘quvchisi.

Tarjimayi hol yozish qoidalariga rioya qilgan holda badiiy va rasmiy shaklda o‘z tarjimayi holingizni yozing. Bunda yuqorida berilgan namunalardan foydalanishingiz mumkin.

Har ikkala tarjimayi holda quyidagi ma’lumotlarni berishga harakat qiling.

- Familiya, ism, otasining ismi
- Tug‘ilgan kuni, oyi, yili
- Qiziqishlari

Yashaydigan hududingiz, ko‘rgan voqea-hodisalaringiz, ajdodlaringiz hamda yaqinlaringiz haqida ma’lumot beruvchi kichik memuar asar yozing.

Dars jarayoni

Kirish

Darsning tashkiliy qismi o‘tkazilgandan so‘ng bugungi darsda yozma ish bajarilishi aytiladi.

Asosiy qism

Nutq uslublari

Berilgan birliklarning qaysilari rasmiy tarjimayi holga, qaysilari badiiy uslubda yozilgan tarjimayi holga tegishli ekanini aniqlab, ularni ajratib yozing.

Rasmiy hamda badiiy uslubdagi tarjimayi holni o‘zaro farqlash, ularda qo‘llanadigan til birliklarini ajrata olish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Berilgan birliklar ikki ustunga ajratib yoziladi, bunda qanday me’yorga asoslanilgani haqida izoh berish so‘raladi. Aynan bir xil mazmundagi ma’lumotlarning ifodalanish shakli o‘zaro qiyoslanadi.

Yozma nutq

Tarjimayi hol yozish qoidalariga rioya qilgan holda badiiy va rasmiy shaklda o‘z tarjimayi holingizni yozing. Bunda yuqorida berilgan namunalardan foydalanishingiz mumkin.

Rasmiy va badiiy uslubdagi tarjimayi holni yoza olish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

Nutqiy mavzu doirasida o‘rganilgan bilimlar asosida tarjimayi hol yozish so‘raladi. Bunda ishga kirishishdan oldin uning uslubini belgilab olish kerakligi aytiladi. Til birliklaridan foydalanish bilan bog‘liq tavsiyalar berib boriladi.

Yozma nutq

Uyga vazifa

Yashaydigan hududingiz, ko‘rgan voqea-hodisalaringiz, ajdodlaringiz hamda yaqinlaringiz haqida ma’lumot beruvchi kichik memuar asar yozing.

Memuar asar yozish, badiiy uslubdagi tarjimayi holdan foydalanish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

Memuar asar haqidagi nazariy ma’lumot yodga olinadi, dars davomida o‘rganilgan bilimlarga tayangan holda memuar asar yozish topshirig‘i beriladi.

“SHARQ TARONALARI” XALQARO MUSIQA FESTIVALI

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilarda festival tarixi, Registon maydoni, maqomchilik haqida tasavvur hosil qilish va nutqida unga oid til birliklarini faollashtirish; gap bo‘laklari, ularning ifodalanishi; ko‘pnuqta, uning qo‘llanish o‘rinlari; berilgan yo‘riqnoma asosida matn yozish ko‘nikmasini rivojlantirish.

1-soat


“SHARQ TARONALARI”
XALQARO MUSIQA FESTIVALI

Bu mavzuda o‘rganamiz

• “Sharq taronalari” festivalining madaniy ahamiyati • Registon maydoni • maqomchilik san’ati • gap bo‘laklari • ko‘p nuqta.

1. Sharq deganda dunyoning qaysi davlatlari tushuniladi?
2. Milliy kuy-qo‘shiqlarimizdan qaysi birlarini bilasiz?
3. Xalqaro deganda nimani tushunasiz?

Rasmlarga qarang. Ularda nima tasvirlangan? Qaysi festival, tadbir yoki konsert bo‘lishi mumkin? Nega shunday deb o‘ylaysiz?

171

Dars jarayoni

Kirish

Muhokama

O‘quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

1. Sharq deganda dunyoning qaysi davlatlari tushuniladi?

Bu savol “Sharq” so‘zining ma’nosini tushunish hamda xarita bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. *Sharq – dunyo tomonlaridan birining nomi, quyosh chiqadigan tomon bo‘lib, “kunchiqar” ham deyiladi.* O‘quvchilar shundan kelib chiqib, dunyoning sharqda joylashgan davlatlariga misol aytishlari lozim. Masalan, Misr, Yaponiya… kabi.

2. Milliy kuy-qo‘shiqlarimizdan qaysilarini bilasiz?

Bu – o‘quvchilarning shaxsiy kuzatishlari asosida erkin fikrlab, javob berishlariga qaratilgan savol. O‘quvchilar hayotiy kuzatishlari asosida javob berishlari mumkin.

3. Xalqaro deganda nimani tushunasiz?

Bu “xalqaro” birligining ma’nosini tushunishga qaratilgan savol bo‘lib, o‘quvchilar ushbu birlik yuzasidan o‘z tushunchalarini aytishlari mumkin.

Xalqaro – xalqlar yoki mamlakatlar orasidagi munosabatga oid.

Og‘zaki nutq

Rasmlarga qarang. Ularda nima tasvirlangan? Qaysi festival, tadbir yoki konsert bo‘lishi mumkin? Nega shunday deb o‘ylaysiz?

Mazkur topshiriqda o‘quvchilarga tanish bo‘lgan tadbirlardan lavhalar berilgan. O‘quvchilar ularni kuzatib, nima tasvirlanganini hamda tasvirdagi qaysi detal orqali buni topishganini izohlab berishlari lozim.

Asosiy e’tibor rasmni tushunib, tasvirlab aytib bera olishga qaratiladi.

Masalan, ikkinchi rasmda – tug‘ilgan kun tadbiri. Tort va yoqilgan sham tasviri orqali buni anglashimiz mumkin.

Tinglab tushunish

“Sharq taronalari” musiqa festivali haqidagi audiomatnni tinglang. Savollarga javob bering.

O‘quvchilarga audiomatnni eshittirishdan avval savollar bilan tanishib chiqishlari, 1–4-savollarga yozma, 5–7-savollarga og‘zaki javob berishlari aytiladi. So‘ngra audiomatn eshittiriladi.

Audiomatn: “Sharq taronalari” – musiqa festivali”.

Registon — Amir Temur qurgan davlatning poytaxtidagi gavhar. O‘sha davrning eng oydin kishilarini o‘ziga tortgan shahar markazidir. Olimlar, rassomlar, me’morlar va shoirlarning har biri bu afsonaviy shahar rivojiga o‘z hissasini qo‘shgan va uni Buyuk ipak yo‘lidagi asosiy bekatlardan biri hamda Osiyodagi ilm markaziga aylantirgan.

Oradan asrlar o‘tib, Samarqand yana jahon madaniyati markaziga aylandi. Aynan mana shu yerda “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali o‘tkaziladi. Festival 1997-yildan buyon har ikki yilda bir marotaba Samarqand shahridagi ko‘hna Registon maydonida avgust oyining oxirida o‘tkazilib keladi. Festivalda ishtirokchi davlatlar soni yildan yilga ko‘paymoqda. Jumladan, I festivalda 34 ta davlat, II festivalda 36 ta davlatdan 250 dan ortiq vakillar o‘z san’atlarini namoyish etdilar. Festivalga har yili katta tayyorgarlik ko‘riladi va rang-barang namoyishlarga boy ochilish marosimi dasturi bilan festival boshlanadi. Ochilish marosimida faxriy mehmonlar, jumladan, YUNESKO prezidenti, O‘zbekiston Prezidenti va hokimiyat vakillari o‘z nutqlari bilan chiqishadi. Ochilish marosimidan keyin bir hafta mobaynida saralash bosqichlari bo‘lib o‘tadi. Har bir davlatning vakil guruhi uchun jami 30 daqiqa berilgan bo‘lib, ishtirokchilar o‘zlari uchun belgilangan muddat davomida quyidagi yo‘nalishlarda ijro etishlari mumkin:


1. Xalq musiqiy ijodiyoti.

2. Milliy mumtoz musiqa.

3. Zamonaviy musiqa, shu jumladan, estrada asarlari.

Barcha yo‘nalishdagi ijrolar jonli tarzda bo‘lishi shart.

“Sharq taronalari” festivali dunyoning turli mamlakatlaridan eng iste’dodli xonandalar, raqqosalar va sozandalarni bir joyga jamlaydi. “Sharq taronalari” YUNESKOning xalqaro madaniy tadbirlar ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, O‘zbekiston va uning boy madaniy merosi haqida ko‘proq ma’lumot olishni istaganlar uchun juda ham mos tadbirlardan biridir.



“Sharq taronalari” musiqa festivali haqida audiomatnni tinglang. Savollarga javob bering.

1–4-savollarga qisqa javob yozing. 5–7-savollarga og‘zaki javob bering.

1. “Sharq taronalari” festivali ilk marta qaysi yili bo‘lib o‘tgan?
2. Festival qayerda bo‘lib o‘tadi?
3. Festival ochilishida kimlar nutq so‘zlaydi?
4. Festival qancha vaqt davom etadi?
5. Nima deb o‘ylaysiz, festival nega aynan Registon maydonida bo‘lib o‘tadi?
6. Festivalga nima sababdan “Sharq taronalari” deb nom berilgan bo‘lishi mumkin?
7. Sizningcha, festival nima maqsadda tashkil etiladi?

Ikki nuqta belgisini qo‘yishga oid ma’lumot bilan tanishing va berilgan matnning kerakli o‘rniga ikki nuqta qo‘ying. O‘zingiz ham qoidaga mos bitta gap tuzing.

Tasniflashda ikki nuqta faol qo‘llanadi. Tasnif asosini ifodalovchi gapdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi va tasniflanuvchi birliklar yozib chiqiladi.
Kirish imtihonlari quyidagi fanlar asosida o‘tkaziladi:
1) ona tili va adabiyot;
2) ingliz tili;
3) mantiq.

Har bir davlatning vakil guruhi uchun jami 30 daqiqa belgilangan bo‘lib, ishtirokchilar o‘zlari uchun belgilangan muddat davomida quyidagi yo‘nalishlarda ijro etishlari mumkin
1. Xalq musiqiy ijodiyoti.
2. Milliy mumtoz musiqa.
3. Zamonaviy musiqa, shu jumladan, estrada asarlari.

172

Muhokama

Ushbu savollar audiomatnni tinglash davomida eksplitsit (ochiq ifodalangan) ma’lumotlarni qay darajada tushunishni baholashga qaratilgan. Quyida ularning javobi keltirildi. O‘quvchilardan bu javob-

larni so‘zma-so‘z aytib berishlari talab qilinmaydi. Asosiy e’tibor ma’lumotlarni tushunish, “Sharq taronalari” musiqa festivali haqida bilimga ega bo‘lishlariga qaratiladi.

1. “Sharq taronalari” festivali ilk marta qaysi yili bo‘lib o‘tgan?

Javob: *“Sharq taronalari” festivali ilk marta 1997-yilda bo‘lib o‘tgan.*

2. Festival qayerda bo‘lib o‘tadi?

Javob: *Samarqand shahrining Registon maydonida.*

3. Festival ochilishida kimlar nutq so‘zlaydi?

Javob: *YUNESKO prezidenti, O‘zbekiston Prezidenti va hokimiyat vakillari.*

4. Festival qancha vaqt davom etadi?

Javob: *bir hafta.*

5. Nima deb o‘ylaysiz, festival nega aynan Registon maydonida bo‘lib o‘tadi?

Javob: *Registon — Amir Temur qurgan davlatning poytaxtidagi gavhar. O‘sha davrning eng oydin kishilarini o‘ziga tortgan shahar markazidir. Olimlar, rassomlar, me’morlar va shoirlarning har biri bu afsonaviy shahar rivojiga o‘z hissasini qo‘shgan va uni Buyuk ipak yo‘lidagi asosiy bekatlardan biri hamda Osiyodagi ilm markaziga aylantirgan.*

6. Festivalga “Sharq taronalari” deb nom berilgani sababi nima bo‘lishi mumkin?

Javob: *Samarqand – Sharq tomonda, Buyuk ipak yo‘li markazida joylashgan, boy madaniy tarixga ega shahar bo‘lgani uchun.*

7. Sizningcha, festival nima maqsadda tashkil etiladi?

Javob: *xalqlarning boy madaniy merosini saqlab qolish, uni namoyish etish, davlatlarning o‘zaro madaniy aloqalarini mustahkamlash maqsadida.*

Qoida. Punktuatsiya. Sintaksis

Ikki nuqta belgisini qo‘yishga oid ma’lumot bilan tanishing va kerakli o‘ringa ikki nuqtani qo‘ying. O‘zingiz ham qoidaga mos tarzda bitta gap tuzing.

O‘quvchilarga ikki nuqtani qay holatlarda ishlatish mumkinligi haqida nazariy ma’lumot beriladi. O‘quvchilar qoida bilan tanishganlaridan so‘ng, quyida berilgan gapning kerakli o‘rniga tinish belgilarini qo‘yib ko‘chirishlari hamda qoidaga mos tarzda ikki nuqtani qo‘llab, gap tuzib yozishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor ikki nuqta qaysi o‘rinlarda ishlatilishi haqida tasavvur hosil qilish hamda unga mos kontekst tuzishga qaratiladi.

Javob:

Har bir davlatning vakil guruhi uchun jami 30 daqiqa berilgan bo‘lib, ishtirokchilar o‘zlari uchun belgilangan muddat davomida quyidagi yo‘nalishlarda ijro etishlari mumkin:

1. Xalq musiqiy ijodiyoti.


2. Milliy mumtoz musiqa.

3. Zamonaviy musiqa, shu jumladan, estrada asarlari.

Yozma nutq. Matn yaratish

Guruhlarga bo‘lining. “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalida qatnashishga chorlab tanlov e’lonini yozing. Unda ikki nuqtadan unumli foydalaning.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning e’lon matni yoza olish, ikki nuqtadan o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar dars davomida festival haqida egallagan bilimlari asosida e’lon matni yozishlari hamda tinish belgilaridan o‘rinli foydalanishlari zarur.



Guruhlarga bo'lining. "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalida qatnashishga chorlovchi e'lon yozing. Unda ikki nuqtadan unumli foydalaning.

Ko'pnuqta qo'yiladigan ayrim o'rinlar bilan tanishing:
1. Gapning mazmunan tugallanmaganini ko'rsatish uchun.
Misol: *Akobirning sunnat to'yini kelasi yili qilsak...*
2. Gap muallifining o'ylanib qolishi, ikkilanishi, hayajonlanishini ko'rsatish uchun.
Misol: *Nima desam ekan... ochig'i... men bir yomon ish qilib qo'yganimni anglab turibman, sizdan uzr so'rash uchun kelgandim.*

Quyidagi gaplardan qaysi biri 1-qoidaga, qaysi biri 2-qoidaga mos?

1-qoidaga mos	2-qoidaga mos
1. Poyezdga bilet olib qo'ygan bo'lsak, poyezd uch soatdan keyin ketsa...	5. Men nima qilibman... Siz...
2. Sen... sen qo'riqqa borasan.	6. Hay-hay, ukam, shundoq baobro' odam sizni ko'rgani kelsa-yu, siz xursand bo'lish o'rniga...
3. Bo'lmasa, kunda nima ayb, xudoning hamishagidek karami keng bir kuni...	7. O'zing tengi bolalar lager palatkalarida maza qilib uxlab yotganida sen suv sepib, yo'lka supurishing... Nima desam ekan... Sal alam qiladi kishiga.
4. Mayli, chavgonni... ertaga peshindan so'ng tamosho qilg'aymiz.	

"Adabiyot" darsligingizdan ko'pnuqta, boshqa darsliklaringizdan ikki nuqta qo'llangan o'rinlarni aniqlang. Namunalar ko'chiring.

Biror marta bayram, tadbir yoki festival haqida so'zlab berishingiz kerak bo'lganmi? Qanday ma'lumotlarni aytgansiz? Qanday ketma-ketlikda aytgansiz?

"Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali haqidagi xabardan yozib olingan audiomatnni tinglang. Nimalar haqida gapirilayotgani, ma'lumotlar qanday ketma-ketlikda berilayotganiga diqqat qiling.

173

Dastlab o'quvchilar guruhlarga bo'linadi. Har bir guruhga bittadan e'lon matni tayyorlash aytiladi. O'quvchilar e'lon matnini yozib bo'lgach, guruhlar bilan birga muhokama qilib tekshiriladi.

Qoida. Ko'pnuqta

O'quvchilarga ko'pnuqta va uning qo'llanilishiga oid nazariy bilim berilishi lozim.

Punktuatsiya

Quyidagi gaplardan qaysi biri 1-qoidaga, qaysi biri 2-qoidaga mos?

Mazkur topshiriqda o'quvchilarga ko'pnuqtaning qo'llanishini amaliy topshiriq orqali tushuntirish, ma'lumotni saralash ko'nikmasini shakllantirish maqsad qilingan. O'quvchilar o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida berilgan gaplarni ikki ustunga ajratib yozishlari lozim.


Javob:

1-qoidaga mos	*2-qoidaga mos*
Poyezdga bilet olib qo'ygan bo'lsak, poyezd uch soatdan keyin ketsa... *Bo'lmasa, kunda nima ayb, xudoning hamishagidek karami keng bir kuni...* *Mayli, chavgonni... ertaga peshindan so'ng tamosho qilg'aymiz.* *Hay-hay, ukam, shundoq baobro' odam sizni ko'rgani kelsa-yu, siz xursand bo'lish o'rniga...*	*Sen... sen qo'riqqa borasan.* *Men nima qilibman... Siz...* *O'zing tengi bolalar lager palatkalarida maza qilib uxlab yotganida, sen suv sepib, yo'lka supurishing... Nima desam ekan... Sal alam qiladi kishiga.*

Uyga vazifa

Punktuatsiya

"Adabiyot" darsligingizdan ko'pnuqta, boshqa darsliklaringizdan ikki nuqta qo'llangan o'rinlarni aniqlang. Namunalar ko'chiring.



Festival, tadbir yoki bayram haqida tavsiflovchi nutq quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:
a) kirish qismida tadbir, bayram, festival nomi, bo'lib o'tish vaqti, joyi va sabablari ko'rsatiladi;
b) asosiy qism bayram, tadbir yoki festivalga tayyorgarlik haqida bitta xatboshi, jarayonning borishi haqida bitta xatboshidan iborat bo'ladi. Nutq egasi o'zi qatnashgan voqealar haqida so'zlab berganda o'tgan zamondan foydalanadi;
c) xulosa qismi odamlarning his-tuyg'ulari, mulohazalari yoki voqea haqidagi yakuniy fikrlarini o'z ichiga oladi.
Festivallar, tadbirlar yoki bayramlar tavsiflarini jurnallar, gazetalar, sayohat varaqalarida, axborot ruhidagi TV va radio ko'rsatuvlarida uchratish mumkin. Bundan tashqari, xat va hikoyalar tarkibida ham bunday matnlar uchraydi. Ularni yaratishda badiiy, rasmiy, ommabop uslubdan erkin foydalanish mumkin.

KIRISH
1-xatboshi
nom, joy, vaqt, sabab, maqsad

ASOSIY QISM
2-xatboshi
tayyorgarlik (masalan, taomlar, dasturxon, bezaklar)

3-xatboshi
bayram, festival yoki tadbirning borishi (kiyimlar, chiqishlar)

XULOSA
4-xatboshi
his-tuyg'ular, fikr-mulohazalar, yakuniy xulosalar

Yuqoridagi audiomatnni yana bir marta tinglang. Tavsifda qanday kamchilik va yutuqlar borligini tushuntiring.

Matnlardan olingan parchalarni bo'sh o'rinlarga kerakli so'zlarni qo'yib o'qing. Matnlar qaysi uslubda yozilgan?

sehr | mahobat | gung | quvonch | shodon | ko'zqamashtirar | gulduros

Tug'ilgan kun

Yorqin ranglar bilan bezatilgan ...li xonada bayramona muhit hukmron edi. Rang-barang chiroqlarning yog'dusi bolalarning ...dan porlab turgan yuzlarida aks etardi. Ularning .... chehralaridan baxtli ekanliklarini anglash mumkin. Ota-onalari esa ularning quvnoq yuzlariga faxr va g'urur bilan qarab turishibdi.

Musiqiy konsert

Qo'shiqchi sahnaga qadam qo'yar ekan, ... chiroqlar hamma yoqni yoritib yubordi. Qo'shiqchi ona haqida kuylay boshladi, qo'shig'i go'yo ...li edi. Muxlislar ham xuddi sehrlangandek qo'shiq tugaguncha ... bo'lib o'tirishdi. Qo'shiq so'ngida zalni ... qarsak bosdi.

174

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning mustaqil izlanish, ma’lumot to‘plash, matnni lingvistik tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar kitoblardan ko‘pnuqta va ikki nuqtaning qo‘llanish o‘rinlarini aniqlab, misol yozib kelishlari zarur.

2-soat

Dars jarayoni


Kirish

Muhokama

Biror marta bayram, tadbir yoki festival haqida so‘zlab berishingiz kerak bo‘lganmi? Qanday ma’lumotlarni aytgansiz? Qanday ketma-ketlikda aytgansiz?

Asosiy qism

Tinglab tushunish



Guruhlarga bo‘lining. Sinfingizda birgalikda tashkil etilgan tadbir, bayram yoki barcha qatnashgan tug‘ilgan kun haqida nutq tayyorlang. Har bir guruh o‘zi tayyorlagan nutqni boshqalarga so‘zlab beradi.

Yuqoridagi ikki parchani ommabop uslubda qayta yozing. Qaysi so‘zlarni qo‘lladingiz? Sababini tushuntiring.

1. Mumtoz musiqa deganda nimani tushunasiz?
2. Sizga qanday musiqalar yoqadi? Ularni eshitganingizda nimalarni his qilasiz?

Quyida matn qismlari aralash holda berilgan. Siz tartibi bilan o‘qing. Savollarga javob bering.

JONLI MUSIQA FESTIVALINING OCHILISHI

A

Mana, festivalning ochilish marosimi ham boshlandi. Birinchi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutq so‘zladi. Orqaroqda bo‘lganim uchun tarjimon quloqchini mengacha yetib kelmadi, Prezidentning to‘lqinlanib gapirganidan sezdimki, u ushbu festivalning boshlanganidan juda ham xursand. Prezident nutqidan anglaganim shu bo‘ldiki, u tashrif buyurgan diplomat va nufuzli mehmonlarning barchasini alohida qutlab chiqdi. Prezident nutqidan so‘ng YUNESKO bosh direktori Oudrey xonim nutq so‘zladi. Shundan keyin haqiqiy ertak boshlandi. Registon maydonini eniga to‘ldirib o‘tirgan orkestr turli millat va elatlarning mumtoz kuylarini mahorat bilan chaldi. O‘zbek xonandalari o‘zlarining nimalarga qodir ekanliklarini, dunyoning istalgan mumtoz qo‘shiqchilariga bas kela olishlarini isbotlamoqchi bo‘lishganmi yoki festival oldidan raqiblarini sarosimaga solishni istashganmi, dahshatli darajada qoyilmaqom ijrolar qilishdi. Ohanglarning dam sokinlashib, dam tezlashib turishi odamga boshqacha zavq ulashar ekan. Raqqosalar va ularning liboslarini esa butun umr esdan chiqarmasam kerak.

B

Ana shunday hislar bilan festivalning ochilish marosimidan chiqib keldim. Hozir xonamda o‘tirib, blogim uchun shu maqolani yozyapman-u, ochilish marosimi yana bir marta qayta bo‘lishini istayapman. Qadrli meni o‘qiydigan muxlislarim, siz bu festivalni bir marta bo‘lsa ham albatta ko‘rishingiz kerak. Ishonamanki, ketgan vaqtingiz, sarflagan mablag‘ingizga hech qachon achinmaysiz! Ko‘hna Samarqandning tarovati-yu “Sharq taronalari”ning shukuhidan uxlay olamanmi, yo‘qmi – bilmayman. Sizlarga esa xayrli tun!

175

“Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali haqidagi xabardan yozib olingan audiomatnni tinglang. Nimalar haqida gapirilayotgani, ma’lumotlar qanday ketma-ketlikda berilayotganiga diqqat qiling.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning eshitib tushunish, ma’lumotlarni tahlil qila olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar audiomatnni tinglab, unda berilgan ma’lumotlar haqida munosabatlarini bildirishlari zarur.

Qoida. Og‘zaki nutq

O‘quvchilarga tadbirlarda tavsiflovchi og‘zaki nutq qanday bo‘lishi, qaysi qismlardan tashkil topishi haqida nazariy ma’lumot misollar bilan tushuntirib berilishi kerak.

Tinglab tushunish

Yuqoridagi audiomatnni yana bir marta tinglang. Tavsifda qanday kamchilik va yutuqlar borligini tushuntiring.

O‘quvchilar tadbirlarni tavsiflovchi nutq qanday bo‘lishi kerakligi to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lganlaridan so‘ng, ularga “Sharq taronalari” haqidagi audiomatn qayta eshittiriladi.

O‘quvchilar matnni tinglash davomida tavsifda qanday kamchiliklar borligini aniqlab, qayd etib borishlari kerak. Audiomatn yakunlangach, ularning munosabatlari tinglanib, fikrlari to‘ldirib borilishi lozim.

Leksikologiya. Uslub

Matnlardan olingan parchalarning bo‘sh o‘rinlariga kerakli so‘zlarni qo‘yib o‘qing. Matnlar qaysi uslubda yozilgan?

Mazkur topshiriq matn uslubini tushunish, kontekstga mos so‘z tanlab matnni yaxlit holatga keltirib yozish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan matnlarni o‘qib, ushbu matnlarga mos so‘zlarni

ko‘chirishlari hamda matn uslubi haqida fikr bildirishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning matn uslubini tushunish, uslubga mos til birliklarini aniqlab ayta olish hamda so‘zlarni ma’nosiga mos kontekstda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Tug‘ilgan kun

*Yorqin ranglar bilan bezatilgan **mahobatli** xonada bayramona muhit hukmron edi. Tort ustidagi shamlarning yog‘dusi bolalarning **quvonch**dan porlab turgan yuzlarida aks etardi. Bolalarning **shodon** chehralaridan baxtli ekanliklarini anglash mumkin. Ota-onalari esa ularning quvnoq yuzlariga faxr va g‘urur bilan qarab turishibdi.*

Musiqiy konsert

*Qo‘shiqchi sahnaga qadam qo‘yar ekan, **ko‘zqamashtirar** chiroqlar hamma yoqni yoritib yubordi. Qo‘shiqchi sevgi haqida kuylay boshladi, qo‘shig‘i go‘yo **sehr**li edi. Muxlislar ham xuddi sehrlangandek qo‘shiq tugagunchada **gung** bo‘lib o‘tirishdi. Qo‘shiq so‘ngida zalni **gurros** qarsak bosdi.*

Yozma nutq. Matn yaratish

Guruhlarga bo‘lining. Sinfingizda birgalikda tashkil etilgan tadbir, bayram yoki barcha qatnashgan tug‘ilgan kun haqida nutq tayyorlang. Har bir guruh o‘zi tayyorlagan nutqni boshqalarga so‘zlab beradi.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar dastlab guruhlarga bo‘linadi, so‘ngra ularning har biriga istagan bayram tadbirini tanlab, og‘zaki nutq tayyorlashlari aytiladi. So‘ng har bir guruhning nutqi tinglanib, munosabat bildirilishi lozim.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning og‘zaki nutqni to‘liq shakllantira olganligiga hamda uni aytib berayotganda ohang, ritm, pauzaga amal qilishiga qaratiladi.

Uyga vazifa

Yozma nutq. Matn yaratish

Yuqoridagi ikki parchani ommabop uslubda qayta yozing. Qaysi so‘zlarni qo‘lladingiz? Sababini tushuntiring.

Bu topshiriq o‘quvchilarning matn yozish hamda uslublarni farqlay olish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar yuqorida berilgan “Tug‘ilgan kun” va “Musiqiy konsert” matnlarini o‘qib, ommabop uslubda qayta yozishlari lozim. Dastlab o‘qituvchi o‘quvchilarga ommabop uslub qanday bo‘lishi, qanday til birliklari qo‘llanishi haqida savol-javob orqali ma’lumot berishi maqsadga muvofiq.

3-soat



D Chiqishlarni tomosha qilar ekanman, o‘zimni butunlay boshqa olamga tushib qolganday his qilardim, skripkaga o‘xshash cholg‘u asbobi hamda nay jo‘rligida ijro etilgan sho‘x musiqaga o‘z uslubimda raqs tushib ham oldim. Atrofimdagi o‘zbeklarga o‘xshab harakat qilishga urinsam ham, o‘xshamadi. Shunchaki o‘zimni musiqa og‘ushiga otdim-u ko‘zimni yumib, tanamni bo‘sh qo‘yib o‘ynayverdim. Qo‘shiqchilarning ovozlari shunchalik dardli ediki, ba’zi qo‘shiqlar yangraganda so‘zlarini tushunmasam ham, yig‘lagim keldi.

E Samarqandga yetib kelishim bilan festivalga katta tayyorgarlik ko‘rilganini his qildim. Yo‘llar bo‘ylab turli naqshlar bilan bezatilgan pannolar, shaharning qayeriga qarama –ko‘zing tushadigan gullar. Bosh maydon Registon esa odamlar bilan to‘lgan. Maydondagi har uchala binoga rangli chiroqlar shunday tushirilganki, chiroqlar naqshlar bilan uyg‘unlashib yanada go‘zallashib ketgan. Go‘yoki osmon Registonga ingandek edi. Sahna esa juda ajoyib bezatilgan. O‘zimni Sharq ertaklariga tushib qolgandek his qildim. G‘ira-shira osmondan tashqari har yon naqshlarga to‘lib ketgan edi. Muxlislar uchun ajratilgan o‘rindiqlarga o‘tirib, yon-verimga qaradim, atrofdagilar turli millat vakillari ekanini ularning tashqi ko‘rinishidan bilib olish mumkin edi. Qulog‘imga ispancha, italyancha, o‘zbekcha, nemischa, inglizcha va yana men bilmagan bir qancha tillardagi so‘zlar eshitilib turardi. Hammasi ajoyib!

F Men mumtoz musiqa shaydosiman. Mumtoz musiqa festivallarini tomosha qilish uchun butun dunyo bo‘ylab sayohatlarga chiqaman. Bu safar Samarqandda bo‘lib o‘tadigan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalini tomosha qilish uchun qadim Samarqand shahriga keldim. Ushbu festival 1997-yildan buyon har ikki yilda bir marta tashkil etiladi. 2013-yilgi festivalni internet orqali ko‘rib qolganimdayoq bu festivalni o‘z ko‘zim bilan, jonli kuzatishni niyat qilgan edim. Festivalni Samarqandning Registon maydonida o‘tkazish odat tusiga kirgan. Odatda, avgust oyining ikkinchi yarmida tashkillanadigan ushbu festival – turli elatlarning milliy musiqalarini olamga yoyish uchun juda zo‘r imkoniyat. Ushbu festival YUNESKOning xalqaro madaniy tadbirlari ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, butun dunyo madaniy merosini saqlash, rivojlantirish va keyingi avlodga yetkazishga xizmat qilmoqda.

Emma Klark, sayyoh

176

Dars jarayoni

Kirish

1. Mumtoz musiqa deganda nimani tushunasiz?

2. Sizga qanday musiqalar yoqadi? Ularni eshitganingizda nimalarni his qilasiz?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Matn: “Jonli musiqa festivalining ochilishi”.

Muallif: Emma Klark, sayyoh.

Quyida matn qismlari aralash holda berilgan. Ularni tartiblab o‘qing. Savollarga javob bering.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirish, matn qismlari va ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishga qaratilgan.

O‘quvchilar berilgan matn bilan tanishib chiqib, to‘g‘ri ketma-ketlikni aniqlashlari hamda yaxlit holda o‘qishlari kerak.

Javob: *F, E, A, D, B.*

Muhokama

1. Emma Klark Samarqandga qanday maqsadda kelgan edi?

Bu savol eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotlarni topishga qaratilgan. Matnning F qismida berilgan ma’lumotlardan *Emma Klark Samarqandga “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalini tomosha qilish uchun tashrif buyurganini anglash mumkin.*

2. Muallif ushbu matnni qayerdan turib yozgan deb o‘ylaysiz?

Bu savol matn muallifi kimligini tushunish hamda ushbu maqola qayerda yozilganini aniqlashga qaratilgan. Matn mazmunidan uning muallifi *Emma Klark ekanini hamda u ushbu maqolani Samarqand shahrida yozganini* anglash mumkin. Bu ma’lumot matnning B qismida berilgan.

3. Emma Klark “Sharq taronalari” haqida qayerdan bilgan?

Bu savol eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotlarni topishga qaratilgan. O‘quvchilar matnning F qismida berilgan ma’lumotlardan *muallif bu haqida 2013-yilda ijtimoiy tarmoqlar orqali xabar topganini* anglashi mumkin.

4. Emma o‘zini butunlay unutishiga sabab bo‘lgan voqea qaysi?

Bu savolning javobi matnning D qismida ifodalangan. O‘quvchilar ushbu qismdan muallifning holatini tushunib, o‘z nutqlarida ifoda etib berishlari lozim.

5. Sizningcha, skripkaga o‘xshagan cholg‘u asbobi qaysi?

Bu savol o‘quvchining shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishiga qaratilgan. O‘quvchilar erkin fikr bildirishlari mumkin.

6. Nima uchun Emmaning yig‘lagisi keldi?

Matnning D qismida muallifning holati aks etgan, festivalning ta’sirli ruhda o‘tkazilishini ham aynan uning holatidan anglash mumkin. *Ohanglar dardli bo‘lgani uchun ham Emmaning ko‘zlaridan yosh chiqqanini* o‘quvchilar tushunib aytib berishlari lozim.

7. Matndagi qaysi gaplardan festivalga turli millat vakillari kelganini bilib olish mumkin?

Matnning A qismidagi *turli millat va elatlarga xos bo‘lgan ohanglarning ijro etilishi hamda ularning o‘ziga xos milliy li-*

boslarida sahnaga chiqishi… kabi o‘rinlardan festivalda turli millat vakillari ishtirok etganini anglashimiz mumkin.

Sintaksis

Emma Klarkni hayratlantirgan narsalarni qisqa birikmalarda ifodalab yozing.

Ushbu topshiriq mazmunni ixcham shaklda ifodalash, qo‘shma gaplarni sodda gaplarga aylantirish hamda muallif hayratlangan o‘rinlarni topib, munosabat bildira olishga qaratiladi.

O‘quvchilar matn tarkibidan muallifni hayratlantirgan narsalarni topib, namunadagi singari ifodalab berishlari lozim.

Test

Tasavvur qiling, o‘zingiz qatnashgan to‘yni tavsiflovchi matn yozishingiz kerak. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Mazkur topshiriqlar o‘quvchilarni to‘yni tavsiflovchi matn yaratish jarayoniga olib kirish hamda ularga matnda nimalar aks etishi kerakligini bosqichma-bosqich tushuntirishdan iborat.

1. Quyidagilardan qaysi biri siz yozadigan matnga taalluqli emas?

O‘quvchilar nimani tavsiflashlariga ko‘ra ushbu testning javobini topishlari lozim. Demak, to‘g‘ri javob: B, chunki o‘quvchilardan tavsiflovchi matn yozishlari talab etilgan, ular taklifnoma emas, balki to‘y dasturxonini tavsiflashlaridan kelib chiqib, shu javobni belgilashlari kerak.

2. Quyidagi mashg‘ulotlarni mos ustunga joylashtiring.

Bunda o‘quvchilarga marosimga xos bo‘lgan birliklar berilgan bo‘lib, ulardan birliklarni mazmuniga ko‘ra guruhlarga ajratib yozish talab etiladi.

Marosimdan oldin	***Marosim vaqtida***
mehmonlar ro‘yxatini tuzish, mehmonlarni taklif qilish, taomnomani aniqlash, sarpo olib borish	*suratga tushish, nikoh o‘qitish, raqs, musiqa, kelinsalom, kuyovnavkar*

O‘quvchilar ushbu savollarga o‘z shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishlari lozim. Bunda savol-javobni og‘zaki yoki yozma shaklda tashkil qilish mumkin.

Uyga vazifa


Yozma nutq. Matn yaratish

120–180 so‘zdan iborat esse yozing. Unda o‘zingiz ishtirok etgan biror marosimga tavsif bering.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarda ma’lumot to‘plash va u asosida tavsifiy matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar o‘zlari ishtirok etgan marosim haqida tavsifiy esse yozishlari zarur.

O‘quvchilarga darsdagi tavsifiy matn yaratish bosqichlariga oid topshiriqlarga tayanib ma’lumot to‘plash, so‘ngra ularni esse holatiga keltirib yozish aytiladi.

4-soat



1. Emma Klark Samarqandga qanday maqsadda kelgan edi?
2. Muallif ushbu matnni qayerda yozgan deb o'ylaysiz?
3. Emma Klark "Sharq taronalari" haqida qayerdan bilgan?
4. Emma o'zini butunlay unutishiga sabab bo'lgan voqea qaysi?
5. Sizningcha, skripkaga o'xshash cholg'u asbobi qaysi?
6. Nima uchun Emmaning yig'lagisi keldi?
7. Matndagi qaysi gaplardan festivalga turli millat vakillari kelganini bilib olish mumkin?

Emma Klarkni hayratlantirgan narsalarni qisqa birikmalarda ifodalab yozing.

Namuna *Skripkaga o'xshagan cholg'udan chiqqan kuy, ...*

Tasavvur qiling, o'zingiz qatnashgan to'yni tavsiflovchi matn yozishingiz kerak. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Quyidagilardan qaysi biri siz yozadigan matnga taalluqli emas?

A. Yubiley uchun taklifnoma **B.** Dasturxon

Quyidagi mashg'ulotlarni mos ustunga joylashtiring.

mehmonlar ro'yxatini tuzish	suratga tushish	taomnomani aniqlash
kuyovnavkar	nikoh o'qitish	kelinsalom
mehmonlarni taklif qilish	raqs, musiqa	qalin berish

Marosimdan oldin	Marosim vaqtida

- Necha marta to'yga borgansiz?
- To'yda sizdan tashqari yana kimlar bor edi?
- To'ylarning qanday turlarini bilasiz?
- Sizga yoqqanmi? Nimasi yoqqan?
- Biror esda qolarli voqea sodir bo'lganmi?

177

Dars jarayoni

Kirish

Esseni qanday baholashni bilasizmi? Biror marta essega munosabat bildirganmisiz?

Asosiy qism

Og'zaki nutq. Tahlil

Har bir o'quvchi ketma-ketlikda "Hayvonot bog'iga sayohat" nomli yozgan matnini o'qib eshittiradi, o'tirgan o'quvchilar sinfdoshlarining nutqini tinglab, og'zaki munosabat bildirishadi.

Bu jarayonda o'quvchilar fikrini aniqlashtirib olish uchun savol bilan murojaat qilishi mumkin.

O'quvchilarga esselariga bildirilgan munosabatlarni qayd qilib borish aytiladi.

Uyga vazifa


Yozma nutq. Matn yaratish

Matningizni bildirilgan asosli taklif va e'tirozlarni hisobga olgan holda qayta yozing.

Bu topshiriq o'quvchilarning tanqidni to'g'ri baholash, xato va kamchiliklarini aniqlab, o'z ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O'quvchilar esselariga nisbatan bildirilgan fikrlarni jamlab, uni qayta yozishlari lozim.

MUSTAHKAMLASH



120–180 so'zdan iborat esse yozing. Unda o'zingiz ishtirok etgan biror marosimga tavsif bering.

Yozib kelingan esselar tahlili va tahriri.

Har bir o'quvchi o'z essesini o'qiydi, qolgan o'quvchilar aniqlashtiruvchi savollar beradi hamda matn tuzilishining qoidaga mos ekanini tekshiradi.

Matningizni bildirilgan asosli taklif va e'tirozlarni hisobga olgan holda qayta yozing.

MUSTAHKAMLASH

Quyidagi gaplarni ko'chirma gapga aylantirib yozing. Har bir gapni ikki xil shaklda yozishingiz kerak bo'ladi.

1. Emma Klark O'zbekistonga birinchi marta kelayotganini aytdi.
2. Maqsud Shayxzoda Alisher Navoiy g'azal mulkining sultoni ekanini ta'kidladi.
3. Ilon Maskning aytishicha, "Tesla" eng sifatli elektromobil ekan.
4. O'qituvchimiz Eynshteyn ham maktabda ikkichi bo'lganini aytdi.

Rasmiy hamda badiiy uslubdagi tarjimayi holning xususiyatlarini chizmada ifodalang.

Rasmiy uslubdagi tarjimayi hol

Badiiy uslubdagi tarjimayi hol

Ko'pnuqtaning ishlatilishiga oid ikki qoidani eslang. Shu qoidalarga mos 2 tadan misol yozing, lekin ko'pnuqtalarni qo'ymang. Partadoshingiz qayerga ko'pnuqta qo'yilishini topishi lozim.

178

Dars jarayoni

Kirish

"Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali haqida nimalarni bilib oldingiz? Javobingizni izohlang.

Asosiy qism

Sintaksis

Quyidagi gaplarni ko'chirma gapga aylantirib yozing. Har bir gapni ikki xil shaklda yozishingiz kerak bo'ladi.

Mazkur topshiriq o'quvchilarga o'zlashtirma gaplarni ko'chirma gapga aylantirish, tinish belgilaridan o'rinli foydalana olish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O'quvchilarga berilgan gaplarni o'qib, ularni ko'chirma gapga aylantirib yozish aytiladi. Bunda o'qituvchi dastlab bitta so'zni xattaxtada namuna sifatida yozib, ifodalab berishi lozim.

Uslub. Rasmiy uslub. Badiiy uslub

Rasmiy hamda badiiy uslubdagi tarjimayi holning xususiyatlarini chizmada ifodalang.

Ushbu topshiriq o'quvchilarning ma'lumot to'plash, saralash hamda ularni chizmada ifodalab berish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Bunda Venn diagrammasini xattaxtada chizib, o'quvchilarni ketma-ketlikda chiqarib, bittadan ma'lumot yozdirish yoki mustaqil bajarishlarini nazorat qilish lozim.

O'quvchilarga diagrammani to'ldirishda "Tarjimayi hol" mavzusida tanishgan matnlari hamda rasmiy va badiiy uslubning o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqishlari aytiladi.

Punktuatsiya


Ko'pnuqtaning ishlatilishiga oid ikki qoidani eslang. Shu qoidalarga mos 2 tadan misol yozing, lekin ko'pnuqtalarni yozmang. Partadoshingiz qayerga ko'pnuqta qo'yilishini topishi kerak.

Mazkur topshiriq o'quvchilar ko'pnuqtaning qo'llanish o'rinlarini tushunib, bilimlarini mustahkamlab olishlariga qaratilgan. O'quvchilar tinish belgisidan foydalanmasdan ikkita misol yozib, partadoshi bilan almashishlari hamda bir-birlari yozgan misolni tushunib, ko'pnuqtani kerakli o'ringa qo'yib berishlari lozim.

OLIY MAJLIS

Nutqiy mavzuning maqsadi: videomaterialda berilgan ma’lumotlar asosida, ko‘rganlaridan foydalangan holda tavsifiy matn yoza olish, rasmiy va publitsistik uslubdagi matn va uning xususiyatlariga e’tibor qaratish, berilgan matnni o‘qib tushunish, e’lon matni va unga qo‘yilgan talablardan kelib chiqqan holda mustaqil holatda e’lon yoza olish, e’lon matniga oid muhim ma’lumotlarni aniqlash va jadval ko‘rinishida ifodalay olish ko‘nikmalarini shakllantirish; nuqtali vergul va uning qo‘llanish o‘rinlari, rasmiy uslubda yozma nutq yaratish ko‘nikmasini mustahkamlash.

1-soat



OLIY MAJLIS

Bu mavzuda o‘rganamiz

• davlat boshqaruv tizimi • parlamentning davlat boshqaruvidagi o‘rni • nuqtali vergul • rasmiy uslub.

Faraz qiling, siz Oliy Majlis deputatisiz. E’tiboringizni qaysi muammoni hal qilishga qaratar edingiz? Nima uchun?

Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

PARLAMENT NIMA?

Ko‘pchilik davlatni prezident boshqaradi deb o‘ylaydi. Ammo bu unchalik to‘g‘ri emas. Chunki O‘zbekiston – demokratik davlat. Bu davlatni siz bilan biz, ya’ni xalq boshqaradi deganidir. Qanday qilib, axir mening dadam ham, oyim ham hech kimni va hech nimani boshqarmaydi-ku, deyishga shoshmang. Ular saylov vaqtida o‘zlari ishongan odamga ovoz berishgan!

O‘zbekistonda 35 milliondan ortiq odam yashaydi. Tasavvur qiling, har bir odam davlatni men boshqaraman desa, nima bo‘ladi? Ha, janjallar boshlanadi! Shuning uchun odamlar o‘zlari ishongan aqlli va zukko kishilarni prezident yoki deputat etib saylaydilar. Endi prezident va deputatlar odamlarning istaklariga qarab ularning nomidan davlatni boshqarishadi. Lekin prezident va deputatlar dangasalik qilishsa, odamlarning aytganini qilmay, davlatga zarar yetkazishsa,

Parlament demokratik mamlakatlarda butunlay yoki asosan saylov asosida tuziladigan oliy vakillik va qonunchilik organidir.

179

Dars jarayoni

Kirish

Faraz qiling, siz Oliy Majlis deputatisiz. E’tiboringizni qaysi muammoni hal qilishga qaratar edingiz? Nima uchun?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

Matn: “Parlament nima?”

Muallif: Abduqahhor Kohinov.

O‘quvchilarga matnni o‘qib chiqish aytiladi. So‘ngra matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Muhokama

1. Ayting-chi, prezidentning vazifasi nimadan iborat?

Bu savol matn mazmunini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar *davlat xalq tomonidan boshqarilishini, ovoz berish yo‘li bilan saylangan prezident xalqning istak va manfaatlarini inobatga olib davlatni boshqarishini* tushunib aytib bera olishlari lozim.

2. Demokratik davlat deganda qanday davlatni tushunasiz? Bunday davlatda davlat boshqaruvi qanday amalga oshiriladi?

Bu savolning javobi matnda aynan keltirilmagan. O‘quvchilar matnda berilgan ma’lumotlar asosida ushbu savolga javob topishi nazarda tutilgan. Bunda asosiy e’tibor “demokratiya” so‘ziga qaratiladi.

Demokratiya – fuqarolar erkinligi va tengligi konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatining shakllari amalda o‘rnatilgan va yuzaga chiqarilgan siyosiy tuzum; xalq hokimiyati.

3. Sizning ota-onangiz davlat boshqaruvida qay darajada ishtirok etadi?

Bu savol *saylov* so‘zining ahamiyati, unda xalqning ishtirok etish darajasi haqida tushuncha hosil qilishga qaratilgan. Bunda har bir o‘quvchining oilasida saylov jarayonida ishtirok etishga bo‘lgan munosabat haqida suhbat olib borilishi lozim.

4. Deputatlarning davlat boshqaruvidagi o‘rni qanday? Senatorlar-chi, ularning vazifasi nimalardan iborat?

Bu savolga javob berishda o‘quvchilar *deputat* so‘zining ma’nosini tushunib, matn asosida uning vazifalarini aytishlari kerak.

Deputat – xalq tomonidan vakolatli davlat organlariga saylangan kishi.

5. Yurtimizda o‘tkaziladigan saylovlardan xabaringiz bormi? Bu jarayon haqida nimalarni bilasiz?

Bu savol o‘quvchilarning shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishiga qaratilgan. O‘quvchilar matnda berilgan ma’lumot hamda hayotiy kuzatishlari asosida munosabat bildirishlari lozim.

6. “Deputat va senatorlarning ishiga hatto Prezident ham aralasha olmaydi”. Matnda berilgan ushbu ma’lumotga munosabatingizni bildiring.


Bu savol matnda keltirilgan birlikning ma’nosini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar ushbu gapni o‘qib, matn asosida izohlashlari lozim. Bu birlik orqali davlatni xalq boshqarishiga ishora borligini tushunish zarur.

Orfoepiya

Matn tarkibidan qonunchilikka oid atamalarni aniqlang va talaffuz qiling.

Mazkur topshiriq o‘quvchilar mavzu bilan bog‘liq atamalarni aniqlay olishi, ularning talaffuzi va imlosini o‘zlashtirishiga qaratilgan.

O‘quvchilardan matn tarkibidan qonunchilikka oid atamalarni aniqlab, izohlab berishlari talab qilinadi. *Masalan, demokratiya, prezident, deputat, ... kabi.*



Aniqlagan atamalaringizni quyidagi izohlar bilan o‘zaro moslashtirib, daftaringizga ko‘chiring. Imlosiga e’tibor bering.

Vakolatli davlat organiga saylangan kishi, vakil.

Davlat hokimiyati tomonidan qabul qilingan, hamma uchun majburiy bo‘lgan ijtimoiy-huquqiy me’yor va munosabatlarni belgilovchi rasmiy qoida.

Ovoz berish orqali davlat organlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tuzilmalarni tashkil etish vositasi.

O‘z fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy huquqlarini himoya qiluvchi, bunga qarshi turuvchi kuchlarning qarshiligini sindiruvchi hokimiyat organlari va siyosiy tashkilotlari tizimiga ega bo‘lgan mustaqil mamlakat.

Demokratik mamlakatlarda butunlay yoki asosan saylov asosida tuziladigan oliy vakillik va qonunchilik organi.

Qonun chiqaruvchi, davlatni boshqaruvchi oliy davlat organi a’zosi.

Matn yuzasidan chiqarilgan xulosalarning qaysilari to‘g‘ri ekanini aniqlang, noto‘g‘ri xulosalarni esa to‘g‘rilab ayting.

O‘zbekiston – demokratik davlat, bu esa davlatni xalq boshqaradi degani.

Odamlar saylagan prezident va deputatlar o‘z xohishlari asosida davlatni boshqarishadi.

Odamlar saylovda ovoz berish orqali davlat boshqaruvida ishtirok etishadi.

Oliy Majlis a’zolari 150 nafardan iborat.

Deputat va senatorlar Parlamentda yig‘ilib, o‘z faoliyatlarini olib borishadi.

Prezident deputat va senatorlar bilan o‘zaro maslahatlashgan holda davlat boshqaruvini olib boradi.

181

Leksikologiya

Aniqlagan atamalaringizni quyidagi izohlar bilan o‘zaro moslashtirib, daftaringizga ko‘chiring. Imlosiga e’tibor bering.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish hamda qonunchilikka oid so‘zlar haqida tushuncha hosil qilishlariga qaratilgan. O‘quvchilar qonunchilikka oid atamalarga izohlardan qay biri mos kelishini aniqlab, ko‘chirishlari, to‘liq topmagan bo‘lsalar, izohlarga qarab matn tarkibidan aniqlab yozishlari aytiladi.

Javob:

Deputat — vakolatli davlat organiga saylangan kishi, vakil.

Qonun — davlat hokimiyati tomonidan qabul qilingan, hamma uchun majburiy bo‘lgan ijtimoiy-huquqiy me’yor va munosabatlarni belgilovchi rasmiy qoida.

Senator — qonun chiqaruvchi, davlatni

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

boshqaruvchi oliy davlat organi a'zosi.

Davlat — o'z fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy huquqlarini himoya qiluvchi, bunga qarshi turuvchi kuchlarning qarshiligini sindiruvchi hokimiyat organlari va siyosiy tashkilotlari tizimiga ega bo'lgan mustaqil mamlakat.

Saylov — ovoz berish orqali davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tuzilmalarni tashkil etish vositasi.

Parlament — demokratik mamlakatlarda butunlay yoki asosan saylov asosida tuziladigan oliy vakillik va qonunchilik organi.

O'qib tushunish. Test

Matn yuzasidan chiqarilgan xulosalarning qaysilari to'g'ri ekanini aniqlang, noto'g'ri xulosalarni esa to'g'rilab ayting.

Mazkur topshiriq o'quvchilarning o'qib tushunish, ma'lumotlarni saralab olish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar berilgan xulosalarni aniqlab, to'g'ri va noto'g'ri xulosalarga ajratib yozishlari lozim. Bunda o'quvchilarga topshiriq shartida berilgan har bir ma'lumot bilan tanishishlari, ular matnda berilgan ma'lumotlar bilan mos kelish yoki kelmasligini aniqlashlari aytiladi.

Javob: *1. To'g'ri. 2. Noto'g'ri. 3. To'g'ri. 4. Noto'g'ri. 5. To'g'ri. 6. To'g'ri.*

Morfologiya

Berilgan matnlarning qaysi birida takrorga yo'l qo'yilmagan? Har ikki qismdagi so'zlar sonini sanang. Qaysi so'z hisobiga ushbu matn ixchamlashganini aniqlang. Aniqlagan so'zingiz qaysi so'z turkumiga xos?

Ushbu topshiriq olmosh, uning vazifasi va qo'llanishi bilan bog'liq lingvistik bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan.

O'quvchilar berilgan qisqa parchalarni o'qib, o'zaro taqqoslashlari, olmoshlar va ularning qaysi birlikka ishora qilayotganini topishlari lozim. Bunda o'quvchilar takrorning oldini olishda olmoshlardan foydalanish kerakligini tushunib yetishlari kerak.

Uyga vazifa

Yozma nutq

Quyida berilgan QR kod orqali Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yalpi majlisini kuzating. Oliy Majlis binosining ko'rinishi hamda majlis jarayoni haqida tavsifiy matn yarating.

Mazkur topshiriq o'quvchilarning kuzatish, jarayondan kerakli ma'lumot to'plash hamda uni tavsiflab matn yozish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar berilgan havola orqali videoni kuzatib, undagi jarayonlari tavsiflab matn yozishlari lozim.

Ushbu topshiriqni bajarishda o'quvchilar Oliy Majlis binosini ta'riflashi kerakligi, ushbu majlis jarayonida insonlarning tashqi ko'rinishi, fikr bildirish madaniyati, majlis qanday mavzularga qaratilishi mumkinligiga e'tibor qaratishlari aytiladi.

2-soat

Dars jarayoni

Kirish

Konstitutsiyadagi qaysi moddalarni bilasiz? Yoddan aytib bera olasizmi?


Asosiy qism

Uslub. Rasmiy va ilmiy-ommabop uslub

Berilgan matnlarni diqqat bilan o'qing va topshiriqlarni bajaring.

Mazkur topshiriq rasmiy uslub va publitsistik uslubning o'ziga xos

xususiyatlarini tushunish, bir axborotni turli ko‘rinishda yetkazish mumkinligi, ularga oid til birliklarini aniqlashga qaratilgan.



2-MATN

Keling, davlat organlari: Oliy Majlis, Hukumat, ichki ishlar organi, hokimiyat, sud kimning manfaatlarini himoya qilishi haqida o‘ylab ko‘raylik-chi.

Albatta, bizning, ya’ni har birimizning. Negaki, aynan biz, hammamiz birgalikda davlatmiz. Mabodo birdaniga hammamiz yo‘q bo‘lib qolsak, unda davlat organlarining nima keragi bor? Ular jamiyat, ya’ni biz mavjud ekanimiz tufayligina mavjuddirlar.

Boshqacha aytganda, davlat va davlat organlari xalq uchun, mamlakat aholisining umumiy ishlarini hal qilish uchun mavjud bo‘ladi. Ammo faqat demokratik davlatdagina buning iloji bor.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasiga muvofiq, mamlakatimizda hokimiyatning birdan bir manbai xalqdir, ya’ni kishilar o‘z vakillarini – deputatlarni saylaydilar.

Deputatlar esa xalq nomidan jamiyat rioya etib yashaydigan qonunlarni ishlab chiqadilar va qabul qiladilar.

1. Muallif matn tarkibida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardan nima maqsadda foydalangan?
2. Ushbu matn tarkibida gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlaridan qaysilari ishtirok etmoqda?

Yuqoridagi tahlil asosida quyida berilgan xususiyatlarning qaysilari rasmiy yoki publitsistik uslubga, qaysilari har ikkala uslubga oid ekanini aniqlang.

Gaplar qisqa, aniq va barcha uchun tushunarli qilib tuziladi.

Ta’sirchan so‘z va birikmalar, maqol va hikmatli so‘zlardan foydalaniladi.

Gap bo‘laklari odatdagi tartibda bo‘ladi.

Asosan darak gaplardan, qaror, buyruq, ko‘rsatma kabilarda esa buyruq gaplardan foydalaniladi.

So‘zlar o‘z ma’nosida qo‘llanadi.

Kesimlar xabar mazmunida, harakatning bajaruvchisi noma’lum bo‘ladi.

Har bir sohaning o‘ziga xos atamalaridan foydalaniladi.

Darak, his-hayajon, ritorik so‘roq gaplardan, yoyiq undalmalardan, takroriy so‘z va birikmalardan foydalaniladi.

183

O‘quvchilar berilgan matnlarni o‘qib, o‘zaro taqqoslab, shakl va mazmunidagi o‘zgarishlarni aniqlab aytishlari lozim. Bu jarayonda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi savollar berib, uslublarning farqlanishi, o‘ziga xos birliklarni tushunishga o‘quvchilar e’tiborini qaratishi maqsadga muvofiq.

Muhokama

1. Matndagi so‘zlar qanday ma’noda (o‘z/ko‘chma) qo‘llanganini tekshiring.

Ushbu matnning manbasiga o‘quvchilarning e’tibori qaratiladi. Matndagi til birliklari tahlil qilinadi. O‘quvchilarga qaysi so‘zlar o‘z ma’noda, qaysilari esa ko‘chma ma’noda qo‘llanayotganini aniqlashi aytiladi. Olib borilgan tahlillar natijasida rasmiy uslubdagi matnlarda so‘zlar o‘z ma’nosida qo‘llanishi haqida xulosa chiqarilishi kerak.

2. Berilgan gaplar ifoda maqsadiga ko‘ra (darak, so‘roq, buyruq, istak) qanday mazmunda kelayotganini aniqlang.

Bunda o‘quvchilarning e’tibori gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turiga qaratiladi. Rasmiy uslubdagi matnlar asosan darak va buyruq gaplar orqali ifodalanishi haqida xulosa chiqarilishi lozim.

1. Muallif matn tarkibida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardan nima maqsadda foydalangan?

Bu savol muallif munosabatini aniqlash, matnda murojaat birliklaridan foydalanilgani hamda bu publitsistik uslubning bir jihati ekanini tushunishga qaratilgan.

2. Ushbu matn tarkibida gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlaridan qaysilari ishtirok etmoqda?

Bunda 2-matn tarkibidan gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari aniqlanadi, ularni hosil qilayotgan vositalarga e’tibor qaratiladi. Ushbu mazmundagi gaplar publitsistik uslubning o‘ziga xosligi ekani tushuntiriladi.

Uslub. Rasmiy va publitsistik uslub

Yuqoridagi tahlil asosida quyida berilgan xususiyatlarning qaysilari rasmiy yoki publitsistik uslubga, qaysilari har ikkala uslubga oid ekanini aniqlang.

Ushbu topshiriq rasmiy va publitsistik uslubning o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlarini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilarga berilgan ma’lumotlarni o‘qib chiqish aytiladi. So‘ngra xattaxtada Vin diagrammasi chizilib, o‘quvchilarga tartib bilan chiqib, ma’lumotlarni diagrammaga joylashtirish aytiladi.

Morfologiya

Quyida berilgan fe'llarni tahlil qiling, ular qaysi uslubdagi matnga mos kelishi haqida o'ylab ko'ring va ikki ustunga ajratib yozing.

O'quvchilarga berilgan fe'llardagi shaxs-son, zamon, mayl ko'rsatkichlarini aniqlab, qaysi uslubga tegishli ekanini yozishlari aytiladi. O'quvchilar fe'llarni ustunlarga ajratib yozib bo'lgach, ularni misollar bilan izohlash aytiladi.

Javob: *rasmiy uslubga xos: bajariladi, ko'rsatiladi, belgilanadi, asoslanadi, tashkil etiladi, kafolatlanadi; publitsistik uslubga xos: aytdi, bo'lib o'tmoqda, so'zlashmoqda, nishonlangan, bormoqdamiz, namoyish etilyapti.*

Yozma nutq

Rasmiy uslubda berilgan matnni o'qing. Nuqtalar o'rniga so'z qo'yish orqali jadvalning ikkinchi ustunida keltirilgan matnni publitsistik uslubdagi matnga aylantiring. Bunda quyida berilgan birliklardan foydalanishingiz mumkin.

Bu topshiriq o'quvchilarning noto'liq matnni to'liq matnga aylantirib yozish, bir axborotni ikki uslubda ifodalash mumkinligini tushunishlariga qaratilgan.

O'quvchilarga birinchi matnni o'qib chiqishlari, uning mazmuni asosida ikkinchi matnni shakllantirishlari, tushirib qoldirilgan o'rinlarga mos til birliklarini qo'yib, noto'liq matnni to'liq matnga aylantirib yozishlari aytiladi. So'zlarni kerakli o'ringa qo'yishda noto'liq matn tarkibidagi birliklarning ifoda usuliga qarashlari tushuntiriladi.

Og'zaki nutq

Konstitutsiyaning 79-moddasi bilan tanishing. Uning mazmunini o'z so'zlaringiz bilan sharhlashga harakat qiling. Matnda qo'llangan tinish belgilariga e'tibor bering.

Ushbu topshiriq Oliy Majlis vakolatlari haqida qisman ma'lumot berish, ushbu ma'lumotlarni o'qib tushunish hamda kerakli vaziyatda foydalana olish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O'quvchilar 79-modda bilan tanishib chiqqanlaridan so'ng, unda berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirishga yo'naltiruvchi savollar asosida suhbat tashkil qilinishi maqsadga muvofiq.

Masalan:

1. *Vakolat nima? Oliy Majlis vakolatlariga nimalar kiradi?*
2. *Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi Spikeri kim tomonidan tayinlanadi?*

Qoida. Punktuatsiya

O'quvchilarga rasmiy uslubda ko'p qo'llanadigan tinish belgisi – nuqtali vergul haqidagi nazariy ma'lumot misollar bilan tushuntirib berilishi kerak.

Uyga vazifa

Yozma nutq

Konstitutsiyaning 79-moddasi mazmunini sharhlab yozing.

Mazkur topshiriq rasmiy uslubdagi matnni tushunish, uni matn ko'rinishida boshqa uslubda ifodalab yozishga qaratilgan.

O'quvchilar berilgan moddaning mazmunini sharhlab yozishlari lozim.

3-soat


Dars jarayoni

Kirish

Siz ham tadbir tashkil qilganmisiz? Qanday e'lonlardan foydalangansiz?

Asosiy qism

O‘qib tushunish



2-e’lon:

E’LON

Olmaliq shahridagi 19-ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabi “Ta’tilda 5 tashabbus” onlayn tanlovlari doirasida videoroliklar tanlovini e’lon qiladi.

Ishtirokchilarning videoroliklari 10–15-sentyabr kunlari *https://t.me/yoshkitobxonlar2020* telegram manzilida soat 10:00 dan 16:00 ga qadar qabul qilinadi. Videorolik hajmi 20 megabaytdan oshmasligi lozim. Bunda kitobxon oila o‘zbek yoki jahon adabiyoti durdonalaridan eng ta’sirli yoki kulgiga boy o‘rinlarini sahna ko‘rinishi shaklida ijro etishi lozim. Ushbu tanlovda oilaning barcha a’zolari ishtirok etishi kerak. Tanlov g‘oliblari joriy yilning 25-sentyabr kuni aniqlanadi va e’lon qilinadi.

3-e’lon:

Abituriyentlar diqqatiga!

Qadrli o‘quvchilar! Bugungi pandemiya sharoitida uni yengib o‘tish uchun uyda qolish – barchamiz uchun eng to‘g‘ri yo‘l.

Vaqt esa sizni manzilingizga tobora yaqinlashtirmoqda. Bir oydan keyin kimdir talaba bo‘lishi, yoki bo‘lmasligi turgan gap. Ixtiyoringizda 1 oydan ortiq vaqt bor.

Biz sizlar uchun sifatli masofaviy darslarni taklif etamiz.

Darslar “audiodars + videodars + test + topshiriq” metodi asosida tashkil qilinadi:

– darslarni malakali o‘qituvchilar olib borishadi;
– Ma’ruzalar videodarslar shaklida taqdim etiladi;
– testlar internet orqali yechiladi;
– vazifalar doimiy ravishda videoqo‘ng‘iroqlar orqali nazorat qilinadi;
– o‘qituvchi va tinglovchi muntazam aloqada bo‘ladi.

Siz o‘qituvchiga bevosita savollar berishingiz va xatolar ustida ishlashingiz mumkin.

Murojaat uchun tel.: +998901234567.

186

Matnni diqqat bilan o‘qing va matn yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajaring.

O‘quvchilarga matn hamda berilgan e’lon namunalari bilan tanishib chiqish aytiladi. So‘ngra matn ostidagi topshiriqlar birgalikda bajariladi.

O‘qib tushunish

Ushbu jadvalda keltirilgan ma’lumotlar yuqorida berilgan e’lonlarning qaysi biriga tegishli ekanini aniqlang.

Bu topshiriq matnning turli qismlarida mavjud bo‘lgan bir nechta axborotni qidirish va aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikmani shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan ma’lumotlar matnning qaysi qismida keltirilgani yoki qaysi e’lon matniga oid bo‘lishi mumkinligini aniqlab yozishlari hamda ushbu ma’lumotlar aynan shu matnlarga tegishli ekanini izohlab berishlari lozim.

Javob:

1. 2-e’lon matniga.
2. 3-e’lon matniga.
3. 1-e’lon matniga.
4. 1-e’lon matniga.
5. 3-e’lon matniga.

Yozma nutq. Tahlil

Yuqorida Nigoraning ustozi bergan tavsiyaga asosan e’lonlarda qanday kamchiliklar mavjudligini aniqlang va yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning matnni o‘qib tushunish, tanqidiy baholash, xato va kamchiliklarini aniqlab, unga oid tavsiya yozish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilar Nigoraning ustozi bergan tavsiya hamda o‘zlari o‘rgangan ma’lumotlardan foydalangan holda har bir e’lon matnini tahlil qilishlari hamda e’lon matniga qo‘yilgan talablar asosida ularga qanday qo‘shimchalar qo‘shish mumkinligini aniqlab yozishlari lozim.

Bu jarayonda o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, guruh bilan birgalikda e’lon matnlari ustida ishlashini tashkil qilish mumkin.

Tahlil

Nigora e’lonlar bilan tanishar ekan, ularni quyidagi ma’lumotlar bilan boyitish kerakligini tushundi. Siz berilgan ko‘rsatmalar orqali qaysi e’lon matnlarini to‘ldirish mumkinligi haqida o‘ylang, javoblaringizni yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning matn va uning elementlari, qismlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnata olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Javob:

T/r	Takliflar	Qaysi e’longa oid?
1	E’lonlarning dizayniga alohida e’tibor qaratish	Har uchalasiga
2	Tadbirda qanday cheklovlar borligi haqida ham ma’lumot berish	(1–2-e’longa)
3	O‘quv kurslarining oylik to‘lovini yozish	(3-e’longa)
4	Videoroliklar qanday qurilmada tasvirga olinishi mumkinligi haqida ma’lumot berish	(2-e’longa)
5	Qo‘shimcha “Diqqat, diqqat, diqqat” kabi kishi e’tiborini tortuvchi so‘zlarni qo‘shish	(1–2-e’longa)
6	Necha yoshdagi ishtirokchilar qatnashishi mumkinligi haqidagi ma’lumotni qo‘shish	(1–2-e’longa)

Mulohaza

Nima deb o‘ylaysiz, 3-e’londa o‘quv markazining manzili berilishi kerak edimi? Javobingizni izohlang.

Bu topshiriq mulohaza yuritish, matnda mavjud bo‘lgan so‘z yoki iboraning ma’nosini tushunishga qaratilgan.

Javob: *yo‘q. Chunki o‘quv markazi o‘z xizmatlarini onlayn tarzda amalga oshirishni taklif etmoqda. Shuning uchun ushbu e’londa manzilning ko‘rsatilishi ahamiyatsiz.*


Uyga vazifa

Yozma nutq

Nigoraga o‘zi tashkillashtirmoqchi bo‘lgan “Mening iste’dodim” nomli tanlov uchun qanday e’lon matnini tavsiya qilgan bo‘lar edingiz? Matnda berilgan ma’lumotlar asosida e’lon matnini yarating.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning e’lon matnini yaratish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar tahrir qilgan e’lon matnlari, ulardagi xato va kamchiliklarni tuzatgan holda “Mening iste’dodim” nomli tanlov uchun e’lon matni yozishi kerakligi aytiladi.

4-soat


Nima deb o'ylaysiz, 3-e'londa o'quv markazining manzili berilishi kerak edimi? Javobingizni izohlang.

A. Ha

B. Yo'q

Nigoraga o'zi tashkillashtirmoqchi bo'lgan "Mening iste'dodim" nomli tanlov uchun qanday e'lon matnini tavsiya qilgan bo'lar edingiz? Matnda berilgan ma'lumotlar asosida e'lon matnini yarating.

Nigoraning "Mening iste'dodim" nomli tanlovi uchun tayyorlagan e'loningizni taqdim eting.

"Konstitutsiyamiz bilimdoni" tanlovini o'tkazish uchun e'lon yozishingiz kerak. Quyida berilgan jadvalni tanlovga oid ma'lumotlar asosida to'ldiring.

Tanlov yoki tadbir nomi	
E'lon qilinayotgan tadbir yoki tanlovning o'tkazilish vaqti va joyi	
Tadbir yoki tanlovni o'tkazishdan maqsad, unda ishtirok etish shartlari	(Eslatma: tanlov shartlarini yozishda nuqtali verguldan foydalaning.)
Tadbir yoki tanlov o'tkazuvchining nomi	

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar yordamida e'lon matni yozing.

Bunda quyidagi boshlanmalardan foydalanishingiz mumkin:

DIQQAT! DIQQAT! DIQQAT!

TANLOVGA CHORLAYMIZ!

O'Z BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

Sevimli faningiz darsligidan nuqtali vergul qo'llangan jumlalarni toping va yozing.

188

Dars jarayoni

Kirish

E’lon matni yaratishda nimalarga e’tibor qaratish lozim?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Nigoraning “Mening iste’dodim” nomli tanlovi uchun tayyorlagan e’loningizni taqdim eting.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning e’lon matni va unga qo‘yilgan talablardan kelib chiqqan holda mustaqil yozib kelgan e’lonlarini og‘zaki ifodalab berish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Bunda o‘quvchilar o‘zlari yozib kelgan e’lonlarini taqdim etishadi. Qolgan o‘quvchilar ushbu e’lon matnlarini diqqat bilan kuzatadilar, ular e’lon matni yozish talablariga qay darajada rioya qilinganiga e’tibor qaratishlari hamda o‘z munosabatlarini aytishlari lozim.

Bu jarayonda o‘qituvchi bildirilayotgan fikrlarning asosli ekanini nazorat qilishi hamda umumiy xulosa chiqarishi zarur.

Yozma nutq

“Konstitutsiyamiz bilimdoni” tanlovini o‘tkazish uchun e’lon yozishingiz kerak. Quyida berilgan jadvalni tanlovga oid ma’lumotlar asosida to‘ldiring.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning e’lon matniga oid muhim ma’lumotlarni aniqlash va jadval ko‘rinishida ifodalay olish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilar o‘zlari mustaqil ravishda e’lon hamda tanlov bilan bog‘liq ma’lumotlarni yozishlari lozim. Agar ushbu tanlov bilan bog‘liq yana qandaydir qo‘shimcha ma’lumotlarni kiritishga ehtiyoj sezilsa, bu haqida taklif berish, ularni ham jadvalga joylash mumkinligi aytiladi.

Yozma nutq

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar yordamida e’lon matni yozing.

Bu topshiriq o‘quvchilarning to‘plangan ma’lumotlarni saralash, e’lon matni va unga qo‘yilgan talablardan kelib chiqqan holda mustaqil e’lon yoza olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Tavsiya qilingan boshlanmalar tahlil qilinadi, har bir o‘quvchi o‘ziga ma’qul kelgan boshlanmani tanlab, e’lon yozishi kerak.

Uyga vazifa

Punktuatsiya

Sevimli faningiz darsligidan nuqtali vergul qo‘llangan jumlalarni toping va yozing.


Ushbu topshiriq o‘quvchilarning nuqtali vergul qo‘llanishini tushunish, ona tili fanini boshqa fanlar bilan integratsiya qila olish, ma’lumot to‘plash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilar o‘zlari sevgan fandan nuqtali vergul qo‘llangan gapga misol yozib, tinish belgisi qo‘llanishini izohlashlari lozim.

MUALLIFLIK HUQUQI

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilarda mualliflik huquqi haqida tasavvur hosil qilish va nutqida unga oid til birliklarini faollashtirish; olinma so‘zlar, huquqiy atamalar; tinish belgilarining umumiy ma’noga ta’sir etish xususiyatlari; gap tuzish, matn yaratish jarayonida ifodalamoqchi bo‘lingan mazmunga mos tinish belgisini qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirish; ko‘chirmakashlik yomon illat ekaniga oid matn yaratish, o‘z fikrlarini va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yozishni o‘rgatish.

1-soat



MUALLIFLIK HUQUQI

Bu mavzuda o‘rganamiz

• mualliflik huquqlari • ko‘chirmachilik illatining ijtimoiy-madaniy hayotimizga yetkazayotgan zarari • huquqiy atamalarni tushunish • gap tuzish.

1. “Muallif” so‘zini qayerlarda uchratgansiz?
2. Bu so‘zning ma’nosi nima?
3. Siz nimalarning muallifisiz?
4. Huquq deganda nimani tushunasiz? Sizning qanday huquqlaringiz bor?

Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.

190

Dars jarayoni

Kirish

Muhokama

1. “Muallif” so‘zini qayerlarda uchratgansiz?

Bu savol o‘quvchilar shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishiga qaratilgan. O‘qituvchi o‘quvchilar tushuncha hosil qilishlari uchun yo‘naltiruvchi savol berishi maqsadga muvofiq.

Masalan, “Mana bu qo‘lingizdagi kitobni kim yozgan?” “Ayting-chi, siz o‘tirgan mana bu xonaning shaklini kim chizgan?” “Mana bu xattaxta, uni kim ixtiro qilgan deb o‘ylaysiz?” kabi.

2. Bu so‘zning ma’nosi nima?

Bu – o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan savol. O‘quvchilar *“muallif”* birligi haqida dastlabki tushunchalarini aytganlaridan so‘ng, ularga ushbu birlik ma’nosi o‘qituvchi tomonidan izohlab berilishi lozim.

Muallif – biror asar, loyiha, kashfiyot va shu kabilarni yaratgan shaxs.

3. Siz nimalarning muallifisiz?

O‘quvchilar “muallif” birligi haqida tushunchaga ega bo‘lganlaridan so‘ng, o‘zlarini nimaning muallifi deb hisoblashlarini tushunib, misollar bilan aytishlari kerak.

4. Huquq deganda nimani tushunasiz? Sizning qanday huquqlaringiz bor?

Bu savol o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, “huquq” birligi, uning inson hayotidagi ijtimoiy vazifasi haqida tushuncha hosil qilishdan iborat. O‘quvchilarning ushbu birlik haqidagi dastlabki tushunchalari tinglangach, uning ma’nosi haqida izoh beriladi.

Huquq – davlat hokimiyati tomonidan belgilanadigan va qo‘riqlanadigan, jamiyatda kishilarning o‘zaro munosabatlarini va boshqalarni tartibga soladigan qonun-qoidalar, me’yorlar majmui.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Quyidagi rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.

O‘quvchilar rasm bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng, rasm ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Muhokama

1. Rasmdagi insonlar nima bilan band? Ular qilayotgan harakatni umumlashtirib, nima deyish mumkin?

Bunda o‘quvchilar rasmdagi soha vakillarining bajarayotgan ishlarini tushunishlari va unga o‘z munosabatlarini bildira olishlari lozim. Bu xatti-harakatlarning ortida “ inson mehnati” turgani, o‘quvchilarning ushbu birlikning ma’nosini tushunishi hamda his qilishiga qaratilgan.

Mehnat – biror maqsad uchun qaratilgan aqliy yoki jismoniy faoliyat, ish.


2. Rasmdagilarning har biri o‘z ishining yakunida aynan nimani yaratadi deb o‘ylaysiz?

Bunda o‘quvchilar rasmdagi kishilarning sohasi hamda ular bajarayotgan harakati orqali nima yaratishini aytishi lozim. Bu orqali o‘quvchilarning mehnat qilib biror mahsulot yaratishi, “mahsulot” birligining ma’nosini tushunishi hamda uning ijtimoiy ahamiyatini anglashi yotadi.

Mahsulot – ishlab chiqarilgan narsa; ma’naviyat, ilm-fan, texnika sohasidagi izlanishlarning natijalari, adabiyot va san’at asarlari majmui.

3. Nima uchun bir narsa yaratgan odamning mualliflik huquqi himoya qilinishi kerak?

Bu savolga o‘quvchilar shaxsiy kuzatishlari hamda yuqoridagi savol-javob orqali anglagan tushunchalari orqali erkin fikrlab javob berishlari kerak.



1. Rasmdagi insonlar nima bilan band? Ular qilayotgan harakatni umumlashtirib, nima deyish mumkin?
2. Rasmdagilarning har biri o‘z ishining yakunida aynan nimani yaratadi deb o‘ylaysiz?
3. Nima uchun bir narsa yaratgan odamning mualliflik huquqi himoya qilinishi kerak?

Mualliflik huquqi haqidagi audiomatnni tinglang. Savollarga javob bering.

1. Mualliflik huquqi deganda nimani tushundingiz?
2. Nimalar mualliflik huquqi bilan himoyalanadi?
3. Ifoda shakli deganda nimani tushundingiz?
4. Mualliflik huquqi qancha muddat davomida amal qiladi?
5. Qachondir sizning mualliflik huquqingiz buzilganmi?
6. O‘zingiz kimningdir mualliflik huquqini buzganmisiz?
7. Ijtimoiy tarmoqlarda birovning yozgan gapini yoki olgan suratini o‘z sahifasida muallifini ko‘rsatmasdan e’lon qilish mualliflik huquqini buzishga kiradimi?

Quyidagi jadvalda berilgan gaplarni o‘zaro qiyoslang. Ular qanday farq qilayotganiga e’tibor bering.

Mualliflar, ijodkorlar va ularning merosxo‘rlarining qonuniy huquqlarini mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasi tartibga soladi.	Biror ijodkor yaratgan asarni boshqa odam o‘ziniki qilib ko‘rsatsa, muallifning roziligisiz undan foydalansa, ya’ni mualliflik huquqini buzsa, bu holat qonunchilikning mualliflik huquqi sohasida belgilab qo‘yilgan tartib asosida hal qilinadi.
Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo‘lmish fan, adabiyot va san’at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmati, shuningdek, ifodalanish usulidan qat’i nazar tatbiq etiladi.	Ijod qilib yaratilgan har qanday ilmiy, badiiy, san’at asari mualliflik huquqiga ega hisoblanadi.
Mualliflik huquqi g‘oyalar, prinsiplar, uslublar, jarayonlar, tizimlar, usullar yoki konsepsiyalarga emas, balki ifoda shakliga nisbatan tatbiq etiladi.	Biror narsaning shakli aynan ko‘chirib olinganda, mualliflik huquqi buzilgan hisoblanadi.

191

Eshitib tushunish

Mualliflik huquqi haqidagi audiomatnni tinglang. Savollarga javob bering.

Audiomatn: “Mualliflik huquqi”.

Tasavvur qiling, chiroyli bir rasm chizdingiz. Lekin bir o‘rtog‘ingiz shu rasmni o‘ziniki qilib ko‘rsatib, tasviriy san’at darsida a’lo baho oldi. Yoki, aytaylik, siz she’r yozdingiz. Kimdir shuni o‘g‘irladi va gazetaga jo‘natdi. She’r uning nomidan chop etildi. Balki, siz rasm, she’rga emas, kompyuter dasturlariga qiziqarsiz. Masalan, kompyuterda yangi dastur yaratdingiz, deylik. Sizning kodingizni kimdir o‘zlashtirdi va uni biroz o‘zgartirib, o‘z dasturini yaratdi va undan katta daromad ko‘rdi. Yuqoridagi barcha holatlarda sizning mualliflik huquqlaringiz buzilgan hisoblanadi.

Hayotda ham, kattalar orasida ham bunga o‘xshash voqealar uchrab turadi. Mualliflar, ijodkorlar va ularning merosxo‘rlariga tegishli qonuniy huquqlar

mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasida tartibga solinadi.

Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo'lmish fan, adabiyot va san'at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmati, ifodalanish usulidan qat'i nazar, tatbiq etiladi. Shuningdek, oshkor qilingan yoki qilinmaganidan qat'i nazar, yozma, og'zaki, ovozli yoki videoyozuv, tasvir, hajmli-fazoviy va boshqa shakllardagi asarlarga ham qo'llanadi.

Mualliflik huquqi g'oyalar, prinsiplar, uslublar, jarayonlar, tizimlar, usullar yoki konsepsiyalarga emas, balki ifoda shakliga nisbatan tatbiq etiladi. Masalan, siz boshqa istalgan muallif yoritgan bir xil mavzuni, g'oyani, qarashni o'z asaringizda aks ettirishingiz mumkin. Lekin aynan u ishlatgan shaklda, ko'chirib ifodalashingiz mualliflik huquqini buzish hisoblanadi.

Mualliflik huquqi muallifning butun hayoti va uning vafotidan keyin ellik yil davomida amal qiladi. Muallifning vafotidan keyin birinchi marta e'lon qilingan asarga bo'lgan mualliflik huquqi esa asar e'lon qilinganidan keyin ellik yil davomida amal qiladi.

Mualliflik huquqi, mualliflik ism-familiyasiga bo'lgan huquq va muallif obro'sini himoya qilish huquqi muddatsiz muhofaza qilinadi.

O'quvchilar audiomatnni tinglab bo'lganlaridan so'ng, savol-javob asosida suhbat boshlanadi. Bu jarayonda o'qituvchi berilgan savollarning birortasi ochiq qolmasligini ta'minlashi hamda ko'proq o'quvchilarni javob berishga jalb qilishi lozim.

Muhokama

1. Mualliflik huquqi deganda nimani tushundingiz?

Bu savol matn mazmunini tushunishga qaratilgan. O'quvchilar audiomatndan olgan xulosalari asosida o'z fikrlarini bildirishlari mumkin. Bunda asosiy e'tibor fikrini asoslab, aytib bera olishlariga qaratiladi.

2. Nimalar mualliflik huquqi bilan himoyalanadi?

Bu savolning javobi matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma'lumotni topishga qaratilgan. Javobni audiomatnning mana bu qismidan anglash mumkin:
"*Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo'lmish fan, adabiyot va san'at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmati, ifodalanish usulidan qat'i nazar, tatbiq etiladi. Shuningdek, oshkor qilingan yoki qilinmaganidan qat'i nazar, yozma, og'zaki, ovozli yoki videoyozuv, tasvir, hajmli-fazoviy va boshqa shakllardagi asarlarga ham qo'llanadi".*

O'quvchilardan buni so'zma-so'z aytib berishlari talab etilmaydi. Ular matndan xulosa qilib, o'z fikr-mulohazalarini aytishlari kerak.

3. "Ifoda shakli" deganda nimani tushundingiz?

Bu savol keltirilgan birlikning kontekstual ma'nosini tushunishga qaratilgan. O'quvchilar ushbu birlik keltirilgan o'rinni topib, munosabat bildirishlari lozim.

Mualliflik huquqi g'oyalar, prinsiplar, uslublar, jarayonlar, tizimlar, usullar yoki konsepsiyalarga emas, balki ***ifoda shakliga*** *nisbatan tatbiq etiladi.*

Ushbu birlikning ma'nosi berilgan misol orqali anglashiladi. O'quvchilar tushunishga qiynalgan taqdirda hayotiy misol keltirish o'rinli.

Masalan, "Xamsachilik" an'anasidan xabaringiz bor, Abdurahmon Jomiy, Xusrav Dehlaviy, Nizomiy Ganjaviy hamda Alisher Navoiy bobomiz "Xamsa" yozganlar. Bu asarlarning g'oyasi, mazmuni, hatto qahramonlar ismigacha bir

xil, ammo ularning ifoda shakli, mazmunini yoritishdagi ifoda usuli turlicha. Ular bir-biridan aynan ko‘chirmagan, balki bir shakl asosida turli xil dostonlar yaratishgan.

4. Mualliflik huquqi qancha muddat davomida amal qiladi?

Mualliflik huquqi muallifning butun hayoti va uning vafotidan keyin ellik yil davomida amal qiladi. Muallifning vafotidan keyin birinchi marta e’lon qilingan asarga bo‘lgan mualliflik huquqi esa asar e’lon qilinganidan keyin ellik yil davomida amal qiladi.

5. Qachondir sizning mualliflik huquqingiz buzilganmi?


Bu – o‘quvchilar shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishiga qaratilgan savol. O‘quvchilar o‘zlarida sodir bo‘lgan holat bilan bog‘lab erkin javob berishlari mumkin.

6. O‘zingiz kimningdir mualliflik huquqini buzganmisiz?

Bu savol ham o‘quvchilar hayotiy kuzatishlari asosida javob berishiga qaratilgan bo‘lib, ular bunday vaziyatga tushgan o‘rinlarini misol keltirib aytishlari lozim. Bunda o‘qituvchi nazorat darslarida *o‘quvchilarning sinfdoshidan, yozma matnlar yozish jarayonida kitob, jurnal, gazeta, internet manbalaridagi ma’lumotlarni tayyor ko‘chirib olishlari mualliflik huquqini buzishga* kirishini aytib o‘tishi lozim.

7. Ijtimoiy tarmoqlarda birovning yozgan gapini yoki olgan suratini o‘z sahifasida muallifini ko‘rsatmasdan e’lon qilish mualliflik huquqini buzishga kiradimi?

O‘quvchilar audiomatn orqali mualliflik huquqi haqida o‘zlashtirgan bilimlari asosida *kimningdir mehnatini o‘ziniki qilib olishga intilish mualliflik huquqining buzilishiga sabab bo‘lishini* aytib bera olishlari kerak.



Mualliflik huquqi muallifning butun hayoti davomida va uning vafotidan keyin yetmish yil amal qiladi.	Yaratilgan asarning mualliflik huquqi muallif hayotligida bir umr, vafotidan so‘ng yetmish yil unga tegishli hisoblanadi.
Muallifning vafotidan keyin birinchi marta e’lon qilingan asarga bo‘lgan mualliflik huquqi esa asar e’lon qilinganidan keyin yetmish yil davomida amal qiladi.	Asar muallif hayotligida e’lon qilinmagan bo‘lsa va vafotidan so‘ng e’lon qilinsa, e’lon qilingan vaqtdan boshlab yetmish yil davomida mualliflik huquqi muallifga tegishli bo‘ladi.

Quyidagi gaplardagi bo‘sh o‘rinlarni audiomatnga asoslangan holda to‘ldirib, daftaringizga yozing.

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasi_____ _____ _____ning huquqlarini tartibga soladi.
Mualliflik huquqi quyidagi sohalarga tegishli asarlarga tatbiq qilinadi: _____
Mualliflik huquqi qo‘llanadigan asarlar quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:
Mualliflik huquqi quyidagilarga nisbatan qo‘llanmaydi:_____
Mualliflik huquqiga oid quyidagi jihat muddatsiz muhofaza qilinadi:_____

Quyidagi so‘zlarning ma’nosini lug‘atlardan topib, yozing.

Huquq, kod, turdosh, merosxo‘r, faoliyat, qat’i nazar, oshkor qilmoq, prinsip, uslub, jarayon, tizim, usul, konsepsiya, amal qilmoq.

1. Uyga vazifada berilgan qaysi so‘zlarning ta’rifini topishda qiynaldingiz?
2. Ushbu so‘zlarni siz yana qayerlarda, qanday matnlarda uchratgansiz?
3. Siz qachondir shu so‘zlardan foydalanishingiz mumkinmi?

Quyida O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasida keltirilgan asosiy tushunchalar ta’rifi berilgan. Ularni o‘qib, tushunganlaringizni sinf bilan muhokama qiling.

Asar nusxasi — asarning har qanday moddiy shaklda tayyorlangan ko‘chirmasi.
Ijro — asarni (shu jumladan, xalq ijodiyoti asarini), fonogrammani, ijroni, sahna asarini o‘yin, ifodali o‘qish, kuylash, raqsga tushish orqali jonli ijro yoki texnika vositalari yordamida taqdim etish.
Ijrochi — aktyor, xonanda, sozanda, raqqos yoki rol o‘ynaydigan, kuylaydigan, o‘qiydigan, ifodali o‘qiydigan, raqsga tushadigan, talqin etadigan, musiqa asbobini chaladigan yoxud

192

O‘qib tushunish. Tahlil

Quyidagi jadvalda berilgan gaplarni o‘zaro qiyoslang. Ular qanday farq qilayotganiga e’tibor bering.

Mazkur topshiriqdan maqsad qonunda yozilganlarini tushunish hamda rasmiy uslub haqida o‘quvchilar tasavvurini shakllantirishdan iborat.

O‘quvchilar jadvalning ikkala ustunida berilgan gaplarni o‘qib, o‘zaro taqqoslab, shakl va mazmunidagi o‘zgarishlarni aniqlab aytishlari lozim. Bu jarayonda o‘qituvching e’tiborini yo‘naltiruvchi savollar berib, o‘quvchilarni rasmiy uslubga xos birliklarni tushunishga qaratishi maqsadga muvofiq.

Eshitib tushunish

Quyidagi gaplardagi bo‘sh o‘rinlarni audiomatnga asoslangan holda to‘ldirib, daftaringizga yozing.

Bu topshiriq o‘quvchilarning eshitib tushunish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Dastlab o‘quvchilarga berilgan gaplarni o‘qib chiqishlari aytiladi. So‘ngra audiomatn qayta eshittiriladi. O‘quvchilar eshitish davomida kerakli jumlalar bilan bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirib, noto‘liq matnni yaxlit holga keltirib yozishlari lozim.

Javob:

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasi ***mualliflar, ijodkorlar*** *va ularning* ***merosxo‘rlari*** *huquqlarini tartibga soladi.*

Mualliflik huquqi quyidagi sohalarga tegishli asarlarga tatbiq qilinadi: ***fan, adabiyot va san’at asarlari.***

Mualliflik huquqi qo‘llanadigan asarlar quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin: ***yozma, og‘zaki, ovozli yoki videoyozuv, tasvir, hajmli-fazoviy.***

Mualliflik huquqi quyidagilarga nisbatan qo‘llanmaydi: ***g‘oyalar, prinsiplar, uslublar, jarayonlar, tizimlar, usullar.***

Mualliflik huquqiga oid quyidagi jihat muddatsiz muhofaza qilinadi: ***mualliflik ismi-sharifiga bo‘lgan huquq va muallif obro‘sini himoya qilish huquqi.***

Uyga vazifa

Leksikografiya

Quyidagi so‘zlarning ma’nosini lug‘atlardan topib yozing.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish hamda lug‘at bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan so‘zlarning ma’nosini lug‘atdan topib, yozishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining berilgan so‘z haqida tushuncha hosil qilishi hamda so‘z va izohlarini imlo qoidalariga ko‘ra yoza olishiga qaratiladi.

2-soat


adabiyot yoki san’at asarini (shu jumladan, xalq ijodiyoti asarini) o‘zgacha tarzda ijro etadigan boshqa jismoniy shaxs, shuningdek, spektaklning sahnalashtiruvchi rejissyori va dirijyor.

Manzarali-amaliy san’at asari — asli yoki nusxalari amalda foydalanish ashyolari sifatida qo‘llanadigan yoki ana shunday ashyolarga ko‘chirilgan ikki yoki uch o‘lchovli san’at asari, shu jumladan, badiiy hunarmandchilik asari yoki sanoat usulida tayyorlangan asar.

Muallif — ijodiy mehnati bilan asar yaratgan jismoniy shaxs.

Chop etish — asarning, ijro yozuvining yoki fonogrammaning xususiyatidan kelib chiqqan holda ommaning oqilona ehtiyojlarini qondirish uchun yetarlicha miqdorda asarning, ijro yozuvining yoki fonogrammaning nusxalarini asar muallifining, ijrochining yoki fonogrammani tayyorlovchining roziligi bilan muomalaga chiqarish.

Huquq egasi — mualliflik huquqiga nisbatan muallif yoki uning merosxo‘rlari, turdosh huquqlarga nisbatan ijrochi yoki uning merosxo‘rlari, fonogrammani tayyorlovchi, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilot, shuningdek, shartnomada yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa asos bo‘yicha asarlardan yoxud turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanish huquqini olgan boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslar.

Dars jarayoni

Kirish

1. Uyga vazifada berilgan qaysi so‘zlarning ta’rifini topishda qiynaldingiz?

2. Ushbu so‘zlarni siz yana qayerlarda, qanday matnlarda uchratgansiz?

3. Siz qachondir shu so‘zlardan foydalanishingiz mumkinmi?

Bu savollar o‘quvchilarni mavzuga olib kirish, uyga berilgan vazifani mustaqil izlanib, qay darajada bajarganlarini tekshirish hamda berilgan so‘zlarga oid tushunchalarni nutqida faollashtirishga qaratilgan.

Dars muhokama tarzida olib boriladi. Berilgan so‘zlar xattaxtada yozilib, o‘quvchilarning izohlari, bu so‘zga qayerda duch kelganlari hamda qanday vaziyatda qo‘llash mumkinligi haqidagi tushunchalari so‘raladi.

O‘quvchilar lug‘atdan topa olmagan, ma’nosini tushunish qiyin bo‘lgan so‘zlar

misollar bilan tushuntirib o‘tilishi maqsadga muvofiq.

Asosiy qism

O‘qib tushunish. Muhokama

Quyida O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasida keltirilgan asosiy tushunchalar ta’rifi berilgan. Ularni o‘qib, nimani tushunganingizni sinf bilan muhokama qiling.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirish, huquqiy atamalar haqida tushuncha hosil qilish hamda mualliflik huquqi haqida ma’lumot berishga qaratilgan.

O‘quvchilar ma’lumotlarni o‘qib, tanishib chiqqanlaridan so‘ng, ular asosida suhbat boshlanadi.

Bu jarayonda o‘qituvchi berilgan huquqiy atamalarni xattaxtaga yozib, o‘quvchilardan ushbu so‘zga oid tushunchalarni so‘raydi. Ulardan darslikda berilgan izohlarni so‘zma-so‘z aytib berish talab etilmaydi. Bunda asosiy e’tibor ushbu atamalar haqida tushunchaga ega bo‘lishlari hamda qanday vaziyatlarda foydalana olishlarini hayotiy misollar bilan tushuntirib bera olishlariga qaratiladi.

O‘quvchilar javob berishga qiynalgan taqdirda o‘qituvchi izohlar ma’nosini ochishga qaratilgan yo‘naltiruvchi savollar berishi maqsadga muvofiq.

O‘qib tushunish

Quyida O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunining 6-moddasi bilan tanishing.

Ushbu topshiriq mualliflik huquqi haqida ma’lumot berish, ushbu ma’lumotlarni o‘qib tushunish hamda kerakli vaziyatda foydalana olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilar 6-modda bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng, ushbu moddada berilgan ma’lumotlarni o‘zlashtirishga yo‘naltiruvchi savollar asosida suhbat tashkil qilinishi maqsadga muvofiq.

Masalan:

1. *Obyekt nima? Huquqiy obyekt deganda nimani tushundingiz?*
2. *Mualliflik huquqining qanday obyektlari bor ekan?*
3. *Bu ma’lumotlar bizga nima uchun kerak? Sizningcha, bu ma’lumotlarning modda sifatida kiritilishi o‘rinlimi?*

Muhokama

Siz yuqoridagi asarlarning mualliflik huquqi buzilgan holatga duch kelganmisiz? Buni sinf bilan muhokama qiling.

Bu savol o‘quvchilar shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishlariga qaratilgan. O‘quvchilar yuqorida mualliflik huquqi haqida o‘zlashtirgan bilimlari asosida javob berishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor modda mazmunini tushunish hamda hayotiy misollar bilan fikrlarni asoslab berishga qaratiladi.

Yozma nutq

“Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasida ko‘rsatilgan asarlarga misollar yozib chiqing.

Bu topshiriq berilgan ma’lumotlarni hayotiy misollar bilan amaliy tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar 6-moddada ko‘rsatilgan har bir band uchun namuna asosida misol topib yozishlari kerak.

Bu jarayonda o‘qituvchi har bir bandni ajratib, qaysi asarlarga misol topish

bo‘yicha ko‘rsatma berib o‘tishi maqsadga muvofiq.

Uyga vazifa

Yozma nutq. Matn yaratish

Sinfda muhokama qilingan holatlardan birini tanlab, u haqida qisqacha matn yozing. Yozgan matningizda asar qanday yo‘nalishda ekani, uni kim yaratgani, mualliflik qanday shaklda buzilgani aks etishi kerak.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning mustaqil izlanib, ijodiy yondashishlariga qaratilgan. O‘quvchilar yuqorida bajargan topshiriqlari asosida mualliflik huquqi buzilishi aks etgan matn yozishlari lozim.

Bunda ularga gazeta, jurnal, ijtimoiy tarmoqlardan ma’lumot qidirishlari, to‘plagan ma’lumotlari asosida matn yozishlari mumkinligi aytiladi.

Asosiy e’tibor o‘quvchilarning mavzuni tushungani, mualliflik huquqi buzilgan o‘rinni izlab topib, amaliy guvoh bo‘lgani, berilgan ko‘rsatma asosida ma’lumot topishi, ma’lumotlarni tartiblab matn yoza olishi hamda kerakli til birliklaridan foydalanganiga qaratiladi.

3-soat

Dars jarayoni

Kirish

Ko‘chirmachilik nima? Siz ham ko‘chirmachilik qilganmisiz? Bunga sizni nima majbur qilgan?

O‘qib tushunish

Matnni o‘qing. Savollarga javob bering.

Matn: “Ko‘chirmachilik taraqqiyotimiz ildiziga urilgan boltadir”.

Muallif: Doniyor Ro‘zmetov.

O‘quvchilar matnni o‘qib chiqqanlaridan so‘ng, matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.



Matnni o‘qing. Savollarga javob bering.

KO‘CHIRMACHILIK TARAQQIYOTIMIZ ILDIZIGA URILGAN BOLTADIR

Parijdagi universitetda o‘qiganimda xalqaro tashkilotlarga bag‘ishlangan darsimiz bor edi. O‘sha darsning ilk kunida o‘qituvchi barcha talabalarga vazifalarni bo‘lib berdi. Men va bitta nemis o‘rtog‘im birgalikda taxminan 15 varaqcha kurs ishi yozishimiz va navbatimiz kelganda uni og‘zaki gapirib berishimiz kerak edi.

Kurs ishi uchun xalqaro tashkilotlar haqida internetdan ma’lumot qidirayotgan edim, bitta tayyor matn chiqib qoldi. Matn bir tashkilotning saytida e’lon qilingan bo‘lib, juda mukammal yozilgan edi. Men qancha harakat qilsam ham, unday matnni yoza olmas edim. Matnni shartta ko‘chirib, “WORD”ga tashlab oldim-da, nemis o‘rtog‘imga kurs ishining o‘zimga tegishli qismini ishlab bo‘lganimni xabar qildim. O‘rtog‘im umumiy ishning yarmi tezda bitgani uchun xursand bo‘lib ketdi, chunki u o‘sha paytda o‘z qismini yozishga qiynalib, bir-biridan qiyin kitoblarni o‘qish bilan ovora edi.

Kurs ishi topshiriladigan kuni ikkalamizning qismlarimizni birlashtirib, uni elektron pochtadan domlaga yuborish uchun o‘rtog‘im bilan ertalab institutda ko‘rishdik. Kurs ishini jo‘natishning oxirgi muddati kechqurun edi. Ikkalamiz yozgan matnlarni ko‘ra turib, nemis o‘rtog‘im: “Iya, sen foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini kiritmabsan”, – deb qoldi. Men: “Shart bo‘lmasa kerak deb o‘ylagandim. Bu shunchalik muhimmi?” – deb so‘radim, chunki matnni o‘zim yozmaganimdan keyin, tabiiyki, menda uning bibliografiyasi ham yo‘q edi. Nemis o‘rtog‘im: “Albatta muhim, axir bu ilmiy kurs ishi-ku”, – deb turib oldi.

O‘ylanib turganimni ko‘rib, nemis o‘rtog‘im menga yordam berishga qaror qildi. “Xafa bo‘lma, hozir internetdan qidirib, sen yozgan fikrlarning ayrimlari kimga tegishli ekanini bilib olib, bibliografiya tayyorlaymiz”, – dedi. Men osonlikcha qutulayotganimdan xursand bo‘lib ketdim. O‘rtog‘im men “yozgan” matnni olib, “Google”ga tashlagan edi, shundoq men ko‘chirib olgan sayt eng birinchi bo‘lib chiqib kelsa bo‘ladimi?! U dastlab matn ko‘chirilgan

195

Muhokama

Matn asosida berilgan savollar o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirish bilan birga “ko‘chirmachilik” eng katta jinoyat ekani, uning rivojlanishga to‘siq bo‘lishini tushuntirishdan iborat.

1. Matn muallifi qayerda o‘qigan?

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. Matnning 1-xatboshisida javob keltirilgan: *Parij, Fransiya.*

2. U qanday vazifa topshirishi kerak edi?

Matnning 1-xatboshisida keltirilgan fikrlarga ko‘ra, *u “Xalqaro tashkilotlar” darsidan nemis kursdoshi bilan birga 15 varaqlik kurs ishi yozib, uni og‘zaki himoya qilib berishi* kerak edi.

3. U nima uchun vazifani o‘zi bajarmadi?

Bu savol matnda implitsit (yashirin) ifodalangan ma'lumotni topishga qaratilgan. O'quvchilar matnning 2-xatboshisi asosida mulohaza qilib: *u kurs ishi yoza olishiga ishonmagani hamda doim ko'chirib bajarishga odatlanganini* izohlab aytib bera olishi lozim.

4. Nemis kursdoshi vazifa ko'chirilganini qanday bilib qoldi?

Bu savol matndagi ma'lumotlarni integratsiya qilib, xulosa chiqarishga qaratilgan. O'quvchilar matnning 4-xatboshisida berilgan suhbat asosida, nemis kursdoshining *foydalanilgan adabiyotlarni qidirib topishga yordam beraman deb izlagani va o'rtog'ining tayyor matndan ko'chirib olganligini* tushunib aytishi kerak.

5. Nemis talaba nima uchun ko'ziga yosh oldi?

Matnning 6-qismida *ko'chirmachilik uchun ikkalasining ham o'qishdan haydalishi va 5 yilgacha hech qayerda o'qiy olmasligi*dan bu holatning og'ir baholanishini tushunish mumkin.

6. Matn muallifi muammoni qanday hal qildi?

Matnning 7-qismidagi ma'lumotlarga ko'ra *matn muallifi qilgan ishi katta gunohligi, o'zi bilan birga bir begunohning hayotiga jabr bo'lishini o'ylab, o'z qismini kechgacha yozib berganini* anglash mumkin.

7. Uning qisqa muddatda qiyin vazifani uddalashiga nima turtki berdi?

Uyat, mas'uliyat, millat sha'ni va yaxshi baho olish istagi.

8. Matn muallifining fikri nima uchun o'zgardi?

Muallif ko'chirmachilikning jinoyat ekanini anglab yetdi.

9. Ko'chirmachilik nima uchun taraqqiyotga to'siq bo'ladi?

10. Ko'chirmachilik qilgan odamning o'zi bundan qanday zarar ko'radi?

9-, 10-savollar o'quvchilarning matn mazmunidan olgan xulosalari asosida erkin fikrlab javob berishlarini talab qiladi. O'quvchilarning munosabatlari tinglanadi hamda o'qituvchi tomonidan matn mazmuni umumiy tushuntirib beriladi.

Uch guruhga bo'lining. Matnda aks ettirilgan holatni sahnalashtirib berishingiz kerak. Buning uchun dastlab ssenariy yozing. Qahramonlar qanday harakat qiladi, qaysi harakatni bajarayotganda qaysi gapni aytadi – bularning hammasi ssenariyda aks etishi kerak.

Izoh

Mazkur topshiriq ketma-ketlikda bajariladi.

Uyga vazifa

Leksikologiya. Sintaksis

Matndagi olinma so'zlarni daftaringizga yozing. Ular ishtirokida gap tuzing.

Bu savol o'quvchilarning olinma so'zlar ma'nosini tushunish hamda uni mos kontekstda qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilarga matn tarkibidan olinma so'zlarni aniqlab, ular ishtirokida gap tuzib yozishlari aytiladi. Dastlab ular bilan olinma so'zlar haqida savol-javob o'tkazib olish maqsadga muvofiq.


4-soat

Dars jarayoni

Kirish

Qanday holatlarda tinish belgilari qo'shaloq ishlatiladi? Misol keltiring.

Asosiy qism



Matndan olingan quyidagi gaplarni o'qing. Ularning ayrimlarida undov belgisining o'zi, ayrimlarida undov belgisi so'roq belgisi bilan birga qo'llangan. Gaplarning matnda bildirgan ma'nosidan kelib chiqib, ushbu tinish belgilarining nima uchun qo'llanganini tushuntiring.

1. O'rtog'im men "yozgan" matnni olib, "Google"ga tashlagan edi, shundoq men ko'chirib olgan sayt eng birinchi bo'lib chiqib kelsa bo'ladimi?!
2. U o'qishda davom etdi va oxirigacha o'qib bo'lgach, menga ayblovchi nigoh bilan qaradi-da, "Sen ko'chiribsan-ku!", – dedi.
3. Shunday dardi bor ekan, jo'natadigan kuni aytadimi?!
4. O'sha kundan boshlab O'zbekistonda ko'chirmachilarning soni bittaga kamayib, ko'chirmachilikning ashaddiy dushmanlari soni bittaga ko'paydi!

Quyidagi gaplarda ayrim so'zlar nima uchun qo'shtirnoqqa olinganini izohlang.

O'rtog'im men "yozgan" matnni olib, "Google"ga tashlagan edi, shundoq men ko'chirib olgan sayt eng birinchi bo'lib chiqib kelsa bo'ladimi?!
Lekin bitta nemis talabasining vijdoni "oddiy" ko'chirmachilikni qabul qila olmay, ko'zi yoshlanganini ko'rib, o'zimdan uyalib ketdim.

Matndan olingan quyidagi fe'llar tuzilishiga ko'ra qanday fe'l ekanini yozma tahlil qiling.

bo'lib berdi | gapirib berish | chiqib qoldi | yoza olmas edim
ishlab bo'lgan | ko'ra turib | turib oldi | o'ylanib turganim
bilib olish | xursand bo'lib ketdim | ko'chirib olgan
chiqib kelsa | o'qib bo'lgach | o'rganib qolgan ekanman
jo'nata olmaymiz | his qildim | aylanib qolgan
qabul qila olmay | rivojlanib ketishgani | tushunib yetdim
yozib tugatdim | borib-kelib turdi

"Ko'chirmachilik taraqqiyotimiz ildiziga urilgan boltadir" matni asosida bayon yozing. Uni muallif tilidan emas, o'z tilingizdan hikoya qiling.

198

Punktuatsiya

Matndan olingan quyidagi gaplarni o'qing. Ularning ayrimlarida undov belgisining o'zi, ayrimlarida undov belgisi so'roq belgisi bilan birga qo'llangan. Olingan gaplarning matnda bildirgan ma'nosidan kelib chiqib, ushbu tinish belgilarining nima uchun qo'llanganini tushuntiring.

Mazkur topshiriq o'quvchilar tinish belgilarining qo'shaloq qo'llanishi haqida tasavvur hosil qilishi, amaliy topshiriq orqali mavzuni tushunishiga qaratilgan.

Dastlab o'quvchilarga berilgan gapni o'qib, munosabat bildirish aytiladi. Ularning fikri tinglangach, o'qituvchi tomonidan gaplar ohang bilan o'qib berilib, tinish belgilarining qo'llanilishi tushuntirilishi lozim.

Punktuatsiya

Quyidagi gaplarda ayrim so'zlar nima uchun qo'shtirnoqqa olinganini izohlang.

Ushbu topshiriq qo'shtirnoqning qo'llanishini tushunishga qaratilgan. O'quvchilar gaplarni o'qib, nima uchun qo'shtirnoq ishlatilganini aytishi lozim. Ularning fikri tinglangach, o'qituvchi qo'shtirnoqning qo'llanishi haqida ma'lumot berishi kerak.

Morfologiya

Matndan olingan quyidagi fe'llar tuzilishiga ko'ra qanday fe'l ekanini yozma tahlil qiling.

Bu topshiriq fe'llarning tuzilishiga oid lingvistik bilimlarni amaliy topshiriq orqali mustahkamlash hamda o'quvchilarda tahlil qila olish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O'quvchilar berilgan fe'llarning tuzilishiga ko'ra qanday fe'l ekanligini misollar bilan yozib, izohlab berishlari lozim.

Mashqni bajarib bo'lishgach, fe'llar xattaxtada yozilib, guruh bilan birga muhokama qilinishi, izohlab berilishi maqsadga muvofiq.

Uyga vazifa

Yozma nutq. Matn yaratish

"Ko'chirmachilik taraqqiyotimiz ildiziga urilgan boltadir" matni asosida bayon yozing. Uni muallif tilidan emas, o'z tilingizdan hikoya qiling.

Mazkur topshiriq o'quvchilarning yozma nutq ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar dars davomida o'zlashtirgan bilimlari hamda shaxsiy kuzatishlaridan kelib chiqib, yuqoridagi matn asosida bayon yozishlari kerak.

Bunda o'quvchilarga bayon yozish haqida yo'naltiruvchi ma'lumot berish maqsadga muvofiq.

O‘QUV YILI OXIRIDA TAKRORLASH

1-soat



Dars jarayoni

Kirish

Bo‘sh vaqtingizda mutolaa bilan shug‘ullanasizmi? Ko‘proq nimalarni o‘qiysiz?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Rasmda tasvirlangan gazeta, jurnal va kitoblar bilan tanishing hamda savollarga javob bering.

O‘quvchilar berilgan rasmlar bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng, rasm ostidagi savollar asosida suhbat boshlanadi.

Muhokama

Rasm yuzasidan berilgan savollar o‘quvchilarning shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishlariga qaratilgan. O‘quvchilar o‘zlari sevib mutolaa qilgan gazeta, jurnal, kitoblar haqida fikr bildirishlari lozim. Bunda ular nomlari keltirilgan asarlarning nimasi yoqqani, nima uchun sevib o‘qishlarini aytib berishlari so‘raladi. Bu jarayondan maqsad asar bilan tanish bo‘lmagan o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otishdan iborat.

Orfografiya

Jadvalni to‘ldiring. Imlo qoidalariga rioya qiling.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning atoqli otlarni farqlash, ularni imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar o‘zlariga tanish bo‘lgan nashrlarning nomlarini guruhlarga ajratib yozishlari kerak.

Yozma nutq. Matn yaratish

Sizningcha, tengqurlaringiz orasida qanday gazeta yoki jurnalga ehtiyoj bor? Uning mundarijasi, ruknlari qanday bo‘lishini xohlaysiz? Bu mazmunda matn yozing.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning matn yozish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar kuzatishlari asosida gazeta va jurnallardagi kamchiliklarni aniqlab, ularga qo‘shimcha kiritish uchun yo‘riqnoma asosida taklif ishlab chiqishlari hamda uni matn ko‘rinishida yozishlari lozim.

Tinglab tushunish

Sinfdoshingiz tuzgan matnni tinglang va unga munosabat bildiring.

Bu topshiriq o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish bilan birga tinglab tushunish, munosabat bildirish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilar o‘zlari yozgan matnlarni navbat bilan o‘qiydilar, qolganlar sinfdoshlarining nutqini tinglaydilar. O‘quvchilar tinglash jarayonida kerakli o‘rinlarni qayd etib, savollar bilan munosabat bildirishlari lozim.

Uyga vazifa

Ijodiy ish

Tuzgan matningiz asosida gazeta yoki jurnal sahifasini tayyorlang. O‘qituvchingizga taqdim eting.

O‘quvchilar yozgan matnlari yuzasidan gazeta sahifasi tayyorlashlari kerak. Bunda rasm, shakl, chizmalardan foydalanish mumkinligi aytiladi.

Bu topshiriq ushbu yo‘nalishga qiziqishi bor o‘quvchilarning qobiliyatini yuzaga chiqarishga qaratilgan.

2-soat



Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

...

So‘z – qudratli, ta’sirchan va **mas’uliyatli** qurol. Ijodkorning so‘z boyligi qancha katta bo‘lsa, yozish jarayoni shuncha tez va tabiiy kechadi. Bu borada, chetroqdan bo‘lsa ham, ikkita misol aytish mumkin. Bundan ancha yil avval dengizga dam olishga borganimda, savdo kemasida kapitan yordamchisi bo‘lib ishlovchi odam bilan hamxona bo‘lib qoldik. Ko‘pni ko‘rgan, bilimdon kishi ekan. Uning bir odati bor edi. Har kuni cho‘milishga borganda bir qo‘li bilan gazetani boshi ustida baland ko‘tarib oladi-da, ikkinchi qo‘li bilan yonboshlab suzgan ko‘yi dengiz ichkarisiga yuz-ikki yuz quloch joyga suzib boradi. So‘ng suv ustiga chalqancha tushib, soatlab gazeta o‘qib yotadi. Nima uchun cho‘kib ketmasligini so‘raganimda g‘alati gap aytdi: “Oddiy odamlar yerda yurganida o‘zini qanchalik erkin sezsa, haqiqiy dengizchi ham ummonda o‘zini shunday erkin his qilishi shart. Dengiz mening o‘z uyim, o‘z dardim”.

Yana bir misol. O‘tgan asrning yetmishinchi yillari sho‘ro xokkeychilari bilan kanadaliklar o‘rtasida ayovsiz janglar bo‘lardi. Kanadaliklar orasida Bobbi Hall degan juda mohir va jangarisi bor edi. Raqiblari bilan mushtlashaverib sog‘ joyi qolmagan, “Ming chandiqli odam” laqabini olgan Bobbidan “Xokkeychi bo‘lish uchun nima qilish kerak?” deb so‘rashganida, boshqalar tekis yo‘lda yurganda o‘zini qanday erkin his qilsa, xokkeychi ham muz ustida shunday yurishi, oyog‘ida konki borligi **hayol**iga kelmasligi kerak, deb javob qilgan edi.

Shu mantiqdan kelib chiqadigan bo‘lsak, haqiqiy qalamkash ham so‘zlar ummonida o‘zini dengizchidek erkin his etmog‘i, qachon, qanday so‘z ishlatishni bilmay, ikkilanib qolmasligi kerak. Odatda asar tug‘ilishi jarayonida kerakli so‘zlarning o‘zi quyilib keladi. Biroq “quyilib kelgan” so‘zlarning duch kelganini ishlatish to‘g‘ri emas. Chinakam ijodkor o‘nta muqobil so‘z orasidan bitta eng keraklisini tanlab olishi, ya’ni so‘z ummonida suzayotib, “bo‘sh chig‘anoq”ni emas, “ichida gavhari bor” chig‘anoqni olib chiqishi lozim.

O‘ziga talabchan qalamkash har bir so‘zning ma’nosinigina emas, kelib chiqishini ham yaxshi bilmog‘i shart. O‘rinsiz ishlatilgan bitta so‘z butun boshli asar **xusni**ni buzishi mumkin. Haqiqiy badiiy, publitsistik asarda fikr bilan birga manzara va muhit, rang va ohang, inson qiyofasi va fe’l-atvori yaqqol ko‘rinib turadi. Shoir yoki adib gullagan shaftolizorni shunday tasvirlaydiki, kitob o‘qiyotganingizda bog‘ ichiga kirib sayr qilayotgandek, yengil shamol epkinida ustingizga shaftolining **pushti rang** gullari unsiz yog‘ilayotgandek bo‘ladi. Yarim kechasi olisdan o‘tib borayotgan poyezd g‘ildiraklari ovozini shunday tasvirlaydiki, o‘sha tovushni siz ham eshitib, olis-olislarga ketib qolgingiz keladi. Qovun polizini ko‘z o‘ngingizga

202

Dars jarayoni

Kirish

Sizning tasavvuringizcha, iste’dodli qalamkash qanday bo‘ladi?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

Muallif: O‘tkir Hoshimov.

O‘quvchilar matnni o‘qib chiqqanlaridan so‘ng matn ostidagi topshiriqlar asosida suhbat boshlanadi.

Muhokama

1. Yozuvchi sharhlagan ibora va jumlalardan nimani tushundingiz?

Bu savol matn mazmunini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar yozuvchi jumla va iboralar orqali nimaga ishora qilganini tushunib, aytib bera olishlari lozim. Bunda o‘quvchilarning asosiy e’tibori iboralarning mazmun-mohiyatini tushunish, bir xil mazmundagi ibora daraja qo‘llanish imkoniyatiga ko‘ra farqlanishini anglab yetishiga qaratiladi.

2. “Personaj” so‘zini izohlang.

Bu savol o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan. O‘quvchilar matnda ushbu so‘z kelgan o‘rinni topib, tushunchalarini aytishlari lozim. Ularning fikri to‘ldirilib, ma’lumot beriladi.

Personaj – san’at va badiiy adabiyotda (hikoya, roman, pyesa, kinofilm kabilarda) muallif tomonidan tasvirlangan har bir shaxs.

Test. Tahlil

Matn asosida berilgan testlarni yeching va javobini daftaringizga belgilang.

1. To‘g‘ri javob: D. Haqiqiy qalamkash sifatlarini baholashni o‘xshatish asosida tushuntirish.

Bu savol muallif maqsadini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar keltirilgan holatlar orqali yozuvchi sifatlashdan foydalanayotganini tushunib, aytib bera olishi lozim.

2. To‘g‘ri javob: qurol.

Berilgan ushbu birlikda “qurol” so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llangan.

Qurol – harbiy yarog‘, urush asbobi, aslaha, ko‘chma ma’noda biror maqsadga erishish, uni amalga oshirish uchun xizmat qiladigan har qanday vositaga nisbatan ishlatiladi. Bu yerda ikkinchi, ko‘chma ma’noda qo‘llanganligini anglash mumkin.

3. To‘g‘ri javob: A. So‘zlarning etimologiyasini bilish.

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. O‘quvchilar matnning to‘rtinchi xatboshisidagi *“O‘ziga talabchan qalamkash so‘z ma’nolari bilan birga uning kelib chiqishini bilishi lozim”* degan jumladan *so‘zning etimologiyasini* bilishga ishora qilinayotganini anglashlari zarur.

4. To‘g‘ri javob: E. Manzara va muhit, rang va ohang, inson qiyofasi va fe’l-atvori.

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. Matnning to‘rtinchi xatboshisida keltirilgan fikrdan buni anglash mumkin.

5. To‘g‘ri javob: B. Qiyqirig‘i.

Bu savol so‘zning kontekstual ma’nosini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan parchadan tushib qolgan so‘zni topib qo‘yishlari lozim.

6. To‘g‘ri javob: D. Badiiy va publitsistik asarga mos keladigan sifatlar o‘zaro o‘xshash bo‘lib, badiiy asar fikr va mulohaza uyg‘otishi bilan publitsistik asardan biroz farq qiladi.

Bu savol matndagi ma’lumotlarni saralash, hukmning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini topishga qaratilgan. Variantlarda berilgan ma’lumotlarning barchasi matnda uchraydi. O‘quvchilar ular orasidan noto‘g‘ri hukmni aniqlab, nima uchun xato ekanini aytib berishlari kerak.

7. To‘g‘ri javob: E. Bir manzaraning o‘zi qahramon ruhiyatidan kelib chiqib ikki xil ma’no tashishi mumkin. “Osmonda yulduzlar yorqin-yorqin porlab, uch kunlik hilol tillaqoshdek yaraqlab turar edi”. Bu – bir holat. “Kirlangan dokadek xira bulut ortida shom yegan oy ma’yus mung‘ayib turibdi”. Bunisi – boshqa holat.

Bu topshiriq matnda qo‘llangan tinish belgilarini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilarga matnning ushbu qismidagi gaplarning tinish belgilari noo‘rin qo‘llangan holda berilgan. O‘quvchilar gapni tahrir qilib, qolib ketgan va noo‘rin qo‘llangan tinish belgilarini aniqlashlari lozim.

8. To‘g‘ri javob: D. Mas’uliyatli, pushtirang, husn, xarakter, xayol, horg‘in, muhrla.

Bu savol so‘zlarning imlosini o‘zlashtirishga qaratilgan. O‘quvchilar variantlar orasidan to‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini belgilashlari zarur.

9. To‘g‘ri javob: A. “Yo‘q, qorin janoblari to‘qlar, ertalab baliq yegan edik, faqat choy bo‘lsa kifoya”, – dedi u kulib.

B. “Hademay bir-ikkita sovlig‘im qo‘zilaydi. Og‘iz ichgali bemalol tashrif buyurishlaring mumkin”.

Bu savol berilgan ta’rifga mos, ma’no-mazmunni tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar matnning beshinchi xatboshisida berilgan xarakter haqidagi ma’lumotlardan kelib chiqib, ushbu jumlalarning qay biri mos kelishini topishi lozim.

10. To‘g‘ri javob: B “Ummondagi xazina”.

Bu savolning javobi matn mazmunini tushunish, unga mos sarlavha topishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan variantlar orasidan mos keladigan sarlavhani aniqlab, nima uchun shu javobni tanlaganlarini izohlab berishlari kerak.

Leksikologiya

Matndan iboralarni aniqlab, yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning matnni lingvistik tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar matn tarkibidan iboralarni aniqlab, yozishlari hamda ularning ma’nosini izohlab berishlari lozim.

Uyga vazifa

Yozma nutq. Matn yaratish

***“So‘zning tag‘in bir xazinasi – bozor! Bozorga kirib, aqalli ikki soat aylansangiz, shunaqangi tesha tegmagan gaplarni eshitasizki, bunaqasini yigirma jildli izohli lug‘atdan ham topolmaysiz”*. Ushbu fikrga munosabat bildirib, kichik izoh yozing.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning berilgan fikrni mantiqan davom ettirishlarini talab qiladi. O‘quvchilar berilgan jumlaning mazmunidan kelib chiqib, uni davom ettirib yozishlari lozim. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning jumla mazmunini tushuna olishi hamda uning mohiyatiga mos matn yoza olishiga qaratiladi.

3-soat

Dars jarayoni


Kirish

Haqiqiy yozuvchi qanday bo‘lishi kerak ekan?

Asosiy qism

Punktuatsiya

Yuqoridagi matndan qo‘shtirnoq qo‘llangan birliklarni ajrating hamda nima uchun ishlatilganini farqlab, izoh yozing.



10. Ushbu matnning publitsistik uslubda yozilganini hisobga olgan holda berilgan variantlardan matn uchun eng mos keladigan sarlavhani tanlang.

A. So‘z boyligini oshirish usullari
B. Ummondagi xazina
C. Haqiqiy qalamkash
D. Yozuvchiga tavsiyalar

Matndan iboralarni topib, yozing.

Namuna bosh qotirmoq, ...

“So‘zning tag‘in bir xazinasi – bozor! Bozorga kirib, aqalli ikki soat aylansangiz, shunaqangi tesha tegmagan gaplarni eshitasizki, bunaqasini yigirma jildli izohli lug‘atdan ham topolmaysiz”. Ushbu fikrga munosabat bildirib, kichik izoh yozing.

Yuqoridagi matndan qo‘shtirnoq qo‘llangan birliklarni ajrating hamda nima uchun ishlatilganini farqlab, izoh yozing.

Matnda qo‘llangan fe’llarning zamonini aniqlang. Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarini aniqlab, yozing.

Quyida berilgan so‘zlarning matn mazmuniga mos keluvchi izohlarini topib, daftaringizga ko‘chiring.

portret	real hayotda mavjud bo‘lgan bir yoki bir necha kishining yoki rassom tasavvuridagi qiyofaning tasviri, fotograf olgan surat.
	adabiy asarda personajlar qiyofasining tavsifi, tasviri.
syujet	badiiy asarda, filmda voqea-hodisalar tasviri, bayonidagi izchillik va o‘zaro aloqa; badiiy asar mazmuni.
	tasviriy san’atda: tasvir obyekti, predmeti.
xazina	yer yoki tabiat boyliklari, tabiiy boylik.
	biror shaxs, tashkilot yoki davlat ixtiyoridagi qimmatbaho buyumlar; mablag‘; boylik; davlat.
	madaniy va ma’naviy boyliklar, durdona asarlar majmui.
	oltin, kumush kabi qimmatbaho narsalar ko‘milgan, yashirilgan joy.
qahramon	biror voqea-hodisa va shu kabilarning sodir bo‘lishiga sabab bo‘lgan yoki unda asosiy rol o‘ynagan shaxs.
	badiiy asarning bosh ishtirokchisi.
	shijoati, dovyurakligi, botirligi bilan shuhrat qozongan, jonbozlik, mardlik qilib, o‘zini ko‘rsatgan shaxs.

206

Mazkur topshiriq qo‘shtirnoqning qo‘llanishini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar matn tarkibidan qo‘shtirnoq qo‘llangan gaplarni aniqlab, nima uchun ular qo‘shtirnoqqa olinganini izohlab berishlari kerak.

Morfologiya.

Matnda qo‘llangan fe’llarning zamonini aniqlang. Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarini aniqlab, yozing.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning matnni lingvistik tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar matn tarkibidan fe’llarni aniqlab, ularning zamonini topishlari hamda ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarini alohida ajratib yozishlari lozim.

Leksikologiya

Quyida berilgan so‘zlarning matn mazmuniga mos keluvchi izohlarini topib, daftaringizga ko‘chiring.

Mazkur topshiriq so‘zning kontekstual ma’nosini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar jadvalda berilgan so‘zlarning ma’nosi bilan tanishib, matnda qaysi ma’nosi qo‘llanganini yozishlari lozim.

Javob: *portret – adabiy asarda personajlar qiyofasining tavsifi, tasviri; syujet – badiiy asarda, filmda voqea-hodisalar tasviri, bayonidagi izchillik va o‘zaro aloqa; badiiy asar mazmuni; xazina – madaniy va ma’naviy boyliklar, durdona asarlar majmui; qahramon – badiiy asarning bosh ishtirokchisi.*

Og‘zaki nutq. Badiiy uslub

Matndan yozuvchining o‘ziga xos o‘xshatishlarini aniqlab, qayta o‘qing. Ularning mazmunini izohlashga harakat qiling.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning badiiy uslub vositalarini tushuna olishiga qaratilgan. O‘quvchilar matndan yozuvchi qo‘llagan o‘xshatishlarni aniqlab, ularni izohlab berishlari kerak.

Leksikologiya

Matnda qo‘llangan omonim so‘zlarni toping. Ular ishtirokida gaplar tuzing. Sinfdoshingiz bilan shunday so‘zlardan topib, ularning izohini yozing.

Bunda o‘quvchilar matnni qayta tahlil qilib, unda qo‘llangan omonim so‘zlarni yozishlari lozim. O‘quvchilar lug‘atlardan foydalanishi mumkin. Asosiy e’tibor omonim so‘zlarni tushunishga qaratiladi. Dastlab o‘quvchilar bilan omonim so‘zlar haqida savol-javob o‘tkazib olish maqsadga muvofiq.

Uyga vazifa

Yozma nutq. Matn yaratish

Matndan olgan xulosangizni yozing.

O‘quvchilar O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub matnni qayta o‘qib, olgan xulosalarini yozib kelishlari lozim. Bunda xulosalar turlicha bo‘lishi mumkin. Asosiy e’tibor xulosani izohlab berishga qaratiladi.

4-soat


Matndan yozuvchining o'ziga xos o'xshatishlarini aniqlab, qayta o'qing. Ularning mazmunini izohlashga harakat qiling.

Namuna Kirlangan dokadek xira bulut ortida shom yegan oy ma'yus mung'ayib turibdi.

Matnda qo'llangan omonim so'zlarni toping. Ular ishtirokida gaplar tuzing. Sinfdoshingiz bilan shunday so'zlardan topib, ularning izohini yozing.

Namuna til, ...

Matndan olgan xulosangizni yozing.

Sinfdoshlaringiz yozib kelgan xulosalarini diqqat bilan tinglang. Ularga munosabat bildiring. Munosabat bildirishda "Yaxshi", "Juda ajoyib", "Zo'r" yoki "Yaxshi yozilmagan", "Menga yoqmadi" kabi umumiy gaplarni aytmang. Aynan nimasi yaxshi yoki yomon ekanini izohlab bering.

3 guruhga bo'lining. Imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolarga yo'l qo'yilgan matnni tahrir qiling.

Jamoaviy tahrir qilgan matningizni boshqa jamoa bilan almashtiring. Ularning tahriri bilan tanishing.

O'qituvchingiz taqdim etgan matn bilan jamoangiz tahrir qilgan matnni solishtiring. Qanday xatolar e'tiboringizdan chetda qolganini bilib oling.

Ta'til davomida allomalarimiz aytgan qimmatli o'gitlar bilan tanishing hamda ularni yondaftarchangizga qayd etib boring. Sinfdoshlaringizni Bilimlar kuni bilan tabriklash uchun to'plagan materiallaringiz asosida kichik kitobcha tayyorlang. Unga turli bezaklar berishga harakat qiling.

Ilmsiz iliksiz so'ngak kabi bo'shdir, iliksiz so'ngakka qo'l urilmaydi. Bilim bilan kishining martabasi oshadi, ilmsizlik esa kishini tubanlashtiradi. Bilimli kishi kerakli so'zni so'laydi, keraksiz so'zni ko'mib tashlaydi.

Ahmad Yugnakiy

207

Dars jarayoni

Kirish

Matn qanday qismlardan iborat? Xulosa qismida nima aks ettiriladi?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq. Tahlil

Sinfdoshlaringiz yozib kelgan xulosani diqqat bilan tinglang. Ularga munosabat bildiring. Munosabat bildirishda “Yaxshi”, “Juda ajoyib”, “Zo‘r” yoki “Yaxshi yozilmagan”, “Menga yoqmadi” kabi umumiy gaplarni aytmang. Aynan nimasi yaxshi yoki yomon ekanini izohlab bering.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish hamda jamoat oldida nutq so‘zlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar

yozib kelgan xulosalarini o‘qib berishlari lozim.

Bu jarayonda bir o‘quvchi gapirganda qolganlar tinglovchi bo‘lib, sinfdoshlarining nutqiga munosabat bildirishlari aytiladi. Bunda asosiy e’tibor xulosalarning matn asosida izohlab berilishiga qaratiladi. Tushunilmagan o‘rinlarda so‘zlovchiga savol bilan murojaat qilib, oydinlik kiritib olishlari mumkin.

Munozara. Tahlil

3 guruhga bo‘lining. Imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolarga yo‘l qo‘yilgan matnni tahrir qiling.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning matnni tahrir qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar ustozlari tomonidan taqdim etilgan matnlarni tahrir qilishlari kerak.

Dastlab o‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruhga bittadan tahrir qilinmagan, bir xil hajmdagi matn beriladi. O‘quvchilar guruhlari bilan birgalikda ushbu matnni tekshirib, xatolarni aniqlab, izoh yozishlari lozim.

Tahlil

Jamoa bilan tahrir qilgan matningizni boshqa jamoa bilan almashtiring. Ularning tahriri bilan tanishing.

Guruhlar matnni tahrir qilib bo‘lganlaridan so‘ng, bir-birlari bilan tahrir qilingan matnlarini almashadi. Bunda ular boshqa guruhning tahririni ko‘rib, yutuq va kamchiliklarini aytishi kerak.

O‘qituvchingiz taqdim etgan matn bilan jamoangiz tahrir qilgan matnni solishtiring. Qanday xatolar e’tiboringizdan chetda qolganini bilib oling.


Bu bosqichda o‘quvchilar tahrir qilingan matnlarni dastlabki holati bilan taqqoslab, qay darajada tahrir qila olganlarini, tahrir qilish jarayonida e’tibordan chetda qoldirgan o‘rinlarini aniqlab olishlari lozim.

Uyga vazifa

Yozma nutq. Matn yaratish

Ta’til davomida allomalarimiz aytgan qimmatli o‘gitlar bilan tanishing hamda ularni yondaftarchangizga qayd etib boring. Sinfdoshlaringizni Bilimlar kuni bilan tabriklash uchun to‘plagan materiallaringiz asosida kichik kitobcha tayyorlang. Unga turli bezaklar berishga harakat qiling.

Mazkur topshiriqdan maqsad o‘quvchilarning yozgi ta’tilni mazmunli o‘tkazishlari uchun ko‘rsatma berishdan iborat. O‘qituvchi o‘quvchilarga ma’lumot to‘plab, saralab, yangi o‘quv yilida sinfdoshlari uchun kitobcha tayyorlab kelishlarini tushuntirishi hamda ularga o‘qish uchun asarlar tavsiya qilishi maqsadga muvofiq.



BILIMINGIZNI SINANG!

O‘zbekiston 2022-yildan boshlab Xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturi (The Programme for International Student Assessment – PISA)da ishtirok eta boshladi. Ushbu dasturda 15 yoshga to‘lgan o‘quvchilar qatnashishi mumkin.
Quyidagi topshiriqlar ketma-ketligi sizlarni ana shu baholash dasturi doirasidagi sinovlar bilan tanishtirish maqsadida ishlab chiqilgan.

ESLATMA!
Hurmatli o‘quvchi! Test topshiriqlarining javoblarini kitobga belgilash mumkin emas. Daftaringizga matn nomini sarlavha ko‘rinishida yozib, test raqami va kerakli javobni belgilashingiz, yozish kerak bo‘lgan o‘rinlarda yozishingiz lozim.

UNUTISH YOYI

1850-yilda nemis psixologi Herman Ebbinhaus birinchilardan bo‘lib inson xotirasini laboratoriya tadqiqotlariga “olib kirdi”. Shu orqali u ta’lim tizimidagi eng munozarali faktni kashf qilgan olim sifatida butun dunyoga mashhur bo‘ldi. Odam odatda o‘rganganlarining 90 foizini 30 kun mobaynida sekin-asta unutib boradi. Juda katta hajmdagi unutish esa dars tugashi bilanoq sodir bo‘ladi. Ya’ni siz hozirgina o‘qigan kitobingizdan bilib olgan ma’lumotlarni o‘qishni tugatishingiz bilan unutishga “kirishasiz”. Bu favqulodda xotira egaliklaridan tashqari, barcha odamlarga xos xususiyat. Ebbinhaus o‘z tadqiqotlarini ilmiy jurnalda e’lon qilib, xotiramizning “unutish yoyi”ni matematik hisoblab chiqdi va 1-chizmadagi natijaga erishdi.

208

BILIMINGIZNI SINANG
7-sinf. Ona tili

UNUTISH YOYI

1. 30 kun.
2. Favqulodda xotira egalari yoki kuchli xotira egalari (xotirasi kuchlilar).
3. A.
4. A.
5. Bir oy.
6. A.
7. A.
8. Takrorlash.
9. B.

UNUTISH YOYINI YENGISH

1. Dog‘da qoldirish.
2. Oralatib takrorlash yoki takrorlash.
3. B.
4. Ma’lumotlarning takrorlab borilmasligini yoki yangi ma’lumotlarning tiqishtirilishini.
5. B.
6. A.

GILAM PAYPOQ

1. B.
2. Juba yoki jurabi.
3. B.
Izoh: chunki u Kavkaz tomonlarda ko‘p bo‘ladi. Noyob narsalar esa ko‘p bo‘lmaydi.
4. Achchiqtosh, turshak qaynatmasi.
5. D.
6. Onasi quchoqlab olgan edi, qor onasidan o‘tib uning yuziga tushmasdi.
7. C.
8. Yo‘q degan ma’noni anglatadi, tabibning “oyog‘ingizdan ajralib qolibsiz” degan gapi to‘g‘ri ekanini his qilgani uchun yig‘lab yubordi.
9. Biroq salqin tushishi bilan oyoqlari shishib, azob beradigan bo‘lib qoldi…
10. Kinoya bo‘lgani uchun. Yozuvchi o‘zini aybdor his qilardi, arzimas narsa olib kelish bilan o‘sha aybini yuvmoqchi bo‘lgani o‘ziga yoqmaydi.

11.

Atamalar izohi	Mos keluvchi raqam va so‘z
Ma’lum bir joyni isitishga mo‘ljallangan, xonaning biror yeriga chuqurchaga o‘rnatilgan, ustiga ko‘rpa yopilib, isinish uchun foydalaniladigan qurilma.	2. Sandal
Alyuminiy, xrom, temir singari metallarning sulfat kislota bilan o‘zaro ta’siridan hosil bo‘lgan tuzlar.	4. Achchiqtosh
Yalang oyoq, oyoqqa paypoq kiymay, poyabzalning o‘zini kiyib olish.	3. Sarpoychan
Uyning oyoq kiyim yechib kiriladigan joyi.	1. Kavshandoz

12. O‘quvchining shaxsiy fikri.
13. O‘quvchining shaxsiy fikri.

HA / YO‘Q

1. YO‘Q.
2. HA.
3. YO‘Q.
4. YO‘Q.
5. YO‘Q.
6. HA.
7. HA.
8. HA.
9. YO‘Q.
10. YO‘Q.
11. HA.
12. YO‘Q.
13. YO‘Q.
14. HA.
15. YO‘Q.
16. YO‘Q.
17. HA.
18. YO‘Q.
19. HA.
20. HA.

Shakllantiruvchi baholash

O‘quv jarayoni davomida o‘quvchilarning o‘zlashtirish sifatini baholab borish. Shakllantiruvchi baholash o‘quvchining o‘quv dasturida berilgan materiallarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash hamda o‘quvchi kutilgan natijaga erishishi uchun tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo‘ladi. Shakllantiruvchi baholash o‘qituvchiga o‘quv jarayonidagi kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash va keyingi rejalarni shu asosda tuzish imkonini yaratadi. Ushbu baholash turi o‘quv dasturi, o‘qituvchi hamda o‘quvchining o‘zaro aloqasini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shakllantiruvchi baholashning asosiy maqsadlari:

- muntazam ravishda sinfda o‘quvchini baholab borish orqali u qaysi bilim, ko‘nikma, malaka yoki kompetensiyalarni yaxshi o‘zlashtirayotgani yoki o‘zlashtirmayotgani, nimalar ustida ishlashi kerakligi haqida ma’lumot beriladi;
- biror bir mavzu oxirida nazorat ishi olish orqali o‘qituvchi o‘quvchilari shu mavzuni qay darajada o‘zlashtirganliklari, qanday xatolarga yo‘l qo‘yayotganlari haqida ma’lumot olishi va lozim bo‘lsa, o‘tilgan mavzuga yana qaytishi mumkin;
- o‘qituvchi o‘quvchilarning boshlang‘ich bilim darajasini aniqlash maqsadida test o‘tkazishi va olingan ma’lumotlar asosida keyingi qadamlarni rejalashtirishi yoki o‘quvchilarni guruhlarga ajratishi mumkin.

Shakllantiruvchi baholash xulosalovchi baholashdan farqli ravishda bevosita o‘qituvchi tomonidan asosan norasmiy shakllarda(kuzatish, og‘zaki savol-javob qilish, kichik hajmli testlar olish, yozma ishlar va h.k.) o‘tkaziladi.

Shakllantiruvchi baholash jarayonidan olingan xulosalar asosida o‘qituvchi yoki ta’lim muassasasi ta’lim jarayoniga zarur deb hisoblangan o‘zgartirishlarni kiritadi.

Shakllantiruvchi baholashdan keyin o‘quvchilarga har doim tahliliy fikr-mulohazalar beriladi.

Shakllantiruvchi baholash asosan kuzatish va natijalarni qayd etib borishga asoslanadi, ya’ni ushbu baholashda jurnalga baho qo‘yish talab etilmaydi.

Shakllantiruvchi baholash bu – o‘qituvchilarni ham, o‘quvchilarni ham o‘quv jarayonining keyingi bosqichlariga yo‘naltirishga mo‘ljallangan baholash. Xulosalovchi baholashdan farqli o‘laroq, shakllantiruvchi baholash aniq xulosa chiqarish xususiyatiga ega emas. Xulosalovchi baholash deganda yakuniy imtihonlar, bitiruv yoki qabul imtihonlari, standartlashtirilgan testlarni tushunamiz. Aslida har qanday baholash shaklini shakllantiruvchi sifatida qabul qilish mumkin. Lekin yuqorida sanab o‘tganlarimiz o‘qituvchilar yoki biror yuqori tashkilotga o‘quvchilarni saralash, ajratish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shakllantiruvchi hamda xulosalovchi baholashning o‘zaro farqi ularning natijasidan qanday foydalanishdagina aniq ko‘zga tashlanadi.

Yana bir farq o‘quvchilarning shakllantiruvchi baholashga munosabatida ko‘rinadi – o‘quvchilar ushbu jarayonda olingan baholarni “hisobga olinmaydigan” baho deb hisoblaydilar. Aynan mana shu sabab o‘quvchilar unga kamroq hayajon, bezovtalik va raqobat kuchi bilan yondashadilar. Buning yomon tomoni ham bor – o‘quvchilar “hisoblanmaydi-ku” degan o‘y bilan shakllantiruvchi baholashga umuman e’tiborsiz qarashlari ham mumkin. Ta’lim tizimimizga singib ketgan bir qarash mavjud – o‘quvchilar baho kundalikka yoki baholar jurnaliga qo‘yilsagina unga nisbatan jiddiy yondashadi. Bu baholash jarayonimizni o‘zgartirishdagi eng tashvishga soladigan holatdir.

Shakllantiruvchi baholash – kuzatish vositasi, xulosalovchi baholash esa aniq baho bilan tugaydigan jarayondir. Bu ikki baholashning farqini tushunish uchun biz umumta’lim maktablaridagi baholashga bo‘lgan munosabatimizni o‘zgartirishimiz lozim. Testga yoki baholashga klassik yondashuv shundayki, baho o‘quv jarayonini yakunlash (o‘quv jarayoni deyilganda biror bilim, ko‘nikma, malakani o‘rganish jarayoni nazarda tutilmoqda) vositasi deb qaraymiz. Bu mantiqni biroz o‘zgartirish vaqti yetdi, chunki o‘rganish yakunlab bo‘lmas jarayon hisoblanadi. 1-jadvalda shakllantiruvchi hamda xulosalovchi baholashning farqlarini yanada yaqqol ko‘rish mumkin.

Fikr-mulohaza

Yuqorida aytilganidek shakllantiruvchi baholash bu shunchaki o‘quvchini tekshirish emas, balki unga fikr-mulohaza bildirish hamdir. Ya’ni o‘quvchining aniqlangan kamchiliklarini qanday tuzatishi kerakligi haqida o‘qituvchidan oladigan fikr-mulohazasi ham shakllantiruvchi baholashning ajralmas qismi hisoblanadi.

Fikr-mulohaza bildirishning yana bir muhim jihati o‘quvchilarning motivatsiya olishidir. Shuni hisobga olgan holda, fikr-mulohaza bildirish asosan ruhlantirish kayfiyatida bo‘lishi tavsiya etiladi. Ammo ruhlantirish va maqtov haddan oshib ketsa, o‘quvchida ichki motivatsiya tushib ketishi, o‘quv jarayonining maqsadidan chetlashishi, o‘zining asl holatidan xabarsiz qolishi holatlari kuzatilishi mumkin va bu akademik jarayonga salbiy ta’sir o‘tkazadi. Shuning uchun ham fikr-mulohazani qay tarzda bildirish juda muhim. Agar o‘quvchi:

- fikr-mulohazalarni adolatsiz deb hisoblasa;
- fikr-mulohazalar yetarli darajada aniq va tushunarli bo‘lmasa;
- fikr-mulohazani o‘quv jarayoni, vazifa yoki topshiriq bilan bog‘liq emas deb hisoblasa;
- fikr-mulohazalarni o‘z vaqtida olmasa;
- fikr-mulohaza haddan tashqari tanqidiy ruhda bo‘lsa, o‘qishga bo‘lgan qiziqishni yo‘qotadi.

Fikr-mulohazalarning samarali va samarasiz ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ular quyidagicha aks etadi:

Samarali	Samarasiz
O‘quvchining rivojlanishiga qaratilgan	Noaniqliklar mavjud
Kamchiliklarni bartaraf etish uchun nimalar qilish kerakligini o‘z ichiga olgan	O‘ta umumiy
Yozma, og‘zaki yoki vizual shaklda ifodalangan	O‘quvchining shaxsiy xususiyatlariga asoslangan
Ijobiylik ruhida ifodalangan	Mukofot, rag‘bat sifatida ishlatilgan
Tez-tez va o‘z vaqtida (kamchilik aniqlangan zahoti) berilgan	
Xoslangan aniq shaklda (mavhum bo‘lmagan) ifodalangan	
Hukm chiqarilmagan, faqat mavjud vaziyat tavsiflangan	
O‘quvchining shaxsiy xususiyatlariga emas, faoliyatiga qaratilgan	

Quyidagi misollarda o‘qituvchining samarali va samarasiz fikr-mulohazasiga namuna keltirilgan:

Samarali fikr-mulohaza	Nimasi bilan samarali?
Bosh harflarning qo‘llanishi bilan bog‘liq jami 4 ta xato bor. Kitobning 28-betini oching va bosh harflar imlosiga oid qoidalarni takrorlab oling.	Kamchiliklarni bartaraf etish uchun nimalar qilish kerakligini o‘z ichiga olgan

Sizning nutqingiz juda tez edi, shuning uchun har bir so‘zni sekin va ravon talaffuz qilib, har bir jumla orasida pauza qiling.	Xoslangan aniq shaklda (mavhum bo‘lmagan) ifodalangan
Maftuna, siz tuzgan matningizda sifatdoshlardan juda yaxshi foydalangansiz, keyingi safar KFSQlarni qo‘llashda e’tiborli bo‘ling.	O‘quvchining rivojlanishiga qaratilgan
Muhammad, muammoga yondashuvingiz to‘g‘ri, bu muammoni hal qilishda 3 ta to‘g‘ri qadamni amalga oshirgansiz.	O‘quvchining xatti-harakatlari kutilgan natija bilan qiyoslab berilgan

Samarasiz fikr-mulohaza	Nimasi bilan samarasiz?
Sinfdagi boshqa o‘quvchilarga nisbatan yaxshi bajargansiz.	O‘ta umumiy. O‘quvchi aynan nimasiga ko‘ra yaxshi bajarganini, aynan qaysi nuqtalar yaxshi deya baholanayotganini, keyingi harakatlari qanday bo‘lishi kerakligini anglolmaydi.
Qoniqarsiz yoki yaxshi bajarilmagan.	Noaniq. O‘quvchi xatolari nimada ekanini, ularni bartaraf etishi uchun nimalar qilishi kerakligini anglolmaydi.
Juda yaxshi javob berdingiz, qoyil!	Noaniq. O‘quvchi qaysi harakati to‘g‘riligi va uni davom ettirish o‘rinli ekanini aniq bilmaydi.
Siz juda yaxshi o‘quvchisiz, sizdan nihoyatda mamnunman!	O‘ta umumiy. O‘quvchining qaysi xatti-harakatiga bunday xulosa berilayotgani ochiq aytilmagan.
Siz juda yaxshi gapirdingiz.	O‘ta umumiy. O‘quvchining javobi qanday xususiyatlarga ega ekanligi aytib o‘tilmagan.

Shakllantiruvchi baholashda qo‘llanadigan usullar va vositalar

Dastlabki yillarda o‘qituvchilarning pedagogik ta’lim olishlari jarayonida baholash yoki pedagogik o‘lchovlar ilmi yuzasidan yetarli nazariy bilimlarni olmagani sababli ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarida shakllantiruvchi baholashning asosiy vositasi darslik hamda o‘quvchi daftari bo‘lishi nazarda tutilgan. Keyingi yillarda o‘qituvchilarning malakasini oshirishda baholash hamda pedagogik o‘lchovlar ilmiga alohida urg‘u berish nazarda tutilganini hisobga olib quyida tarqatma topshiriqlar tayyorlash bo‘yicha ba’zi tavsiyalarni ham keltirib o‘tmoqchimiz.

O‘quvchi daftari yoki tarqatma topshiriqlar

O‘quvchi daftari yoki tarqatma topshiriqlar shakllantiruvchi baholashda eng qulay vosita hisoblanadi. Chunki ular:

1. Darslik asosida tuziladi va malakalarni shakllantirishga qaratilgan bo‘ladi.
2. O‘z navbatida, darslikdan mustaqil bo‘ladi, dasturda nazarda tutilgan malakalarni shakllantirish uchun qo‘shimcha vosita ham bo‘la oladi.
3. Tarqatma shaklidagi topshiriqlar har bir o‘quvchiga moslab ishlab chiqilishi ham mumkin.

O‘quvchi daftari va tarqatma topshiriqlarda turli xil savol turlaridan foydalanish mumkin.

- Qisqa javob talab qiluvchi savol.
- Bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirish.

- Muqobil javobli test.
- To‘g‘ri/Noto‘g‘ri.
- Moslashtirish.
- Ko‘ptanlovli test.

Bulardan tashqari, turli grafik chizmalar, xaritalar, boshqotirma shakllari, diagrammalar, jadvallarni ham qo‘llash mumkin. Darslikda bunday vositalardan foydalanish amalda imkonsiz. Chunki darslik hajm jihatdan cheklangan bo‘ladi.

Tarqatma topshiriqlarni tayyorlash jarayoni

O‘quvchi daftarlari RTM tomonidan ishlab chiqilishini hisobga olib quyida tarqatma topshiriqlar tayyorlash uchun ba’zi maslahatlarni keltirib o‘tamiz. Tarqatma topshiriqlarni tayyorlashda quyidagi ketma-ketlikka amal qilish tavsiya etiladi:

- O‘quvchilar egallashi kerak bo‘lgan ko‘nikma(lar) aniqlanadi.
- Ko‘nikmani egallashi uchun o‘quvchi bajarishi kerak bo‘lgan vazifa va topshiriqlar belgilanadi.
- Vazifa va topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilar yakka, juftlikda yoki guruh bo‘lib harakat qilishlari mumkin. Shulardan biri tanlanadi.
- Topshiriq va savollar ishlab chiqiladi.
- Topshiriq va savollarni ishlab chiqishda o‘quvchilarning turli bilim darajasini hisobga olishning imkoniyati ko‘rib chiqiladi.
- Tezroq bajarib qo‘yish mumkin deb qaralsa, asosiy savol va topshiriqlarga qo‘shimcha topshiriqlar ham kiritiladi.

Tarqatma topshiriqlarni tayyorlashda e’tiborga olish lozim bo‘lgan unsurlar va har bir unsurning o‘ziga xos jihatlari quyidagilar:

a) yo‘riqnoma

- topshiriqlarni bajarish uchun amalga oshiriladigan harakatlar ketma-ketligini tartib bilan tushuntiring;
- har bir ko‘rsatmaga raqam qo‘ying. Ko‘rsatmaga amal qilish jarayonida uni osonroq topish va tartibni aniqlash uchun bu muhim;
- savollarni raqamlang;
- qalin yoki kursiv shakldan foydalanib muhim o‘rinlarni ajratib ko‘rsating;
- o‘quvchilarga tanish bo‘lgan so‘zlardan foydalaning hamda gaplarning qisqaroq bo‘lishiga e’tibor qarating.

b) diagramma, grafik va vizual effektlar

- sodda effektlardan foydalaning;
- diagramma, grafik va rasmlarga sarlavha qo‘ying (bu o‘quvchi tomonidan topshiriqni tushunishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etadi);
- imkon boricha rangli tasvirlardan foydalaning (ranglar soni 4–5 tadan oshmasligi tavsiya etiladi).

d) sahifa tartibi

- o‘qishni osonlashtirish uchun asosiy va tagsarlavhalardan foydalaning;
- har bir sarlavha va sahifani raqamlang;
- tarqatma topshiriq sahifasini ishlab chiqishdan oldin uni loyihalashtirib oling;
- zarur o‘rinlarda harf hajmlarini turlicha qo‘llang;
- ko‘rinishning qiziqarli bo‘lishiga harakat qiling.

e) tajriba

- o‘zingiz uchun maxsus, topshiriqlarning javobi aks etgan tarqatma topshiriqni tayyorlang;

- butun sinfga joriy qilishdan oldin bir-ikki o‘quvchida sinab ko‘ring. Agar buning imkoni bo‘lmasa, shaxsiy tajriba va intuitsiyangizga tayaning.

Tarqatma topshiriqlar uchun savollar tuzish

Tarqatma topshiriqlar o‘quv va baholash vositasi bo‘lishdan tashqari, o‘quvchilarning bilish, affektiv va psixomotor xususiyatlarini oydinlashtirishga ham xizmat qiladi. Shuning uchun ularda savol turlarining bir nechtasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Ya’ni sizning tarqatma topshirig‘ingiz birgina savol turidan iborat bo‘lmasligi kerak. Quyida ana shunday savol turlariga qisqa izohlar berilgan:

a) qisqa javobni talab qiladigan va bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirish mumkin bo‘lgan savollar

Bu so‘z, so‘z birikmasi, jumla yoki raqam bilan javob berish mumkin bo‘lgan savol turidir. Qisqa javobli savollar to‘g‘ridan to‘g‘ri savoldan va javob berish uchun joydan iborat bo‘lsa, bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirishni talab etuvchi savollar tugallanmagan yoki o‘rtasida bo‘shliq bo‘lgan jumlalardan tuziladi. Bunday turdagi savollarni tuzishdan oldin quyidagi savollarga o‘zingiz uchun javob berib oling:

Ushbu savol turi natijani o‘lchash uchun mosmi?
Savolga so‘z, so‘z birikmasi, kichik jumla yoki raqamlar bilan javob berish mumkinmi?
Darslikdagi topshiriqlar bilan bir xil bo‘lib qolmadimi?
Savollarga o‘zingiz o‘ylagan javobdan boshqa to‘g‘ri javob yo‘qmi?
Bo‘sh o‘rinlar yetarlicha uzunmi?
Javoblari savolning o‘zida ko‘rinib qolmadimi?
Bo‘sh qoldirilgan o‘rinlar soni so‘raladigan javobga tengmi?
Savollarning qiyinlik darajasi o‘quvchilar darajasiga mosmi?

Namuna:

Qisqa javobli savol:

“Yomg‘irpo‘shni olmaganim chatoq bo‘ldi-da. Endi shalabbo bo‘laman.” **Tagiga chizilgan so‘zni izohlang.**

_____
_____
_____

Bo‘sh o‘rinlari to‘ldiriladigan savol:

“Ko‘chadan shalabbo bo‘lib qaytdim, _____ soyabonim uyda qolgan ekan.”

Bo‘sh o‘rinni kerakli bog‘lovchi bilan to‘ldiring.

b) To‘g‘ri/Noto‘g‘ri

O‘quvchilardan savolda keltirilgan ma’lumotning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini belgilab berishlarini talab qiladi. Ushbu savol turidan istalgan malakani tekshirishda foydalanish mumkin. Bunday turdagi topshiriqlarni tuzishdan oldin quyidagi savollarga o‘zingiz uchun javob berib oling:

Ushbu savol turi natijani o‘lchash uchun mosmi?
Savolga “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” deb javob berish mumkinmi?
Savol malakani tekshirishga qaratilganmi?
Savolda inkor aks etmaganmi (ayniqsa ikkilik inkor, masalan, *noto‘g‘ri bo‘lmagan javob*)?
Savollarni tuzishda sodda va tushunarli so‘zlardan foydalanildimi?
“To‘g‘ri” hamda “noto‘g‘ri” javoblarning uzunligi bir xilmi?
“To‘g‘ri” hamda “noto‘g‘ri” javoblarning soni bir-biriga yaqinmi?
Ma’lum ketma-ketlikdan qochilganmi (T,N,T,N)?
Savollarning qiyinlik darajasi o‘quvchilar darajasiga mosmi?

Namuna:

Savollarda berilgan faktlar to‘g‘ri (T) yoki noto‘g‘ri (N) ekanligini aniqlang. Kerakli harfni doiraga oling

XIX asrning 50-yillariga kelib to‘qimachilik sanoatning yetakchi sohasi bo‘lmay qoldi.	T / N
“Apple” kompaniyasi rahbari O‘zbekistonning barcha aholisi topadigan daromaddan ham ko‘proq foyda qiladi.	T / N
Paxta yetishtirib sotish – dunyoviy qaralgan juda kam daromad keltiradigan soha.	T / N
Matnda “keskin yuksalish”, “iqtisodiy portlash” va “bum” so‘zlari bir xil ma’noda qo‘llangan.	T / N

d) moslashtirish savollari

Moslashtirish bu – parallel ustunlardan biridagi tushunchaning boshqa ustundagisi bilan mos kelishini topishga asoslangan savol turi. Odatda ikki obyektni qiyoslash, solishtirish malakalarini aniqlashda qo‘llash foydali. Bunday turdagi topshiriqlarni tuzishdan oldin quyidagi savollarga o‘zingiz uchun javob berib oling:

Ushbu savol turi natijani o‘lchash uchun mosmi?
Ikkala ustunda haqiqatan bir-biriga mos keladigan tushunchalar ifodalanganmi?
Javoblar ustunidagi miqdor savollar ustunidan ko‘proqmi?
Savollar ustuni va javoblar ustuni tartiblanganmi?
Ko‘rsatmada nimasiga ko‘ra moslashtirish kerakligi aniq aytilganmi?
Savollarning qiyinlik darajasi o‘quvchilar darajasiga mosmi?

Namuna:

Quyida qo‘llangan “so‘ramoq” fe’lini gaplardagi ma’nosi bilan moslashtiring.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

1	Akram qo‘y yetaklagan odamdan yettinchi bo‘linma qayerda ekanini so‘radi.	a	iltimos yoki talab qilmoq
2	– Allo, kimni so‘rayapsiz? – Ahmedovni so‘rayapman.	b	savol, so‘roq bermoq
3	Yangi yilga yer ekinsiz qolsa, rais hech kimdan so‘rab ham o‘tirmasdan, qo‘sh solib yuboradi.	d	kimsani chaqirmoq
4	Boy qo‘shningdan so‘raguncha, yo‘q uyingni axtar.	e	fikrlashish, maslahatini yoki ruxsatini olish
		f	bilimini tekshirmoq
		g	axtarmoq, izlamoq

1. ___ 2. ___ 3. ___ 4. ___

e) muqobil javobli savollar

Muqobil javobli savollar savol va uning yechimiga bir nechta muqobil javoblarning berilishi bilan boshqa savol turlaridan ajralib turadi. O‘quvchidan o‘zi to‘g‘ri deb bilgan javobni tanlash talab qilinadi. Bunday turdagi topshiriqlarni tuzishdan oldin quyidagi savollarga o‘zingiz uchun javob berib oling:

Ushbu savol turi natijani o‘lchash uchun mosmi?
Qo‘yilgan savolda muammoga yetarli darajada e’tibor qaratilganmi?
Savollar ahamiyatsiz ma’lumotlardan iborat bo‘lib qolmadimi?
Savollarda inkordan foydalanilmadimi (iloji boricha)?
Inkordan foydalanilgan bo‘lsa, u alohida ajratib ko‘rsatildimi?
Muqobil javoblar bir-biridan mazmunan uzoq emasmi?
Muqobil javoblarning uzunligi bir-biriga yaqinmi?
Faqatgina bitta to‘g‘ri javob bormi?
Chalg‘ituvchi muqobil javoblar orqali yaxshi o‘zlashtiruvchi va past o‘zlashtiruvchi o‘quvchini aniqlab olish mumkinmi?
Muqobil javoblarda to‘g‘ri javobni topish uchun yo‘naltirilgan so‘zlar yo‘qmi?
“Hamma javoblar to‘g‘ri”, “To‘g‘ri javob yo‘q” kabi muqobil javoblardan foydalanilmadimi?
Muqobil javoblar juftlik hosil qilmaganmi?
Muqobil javoblar grammatik jihatdan o‘xshashmi?
Savollarning qiyinlik darajasi o‘quvchilar darajasiga mosmi?

Namuna:

Matndagi “bum” so‘zi qanday ma’noni anglatmoqda?

A. Yuqori tezlikka erishish

B. Zudlik bilan erishish

D. Darajaga tez ko‘tarilish

E. Yangi asrga o‘tish

f) ochiq savollar

Ochiq savollarda o‘quvchilar savolga o‘z so‘zlari bilan javob berishlari kerak bo‘ladi. Bunday savollar o‘quvchining aqliy/ilmiy qobiliyatlarini baholash uchun juda qulaydir. Ushbu savol turidan istalgan malakani tekshirishda foydalanish mumkin. Bunday turdagi topshiriqlarni tuzishdan oldin quyidagi savollarga o‘zingiz uchun javob berib oling:

Ushbu savol turi natijani o‘lchash uchun mosmi?
Savol aniq bayon etilganmi?
O‘quvchilarga baho qaysi mezonlar asosida qo‘yilishi tushuntirilganmi?
Javoblarni yozish uchun o‘quvchilarga yetarli vaqt berilganmi?
Javoblarni yozish uchun yetarli joy ajratilganmi?
Har bir savolga qo‘yiladigan baho va ajratilgan vaqt haqida ma’lumot berilganmi?
Savollarning qiyinlik darajasi o‘quvchilar darajasiga mosmi?
Savollar fikrlashga qaratilganmi?

Namuna:

Sizningcha, eng birinchi navbatda ilmiy salohiyatni oshirish kerakmi yoki poraxo‘rlikni yo‘qotish zarurmi?

_____
_____
_____
_____
_____

Baholash mezonlari:

2 ball – o‘zi tanlagan yondashuvni isbotlab beruvchi bir nechta dalillar keltirilgan, nega boshqa yondashuvni ikkinchi darajali deb hisoblashi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

1 ball – o‘zi tanlagan yondashuvni isbotlab beruvchi bitta dalil keltirilgan, qarshi yondashuvning nega ikkinchi darajali ekani ochib berilmagan.

0 ball – o‘zi tanlagan yondashuvning to‘g‘ri ekanini isbotlovchi dalillar keltirilmagan, qarshi yondashuvning nega ikkinchi darajali ekani ochib berilmagan.

Tarqatma topshiriqlardagi javoblarni baholash

Tarqatma topshiriqlarda berilgan savollarga javoblarni baholash quyidagi tartibda amalga oshadi:

1. Har bir savol uchun ma’lum ballar ajratiladi (ko‘pi bilan 2 ball bo‘lishi tavsiya etiladi).

2. Har bir topshiriqda o‘quvchi to‘plashi mumkin bo‘lgan eng yuqori ball aniqlanadi. Masalan, 2 ballik 3 ta 1 ballik 1 ta savol bor bo‘lsa, jami 7 ball.

3. Topshiriqlar jamlanmasida o‘quvchi to‘plashi mumkin bo‘lgan eng yuqori ball aniqlanadi.

Masalan, jami 4 xil topshiriq, 2 tasi 7 ballik, 2 tasi 3 ballik. Shunda jami 20 ball bo‘ladi.

4. Eng yuqori baho 100% deb qaraladi va o‘quvchi to‘plagan ballning 100% lik natijaga nisbatan foizi aniqlanadi.

5. Foizlar oralig‘iga qo‘yiladigan baho aniqlanadi. Masalan:

Foiz	Baho
86–100%	**“5”**
71–85%	**“4”**
56–70%	**“3”**
55% va undan past	**“2”**

6. O‘quvchining bahosi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

Bunda: a = o‘quvchining to‘plagan balli, b = topshiriqlar jamlanmasida o‘quvchi to‘plashi mumkin bo‘lgan eng yuqori ball, x = o‘quvchining olgan foizi. Masalan, topshiriqlar jamlanmasida o‘quvchi to‘plashi mumkin bo‘lgan eng yuqori ball 20 ga teng. O‘quvchi to‘plagan ballar esa 15. Formulaga qo‘yamiz. 15 ni 100 ga ko‘paytirib, chiqqan sonni 20 ga bo‘lamiz:

Demak, o‘quvchining olgan foizi 75 ga teng. Endi bundan baholarning foizdagi qiymati orqali o‘quvchining bahosini chiqaramiz:

75% = “4” baho

ESSENI BAHOLASH MEZONLARI

Mavzu yoritilmagan (berilgan mavzu emas, boshqa narsalar haqida yozilgan, masalan, kasblar, ularning foydali jihatlari, o‘zi kelajakda qaysi kasbni tanlamoqchi bo‘lgani) taqdirda essega 0 ball qo‘yiladi.

So‘zlar soni 90 tadan kam, 180 tadan ko‘p bo‘lsa ham, essega umumiy 0 ball qo‘yiladi.

MEZON	**BALL**
Essening qismlari	
esseda barcha qismlar (kirish, asosiy qism, xulosa) mavjud va ular talab darajasida, mavzuga aloqador tarzda shakllantirilgan bo‘lsa	4
essening kirish va xulosa qismlari mavzuga aloqador bo‘lmasa	3
esseda kirish yoki xulosa mavjud bo‘lmasa	2
esseda kirish ham, xulosa ham mavjud bo‘lmasa	1
Dalillash, asoslash, misollar	
fikrlar dalillar bilan asoslangan, misollar keltirilgan	3
fikrlarning asosi uchun keltirilgan misol va dalillar kuchsiz	2
fikrlar asoslanmagan, misollar keltirilmagan	1
Matn uslubi	
esse to‘liq publitsistik uslubda yozilgan (ba’zi o‘rinlarda badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mumkin)	4

esseda publitsistik uslub saqlangan, lekin so‘zlashuv va badiiy uslub unsurlari yaqqol ko‘zga tashlanib turadi	3
esseda publitsistik uslubdan ko‘ra badiiy uslub ustunlik qiladi	2
esseda publitsistik uslubdan ko‘ra so‘zlashuv uslubi ustunlik qiladi	1
Imlo	
Imlo xatolar soni 0–2 tagacha	4
Imlo xatolar soni 3–5 tagacha	3
Imlo xatolar soni 6–9 tagacha	2
Imlo xatolar soni 10–12 tagacha	1
Imlo xatolar soni 12 tadan ko‘p	0
Punktuatsiya	
Ishoraviy xatolar soni 0–3 tagacha	4
Ishoraviy xatolar soni 4–6 tagacha	3
Ishoraviy xatolar soni 7–10 tagacha	2
Ishoraviy xatolar soni 11–13 tagacha	1
Ishoraviy xatolar soni 13 tadan ko‘p	0
Til birliklarini qo‘llash (g‘alizlik)	
So‘z va qo‘shimchalarni qo‘llash bilan bog‘liq xatolar soni 1 ta	4
So‘z va qo‘shimchalarni qo‘llash bilan bog‘liq xatolar soni 2–3 tagacha	3
So‘z va qo‘shimchalarni qo‘llash bilan bog‘liq xatolar soni 4–5 tagacha	2
So‘z va qo‘shimchalarni qo‘llash bilan bog‘liq xatolar soni 6–8 tagacha	1
So‘z va qo‘shimchalarni qo‘llash bilan bog‘liq xatolar soni 8 tadan ko‘p	0

BALL	BAHO
20–23	5
16–19	4
12–16	3

Bir xil va har xil tipdagi xatolar bilan ishlash

Muayyan grammatik hodisa va bir orfografik, punktuatsion, uslubiy qoida bilan bog‘liq nuqsonlar bir xil tipdagi xatolar hisoblanadi:

- bir xil tipdagi xatolarning hammasi bitta xato sanaladi va bu baholash uchun mezon bo‘ladi. Masalan, o‘quvchi uch joyda “h” o‘rnida “x” yozgan bo‘lsa hamda mana shu uch o‘rinda ham bir so‘zda xato qilgan bo‘lsa, hammasi bitta orfografik xato hisoblanadi;
- agar o‘quvchi kirish so‘zlarning yozilishida ikkita punktuatsion xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, hammasi bitta xato hisoblanadi;
- agar o‘quvchi vergulning kirish so‘zlarda, uyushiq bo‘laklarda va bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida ishlatilish qoidalarini bilmasa, bularning har biri alohida-alohida xato sanaladi;
- agar o‘quvchi yozma ishda qaratqich belgisini 2 o‘rinda noto‘g‘ri qo‘llagan bo‘lsa, bitta uslub xatosi sanaladi.

O‘quv nashri

ONA TILI
7

O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma

Muharrir *Orifjon Madvaliyev*
Rassom *Aziz Jabborov*
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*
Dizayner va sahifalovchi *Oloviddin Sobir o‘g‘li*
Musahhih *Xurshidbek Ibrohimov*

Bosishga ruxsat etildi _____ Bichimi 60x84 1/8.
Arial garniturasi. Kegli 12 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 26,04 Nashriyot-hisob tabog‘i 24,25
Adadi ____ nusxa. Buyurtma № ___.